


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
OLMAZOR POLITEXNIKA VA STANDARTLASHTIRISH  
KASB-HUNAR KOLLEJI

X.CHINIQULOV, B.F.MELIBOYEV

# TARIXIY GEOLOGIYA VA REGIONAL GEOLOGIYA ASOSLARI



TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2017

UO‘K: 551.7(29)

KBK 26.33

T 24

### **T a q r i z c h i l a r :**

«MRITI» DK direktori, g.-m.f.n. **B.F.Islomov**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti geologiya-geografiya  
umumiy geologiya kafedrasи dotsenti, g.-m.f.n. **P.S.Sultonov**

**Tarixiy geologiya va regional geologiya asoslari.** Kasb-hunar kollejlari  
uchun o‘quv qo‘llanma. /X. Chiniqulov, B.F.Meliboyev. O‘zbekiston  
Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.: «Niso Poligraf», 2017.  
– 240 b.

O‘quv qo‘llanmada Yer kurrsasi, atmosfera, gidrosferaning kelib chiqishi  
va rivojlanishi, kontinental va okean po‘stlarining hosil bo‘lishi va evolutsiyasi  
haqida zamonaviy tushunchalar bayon qilingan. Stratigrafiya, paleogeografiya va  
paleotektonika usullari yoritilgan, geologik o‘tmishdagi landshaftlar va organik  
dunyo qayta tiklangan, Yer sferalari evolutsiyasi ko‘rib chiqilgan. Arxey va proterozoy  
eonlari venddan boshlab barcha davrlarning to‘liq tavsifi keltirilgan.

Tarixiy-tektonik tahlil yondashuvi orqali O‘zbekiston hududiga oid tektonik-  
geologik materiallarni tartibga solish va tahlil qilish asosida tektonik rayonlashtirilgan.

Ushbu qo‘llanma geologiya yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari o‘quvchilar  
uchun tavsiya etiladi hamda shu yo‘nalishdagi mutaxassislar ham foydalanishlari  
mumkin.

**UO‘K 551.7(29)**

**KBK 26.33я721**

O‘rta maxsus, kasb-hunar markazi ilmiy-metodik  
Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4870-9-3

© X. Chiniqulov va boshq., 2017

© «NISO POLIGRAF», 2017

## KIRISH

Tarixiy va mintaqaviy geologiya mustaqil fanlar bo‘lib, ta’limning geologiya yo‘nalishidagi asosiy kurslar hisoblanadi. Tarixiy geologiya Yer qurrasining taraqqiyot tarixi, birinchi navbatda, uning tashqi qobiqlari va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Tarixiy geologiya kursini o‘qitishda o‘quvchilarning umumiyligi geologiya fanidan olgan bilimlariga tayaniladi. Shu bilan bir vaqtida, tarixiy va mintaqaviy geologiya (O‘zbekiston geologiyasi) geotektonika kursi uchun asos sanaladi.

Tarixiy geologiya – kompleks, sintetik fan. U o‘zaro uzviy aloqada bo‘lgan to‘rtta bosh elementdan: geoxronologiya, stratigrafiya, paleogeografiya va paleotektonikadan tarkib topgan.

*Geoxronologiya* – bu 4,6 mlrd. yilni o‘z ichiga oluvchi geologik vaqtning mutlaq shkalasi, geologik hodisalarining kalendaridir. Shkala tog‘ jinslaridagi tabiiy radioaktiv elementlar, ularning izotoplari va doimiy tezlikda kechadigan parchalanish mahsulotlariga asoslangan radiometrik sanalashdir.

*Stratigrafiya* tog‘ jinslarida saqlanib qolgan organik qoldiqlari yordamida nisbiy yoshini aniqlash va taqqoslash orqali cho‘kindi va vulkanogen jinslarning qatlamlanish ketma-ketligini o‘rganadi. Nisbiy yoshni aniqlash va taqqoslash stratigrafiyaning an‘anaviy tarmog‘i – biostratigrafiyaning tashkil etadi. Bulardan tashqari, stratigrafiyaning magnitostratigrafiya, seysmostratigrafiya, litostratigrafiya va ritmostratigrafiya kabi tarmoqlari ham mavjud bo‘lib, ularni kompleks qo‘llash olingan natijalarining ishonchlilagini keskin oshiradi. Chunki kompleks tadqiqotlarda bir usulning kamchiliginini ikkinchi usulning yutug‘i qoplab ketadi.

*Paleogeografiya* geologik o‘tmishdagi tabiiy-geografik sharoitlarni – quruqlik va dengizlarning tarqalishi, ularning balandligi va chuqurligi hamda geologik tarix davomida sezilarli o‘zgarishlarga uchragan iqlimiylarini tiklash bilan shug‘ullanadi. Ikki yo‘nalish, ya’ni – paleookeanologiyani ham o‘z ichiga olgan paleogeomorfologiga va paleoiqlimshunoslik – hozirgi vaqtga kelib mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi, ammo ularning asosiy xulosalari tarixiy geologiyada o‘tgan geologik epoxalardagi Yerning umumiy ko‘rinishini tiklashda foydalilanildi.

*Paleotektonika* yer po‘stining harakatlari va burmali (burmali-ustsurilmali, burmali – qopalamali) tog‘ qurilmalarining shakllanishi va keyinchalik, ularning o‘rnida kontinental qobiqning stabil palaxsasi – platformalar (kratonlar) hosil bo‘lishiga olib keluvchi deformatsiyasi tarixini o‘rganadi.

Hozirgi vaqtida, yer po‘sti va butun litosfera har doim kattakichik plitalarga bo‘linib turganligi va ular bir-biriga nisbatan sezilarli gorizontal harakatlanishiga shubha qolmadidi. Shuning uchun ham kontinental palaxsalar va ularni ajratib turuvchi okeanlarning konfiguratsiyasini, asosan, paleomagnit ma’lumotlari bo‘yicha tiklash paleogeografiya va paleotektonikaning bosh vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Uzoq geologik o‘tmishda litosfera plitalarining o‘zaro ta’siri xarakterini paleotektonikaga yaqin bo‘lgan yangi fan – paleogeodinamika o‘rganadi.

Boshqa, hatto eng muhim, xususiyati foydali qazilmalarning muayyan turlari tokembriy va fanerozoyning u yoki bu stratigrafik tabaqalari, masalan, temir ma’danlarining asosiy zaxiralari quyi protterozoya, neft va gazniki mezozoyma kaynozoya tegishli bo‘lishidir. Nihoyat, faqat geologik tarixni butun planeta miqyosida chuqur tahlil qilish uning rivojlanishidagi qonuniyatlarni va shu bilan birgalikda geodinamikaning o‘rganish vazifasi bo‘lgan ushbu rivojlanishning mexanizmi va tendensiyasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Tarixiy geologiyada ko'rib chiqiladigan kontinentlar va okean-larning rivojlanish tarixi, iqlim, landshaftlar va organik dunyo evo-lutsiyasi, turli katastrofik tabiiy hodisalar, geosferalar va Yerning butun tarixiy rivojlanishidagi umumiy qonuniyatları haqida qimmatli ilmiy tushuncha beradi.

Tog' jinslarida saqlanib qolgan hayvon va o'simlik qoldiqlari planetamizning o'tmishdagi hayoti haqidagi hujjatli guvoh hisoblanadi hamda Yerning tarixi va unda hayotning rivojlanishini birgalikda qarash imkonini beradi.

Qo'llanmaning mintaqaviy geologiya qismida O'zbekiston hu-dudini tektonik rayonlash, yirik tektonik strukturalarni ajratish, ular-da tarqagan cho'kindi, magmatik va metamorfik jinslar hamda ular bilan bog'liq bo'lган foydali qazilmalar to'g'risida yetarli ma'lumot-lar berilgan.

Tarixiy va mintaqaviy geologiya geologlarni kerakli va muhim nazariy bilim bilan qurollantiradi. Tarixiy-geologik tadqiqotlar amaliyotida ular geologik tanalarning shakllanishidagi qonuniyatlarini bilib oladi; yer yuzasida hukm surgan tabiiy sharoitlarni va Yer zaminida kechgan fizik-kimyoviy jarayonlarni qayta tiklaydi; yer po'stida foydali qazilma konlarining joylashuvi va hosil bo'lishining umumiy genetik va xronologik qonuniyatlarini ochadi; atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferadagi evolutsion katastrofik o'zgarish-larni aniqlaydi. Bularning barchasi geologiya fanining barcha siklini o'zlashtirishga, foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishni maqsadli olib borishga yordam beradi. Yerning butun tarixi davomida tabiiy muhitning o'zgarishi haqidagi bilimlar bilan bir qatorda geologik muhit holatini va biosferaning rivojlanish yo'llarini bashorat qilish imkoniyatini beradi.

# BIRINCHI QISM

## TARIXIY GEOLOGIYA

---

---

### 1-bob. TARIXIY VA MINTAQAVIY GEOLOGIYA FANLARINI O'RGANISH TARIXI

Antik tabiatshunoslar va faylasuflar planetamizning uzoq tarixi va uning boshidan kechirgan o'zgarishlarga e'tibor qaratishgan. Dunyoning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi e'tiborli g'oyalar Fales, Empedokl, Aristotel, Anaksimandr, Strabon va boshqalar tomonidan ilgari surilgan. O'rta asrlarda uzoq davom etgan ichki urushlar, tufayli, ilmiy tafakkur va ishlab chiqarishning inqirozga yuz tutishi Yerning paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid tarix o'rganilmagan. Uyg'onish davrida fan va texnikaning boshqa sohalaridagi kabi Yer haqidagi bilimda ham tub burilish sodir bo'lgan. Leonardo da Vinci (1452–1519) Lombardiyada (Shimoliy Italiya) muhandislik ishlarini bajarish davomida cho'kindi jinslar qatlamlarini o'rganishda toshqotgan chig'anoqlarning o'ziga xos ahamiyatini tushunib yetgan.

1669-yili Italiyada (Toskane) olimlar davrasida Nikolaus Stenon nomi bilan tanilgan daniyalik tabiatshunos Nils Steno (1638–1686) stratigrafiyaning oltita tomoyilini shakllantirgan:

- Er qatlamlari – suvdan cho'kish natijasi;
- boshqa qatlamning bo'laklariga ega bo'lgan qatlar, undan keyin hosil bo'lgan qatlam;
- har bir qatlam ostida yotganiga nisbatan keyin va ustida yotganiga nisbatan oldin hosil bo'lgan;
- dengiz chig'anog'iga va dengiz tuziga ega bo'lgan qatlam dengizda hosil bo'lgan; agar unda o'simlik qoldig'i bo'lsa u daryo oqimida yoki uning irmog'ida hosil bo'lgan;

- qatlam noaniq uzoq cho‘zilishga ega va uni muayyan vodiya ko‘ndalang yo‘nalishda kuzatish mumkin;
- qatlam dastlab gorizontal holda hosil bo‘lgan; qiya yotgan qandaydir o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirgan. Agar navbatdagi qatlam qiya qatlamlar ustida yotgan bo‘lsa, unda o‘zgarish oldingi qatlam hosil bo‘lgandan keyin yuzaga kelgan.

N. Stenoning mana shu talqinlarida biz stratigrafiya va tektonikaning boshlanishini anglaymiz.

XVIII asr o‘rtalarida buyuk rus olimi M.V.Lomonosov (1711–1765) geologik vaqtning uzoq davom etganini, turli geologik jaronlar ta’sirida yer yuzasining, Yerning tarixida iqlim ko‘p marta o‘zgarganini qayd etgan.

Tarixiy geologiya XVIII asrning birinchi yarmida shakllangan bo‘lib, stratigrafiyaga asoslangan. Bu fanning rivojlanishiga birinchi bor 1760-yilda paydo bo‘lishi bo‘yicha tog‘ jinslarini tabaqaqlash sxemasini tuzgan italyan olimi D.Arduino katta hissa qo‘shtan. Nemis geologlari, ayniqsa, A. G. Vernerning (1750–1817) tadqiqotlari tufayli Markaziy Germaniyaning mintaqaviy stratigrafik sxemasi ishlab chiqilgan va u asosida Yevropaning geologik rivojlanish tarixini tiklashga harakat qilingan.

Fransuz tabiatshunosi J.de Byuffon (1707–1788) o‘zining «Yer nazariyasi» (1749) asarida Yerning rivojlanish tarixida birinchi bor muayyan bosqichlarni ajratishga urinib ko‘rgan. U butan cho‘kindi qatlamalarni birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to‘rlamchiga ajratgan. Ulardan keyingisi hozirgacha saqlab qolingga.

Tarixiy geologiyaning rivojlanishida paleontologik usulning paydo bo‘lishi ulkan ahamiyatga ega. Bu usulning asoschilarini ing-liz tadqiqotchisi U.Smit (1769–1839), fransuz olimlari J.Kyuve (1769–1832) va A.Bronyar (1801–1876) sanaladi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lmanan holda ular bir vaqtning o‘zida geologik tadqiqotlar o‘tkazishda bir xil xulosaga kelishgan. Bu xulosa qatlamlar yotishida va ulardagi fauna va flora qoldiqlarining qonuniy ketma-ketligi bo‘lib, bu Angliya va Fransiyaning bir qator rayonlarining dastlabki

stratigrafik ustuni, geologik xaritasi va geologik kesmalarini tuzish imkoniyatini yaratdi. XIX asrning birinchi yarmida paleontologik usul asosida hozir ma'lum bo'lgan geologik sistemalar ajratilgan va dastlabki geologik xaritalar tuzilgan.

Yirik fransuz olimi J. Kyuve nafaqat paleontologik usulning asoschilaridan biri bo'lib qolmasdan, balki o'z vaqtida mashhur bo'lgan katastrofalar nazariyasining muallifi hamdir. Geologik kuzatuvlar asosida u organizmlarning muayyan guruhlari geologik vaqt davomida qirilib ketgan va ularning o'rnnini yangilari egallaganini isbotlagan. Uning izdoshlari J. Agassis (1807–1873), A. d'Orbini (1802–1857), L. Eli de Bomon (1798–1874) va boshqalar katastrofalar bilan nafaqat organizmlarning qirilib ketishini, balki yer yuzasida kechgan boshqa hodisalar sabablarini ham tushuntirishgan. Ularning fikricha, tog' jinslarining holati yotishidagi, relefi, landshafti va yashash sharoitlaridagi har qanday o'zgarishlar hamda organizmlarning qirilib ketishi yer yuzasida kechgan turli miqyosdagi katastrofik hodisalar natijasi bo'lgan. Keyinchalik, katastrofalar nazariyasi XIX asrning buyuk olimlari – J. Lamark (1744–1829), Ch. Layel (1797–1875), Ch. Darwin (1809–1882) tomonidan keskin tanqidga uchragan.

Fransuz tabiatshunosi J. Lamark organik dunyo evolutsiyasi haqida ta'llimot (lamarkizm) yaratgan va birinchi bor uni tirik tabiatning umum qonuni deb e'lon qildi. Ingliz geologi Ch. Layel o'zining «Geologiya asoslari» asarida Yerda kechgan olamshumul o'zgarishlar halokatlar emas, balki sekin-asta kechadigan davomiy geologik jarayonlar natijasi ekanligini isbotlagan. Ch. Layel Yer tarixini o'rganishni hozirgi zamon geologik jarayonlaridan boshlashni taklif etgan, chunki ular «o'tmishdagi geologik jarayonlarni o'rganishning kaliti» deb hisoblagan. Ch. Layelning bu qoidasi aktualizm tamoyili nomini oldi. Ch. Darwinning asarlari nashr etilgani evolutsionistlar ta'llimotiga katta yordam ko'rsatdi, chunki ularda organik dunyoning sekinlik bilan kechadigan evolutsion o'zgarishlar orqali amalga oshishi isbotlangan.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, ba’zi geologik epoxalarning muayyan mintaqalar uchun ham (G.A. Trautshold, Dj. Dan, V.O. Kovallevskiy tadqiqotlari), butun yer shari uchun ham (J. Marku) tabiiy-geografik sharoitlarni tiklashga birinchi bor yondoshildi. Bu ishlar tarixiy geologiyada paleogeografik yo‘nalishga asos soldi. Paleogeografiyaning shakllanishi uchun 1838-yili A. Gresli (1814–1865) tomonidan kiritilgan fatsiyalar haqidagi tushuncha katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi davomida kengayib borgan geologik ishlar natijasida muayyan mintaqalarning tuzilishi va tarixi to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olingan. Shu asrning 80-yillariga kelib umumlashtirishga muhtoj bo‘lgan juda ko‘p materiallar to‘plangan. Bunga avstriyalik geolog E.Zyuss (1831–1914) birinchi bor qo‘l urgan. Yer sharining ko‘plab qismidan yig‘ilgan stratigrafiya, yer po‘stining rivojlanish tarixi, geologik jarayonlarning faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar E. Zyussning «Yer tasviri» nomli uch jildli asarida (1883–1909) tartibga solingan. Geologiya fani uning ilmiy ishlaridan keyin mutlaqo boshqa xarakterga ega bo‘ldi: olimlar e’tiborlarini nafaqat cho‘kindi qatlamalarni tabaqaqlash va taqqoslash yo‘llarini qidirish, balki, asosan, yer yuzasining o‘zgarishi, quruqlik va den-gizlarning joylashuvidan qonuniyatlarni topish, foydali qazilmalarning joylashuvini tushuntirish, u yoki bu tog‘ jinslarining kelib chiqishini aniqlash va boshqalarga qaratishdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga fatsiyalar haqidagi ta’limot (nemis olimi Y. Valter, 1893) va tarixiy geologiyaning yangi yo‘nalishi – paleogeografiyaning shakllanishi kiradi.

XIX va XX asrlar chegarasida tabiatshunoslik tarixida olam-shumul voqeа sodir bo‘ldi – tabiiy radioaktivlik kashf etildi. Bu kashfiyot planetamizning haqiqiy yoshini aniqlashga va mutlaq geoxronologiyani ishlab chiqishga imkon yaratdi. Bungacha Yerning yoshi bilvosita usullar bilan aniqlangan bo‘lib, bunda katta xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Bu esa tarixiy-geologik bilimlar rivojlanishida revolusion o‘zgarishlarga olib keldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari biostratigrafiya sohasi va mintaqalarning geologik tarixini aniqlashdagi yirik kashfiyotlar bilan xarakterlanadi. G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Rossiya-da tog‘ jinslari qatlamlarini tabaqlashda paleontologik usulni qo‘llash asosida paleozoy, mezozoy va kaynozoyning turli davrlaridagi toshqotgan organik qoldiqlar haqida monografiyalar nashr etildi.

Ko‘plab olimlar tarixiy geologiyaning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘sishdi. Ularning orasida Rossiya Fanlar akademiyasining birinchi saylangan prezidenti A.P.Karpinskiy (1847–1936) yuqori o‘rinda turadi. U XIX oxirlarida Rossiyaning Yevropa qismining geologik tarixi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirdi va birinchi bor bu hudud uchun paleogeografik xaritalar tuzdi.

Shu vaqtدا, paleontologik usulni qo‘llash asosida mashhur geologlar S.N.Nikitin (1851–1909), F.N.Chernishev (1856–1914) va A.P.Karpinskiy tomonidan Rossiyaning Yevropa qismi va Ural paleozoy va mezozoy yotqiziqlari haqida monografiya chop etildi.

XX asr boshlarida yirik fransuz geologi G.E.Og (1861–1927) ko‘p jildli asarida hozirgi zamon geologik jarayonlari faoliyatini ta’riflagan va Yerning geologik tarixini talqin qilishga harakat qilgan.

Rus olimlari A.P.Pavlov (1854–1929) va A.P.Karpinskiyning asarlarida, keyinchalik A.D.Arhangelskiy va N.S.Shatskiy asarlarida rivojlantirilgan platformalar haqidagi ta’limotga asos solingan.

Rossiyada geosinklinallar haqidagi tushuncha XX asr boshlarida F.Y.Levinson-Lessing (1861–1939) tomonidan kiritilgan, A.A.Borisjak (1872–1944) esa, G. E.Ogdan keyin tarixiy geologiyaga geosinklinallar va platformalarning rivojlanish tarixi sifatida qaragan. XX asrning 20-yillari D.V.Nalivkin (1889–1982) fatsiyalar haqidagi ta’limotni rivojlantirgan, birmuncha keyin R.F.Gekker, B.P.Markovskiy va boshqa olimlarning asarlarida geologik o‘tmishni o‘rganishda paleoekologik yo‘nalish shakllantirildi.

XX asrning birinchi choragida nemis geofizigi A. Vegener (1880–1930) birinchi bor materiklar dreyfi nazariyasini – dastlabki mobilizm gipotezasini ta’rifladi. O‘zining jozibadorligiga qara-

masdan bu gipoteza ommalashmay qoldi va muallifning o'limidan ko'p o'tmasdan so'ng deyarli to'liq inkor etildi. Ammo shu asrning 50-yillarida boshlangan okean tubini rejali o'rganish hamda geofizik tadqiqotlar bu gipotezani tasdiqllovchi ko'p miqdordagi daliliy material keltirdi va boshqa asosda Vegener ta'limoti tiklandi, 60-yillar litosfera plitalari tektonikasi nazariyasiga aylandi.

XX asrning 20–40-yillari Yerning turli mintaqalarida geologik tadqiqotlar kengaygan davr bo'ldi. Ularning bazasida Yevropa (S.N. Bubnov, 1888–1957), Sibirda (V.A. Obruchev, 1863–1956), Rossianing Yevropa qismida (A.D. Arxangelskiy), Shimoliy Amerika va boshqa mintaqalarning geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi bo'yicha yirik asarlar yozildi. Mintaqaviy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmida stratigrafiya, paleogeografiya, magmatizm, tektonika bo'yicha juda ko'p miqdordagi daliliy materiallarni o'rganish nemis tektonisti G.Shtille (1876–1966) tomonidan asoslangan orogenik fazalar haqidagi tushunchalar asosida yer po'sti rivojlanishidagi qonuniyatlarni umumlashtirishga yordam berdi.

60-yillarning o'rtasida rejali boshlangan Dunyo okeani tubini burg'ilash tarixiy geologiyaning rivojlanishiga katta turtki berdi. Bu ishlar natijasida birinchi bor nafaqat kontinentlarda, balki okeanlarda ham yer po'stining tuzilishi va rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar olindi. XX asrning 50-yillarida kashf etilgan paleomagnetizm va Yer magnit maydonining davriy inversiyasi hodisasi stratigrafiyada yangi fizik usul – magnitostratigrafiyaning shakllanishiga olib keldi.

Tarixiy geologiya uchun radiogeoxronometriyaning rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ubirinchi bor planetamizning davomiyligi fanerozoynikiga nisbatan taxminan olti marta ortiq bo'lgan va churqur metamorfizmga uchragan jinslarda tokembriy tarixini talqin qilish imkonini berdi. Ilgari ularning yoshi metamorfizm darajasi bo'yicha aniqlanar edi. Bu esa qo'pol xatolarga olib kelgan. Masalan, Kanada qalqonida arxey hosilalari kuchli metamorfizmga uchragan o'rta paleozoy yotqiziqlaridan yosh hisoblangan.

Kechki tokembriy biostratigrafiyasida muayyan yutuqlarga erishildi, xususan, kechki proterozoy umurtqasizlari faunasi topildi.

XX asrning ikkinchi yarmida ilgari surilgan konsepsiya obdan va har tomonlama tarixiy-geologik tadqiqotlardan so'ng yangi foydali qazilma Volga-Ural mintaqasi, G'arbiy Sibir va O'rta Osiyoda neft va gazning ulkan konlari, olmos, toshko'mir, rangli va nodir metallar, uran, qimmatbaho toshlar va boshqalarning konlari ochildi.

### **Tayanch iboralar va tushunchalar**

Metamorfizm, paleomagnetizm, stratigrafiya, paleogeografiya, magmatizm, tektonika, dreyf, litosfera, inversiya, qalqon.

### **Nazorat savollari**

1. Uyg'onish davrida Yer haqidagi bilimda qanday tub burilish sodir bo'lgan?
2. Tarixiy geologiya uchun radiogeoxronometriyaning qanday ahamiyati bor?
3. Tarixiy geologiyaning rivojlanishida rus olimlarining hissasi nimalardan iborat?
4. Nils Stenoning buyuk xizmatlari nimadan iborat?
5. Geosinklinallar nazariyasining asoschisi kim?
6. Materiklar dreyfi nazariyasining asoschisi kim bo'lgan?

## **2-bob. YER SOLNOMASINING O‘N JILDI**

Yer geologik solnomasining har biri 500 sahifalik 10 jilddan iborat deb tasavvur qilish mumkin. Bunda uning har bir sahifasi 1 million yilga mos kelar edi. Inson o‘z faoliyatida planetamizning faqat o‘ninchi jildinigina o‘qib chiqdi deb tasavvur qilishimiz mumkin. Oldingi 9 jiddlar juda katta qiyinchiliklar bilan talqin etiladi. Bu jiddlarning ko‘plab sahifalari batamom yo‘qotilgan, boshqalari vaqt ta’sirida juda o‘zgarib, aralashib, o‘chib ketgan. Yerning qadimiy geologik solnomasi sirlarini ochishga bel bog‘lagan tadqiqotchilarini juda mashaqqatli va uzoq davom etadigan mehnat kutmoqda. Tadqiqotchilarining barchasi ham qiyin sinovlarga bardosh bera olmaydi. Shunga qaramasdan, olimlar sirlar pardasini ko‘tarishda sxematik holda bo‘lsa-da, Yerning paydo bo‘lishi va uning dastlabki rivojlanish bosqichlarini yuqorida aytib o‘tilgan 9 ta jilda ta’riflab berishdi. Bular hali planetamizning qadimiy tarixi to‘g‘risidagi juda yuzaki tushunchalardir.

Yer tarixi oxirgi «jiddan» – paleozoy erasidan (570 mln. yil avval) boshlab oydinlashib boradi. Hosil bo‘lishidan boshlab nisbatan o‘zgarmagan tog‘ jinslaridagi toshqotgan hayvon va o‘simlik qoldiqlari nafaqat planetamiz rivojlanishining geologik tarixini qayta tiklash, balki organik dunyo rivojlanishi ketma-ketligini aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Bu jildni varaqlash orqali bizning planetamizni larzaga keltirgan geologik hodisalarini, hayvon va o‘simlik dunyosi vakillarining ba‘zilari qirilib va yangilarining paydo bo‘lganligi, okeanlar va kontinentlar ko‘rinishi o‘zgorganligi, yangi tog‘lar o‘sganligi va avvalgilarining tekislanib ketganligi haqida bilib olamiz.

O‘ninchi jildning barcha sahifalari talqin qilib bo‘lingan deb o‘ylash xato bo‘ladi. Bunda hali tushunib yetilmagan, turli olimlar turlicha talqin qilayotgan sahifalar yetarli. Yerning uzoq o‘tmishdagi

hayotida sodir bo‘lgan hodisalarini aniqlash uchun geologlar bosh qotiradigan masalalar ancha-muncha.

Odam o‘zining paydo bo‘lishidan boshlab o‘tgan nisbatan qisqa muhlatda Yerning geologik tarixini o‘rganishda ancha ishlarni bajarib ulgurdi.

Yerning geologik tarixining 10 jildligi solnomasidan foydalanib, kino yaratdik deb faraz qilaylik. Mana biz kinoteatrda Yerda bir million yil davomida sodir bo‘lgan hodisalarini bir sekundda ko‘rsatuvchi filmni tomosha qilib o‘tiribmiz. Har bir jildga 8 minutdan ko‘proq vaqt ketadi. Butun filmni tomosha qilish uchun bir yarim soat ketadi. Dastlabki bir necha minutda koinotdagi chang zarralari va gazlardan Yerning qanday shakllanishini ko‘ramiz. Keyingi 70 minut davomida ko‘z o‘ngimizdan Yer evolutsiyasining uzoq boshlang‘ich bosqichi, atmosfera, okean va kontinentlarning hosil bo‘lishi, dastlabki oddiy organizmlarning vujudga kelishi o‘tadi. Yer geologik solnomasining oxirgi jildini 10 minutdan kam vaqtida ko‘rib urguramiz. Bunda biz tog‘li o‘lkalarning o‘sishini va ularning tekislilanib ketishini, dengiz va quruqliklar chegarasi o‘zgarishini, hayvon va o‘simliklar evolutsiyasini arang ilg‘ab olgan bo‘lardik. Filmning oxirgi 2 sekundidagina ekranda odamni ko‘rib ulguramiz. 5–6 yil hisoblangan butun insoniyat sivilizatsiyasi sekundning ikki yuzdan bir ulushiga to‘g‘ri keladi. Biz bu sivilizatsiyani ko‘ra olmas edik va bizning xotiramizda faqat juda uzun, beso‘naqay qo‘llarida to‘qmoq ko‘targan junli mavjudotlar qolgan bo‘lar edi.

Shunga qaramasdan inson o‘zining dunyoga kelguniga qadar 5 mlrd. yil oldin boshlangan Yerning uzoq vaqt davom etgan rivojlanish tarixini, to‘liq va bekam-ko‘st bo‘lmasa ham, mushohada va tahlil etib ulgurdi. Bunga erishish uchun ko‘plab taddiqotchilar tomonidan to‘plangan bilim va tajribadan foydalanishi, zamonaviy murakkab asboblarni yaratishi, fazo bo‘shlig‘iga uchishi va okeanlar tubiga tushishi, Oyga tashrif buyurishi, Quyosh tizimidagi boshqa planetalarga avtomatik stansiyalarni uchirishi, observatoriyalardan

turib uzoq vaqt davomida osmon jismlarini kuzatishi, ularning tarkibi va tuzilishini o‘rganishi kerak bo‘ldi.

Yerning geologik o‘tmishini qayta tiklashga urinish anchadan buyon ma’lum. Dastlab, bu juda oddiy va sxematik tasavvurlar bo‘lgan. Ammo keyinchalik, geologiyaning bu sohasi Yer va yer po‘stining rivojlanish tarixi va qonuniyatlarini o‘rganuvchi mustaqil *tarixiy geologiya* faniga aylandi. Bu soha bilan *paleontologiya* (qadimiy hayvon va o‘simgulardan haqidagi fan), *paleogeografiya* (o‘tmishdagi iqlim va landshaftlar haqidagi fan), *stratigrafiya* (tog‘ jinslarining qatlamlanish ketma-ketligi haqidagi fan), *petrografiya* (tog‘ jinslari haqidagi fan) juda yaqin aloqaga ega. Shunday qilib, hozirgi paytda geologik fanlarning butun bir guruhi deyarli 5 mlrd. yil davom etgan hodisalar ketma-ketligini o‘rganish orqali Yer solnomasining barcha jildlarini tiklash bilan mashg‘ul. Shunga qaramasdan, faqat yaqindagina inson Yerning kelib chiqishi haqida ilmiy asoslangan gipoteza yaratish uchun daliliy materialga ega bo‘ldi.

Planetalarning paydo bo‘lishi sirlarini ochish bir necha o‘n ming yillar avval qadimiy faylasuflarning aql-zakovatini o‘ziga jalgan etgan.

## **2.1. Immanuil Kant nimalar haqida yozgan edi?**

Yerdagi hayot haqidagi dastlabki tushunchalar faqat empirik kutuvlarga asoslangan va shuning uchun ham reallikdan uzoqdagi fantastik to‘qimalarga o‘xshab ketadi. Ammo o‘sha vaqtarda ham hozirgi dunyoqarashlarimizga juda yaqin bo‘lgan muayyan g‘oyalar shakllangan.

XI asr boshlanishi bilan o‘rta asrlarning zimiston hayoti yorug‘-lasha boshlagan va XV asrga kelib – Yevropada uyg‘onish davri boshlangan. Turli vaqtarda R. Dekart, I. Nyuton, N. Stenon, I. Kant va P. Laplas tomonidan aytilgan fikrlar asosida Leonardo da Vinci, G. Agrikola, N. Kopernik, D. Bruno, G. Galilei asarlari paydo bo‘ldi. Ularda yoritilgan masalalar geologiyada progressiv kosmogonik g‘oyalarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

XVIII asrda Nyuton mexanikasi muvaffaqiyatlari tufayli Koinot haqida tabiatning aniq qonunlari bilan boshqariluvchi fazoviy jism-larning o‘zgarmas tizimi sifatidagi dunyoqarash shakllandi. Bu tizimda dastlabki «yaratilish aktidan» tashqari ilohiyatning qatnashuvi istisno qilingan. Koinotning murakkab mexanizmi bir marta ishga tushirib yuborilgan («dastlabki turtki»), keyinchalik esa u o‘zi hech bir o‘zgarishlarsiz «o‘z yo‘lidan» ketgan. Fazoviy jismlar evolutsiyasini talqin qilishga urinish J.Lui Leklerk Byuffon (1749) va I.Kant (1755) tomonidan amalga oshirilgan.

Fransuz olimi J.Byuffonning fikriga ko‘ra, Yer Quyoshning kometta bilan to‘qnashishidan ajralib chiqqan qismlaridan hosil bo‘lgan. Dastlab gazsimon bulutning kondensatsiyasi sodir bo‘lgan, keyinchalik esa, kontinentlar shakllana boshlagan. I. Kant («Umum tabiiy tarix va osmon nazariyasi», 1755) Quyosh tizimi gaz va chang bulutidan hosil bo‘lgan deb taxmin qilgan. U sovuq changsimon bulutlarning evolutsion rivojlanishidan kelib chiqqan bo‘lib, bu jarayonda dastlab markaziy massiv jism – bo‘lajak Quyosh, keyinchalik esa planetalar vujudga kelgan. I. Kantning Quyosh tizimi dastlabki disperss tarqoq moddalarning to‘planishi tufayli vujudga kelganligi to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi vaqtida hayratomuz to‘g‘ri bo‘lib tuyuladi.

Birmuncha keyin, 1796-yili, fransuz olimi P.Laplas, I.Kant traktati mavjudligini bilmagan holda, Yerning kelib chiqishi haqidagi shunga o‘xhash g‘oyani ilgari surgan. Kant dunyoqarashidan farqli o‘laroq, Laplas dastlabki tumanlikni juda issiq, tez aylanish holatida bo‘lgan gaz deb tushungan. Butun olam tortishish kuchi ta’sirida tumanlik *harakat miqdori saqlanish momenti qonuni tufayli aylanishi tezlashib* borgan. Tez aylanish vaqtida vujudga keluvchi yuqori miqdordagi markazdan qochma kuchlar tufayli ekvatorial qambardan ketma-ket halqalar ajralib chiqqan. Keyinchalik, bu halqalar kondensatsiyalanib, planetalar hosil bo‘lgan. Dastlab olovli suyuq Yer sovigan, qobiq bilan qoplangan bo‘lib, zaminning sovishi va hajmining kamayishi tufayli burdalanib borgan. Shunday qilib, Laplas gipotezasiga muvofiq planetalar Quyoshdan ilgari vujudga kelgan.

Ammo Kant va Laplas gipotezalari orasidagi farqqa qaramasdan, ularning umumiy xususiyati Quyosh tizimi tumanlikning qonuniy rivojlanishi tufayli vujudga kelgani to‘g‘risidagi fikrlari sanaladi. Shuning uchun ham bu konsepsiya «Kant-Laplas gipotezasi» deb ataladi.

Kant-Laplasning gipotezasi 150 yil davomida boshqa kosmogonik tushunchalardan ustuvorlik qilgan. Bu g‘oyaga tayanib geologlar Yerda va uning yuzasida sodir bo‘ladigan barcha geologik jarayonlarni tushuntirib berishgan. J.Byuffon Yerning sovishi uchun qancha vaqt ketishini hisoblab chiqishga urinib ko‘rgan. U Parijdan uzoqda, qadimiy Monbarda qal’asida tajriba o‘tkazgan. Turli tog‘ jinslaridan yasalgan uncha katta bo‘lman sharlarni – planetamizning mitti modelini pechkada qizitgan va ularning sovishini kuzatgan. Uning hisobi bo‘yicha Yerning yoshi 75 ming yildan kam bo‘lmasligi lozim edi. Hozir bu juda soddadek tuyuladi, ammo bu xulosa o‘sha vaqlari cherkovning dunyo yaratilganligi haqidagi ta’limoti asosini haqoratlash hisoblanadi. J. Byuffon g‘oyalari din peshvolari tomonidan qaqshatqich tanqidga uchragan va keyinchalik u o‘zining e’tiqodidan voz kechgan.

Shu masala bilan shug‘ullangan ingliz fizigi U.Tomson matematik hisoblash yo‘li bilan boshqacha raqamga – 40 mln. yilga ega bo‘lgan. Uning fikricha, Yerning qizigan tumanlikdan qattiq jismga aylanishi uchun shuncha vaqt o‘tishi kerak edi. Ammo bu raqam Yerning haqiqiy yoshiga nisbatan taqqoslab bo‘lmaydigan darajada kamdir.

## **2.2. Osmondan tushgan toshlar**

Turli dunyoqarashlar rivojlanishi tufayli Quyosh tizimining paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchalar ilmiy asosga ega bo‘ldi.

Birinchidan, meteoritlar – «planeta moddasining eng qadimgi oddiy qoldiqlari hisoblanadi». Ikkinchidan, Oy, Mars, Venerani o‘rganish bo‘yicha avtomatik kosmik stansiyalar yordamida va insonning Oyga qadam qo‘yishi tufayli muayyan daliliy material to‘plandi.

Tosh va temir meteoritlarni o‘rganishda olimlar juda e’tiborli ma’lumotlar olishdi va bu ma’lumotlar hozir kosmogonik qurilmalarda foydalanilmoqda. Meteoritlarning kimyoviy tarkibi aniqlandi – ular, asosan, kremniy, magniy, temir, aluminiy, kalsiy, natriy oksidlaridan tarkib topgan. Demak, boshqa planetalarining tarkibini bilish imkoniyati yaratildi – ularni ham Yerning kimyoviy tarkibiga o‘xshash. Meteoritlarning mutlaq yoshi ham aniqlandi: u  $4,2\text{--}4,6\cdot10^9$  yildan uncha farq qilmaydi.

Oyning tarkibi va yoshi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham juda e’tiborli. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Oy  $4,5\text{--}10^9$  yil avval sovuq chang-gazli tumanlikdan vujudga kelgan.


Ushbu va boshqa ma’lumotlar asosida asta-sekin hozirgi kosmogonik gipotezalarning ilmiy asosi yaratildi. Uning shakllanishida O.Y. Shmidt, V.G. Fesenkov, A.P. Vinogradovlarning xizmatlari e’tiborga loyiq. Ammo Koinot, Quyosh tizimi va Yerning paydo bo‘lish muammolari hanuzgacha to‘liq yechilmagan.

### **Tayanch iboralar va tushunchalar**

Salnoma, meteorit, harakat miqdori saqlanish momenti qonuni

### **Nazorat savollari**

1. Butun insoniyat sivilizatsiyasi qancha vaqt davom etgan?
2. Yerga tushgan meteoritlarning yoshi qanchaga teng?
3. P. Laplas va I. Kant qonunini gapirib bering.
4. O‘yg‘onish davri qachon boshlangan?



### **3-bob. OSMON JISMLARI**

#### **3.1. Koinot va Galaktika**

Tun osmonidagi yulduzlar sochilgan manzara har doim va har joyda butun bashariyatni lol qoldirib keladi. Abadiylikning sirli ola-mi hayratlangan inson nazari oldida bepoyon cheksizlik eshigini ochadi va chuqur o'nya toldiradi. Bu abadiylikda Quyosh tizimidagi sayyoralar uchib yurishadi va hozirgacha ko'plab sirlarni o'zida saqlab keladi.

Bizni o'rabi turgan moddiy olam, bir so'z bilan aytganda, *Koinot* (yunoncha dunyo, olam) deyiladi. Koinotning fazo va makonda o'lchami yo'q cheksizdir. Koinotda materiya bir xildagi taqsimotga ega bo'lmasdan, galaktikalar, yulduzlar, sayyoralar, meteoritlar, kometalar va turli gazlar majmuasidan iborat.

*Galaktika* deb, yulduzlararo gaz, chang, qora materiya va ehtimol, qora energiya, o'zaro ta'sir etuvchi gravitatsion kuchlar mavjud bo'lgan yulduzlarning katta tizimiga aytildi (1-rasm). Odatda, Galaktikalar umumiy og'irlilik markazi atrofida aylanuvchi 10 million-dan ( $10^7$ ) bir necha trilliongacha ( $10^{12}$ ) yulduzlarga ega bo'ladi. Alo-hida yulduzlar va siyraklashgan yulduzlararo muhitdan tashqari, Galaktikaning katta qismi ko'plab yulduzlar tizimi, yulduzlar to'dasi va turli tumanliklarga ega. Odatda, Galaktika diametri bir necha



*I-rasm.* Galaktikamizning spiralsimon tuzilishi

mingdan bir necha yuz ming yorug'lik yiliga, ular orasidagi masofa esa millionlab yorug'lik yiliga teng.

Galaktikalar massasining 90% ga yaqini qora materiya va energiya ulushiga to'g'ri kelsa-da, bu ko'rinas unsurlarning tabiat hali o'r ganilmagan. Ko'plab Galaktikalarning markazida o'ta massiv qora teshiklarning mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Ehtimol, Koinotning ko'r inadigan qismida  $10^{11}$ ga yaqin Galaktika mavjuddir.

Galaktikalararo bo'shliq amalda o'rtacha zichligi kub metrda moddalarning bir atomidan kam bo'lgan toza vakuum hisoblanadi.

Galaktikaning elliptik, spiral va noto'g'ri shaklli uchta asosiy turi mavjud.

Bizning Galaktikamiz katta disksimon shakldagi Somon yo'li deb ataluvchi yulduzlar majmuasi hisoblanadi. Uning uzunligi 30

kiloparsek (yoki  $100000$  yorug'lik yiliga) yaqin va qalinligi  $3000$  yorug'lik yiliga teng. Unda  $3 \times 10^{11}$  ga yaqin yulduzlar mavjud bo'lib, umumiy massasi Quyosh massasidan  $6 \times 10^{11}$  marta katta.


Somon yo'li yoki Galaktikamiz gigant yulduzlarning tizimi bo'lib, u Quyosh, oddiy ko'z bilan ko'rinvchi barcha yulduzlar hamda juda ko'p sonli boshqa osmon jismlarini qamrab oladi. Unda  $100$  milliardga yaqin yulduzlar mavjud. Somon yo'li boshqa Galaktikalarning biri hisoblanadi va u spiral galaktikalar turiga kiradi. Somon yo'li likobcha singari qavariq shaklga ega.

### **3.2. Quyosh tizimi va uning sayyoralar haqida umumiy ma'lumotlar**

Koinot va Quyosh tizimining vujudga kelishi to'g'risida juda ko'p nazariyalar mavjud bo'lib, ulardan biri «katta portlash» nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, dastlab butun materiya haddan tashqari yuqori haroratga ega bo'lgan bitta «nuqtada» siqilgan bo'lib, keyinchalik bu «nuqta» ulkan kuch bilan portlagan. Portlash natijasida barcha tomonlarga sachrab ketgan o'ta issiq bulutlardan asta-sekin subatomli zarralar, vaqt o'tishi bilan atomlar, moddalar, sayyoralar, yulduzlar va, nihoyat, hayot vujudga kelgan. Bunda Koinotning kengayishi davom etgan va bu jarayon qancha uzoq davom etishi noma'lum.

Demak, bu nazariyaga asosan, Quyosh tizimi aylanuvchi gaz-changli bulutdan hosil bo'lgan. Uning siqilishida markazi zichlashgan va keyin u Quyoshga aylangan. Quyosh tarkibiga kirgan zarrachalar o'zining harakat momentini olib kelgan. Ular aylanish o'qiga qarab harakat qilgani sababli (ya'ni, masofa kamaygan) momentni saqlash uchun tezlik oshishi, Protoquyosh va keyin Quyosh tobora tezlashgan holda aylanishi lozim edi.

Quyosh tizimiga  $9$  ta sayyora,  $42$  ta yo'ldosh,  $50$  mingdan ortiq kichik asteroidlar, sanog'i yo'q meteorit va kometalar kiradi. Ularning markazida Quyosh joylashgan bo'lib, u o'z tizimidagi boshqa barcha osmon jismlarini o'ziga tortib turadi. Bu tizimdagagi barcha




2-rasm. Quyosh tizimi: 1 – Quyosh, 2 – Merkuriy, 3 – Venera, 4 – Yer, 5 – Mars, 6 – Jupiter, 7 – Saturn, 8 – Uran, 9 – Neptun, 10 – Pluton, 11 – Kometa

jismlar o‘zaro gravitatsiya (butun olam tortishish qonuni) kuchi bilan ham bog‘langan.

Sayyoralar ikki katta guruhga: yer *guruhiga* – Merkuriy, Venera, Yer va Mars va *Jupiter guruhiga*, ya’ni gigant sayyoralar – Jupiter, Saturn, Uran va Neptunga bo‘linadi (2-rasm).

Quyosh va Quyosh tizimi sayyoralarining hajmi va massasi orasida keskin farq bor. Buni ularni qiyoslash makedidan ko‘rsa bo‘ladi (3-rasm).

Yer guruhidagi sayyoralar nisbatan kichik o‘lchamli va katta zichlikka ega (4-rasm). Ularning asosiy tarkibini silikatlar (kremniy birikmalar) va temir tashkil etadi. Gigant palanetalarda esa qattiq yuza yo‘q. Uncha katta bo‘limgan yadroidan tashqari ular vodorod va geliydan tuzilgan va gaz-suyuq holatda mavjud. Bu sayyoralarining atmosferasi asta-sekin zichlashib borib, suyuq mantiyaga aylanadi.



3-rasm. Quyosh va sayyoralarlarning qiyosiy hajmi



4-rasm. Yer guruhidagi sayyoralarlarning qiyosiy hajmi

Quyosh tizimi umumiyligi massasining asosiy ulushi (99,87%) Quyoshning o‘ziga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun Quyosh tortish kuchlari tizimidagi deyarli barcha qolgan jismlar: sayyoralar, kometalar, asteroidlar va meteorlar harakatini boshqaradi. Sayyoralar atrofida esa, faqat o‘zining yo‘ldoshlarigina aylanadi. Chunki bunda yo‘ldoshlar ushbu sayyoralarga yaqin bo‘lganligi tufayli tortish kuchi Quyoshnikidan ortiq.

Barcha sayyoralar Quyosh atrofida bir yo‘nalishda aylanadi. Bu harakat to‘g‘ri harakat deyiladi. Sayyoralar orbitasi shakli bo‘yicha aylanaga, orbita tekisligi esa Laplas tekisligi deb ataluvchi Quyosh tizimining asosiy tekisligiga yaqin. Ammo, sayyoralar massasi qancha kam bo‘lsa, bu qoidadan og‘ishi shuncha sezilarli bo‘ladi, bu Merkuriy va Pluton misolida yaqqol ko‘rinadi. Quyosh tizimi sayyoralarini quyosh atrofida turli radiusda va tezlikda aylanadi.

### Tayanch iboralar va tushunchalar

Koinot, Galaktika, Quyosh tizimi, orbita tekisligi, sayyora, kometa, asteroid.

### Nazorat savollari

1. Quyosh tizimida nechta planeta mavjud?
2. Yer guruhiga qaysi planetalar kiradi?
3. Yupiter guruhiga qaysi planetalar kiradi?
4. Quyosh tizimida qancha yo‘ldosh mavjud?
5. Somon Yo‘li nima?



## 4-bob. YER VA UNING QOBIQLARI

### 4.1. Yerning umumiy tavsifi

**Yerning shakli.** Yer shaklini ellipsoidga yaqin deb bilishning sababi shundaki, agar ellipsoid aylanasini Yer shakliga ustma-ust qo'yilsa, u holda okean yuzasi barobarligida olingan geoid chizig'iga yaqinlashadi. Demak, Yer shaklini ellipsoid shakliga yaqin bo'lgan geoid deb qabul qilingan (5-rasm). Geoidning lug'aviy ma'nosi Yer o'ziga xos shaklga ega demakdir. Uni birinchi bo'lib 1873-yilda nemis fizigi Listing fanga kiritgan.

Haqiqatdan ham Yer yuzasi g'oyat notekis bo'lib, o'ziga xos shaklga ega. Uning eng baland nuqtasi (Himolay tog'idagi Jomolungma cho'qqisi, 8848 m) bilan eng chuqur botiq joy (Tinch oke-anidagi Marian cho'kmasi 11022 m) o'rtaqidagi farq 19870 m ni tashkil etadi. U hech qanday geometrik shakllarga to'g'ri kelmaydi. Yerning bunday shaklda bo'lishiga asosiy sabab, uning bir necha million yillar davomida Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishi hamda yer yuzasidagi havo, suv, Yer ichidagi bitmas-tuganmas energiya ta'siri ostida bo'lishidir.

So'nggi kosmik tasvirlar tahlilidan kelib chiqib, Yerning shimoliy qutbiy radiusi janubiy qutbiy radiusiga nisbatan 21 km uzun ekanligi

aniqlangan. Shunga asoslanib, Yerning shakli uch o‘qli ellipsoid yoki kardiod (yunoncha: yurakka o‘xshash) deb atash qabul qilingan.

Eramizdan ikki asr oldin qadimgi yunon olimi Yeratosfen Yerning kattaligini birinchi bo‘lib o‘lchagan. Yeratosfen kunduz soat 12 da Quyosh nuri hosil qilgan yer yuzasidagi burchakni skafis (skafis – yunoncha so‘z bo‘lib, masofa o‘lchov asbobi) asbobi bilan o‘lchab, so‘nggi xulosasida Yer aylanasini 250000 stadiy (yoki 39500 km), radiusini 6290 km deb aniqlagan. Yeratosfen aniqlagan Yer radiusi hozirgi vaqtdagi ma’lumotdan 88 km, aylanasi esa 575,7 km kamroq chiqqan.


Eng so‘nggi kuzatishlar natijasida Yer kattaligini quyidagi miqdoriy birliklar bilan belgilash qabul qilingan: ekvatorial radiusi 6378,245 km, qutbiy radiusi 6356,863 km, Yerning o‘rtacha radiusi 6371,110 km. Ekvator aylanasi esa 40075,7 km ga teng.

Yerning maydoni 510 mln. km<sup>2</sup>, o‘rtacha zichligi 5,517 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Sayyoramiz yuzasining katta qismi (70,8%) suv bilan qoplangan, quruqlik esa, 29,2% ni tashkil etadi. Dunyo okeani o‘zaro bog‘langan to‘rtta: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlaridan iborat. Quruqlik oltita: Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Afrika, Yevrosiyo, Avstraliya va Antarktida qit’alaridan iborat. Okean bilan quruqlikning nisbati Shimoliy yarimsharda – 61:39% bo‘lsa, janubiy yarimsharda – 81:19% ga teng.

**Yerning tashqi qobiqlari** atmosfera, gidrosfera va biosferadan iborat bo‘lib, ular yer po‘sti shakllanishida muhim o‘rinni egallaydi. Bu qobiqlar bir-biri bilan doimo o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, Yerning qattiq qobig‘i bilan materiya va energiya almashinuvida faol ishtirok etadi.

*Atmosfera* – yerning gazsimon havo qatlami. Atmosfera masasining ko‘pgina qismi (90%) 16 km li oraliqda joylashgan. Atmosfera uch qismdan: troposfera, stratosfera va ionosferalardan tashkil topgan (6-rasm).

*Troposfera* – atmosfera moddasining aksariyat qismini (80%) tashkil etib, qalinligi 8–12 km ga, ekvatororda esa 17 km ga teng, havo harorati bir xilda emas.



5-rasm. Yer sharining fazodan ko‘rinishi

yuqori qismining tarkibi sayyoralararo bo‘shliq tarkibiga yaqindir.

Atmosferaning asosiy qismi azot, kislorod, argon va ugleroddan tashkil topib, ular quruq havoning 99,9% ga teng. Yer yuzasidagi jarayonlarga katta ta’sir etadigan atmosferaning tarkibiy qismi namlik hisoblanadi. Atmosferadagi havo massasi doimo harakatda bo‘lib, Yer yuzasining turli qismlaridagi haroratning tekis taqsimlanmasligiga sababchi bo‘ladi. Atmosferaning troposfera qobig‘ida kechadigan ko‘pgina tabiiy hodisalar ob-havo va iqlimni yuzaga keltiradi.

*Ob-havo* – atmosferaning tabiiy holati bo‘lib, shamol, harorat, bosim va namlik bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarning ma’lum tabiiy-geografik sharoitdagi ko‘p yillik holati *iqlimni* tashkil etadi.

Iqlim yuqori namgarchilikka va haroratga ega bo‘lgan gumid (tropiklar), yuqori haroratlari, quruq arid (cho‘l va sahrolar) va sovuq haroratlari, nam nival (baland tog‘liklar va qutb zonalari) mintaqalardan tashkil topgan.

*Gidrosfera*. Bu qobiqning yuqori chegarasi ochiq holatdagi suv havzalarining sathi bilan belgilanadi. Quyi chegarasi esa unchalik aniq bo‘lmay, suvning gaz holatda bo‘lgan chegarasidan ( $374^{\circ}\text{K}$ )

*Stratosfera* – 50–55 km gacha bo‘lib, harorati yuqori, uning tarkibida tirik organizmlar faoliyatida o‘ta muhim o‘rinni egallaydigan ozon qatlami (25–30 km) joylashgan.


*Ionosfera* – mezosfera, termosfera, ekzosferalarga bo‘linadi. Harorati juda yuqori ( $2000^{\circ}\text{C}$ ) bo‘lib, unda havo ultrabinafsha nurlar ta’sirida ionlashgan holatdadir. Atmosferaning yuqori chegarasi 1300 km gacha boradi. Undan

o‘tadi. Gidrosfera tarkibida turli tabiiy xususiyatni namoyon qiluvchi tabiiy suvlarning uchta turi mavjud. Bular okean va dengiz suvlari, quruqlik suvlari hamda muzliklardir. Oraliq holatni yerosti suvlari tashkil etadi. Gidrosferaning umumiy massasining 1370 mln. km<sup>3</sup> ni (86,5%) okean suvlari, 0,5 mln. km<sup>3</sup> ni quruqlik suvlari, 22 mln. km<sup>3</sup> ni quruqlikdagi muzlar, 196 mln. km<sup>3</sup> ni esa yerosti suvlari tashkil etadi.

Atmosferaga nisbatan gidrosferadagi gorizontal tabaqalanish aniq chegaraga ega, ya’ni quruqlik suvlari, asosan, chuchuk, okean va dengiz suvlari esa sho‘r suvlar hisoblanadi. Okean suvlarining har litriga 35 g tuz to‘g‘ri keladi.

Quruqlik va dengiz suvlari kimyoiy tarkibiga ko‘ra keskin farqlanadi: dengiz suvlarida  $\text{Na}^+ > \text{Mg}^{2+} > \text{Sa}^{2+}$ ;  $\text{Si}^- > \text{SO}_4^{2-} > \text{NSO}_3^-$ ; quruqlik suvlarida  $\text{Mg}^{2+} < \text{Na}^+ < \text{Sa}^{2+}$ ;  $\text{Si}^- < \text{SO}_4^{2-} < \text{NSO}_3^-$ . Ko‘rinib turibdiki, bu suvlarda asosiy ionlar teskari proporsional holatdadir.

Yerning gidrosfera qobiqidagi suvlar Quyosh nuri ta’sirida doimiy harakatda bo‘lib, uzlucksiz aylanma harakat qiladi. Aylanma harakatdagi suvlarni quyidagi bo‘limlarga ajratish mumkin: atmosfera, okean va litosferadagi (kattiq qobiqdagi), biogen (tirik organizm tarkibidagi) va maishiy-xo‘jalik suvlari.



6-rasm. Atmosferaning vertikal kesmasi

Atmosfera kabi gidrosfera ham Yerdagi murakkab jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi.

*Biosfera* – Yerning organik hayot rivojlangan qismini birlash-tiruvchi qobiq. Biosfera gidrosferani to'liq, litosferaning yuqori va atmosferaning quyi qismini qamrab oladi.

Tirik organizmlarning (biosfera) yana bir asosiy xususiyati shundan iboratki, u har yili 3651011 t uglerodni va 15011 t suvni o'z-lashtirib, 266 mlrd. t erkin kislород ajratib chiqaradi. Bunda Dunyo okeanidagi biomassa atmosferadagi erkin kislородning asosiy generatori hisoblanadi.

## 4.2. Yerning seysmotomografik modeli. Geosferalar

Yerning ichki tuzilishini o'rganish murakkab masala hisoblanadi. Shu maqsadda foydalanimadigan usullar *bevosita* va *bilvosita* turlarga bo'linadi.

Bevosita turiga tabiiy ochilmalarda (daryolar va jarliklarning bortlari, yonbag'irlar) va sun'iy qazilgan tog' lahimlarida (razvedka kanavalari, shurflari, karyerlar, burg'i quduqlari) tog' jinslari va strukturalarni bevosita o'rganuvchi geologik usullar kiradi. Bu usul-larning o'rganish chuqurligi ushbu tog' lahimlarining chuqurligi bilan belgilanadi. Eng chuqur burg'i qudug'i Kola yarimorolida qazilgan bo'lib, uning chuqurligi 12261 m ni tashkil etadi.

Yerning ichki qobiqlari to'g'risida *ksenolitlar* – magma suyuqligi bilan yer yuzasiga olib chiqilgan chuqurlik, tog' jinslariga oid ba'zi tushunchalar beradi. Masalan, Lesoto kimberlit trubkasida (Janubiy Afrika) 250 km chamasi chuqurlikda yotuvchi tog' jinslarining vakili sifatida qaraluvchi qo'shimchalar topilgan.

Hozirgi vaqtida Yer qa'riga yuzlab va minglab kilometr chuqurlik-ka kirib boruvchi va u joydagи moddalardan namuna olib chiquvchi texnika vositalari mavjud emas. Shuning uchun ham sayyoramizning chuqurlikdagi tuzilishi kosmologik va geofizik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan, ya'ni fazo jismalari (birinchi navbatda, meteoritlar

va Oy) yoki Yerning fizik maydonlari hamda modellashtirishga asoslangan bilvosita usullar yordamida tadqiq qilinadi. Yerning ichki tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlarni quyidagi *geofizik usullar* yordamida olinadi:

- zilzilalar yoki portlatish orqali hosil qilingan sun'iy qayishqoq tebranishlarni qayd etuvchi seysmik;
- og'irlilik kuchi maydonlarini o'rganishga asoslangan gravimetrik;
- yerning magnit maydonini o'rganuvchi magnitometrik;
- sayyoramizning issiqlik maydonini va uning yuzasida issiqlik oqimining zichligini o'rganuvchi geotermik;
- yer qa'rining elektr o'tkazuvchanligini o'rganuvchi elektrometrik tadqiqtolar.

Bunday usullarning orasida zilzilalar ta'sirida vujudga keladigan qisqa vaqtli, 10–20 minut davomida amalda butun sayyoramizni yorib kiruvchi *seysmik to'lqinlar* maydonini o'rganuvchi *seysmik usul* asosiysi sanaladi. Zilzilalar o'chog'ida vujudga kelgan seysmik to'lqinlar muhit zarrachalarining qayishqoq surilishi yo'li bilan barcha yo'nalishlar bo'yicha muayyan tezlikda tarqaladi. To'lqinlar tarqalish xususiyatlariiga qarab bo'ylama va ko'ndalang turlarga bo'linadi.

*Bo'ylama to'lqinlar* to'lqin tarqalish yo'nalishida qayishqoq hajmiy uyg'onishni (tebranishni) uzatishi bilan xarakterlanadi. *Ko'ndalang to'lqinlar* to'lqin tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar holda qayishqoq hajmiy uyg'onishni (tebranishni) uzatishi bilan oldindisidan farq qiladi. Bo'ylama to'lqinlar ko'ndalang to'lqinlarga qara-ganda katta tezlikka ega. Bundan tashqari, ko'ndalang to'lqinlar suyuq muhitda tarqalmaydi.

Umuman olganda, seysmik to'lqinlar optika qonunlariga bo'y-sunadi – muhitlar chegarasida turli tezlikda tarqaluvchi qayishqoq to'lqinlar qaytadi va sinadi. Natijada, to'g'ri to'lqinlar bilan bir qatorda qaytgan va singan to'lqinlar ham qayd etiladi. Qaytgan va singan to'lqinlar bu chegaralar holati to'g'risida ishonchli axborot manbayi bo'lib hisoblanadi va Yerning ichki tuzilishini o'rganishda

keng foydalaniladi. Ular Yer qa'rida muhitlarni yaqqol ajratuvchi chegaralar borligi to'g'risida dalolat beradi va to'lqinlarning harakat vaqtisi va tarqalish tezligidan foydalanib, geosfera chegaralarining yotish chuqurligini aniqlash imkonini yaratadi.

Yerning ichki tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning eng muhim manbalari seysmik to'lqinlarni keltirib chiqaruvchi zilzilalar sanaladi.

Dunyodagi seysmik stansiyalarning soni kun sayin oshib bor-moqda. Bu esa, bir tomondan, Yer qa'ri to'g'risidagi ma'lumotlar hajmining oshishiga olib keladi va, ikkinchi tomondan, olinayotgan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun tez ishlovchi kompyuterlardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa *seysmik tomografiya* deb nomlanuvchi usullar majmuasining rivojlanishiga olib keldi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bir jinsli (gomogen) muhitda seysmik to'lqinlar to'g'ri chiziq holida tarqaladi va qayd etuvchi stansiyalarga hisoblangan vaqtida yetib boradi. Bir jinsli bo'lмаган (geterogen) muhitlarda boshqacha hol kuzatiladi. Seysmik to'lqinlar anomal massa bilan uchrashganda o'z tezligini yo oshiradi, yoki sekinlashtiradi, bunda to'lqinlar qayd etuvchi stansiyaga hisobdagagi vaqtidan oldin yoki kechikib keladi. Shu yo'sinda Yer qa'ridagi nobirjinsliklar topiladi.

Seysmologik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda Yer bag'rida yigirmatacha *ajratuvchi chegara* qayd etiladi va ular umumiylar tarzda Yerning konsentrik zonal qatlamlili tuzilishi to'g'risida dalolat beradi. Bu chegaralar orasida ikkitasi: kontinentlarda 30–70 km chuqurliklarda va okeanlar ostida 5–10 km da yotuvchi Moxorovichich yuzasi (Moxo yoki oddiy M) hamda 2900 km chuqurlikdagi joylashgan Vixert – Gutenberg yuzasi asosiy sanaladi. Bu chegaralar sayyoramizni uchta asosiy qobiqlarga yoki geosferalarga ajratadi:

- *yer po'sti* – Moxorovichich yuzasi ustida joylashgan Yerning tashqi tosh qobig'i;


- *Yer mantiyasi* – Moxorovichich (yuqoridan) va Vixert – Gutenberg (pastdan) yuzalari bilan chegaralangan oraliq silikatli qobiq;

– *Yer yadrosi* – Vixert – Guttenberg yuzasidan pastda joylashgan sayyoramizning markaziy tanasi.

Bu asosiy chegaralardan tashqari geosferalar ichida, asosan, moddalarining bir turdan ikkinchi turga fazoviy o'tishi va xossalaring o'zgarishi bilan ifodalangan bir qator ikkinchi darajali ajratuvchi chegaralar mavjud.

Chuqurlikdagi zonalarning moddiy tarkibi haqida bevosita ma'lumotlarning yo'qligi, birinchi navbatda, bilvosita, seysmologik ma'lumotlardan foydalanishni taqozo etadi. Seysmologik ma'lumotlar bir qator chegaraviy shartlarni (zichlik o'zgarishining o'rtacha qiymati yer po'sti uchun –  $2,7 \text{ g/sm}^3$  va yalpi Yer uchun –  $5,52 \text{ g/sm}^3$ , Yerning aylanish o'qiga nisbatan inersiyaning kuzatish momentidagi massalarning taqsimlanishini va b.) hisobga olganda, Yer moddalari zichligining chuqurlik oshishi bilan o'zgarishini hisoblab topish imkonini beradi. Bu ma'lumotlarga tayangan holda turli chuqurliklarda bosim va haroratning qiymatini baholash mumkin.

Yerning ichki tuzilishida uning tashqi «tosh» qobig'i – yer po'sti alohida o'rinni egallaydi (7-rasm). Chunki Yerdagi barcha tirik




7-rasm. Yer ichki tuzilishining modeli

organizmlarning faoliyati, turli geologik jarayonlar, xilma-xil foydali qazilma konlari aynan shu qobiqda mujassamlangan. Yer po'sting qaliligi ham bir xilda emas. Tog'li o'lkalarda u 60–70 km, tekisliklarda 35–45 km, okean ostida esa 5–10 km ni tashkil etadi. Bu qatlamlarda seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligi va tog' jinslari zinchligi turlichadir. Yerning mantiyasi eng yirik geosfera sanaladi. U sayyora hajmining 83% va massasining 66% ga yaqinini tashkil etadi. Yer po'sti va mantiya orasidagi chegara, odatda, bo'ylama seysmik to'lqinlar tezligining 7,5–7,6 dan 7,9–8,2 km/s gacha keskin oshishi orqali ifodalangan va u Moxorovichich yuzasi nomi bilan ataladi. Okeanlarda bu chegara kuchli o'zgaradi. Kontinentlarda yer po'stining mantiyaga o'tishi juda murakkab ko'rinishga ega bo'lib, ba'zi hollarda bitta emas, balki bir necha chegaralar kuzatiladi. Bu fazoviy o'zgarishlar tufayli M yuzasining bir sathdan ikkinchisiga «sakrashi» deb talqin qilinadi.

Moxorovichich yuzasidan 670 km chuqurlikdagi chegaragacha tashqi va undan 2900 km gacha ichki mantiya ajratiladi (8-rasm).

Tashqi mantiya 410 km chuqurlikdan o'tuvchi yaxshi ifodalangan ichki seysmik sathga ega bo'lib, bu chegara uni ikkiga bo'ladi. Moxo chegarasidan 410 km chuqurlikkacha boradigan ustki qatlama Guttenberg qatlami (*V qatlama*) deyiladi. Unda seysmik to'lqinlar o'tish tezligining chuqurlik oshgan sari tezlashib boriishi va uning pastki qismida esa, aksincha, birmuncha susayishi (3% ga) kuzatiladi. Bu mantiya moddasining yumshagan, qisman (bir necha foizgacha) suyulgan holatdaligidan da-



8-rasm. Yerning kesmasi

lolat beradi. Guttenberg qatlamining bu qismi *astenosfera* (kuchsiz qobiq) nomini olgan.

Guttenberg qatlamining ustki qismi yer po'sti bilan birgalikda yagona qattiq qobiqni – *litosferani* tashkil etadi. Tom ma'nosi bilan litosfera o'ziga xos geosfera bo'lib, mantianing qolgan qismidan astenosferaning faol qambari bilan ajralgan. Litosfera va astenosfera birgalikda Yerda tektonik jarayonlar kechadigan *tektonosferani* tashkil etadi.

Litosfera va astenosfera – bu tabiiy, aniqrog'i reologik tushuncha. Ular o'zlarining qovushoqligi bilan farq qiladi. Litosfera qattiq va mo'rt, astenosfera esa, ancha plastik va harakatchandir. O'rta okean tizmasining o'q qismida litosfera va astenosfera orasidagi chegara ba'zi joylarda atigi 34 km chuqurlikda joylashgan, ya'ni litosfera faqat o'zining ustki qismidangina iborat.

Okeanlarning chetlariga qarab litosfera qalinligi o'zining ostki qismi, asosan, mantianing ustki qismi (litosfera mantiyasi) hisobiga oshib boradi va kontinentlar bilan chegarasida 80–100 km gacha yetishi mumkin.

Kontinentlarning markaziy qismida, ayniqsa, Sharqiy Evropa yoki Sibir singari qadimiy platformalarning qalqonlari ostida litosferaning qalinligi 150–200 km gacha va undan ortiq (Janubiy Afrikada – 350 km); ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u 400 km gacha boradi, ya'ni amalda butun Guttenberg qatlami liosfera tarkibiga kiradi. Kontinentlarning bunday viloyatlari uchun, ko'pincha, bir-birining ustida joylashgan bir necha qatlam kuzatiladi hamda gorizontal yo'nalishda ularning uzlukliligi taxmin qilinadi.

Astenosfera qatlamlarining (linzalarining) yotish chuqurligi 100 dan bir necha yuz kilometrlargacha o'zgaradi.

Guttenberg qatlamidan pastdagi 410–670 km oraliqda Golitsin qatlami (S qatlami) joylashgan bo'lib, u chuqurlik oshgan sari seysmik to'lqinlar tezligining juda keskin oshishi bilan xarakterlanadi. Uni o'rta mantiya yoki mezosfera – tashqi va ichki mantiya orasidagi oraliq zona deb ham atashadi. Golitsin qatlamida qayishqoq seysmik

to'lqinlar tezligining 9 dan 11,4 km/s oshishi mantiya moddasi zichligining taxminan 10%ga o'zgarishi bilan tushuntiriladi. Bu hol minerallarning qayta o'zgarishi – bir mineralning atomlari zichroq joylashgan, ikkinchisiga: olivinning – shpinelga, piroksenning – granatga o'tishi bilan bog'liq. Petrologik va eksperimental ma'lumotlar bu qatlamni, asosan, granatdan tarkib topgan deb hisoblashga imkon beradi. Qatlam kimyoviy tarkibining muhim komponenti suv hisoblanadi, uning miqdori 1 % ga yaqin.

Ichki mantiya 670 km chuqurlikdan boshlanadi va Yerning radiusi bo'yicha 2900 km gacha boradi. Tashqi va ichki mantiya chegarasi 670 km chuqurlikdagi seysmik bo'lim hisoblanadi. U butun sayyora bo'yicha kuzatiladi va seysmik to'lqinlar tezligi va ichki mantiya moddasi zichligining oshishi bilan dalillanadi.

Bu sath mantiya jinslari mineral tarkibining o'zgarish chegarasi bo'lib ham hisoblanadi. Ichki mantiyaga mos keluvchi bosim va haroratda moddalar holati bo'yicha o'tkazilgan eksperimentlar shuni ko'rsatadiki, quyi mantiya o'rta mantiya minerallarining yana-da o'zgarishi mahsulotlari bo'lgan perovskit ( $MgSiO_3$ ) va mag-neziovystit ( $(Fe,Mg)O$ ) dan tarkib topgan bo'lishi lozim.

Quyi mantiya ikki qatlamdan – D' (670–2700 km) va D'' (2700–2900 km) iborat. Ulardan birinchisi bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning chuqurlik sari oshib borishi bilan xarakterlanadi. Unda seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligi sayyora uchun maksimal ko'rsatkichga yetadi: bo'ylama to'lqinlarniki 13,6 km/s, ko'ndalang to'lqinlar taxminan 7,3 km/s.

2700–2900 km chuqurlikda uning ostki yuzasi yaqinida o'zining xossalari bilan oraliq D' qatlamidan farq qiluvchi qobiqcha (D'' qatlami) ajratiladi. Bunda bo'ylama to'lqinlar tarqalish tezligining birmuncha pasayishi kuzatiladi va u Yerning tashqi yadrosiga o'tishdagi o'zgarishlar natijasi hisoblanadi.

Tashqi yadro bilan bevosita tutashgan D'' qatlami uning ta'siri-ga uchraydi, chunki yadro harorati mantianing haroratidan ancha

ortiq. Bu qatlam Yer yuzasiga yo‘nalgan va mantiya orqali o‘tuvchi *plyumlar* deb ataluvchi issiq massa oqimini tug‘diradi degan taxminlar bor. Ular Gavay orollari, Islandiya va b. kabi yirik vulkanizm viloyatlarini hosil qiladi.

D” qatlaming ustki chegarasi aniqlanmagan, uning sathi yadro yuzasidan 300 km gacha o‘zgarishi mumkin. Bu qatlam soviyotgan yadrodan mantiyaga energiyaning notekis o‘tishini aks ettiradi.

Yer yadrosi sayyora hajmining 17% va massasining 34% ni tashkil etadi. Hajm va massa ulushlarining bunday nisbati yadro va mantiya tabiiy parametrlaridagi keskin farq bilan tushuntirilishi mumkin.

Vixert – Guttenberg chegarasida joylashgan yadro va mantiya chegarasida bo‘ylama to‘lqinlar tezligining 13,7 dan 8,1 km/s gacha keskin pasayishi, ko‘ndalang to‘lqinlarning so‘nishi va moddalar zichligining 5,5 dan 10 g/sm<sup>3</sup> gacha sakrab o‘sishi kuzatiladi. Ko‘ndalang seysmik to‘lqinlar bu chegaradan pastga o‘tmaydi. Seismotomografiya ma’lumotlari bo‘yicha yadro yuzasi notekis bo‘lib, amplitudasi 56 km gacha boradigan pastliklar va balandliklarni hosil qiladi. Yadroning tuzilishida uch element ajratiladi: tashqi yadro (E qatlami), ichki yadro (G qatlami) va oraliq qobiq (F qatlami).

Qalinligi 2080 km li tashqi yadro ko‘ndalang seysmik to‘lqinlarni o‘tkazmaydi, bu uning suyuq holatdaligidan darak beradi.

Tashqi yadrodagи konveksiya Yer magnit maydonini keltirib chiqaradi deb taxmin qilinadi.

Radiusi 1250 km ga teng ichki yadro katta zichlikka ega – 12,1–13,4 g/sm<sup>3</sup>. Ichki yadroning tarkibi temir nikelli (Fe 0,9, Ni 0,1) hisoblanadi. Bu yerda bosim 360 GPa, harorat esa 6500–6800°C ga boradi. Tashqi va ichki yadrolar orasidagi oraliq qatlam oltingugurtli temir – troilitdan (FeS) tarkib topganligi ehtimol qilinadi. Oraliq qatlam F – nisbatan yupqa qobiq bo‘lib, uning qalinligi 40 km ga yaqin.

## **Tayanch iboralar va tushunchalar**

Yer po'sti, mantiya, yadro, toposfera, seysmotomografiya, plyumlar, litosfera va astenosfera, seysmotomografik model, stratosfera, ionosfera, gidrosfera, biosfera.

### **Nazorat savollari**

1. Seysmik to'lqinlar nima?
2. Ko'ndalang seysmik to'lqinlar bo'ylama seysmik to'lqinlardan qanday farqlanadi?
3. Yer yadrosida qanaqa qatlamlar ajratiladi?
4. M yuzasi qanday chegara?
5. Yer kesimida qanday sferik qatlamlar ajratiladi?
6. Yer markazida bosim qiymati qanchaga teng?
7. Yer po'stining o'rtacha zichligi qancha?

## **5-bob. YER PO‘STINING TARAQQIYOTINI DAVRIYLASH. GEOXRONOLOGIYA**

Hududlarning geologik tuzilishi va tarixiy taraqqiyoti stratigrafik tadqiqotlar asosida aniqlanadi. Bundan tashqari, stratigrafik tadqiqotlar geologik, tektonik, litologik-paleogeografik xaritalar va sxemalar tuzishda, shu jumladan foydali qazilma konlarini bashorat qilishda va ularni qidirishda keng qo‘llaniladi.

Yer po‘stining geologik rivojlanish tarixida voqealarning ketma-ketligi, asosan, turlicha kelib chiqishga ega bo‘lgan tog‘ jinslarida qayd etilgan. Ulardan birlari (cho‘kindi va vulkanogen) *qatlam* deb ataluvchi eng oddiy shakllarni hosil qiladi. Ular bir-biriga ketma-ket yotadi. Boshqalari esa (intruziv magmatik jinslar) o‘lchami va shakli bo‘yicha murakkab tanalarni hosil qiladi. Ularning vujudga kelgan vaqtini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi.

*Stratigrafiya* fanining asosiy vazifasi yotqiziqlarni *stratigrafik tabaqalash* va *taqqoslash* sanaladi. Stratigrafik tabaqalash – bu kesmada ma’lum belgilari bilan farqlanuvchi alohida gorizontlar, pachkalar va qatlamlarni ajratishdan iborat. Tabaqalangan kesmalardagi stratigrafik birliklar yoshi bo‘yicha o‘zaro taqqoslanadi.

### **5.1. Umumiy va mintaqaviy stratigrafik shkalalar**

1881-yili Bolone shahrida bo‘lib o‘tgan II Xalqaro geologik kongressda birinchi geoxronologik va unga mos keluvchi stratigrafik shkalalar qabul qilingan. Ularda yer po‘sti va organik dunyoning rivojlanish ma’lumotlari bo‘yicha Yerning butun tarixi vaqt oraliqlariga (geoxronologik tabaqalar) va shu vaqt oraliqlarida hosil bo‘lgan tog‘ jinslarining qatlamlariga (*stratigrafik tabaqalar*) bo‘linadi.

**Geologik vaqt** – bu tabiiy kalendar bo‘lib, uning har bir varagi, har bir satri muayyan bir vaqt birligida ro‘y beruvchi son-sanoqsiz hodisalarning o‘zgarishidagi ketma-ketlikni aks ettiradi. Ulardan ba’zilari muayyan chegaralangan hududlarda, boshqalari keng mintaqalarda, uchinchilari esa sayyora miqyosida sodir bo‘lib, rivojlanayotgan Yerning birligini aks ettiradi. Shuning uchun ham stratigrafiya mahalliy, mintaqaviy va umumiy stratigrafik shkalalar tu-shunchalariga tayanadi. Geologik jarayonlarning izlari bo‘yicha hodisalar tiklanadi. Ularni xronologik ketma-ketlikda joylashtirib, tadqiqotchilar kesmalarini tabaqalaydi va taqqoslaydi, buning oqibatida esa, turli miqyosdagi stratigrafik shkalalarni tuzishga imkon beradi. Mahalliy stratigrafik shkalalar o‘zaro taqqoslanib, mintaqaviy shkala ishlab chiqiladi. Ular asosida Xalqaro stratigrafik shkala yaratiladi. U esa global etalon sanaladi.

**Eonotema (eon)** – eng yirik stratigrafik birlik bo‘lib, uning hosil bo‘lish davomiyligi ko‘plab million, hatto, milliard yillarni tashkil etadi. Yer tarixida arxey, proterozoy va fanerozoy eonotemalari ajratiladi. Arxey va proterozoy tokembriy yoki kriptozoy nomi bilan ham yuritiladi.

**Eratema (era)** – eonning bir qismi bo‘lib, uning hosil bo‘lish davomiyligi bir necha yuz million yilni o‘z ichiga oladi. Yeratemalar Yerning va undagi organik dunyoning yirik rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Yeratemalar orasidagi chegaralar organik dunyo rivojlanishidagi tub o‘zgarish bosqichlarini xarakterlaydi. Fanerozoy eontemasida uchta: paleozoy, mezozoy va kaynozoy yeratemalari ajratiladi.

**Sistema (davr)** – uning hosil bo‘lish davomiyligi o‘nlab million yil bo‘lgan geologik vaqt oralig‘i bo‘lib, nomi aksariyat hollarda, shu davr yotqizqlari birinchi bor aniqlangan joyning nomidan kelib chiqqan.

**Bo‘lim (epoxa)** – u sistemaning bir qismi bo‘lib, hosil bo‘lishi bir necha o‘n million yilni qamrab oladi. Bo‘limlarning nomi yotqizqlarning ketma-ketligiga, asosan, quyi, o‘rta va yuqori bo‘lishi mumkin. Ba’zi bo‘limlar o‘zining xususiy nomiga ega.

**Yarus (asr)** – bu stratigrafik bo‘limning bir qismi bo‘lib, hosil bo‘lish davomiyligi bir necha million yilni qamrab oladi. Yaruslar ning nomlari shu vaqtda rivojlangan yotqiziqlar birinchi bor o‘rganilgan viloyatlar, hududlar, daryo havzalari, aholi manzillari nomidan olingan bo‘ladi.

Ajratilgan stratigrafik tabaqalarni geologik xaritalarda tasvirlash uchun muayyan ranglar va indekslardan (harfli va raqamli belgilar) foydalaniladi.

Arxey – indeksi Ar, rangi to‘q pushti.

Proterozoy – indeksi Pr, rangi och pushti.

Paleozoy – indeksi Pz, rangi jigarrang.

Mezozoy – indeksi Mz; ko‘k rang.

Kaynozoy – indeksi Kz; rangi sariq.

Butun dunyoda Xalqaro geologik kongressda oldingilariga o‘z-gartirishlar kiritib qabul qilingan stratigrafik (geoxronologik) shkaladan foydalaniladi. Yangi shkala quyidagi tabaqalarni o‘z ichiga oladi (1-jadval):


*I-jadval*

#### Geoxronologik va stratigrafik shkalalar

Geoxronologik	Stratigrafik
Eon	Eonotema
Era	Eratema
Davr	Sistema
Epoxa	Bo‘lim
Asr	Yarus
Faza	Bo‘g‘in
Payt	Zveno
Termoxrona	Bosqich

Fanerozoyning stratigrafik (geoxronologik) shkalasida yeratemalar, sistemalar, bo‘limlar, yaruslar kabi stratigrafik toifalar ajratiladi va ularning boshlanish davri million yillarda ko‘rsatiladi.

## Fanerozooyning geoxronologik shkalasi






Tokembriyning geoxronologik (stratigrafik) shkalasida asrlar (yaruslar) ajratilmagan (2-jadval).

2-jadval

### Tokembriyning geoxronologik (stratigrafik) shkalasi

Eonotema (eon)	Eratema (era)	Sistema (davr)	Yoshi, mln. yil
Proterozoy	Neoproterozoy	Ediakar	630
		Kriogen	850
		Ton	1000

## (stratigrafik) shkalasi



Proterozoy	Mezoproterozoy	Sten	1200
		Ektas	1400
		Kelimm	1600
Proterozoy	Paleoproterozoy	Stater	1800
		Orosir	2050
		Rich	2300
		Sayder	2500
Arxey	Neoarxey		2800
	Mezoarxey		3200
	Paleoarxey		3600
	Eoarxey		

## **5.2. Tog‘ jinslarining nisbiy va mutlaq yoshini aniqlash usullari**

Geologiyada *nisbiy va mutlaq yosh* (geoxronologiya) tushunchalari mavjud.

Bir-biridan uzoqda joylashgan kesmalarni o‘zaro taqqoslashda biostratigrafik, litostratigrafik, ritmostratigrafik va magnitostratigrafik usullardan foydalaniladi. Ularning har biri o‘ziga yarasha yutuqlarga va kamchiliklarga ega. Shuning uchun ham, ko‘p hollarda ulardan birgalikda foydalaniladi.

***Biostratigrafik usul*** (lotincha «bio» – hayot, «stratum» – qatlam) – qarilarining ustiga yosh qatlamlar yotuvchi qonuniy ketma-ketlikka asoslangan.

Nisbiy yoshni aniqlashning eng ishonchli usuli biostratigrafik usul hisoblanadi. U XIX asrning boshlarida V.Smit tomonidan taklif etilgan va keyinchalik J. Kyuve va A. Bronyar tomonidan bat afsil ishlab chiqilgan.

Biostratigrafik usul tog‘ jinslaridagi hayvon (fauna) va o‘simlik (flora) qoldiqlarini o‘rganishga asoslangan. Paleontologik ma’lumotlar asosida Yerda hayotning evolutsiyasidagi muayyan ketma-ketlik va takrorlanmaslik aniqlangan bo‘lib, u nisbiy geologik yil hisobi tizimini yaratishga imkon berdi.

Tog‘ jinslarining nisbiy yoshini aniqlash uchun, asosan, organik qoldiqlarning eng kichik taksonomik birliklari – avlodlar va turlardan foydalaniladi. Ularning orasida *yetakchi toshqotgan organik qoldiqlargina* bu masalani yechish uchun yaroqli bo‘ladi. Yetakchi maqomiga ega bo‘lish uchun ular uchta asosiy talabga javob berishi shart:

- qisqa geologik vaqt davomida paydo bo‘lgan, gurkirab rivojlangan va qirilib ketgan bo‘lishi;
- son jihatdan juda ko‘p bo‘lishi;
- yer yuzasining katta maydonlarida tarqalgan (kosmopolit) bo‘lishi lozim.

Demak, yetakchi organik qoldiq deb qisqa geologik vaqt davomida yirik hududlarda tarqalgan, son jihatidan ko‘p bo‘lgan va oson taniladigan qirilib ketgan organizmlarning toshqotgan qoldiqlariga aytildi.

Bu tushuncha stratigrafiyaga XIX asrning o‘rtalarida nemis paleontologi G. Broni tomonidan kiritilgan va u dunyoda birinchi bo‘lib umurtqasizlar yetakchi shakllarining atlasini tuzgan.

Yetakchi organik qoldiqlar usuli bir xil yetakchi organik qoldiqlar uchraydigan yotqiziqlar bir xil yoshli degan tushunchaga asoslangan. Uzoq vaqtlar davomida bu usul biostratigrafiyada asosiy usul bo‘lib kelgan va uning sharofati bilan tafsiliy stratigrafik shkala tuzilgan, bir-biridan ancha uzoqda joylashgan yotqiziqlarning kesmalarini tabaqlangan va taqqoslangan.

***Organik majmualar usuli.*** Yetakchi organik qoldiqlar usulidan farqli o‘laroq bunda butun paleontologik materialdan foydalaniladi. Tadqiqotchi kesmada tarqalgan qoldiqlarni o‘rganadi, ularning kesma bo‘ylab komplekslari almashinishini va kesmadan kesmagacha o‘zgarishini aniqlaydi. Mazkur usulning ustuvorligi shundan iboratki, bunda kesmalarining yoshi va ularni taqqoslash haqidagi xulosalar yakka yetakchi organik qoldiqlargagina emas, balki qatlamda uchraydigan barcha fauna va flora shakllari majmuasiga asoslangan bo‘ladi. Shunday qilib, yotqiziqlarning yoshi haqidagi xulosalarning ishonchliligi oshadi. Ushbu usul hozirgi vaqtida keng qo‘llaniladigan asosiy usul sanaladi.

Usulning mazmuni grafik tasvirlanadi. Unda toshqotgan qoldiqlar kesmada paydo bo‘lishi va qirilib ketishi tartibida joylashtiriladi. Bunda muayyan majmualarning almashinishi bo‘yicha pog‘onalar hosil bo‘ladi va ularga asoslanib yotqiziqlarning yoshi haqida xulosa chiqarish va kesmalarini tabaqlash mumkin.

***Litostratigrafik usul*** kesmani tog‘ jinslarining tarkibi, strukturaviy va teksturaviy xususiyatlari bo‘yicha qatlamlar va ularning majmualariga tabaqlashga hamda ularning turli joylarda tuzilgan stratigrafik kesmalarini o‘zaro taqqoslashga asoslangan. Bir xil lito-

logik tavsifga ega bo‘lgan qatlamlar, qatlamlar majmualari va turli kesmalardagi o‘xshash ketma-ketlik ham ularning bir xil yoshdaligini taxmin qilishga imkon beradi. Litostratigrafik usul «soqov» qatlamlarning, ya’ni fauna va flora qoldiqlariga ega bo‘lmaganlarining yoshini aniqlashda foydalaniladi. Bu usul yordamida qatlamlarning yoshini aniqlash yoki boshqa usullar bilan aniqlangan muayyan etalon geologik kesmalar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Ammo, ko‘p hollarda, bir litologik tarkibdagi qatlamlarning turli joydagi yoshi sinxron bo‘lmaydi. Bu litostratigrafik usulning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Bunda qatlamlar yaqin masofalardagina o‘zaro taqqoslanishi mumkin.

**Ritmostratigrafik usul** – geologik hodisalar davriyilagini va qatlamlarning stratigrafik ketma-ketligini cho‘kindi to‘planish ritmlarini aniqlash yo‘li bilan o‘rganish usuli. Ritmostratigrafiya usuli iqlimiylar stratigrafiya kabi biostratigrafiya usulini sezilarli darajada to‘ldiradi. V.I.Popov ta’biricha, ritmostratigrafiya – bu ritmoseriyalarni hamda magmatizmning namoyon bo‘lish shakllarini ajratishga yordam beruvchi fatsial-siklik (fatsial-ritmik) tahlil asosida kesmalarini stratigrafik tabaqlash. Ritmostratigrafik tabaqlashda ritmlarning geologik kompleks (GK), ritmokompleks (RK), ritmotolsha (RT), ritmosvita (RS) va ritmopachka (RP) kabi taksonomik birliklari ajratiladi. Cho‘kindi yotqiziqlar kesmasidagi ritmiylik ular hosil bo‘lish davridagi magmatektonik faollik xususiyati bilan bevosita bog‘liq. Masalan, geologik kompleks biron-bir tog‘ burmalanish bosqichini (kaledon, gersin, alp va h.k.) o‘z ichiga olsa, ritmokompleks undagi tektonik fazalarni o‘zida aks ettiradi. V.I.Popovning fikricha, ritmostratigrafik sxemalarning odadagi litologik sxemalarga nisbatan yutug‘i ritmoseriylar chegarasining izoxronligidir. Ritmostratigrafiyanı biostratigrafiya yoki mutlaq geoxronologiya bilan birga qo‘llash yaxshi natijalar beradi.

**Magnitostratigrafik usul.** Ma’lumki, Yer po‘stida uchraydigan ba’zi minerallar magnitlanish xususiyatiga ega. Ferromagnitli minerallar hosil bo‘lishida, masalan, magma yoki lava suyuqligining

kristallanishi natijasida bu minerallar shu vaqtdagi magnit maydoni yo‘nalishiga mos holda magnitlanib qoladi. Suvli muhitda loyqa tarkibidagi ferromagnit minerallar ham Yerning magnit maydoniga muvofiq cho‘kadi. Shu tufayli cho‘kindi jinslar ham cho‘kish vaqtidagi Yer magnit maydoni to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi, ya’ni cho‘kindi hosil bo‘lish jarayonidagi Yerning magnit maydoni zo‘riqish chiziqlarining yo‘nalishi va magnit qutblarining o‘rni tog‘ jinslarining «xotirasida» saqlanib qoladi. Ammo muayyan vaqtarda magnit qutblari o‘zaro o‘rnini almashtirib turgan, ya’ni *magnit maydoni inversiyasi* sodir bo‘lgan. Shu tufayli cho‘kindi jinslar kesmasida qoldiq magnitlanish xususiyatlarini o‘rganish asosida to‘g‘ri va teskarli magnitlanish oraliqlari ajratiladi. Boshqacha qilib aytganda, kesmalar stratigrafik tomondan tabaqalanadi va o‘zaro taqqoslanadi. Magnitostratigrafik usulga 1947-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi V.I. Popov tomonidan asos solingan.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullar stratifikatsiyalangan hosilalarning, ya’ni qatlamlanib yotuvchi tog‘ jinslarining nisbiy yoshini aniqlashga imkon beradi. Ularga cho‘kindi, vulkanogen-cho‘kindi, vulkanogen va mintaqaviy metamorfizmda o‘zining birlamchi yotish sharoitlarini saqlab qolgan metamorfik jinslar kiradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilganidek, nisbiy geoxronologiya tog‘ jinslarining bir-biriga nisbatan yoshini – qaysi birlari keyin hosil bo‘lgan va yosh hisoblanishi hamda qaysilari oldin shakllangan va qari sanalishini aniqlashni ko‘zda tutadi. Nisbiy geoxronologiya u yoki bu geologik tanalar shakllanishining davomiyligi to‘g‘risida tushuncha bermaydi, ammo ularning hosil bo‘lishi vaqtini ketma-ketligi haqida tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda kesmalarni tabaqalash va taqqoslash masalalarini yechishda *mutlaq geoxronologiya* usullari, ya’ni geologik vaqtini hamda tog‘ jinslari va minerallarning hosil bo‘lish va qayta o‘zgarish (metamorfizm) vaqtini astronomik birliklarda – yillarda o‘lchash tobora keng qo‘llanilmoqda.

Mutlaq geoxronologiya tog‘ jinslarining yoshini va ularning hosil bo‘lish jarayonlarining davomiyligini yillarda, minglab va yuzlab million yillarda o‘lchashni ko‘zda tutadi.

Geologik voqealar va obyektlarning yoshi radioaktiv elementlar yadrosining barqaror parchalanish tezligiga asoslangan radiologik (izotopli) usullar yordamida aniqlanadi.

Geoxronologiyada qo‘llanuvchi uzoq yashovchi radioaktiv izotoplar bo‘lib, kaliy  $^{40}\text{K}$ , rubidiy  $^{87}\text{Rb}$ , samariy  $^{147}\text{Sm}$ , toriy  $^{232}\text{Th}$ , uran  $^{235}\text{U}$ ,  $^{238}\text{U}$  hisoblanadi. Bunda biz atomlarning asosiy tarkibi siyatida elektronlarni, protonlarni va neytronlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Yadrodagи protonlar soni uning qaysi kimyoviy elementga mansubligini bildiradi. Protonlar soni bir xil, ammo neytronlar soni turlicha bo‘lgan atomlar shu kimyoviy elementning *izotoplari* deyiladi.

Radioaktiv izotoplarning yadrosi barqaror emas. Vaqt davomida ular radioaktiv parchalanishga uchraydi, natijada, yangi hosil bo‘lgan yadroda protonlar va neytronlar soni o‘zgaradi, ya’ni boshqa kimyoviy elementning izotopi hosil bo‘ladi. Radioaktiv izotoplarning parchalanishi tufayli hosil bo‘luvchi izotoplar *radiogen izotoplar* deyiladi.

Ma’lumki, ko‘pchilik kimyoviy elementlar bir qancha izotoplarga ega. Ularning yadrosi D.I.Mendeleyevning davriy sistemasida elementning tartib raqamiga mos keluvchi protonlar soniga ega bo‘lgan holda neytronlar soni bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Protonlar va neytronlar yig‘indisi izotopning *massa sonini* tashkil etadi. Qo‘rg‘oshin uchun, masalan, massa soni 204, 206, 207 va 208 teng bo‘lgan to‘rtta izotopi ma’lum bo‘lib, ularning yadrosida 122, 124, 125, 126 neytron va 82 ta proton bor. Har bir izotopning massa soni indeksida ko‘rsatiladi:  $^{204}\text{Pb}$ ,  $^{206}\text{Pb}$ ,  $^{207}\text{Pb}$ ,  $^{208}\text{Pb}$ .

Turli radioaktiv izotoplar turli mexanizmlar yordamida parchalanadi. Biz uchun  $\beta$ -parchalanish va  $\alpha$ -parchalanish juda muhim.

$\beta$ -parchalanishda neytron o‘zidan negatron chiqarish orqali protonga aylanadi. Bunda yadrodagи protonlar soni bittaga oshadi, neytronlarniki esa bittaga kamayadi.

$\alpha$ -parchalanishda ikkita proton va ikkita neytrondan iborat bo‘lgan yadro alfa zarrachalarini chiqaradi. Bunda yadro massasi 4 birlikka kamayadi.

Kimyoviy elementlarning ba’zi izotoplari barqaror emas (radioaktiv) va gamma nurlanish energiyasini chiqarib parchalanadi. Yangi hosil bo‘lgan zarrachalar esa barqaror izotoplarga aylanadi. Parchalanish tezligi bosim va harorat ta’sirida o‘zgarmaydi, ya’ni, geologlarga tabiat in’om qilgan radioaktiv soatlar *hech qanday tashqi omillarga bog‘liq bo‘lmasdan* doimiy tezlikda yuradi. Muayyan izotopning radioaktiv parchalanish tezligi yo *parchalanishning konstantasi X*, yoki *yarim parchalanish davri T* – dastlabki izotop atomlarining yarmi parchalanadigan vaqt oralig‘i orqali ifodalanadi.

Radioaktiv izotopning yarimparchalanish davri – bu ushbu izotopni tashkil etuvchi barcha atomlari yarmisining radioaktiv parchalanishga ketgan vaqt. Shunday qilib, yarimparchalanish davri – izotopning radioaktiv parchalanish tezligi o‘lchovi. Agar biz kimyoviy sistemada (ya’ni mineral yoki tog‘ jinsida) radioaktiv izotop va uning parchalanishidan hosil bo‘lgan boshqa izotopning nisbatini bilsak, bu sistemaning yopilishidan so‘ng o‘tgan vaqtni hisoblab topishimiz mumkin.

### **Tayanch iboralar va tushunchalar**

Qatlam, stratigrafiya, stratigrafik tabaqalash va taqqoslash, umumiy, mintaqaviy va mahalliy stratigrafik shkalalar, geoxronologik tabaqalar, geologik vaqt, eonotema (eon), yeratema (era), sistema (davr), bo‘lim (epoxa), yarus (asr), nisbiy va mutlaq yosh, kaynozoy, mezozoy, paleozoy, proterozoy, arxey, akron, antropogen, to‘rtlamchi, pleystotsen, biostratigrafik usul, yetakchi toshqotgan organik qoldiq, organik majmular usuli, lithostratigrafik, ritmostratigrafik, magnitostratigrafik usullar, magnit maydoni inversiyasi, mutlaq geoxronologiya, radiogen izotoplari, parchalanish konstantasi, yarim parchalanish davri, uran – qo‘rg‘oshin, rubidiy-stronsiy, samariy-neodimiy, kaliy-argon va radiouglerod usullari

## **Nazorat savollari**

1. Yerning yoshi haqida nimalarni bilasiz?
2. Stratigrafik shkala mazmunini izohlang.
3. Yerning nisbiy yoshi deganda nimani tushunasiz?
4. Yetakchi organik qoldiqlar deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday organik qoldiqlar yetakchi ahamiyatga ega?
6. Tog‘ jinslarining mutlaq yoshi qanday aniqlanadi?
7. Stratigrafik shkaladagi sistemalar nomi nimaga asoslanib qo‘yiladi?
8. Radioaktivlik nima?
9. Geologik jarayonlarni sanalashda qanday radioaktiv izotoplardan foydalish mumkin?
10. «Yarimparchalanish davri» nima?
11. Radioaktiv izotoplar geologik jarayonlarni sanalash uchun qanday foydalilanildi?
12. Qanday geologik jarayonlar sanalanishi mumkin?

## **6-bob. YER PO‘STINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

Bundan 4,6 milliard yil ilgari Quyosh tizimining barcha moddasi chang va gazlarning ulkan bulutlaridan iborat bo‘lgan. Gravitatsiya kuchi tufayli bu bulutlar siqila boshlaganda mayda changsimon zarralarning kondensatsiyasi (payvandlanishi) boshlangan va ulardan yirikroq bo‘laklar shakllangan. Kondensatsiya Quyosh va Quyosh tizimining sayyoralari shakllanganicha davom etgan. Bu bosqichda Yer bir jinsli bo‘lgan, uning yadrosi ham yuza qismidagi kabi moddalaridan tarkib topgan.

Yer shakllanish vaqtida chang va yirik bo‘laklarning to‘qnashi-shidagi kinetik energiya issiqlik energiyasiga aylangan. Kondensatsiya tufayli haroratning oshishi, radioaktiv parchalanishdan ajralib chiq-qan issiqlik bilan birga, Yerning suyuqlanishiga olib kelgan. Moddalar suyulishi tufayli temir singari og‘ir elementlar cho‘kib, yadro shakllangan. Yer yuzasi suyulgan jinslar okeanidan iborat bo‘lgan. Yerning paydo bo‘lishidagi dastlabki 500–600 million yil *Xend eoni* deyiladi.

Bundan 4 milliard yil ilgari Yerda dastlabki po‘stloq shakllangan. Bu po‘stloq ma’lum ma’noda okean po‘stiga o‘xshash bo‘lgan. Qattiq po‘stning shakllanishi arxey akronining boshlanishi sanaladi.

Yer po‘stining uzoq vaqt davom etgan rivojlanish tarixini tiklashda bosqichma-bosqich muayyan ketma-ketlikda sodir bo‘lgan geologik voqeja va hodisalar tahlil etiladi. Ularning orasida quyidagilar asosiy hisoblanadi:

- vaqt bosqichlari (geoxronologik tabaqalar);
- geodinamik vaziyatlar (tektogenet, orogenet);
- paleogeografik sharoitlar va cho‘kindi to‘planishi;


- organik dunyo evolutsiyasi;
- foydali qazilmalarning shakllanishi.

## Tektonik sikllar


Geosinklinallar platformalarga aylanuvchi muayyan ketma-ket keladigan tektonik jarayonlar tektonik sikllar deyiladi. Ularning davomiyligi 150–200 millionlik geologik vaqtini o‘z ichiga oladi va burmalanish epoxalari bilan yakunlanadi (9 va 10-rasmlar). Tektonik sikllar bir-biriga juda o‘xshash emas va yer po‘stining umumiyo‘nalgan evolutsiyasi bosqichlari sifatida qaraladi.

Burmalanish tektonik kuchlar ta’sirida tog‘ jinslari qatlamlarining egilib-bukilishidir. Burmalar kompleksi shakli, hosil bo‘lishining kinematik sharoitlari va kelib chiqishi bo‘yicha bir-biridan ajratiladi.

Yer po‘stining keyingi fanerozoydagi rivojlanishida baykal, kaledon, gersin, lameriy va alp tektogenez sikllari ajratiladi.



9-rasm. Yer po‘stining umumiyo‘nalgan rivojlanish bosqichlari



10-rasm. Yer po'stining burmalanish bosqichlari

### Atmosfera va gidrosfera evolutsiyasi

Yerning rivojlanish jarayonida nafaqat qattiq yuzasining, balki atmosfera va gidrosferaning ham tarkibi o'zgarib borgan. Yer evolutsiyasining planeta bo'lib shakllanganidan so'nggi eng dastlabki bosqichlaridan mantiya degazatsiyasi boshlangan. Shu tufayli gidrosfera va atmosfera shakllangan.

Vulkan gazlari ancha miqdordagi suv bug'lariga ega bo'ladi. Ma-salan, Mauna-Loa vulkanlari (Gavay orollari) bazalt lavalarini  $1200^{\circ}\text{S}$  haroratda taxminan 70–80% suv bug'i (hajmi bo'yicha) tashkil etadi. Vulkan gazlari tarkibini tashkil qilishda ikkinchi o'rinda karbonat angidrit hisoblanada. Uning miqdori gavay vulkanlarida 6–15% ni

tashkil etadi (hajmi bo'yicha). Vulkan gazlari tarkibida oltingugurt oksidi ( $\text{SO}_2$ ) va azot bo'ladi. Bulardan tashqari, xlor, metan  $\text{SN}_4$ (ba'zan 3% gacha), ammiak  $\text{NH}_3$  boshqa ( $\text{SO}_2$ , S, Vg, F, Se, I, V) ham uchraydi.

Shunday qilib, Yer yuzasida lavalar degazatsiyasi jarayonida suv bug'i,  $\text{SO}_2$ , SO va  $\text{SN}_4$  kabi uglerod birikmalari, ammiak, oltingugurt va uning birikmalari  $\text{H}_2\text{S}$  va  $\text{SO}_2$ , galoid kislotalar NS1, HF, HBr, HI, bor kislotasi, vodorod, argon va boshqa gazlar ajralib chiqqan. Bu dastlabki atmosfera oldin yupqa bo'lgan, shuning uchun ham harorat o'rtacha  $15^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etgan. Bunda vulkandan ajralib chiqayotgan suv kondensatsiyalani, gidrosferaning shakllanishiga asos yaratgan.

NS1, HF, NVg ning nordon tutunlari, ammiak  $\text{NH}_3$ , oltingugurt S va uning birikmalari, karbonat angidritning ( $\text{SO}_2$ ) ancha qismi kondensatsiyalangan suv tomchilarida erib, yomg'ir holida yer yuzasiga yog'gan. Bu nordon oqimlar Yerning dastlabki pastqamliklariga oqib tushgan va shu bilan bir qatorda, tog' jinslari bilan reaksiyaga kiri-shib, ulardag'i moddalar bilan boyigan. V.M. Goldshmidtning hisobiga ko'ra, 1 kg dengiz suvida 0,6 kg nuragan jinslar mavjud; ularning nurashida okean suviga natriyning 66%, 10% magniy, 4% stronsiy, 2,5% kaliy, 1,9% kalsiy, 0,3% litiy va boshqalar o'tadi.

Bu elementlarning yer po'sti jinslarida keng tarqalganligini hisobga olib, kationlarning dengiz suvidagi konsentratsiyasini hisoblab chiqish mumkin. Shu bilan birga, dengiz suvidagi bosh anionlarning miqdorini tog' jinslaridan ajratib olish mumkin bo'lgan darajasidan ko'p marta ortiq. Ayniqsa, bu xlor va bromga taalluqli. Chunki hozirgi 1 kg dengiz suvida ular 0,6 kg tog' jinsidagiga qaraganda 200 va 50 marta ko'p. Shunday qilib, xlor va brom faqat mantianying degazatsiyasi mahsulotlaridan kelib tushishi mumkin va biz A.P. Vinogradovning asosiy tezislaridan biri: dengiz suvining barcha anionlari mantianying degazatsiyasi mahsulotlaridan kelib chiqqan, kationlari esa nuragan jinslardan o'tgan degan fikri to'g'ri ekanligini ko'ramiz.

Okeanlar suvi o'zining paydo bo'lishidan boshlab chuchuk emas, balki sho'r bo'lgan. Mantianying degazatsiyasi mahsulotlaridagi miqdori bilan aniqlangan okeanning dastlabki umumiy sho'rligi, ehtimol,

hozirdagiga yaqin bo'lgan. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, dastlabki okeanning suvida oksidlangan oltingugurt anionlari – sulfat  $\text{SO}_4^2$  bo'lmasagan, bu esa o'sha vaqtgagi atmosfera va okeanlarda erkin kislorod yo'qligidan dalolat beradi.

## Biosfera evolutsiyasi

V.I. Vernadskiy asarlari orasida biosfera evolutsiyasi konsepsiyası alohida o'ringa ega. Undagi asosiy g'oya biosferaning tirik organizmlar ta'sirida shakllanishidir. Hayotning shu boshlanish onlaridan tirik mavjudotlarning uzluksiz evolutsiyasi jarayonlari kechadi: ko'p sonli yangi turlar paydo bo'ladi, planetamizda turlar almashinib bora-di. Tabiiyki, bu o'zgarishlar biosferaning o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida geterotrof anaerob organizmlar mavjud bo'lgan. Ular Dunyo okeanida murakkab kimyoviy jarayonlar tufayli vujudga kelgan organik moddalar hisobiga yashagan. Keyinchalik (organik moddalar zaxirasi kamayib borishi oqibatida), quyosh nuri energiyasidan foydalanib, o'zlari organik moddalar hosil qiluvchi avtotrof organizmlar paydo bo'ladi. Ularning hayot faoliyati natijasida (fotosintez) atmosferaga kislorod ajralib chiqqan. Bu esa, aerob organizmlar vujudga kelishiga sababchi bo'lgan. Tirik mavjudotlarning murakkablashib borishi, ularning turli-tumanligi oshishi biosferaning o'zgarishiga olib kelgan. Demak, biosfera evolutsiyasi planetamizda hayot shakllari evolutsiyasi bilan birga kechgan.

V.I. Vernadskiy biosfera rivojlanishining uch bosqichini ajratgan (11-rasm):

1. *Birinchi bosqich* – hayotning paydo bo'lishi va dastlabki biosfera. Bunda yetakchi omil – Yerda geokimyoviy va iqlimiyligi o'zgarishlar.

2. *Ikkinci bosqich* – ko'p sonli va turli-tuman eukariotli organizmlar – ham bir hujayrali, ham ko'p hujayrali mavjudotlarning paydo bo'lishi bilan kechgan biosfera tuzilishining murakkablashuvi. Harakatga keltiruvchi omili bo'lib biologik evolutsiya sanaladi.



11-a rasm. Organik dunyo evolutsiyasi bosqichlari

3. *Uchinchi bosqich* – odamning va odamlar jamiyatining paydo bo‘lishi va biosferaning asta-sekin noosferaga aylanishi.


Yerning rivojlanish tarixida organik dunyo gurkirab rivojlangan devon davridagi baliqlar, karbon davridagi o’simliklar va yura davridagi dinozavrlar sultanati ajratiladi (11-rasm).

Yer po‘stining geologik rivojlanish tarixini tiklashda yer po‘sti kesmasida stratigrafik ketma-ketlikda (pastdan balandga, qarisidan yoshiga qarab) joylashgan yotqiziplarni o‘rganish favqulodda muhim ahamiyatga ega. Biz faqat shu yotqiziplarni har tomonlama va mukammal o‘rganishimiz orqaligina geologik tarixni tiklashimiz mumkin.

Yer po‘stining uzoq davom etgan geologik rivojlanish tarixi akron deb nomlanuvchi ikkita eng yirik geoxronologik tabaqa: arxey (yunoncha «*arxeo*» – qadimiy) va proterozoy (lotincha «*proteros*» – birinchi, *zoe* – hayot)ga bo‘linadi.

Butun arxey va proterozoyda kechgan uzoq geologik o‘tmish *kriptozoy* («*kryptos* – yashirin, *zoe* – hayot) yoki *tokembriy* degan umumiy nom bilan birlashtiriladi.

*Fanerozoy* eoni (yunoncha «*faneros*» – yaqqol, «*zoe*» – hayot) uchta erani: paleozoy, mezozoy va kaynozoyni o‘z ichiga oladi.



*Il-b rasm. Baliqlar evolutsiyasi*

**Tokembriyning umumiy tabaqlanishi.** Tokembriy Yer tarixining 3,5 mlrd. yildan ortig‘ini o‘z ichiga oladi. Tokembriy yotqiziqlarini tabaqaqlashdagi qiyinchilik bu vaqt oralig‘ida organizmlar deyarli yashamaganligi bilan bog‘liq.

Tokembriy yotqiziqlarini tabaqaqlashda eng istiqbolligi tarixiy-geologik usul sanaladi. Bunda izotopli geoxronologiyadan albatta foydalanish ko‘zda tutiladi.

Dastlab yer po‘sida mutlaqo hayot bo‘lmagan. Atmosfera dastlab juda siyrak bo‘lganligi uchun amalda shamollar esmagan. Dengizlar ham, daryolar ham, muzliklar ham bo‘lmasgan. Shuning uchun eroziya jarayonlarining ko‘lami sezilarli emas. Suv yo‘qligi tufayli cho‘kindi jinslar ham to‘planmagan. Ammo Yer sharining turli burchaklarida vulkanizm jadal kechgan. Ularning ta’sirida yer po‘sida ko‘p marta chuqur darzliklar vujudga kelgan va yo‘qolib ketgan, Yer yuzasi bir necha bor qayta o‘zgargan, burmalangan, butun bir hududlar boshqalariga nisbatan ko‘tarilgan yoki cho‘kkan. Yerda hayot shundan faqat 1 mlrd. yil o‘tgandan so‘ng vujudga kelgan.

Yerning tokembriy rivojlanish tarixi davomiyligi turlicha bo‘lgan, unda kechgan geologik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ikkiga: arxey va erta proterozoy, rifey va vendga bo‘linadi.



## **7-bob. ARXEY VA ERTA PROTEROZOY BOSQICHI**

Arxey va erta proterozoyda muhim geologik jarayonlar sodir bo'lgan. Ular yer po'stining keyingi rivojlanishiga mustahkam zamin yaratgan.

**Geodinamikasi.** Dastlabki yer po'stining darzlanishi cho'zinchoq harakatchan zonalar – protogeosinklinallarning shakllanishiga olib kelgan. Ularda, asosan, bazalt tarkibli lavalar quyulg'anligi bilan xarakterlanuvchi faol vulkanizm jarayonlari kechgan. Vulkanlar bu zonalarning markaziy qismlarida birin-ketin zanjirsimon joylashgan, otlishi birlamchi chuqur darzliklar bilan bog'liq bo'lgan. Vulkan zanjiri va turli tomonga surilib ketayotgan kontinental po'stning chetlari orasida okeanlar paydo bo'lgan, ularda po'stning cho'kishini to'ldiruvchi cho'kindilar to'plangan. Ularga bo'lakli material vulkan tog'lari hamda kontinental massivlar yoki materik tipidagi orollardan kelib tushgan.

Proteosinklinal botiqqliklarni egallagan okeanlarning o'lchami, ko'rinishi va tutgan o'rni hozirg'ilarnikiga to'g'ri kelmagan. Ular

ham butun yer po'sti kabi uzoq va murakkab evolutsiya yo'lini bosib o'tgan va bir necha bor ko'rinishini o'zgartirgan.

Arxeyning protogeosinklinallari keyingi geosinklinallardan farq qilgan. Ular nisbatan barqaror platforma massivlari bilan ajralmagan, ichki tuzilishi ham differensiatsiyalanmagan, chuqur yer yoriqlari aniq ifodalanmagan. Faqatgina erta proterozoydagina, ehtimol, haqiqiy geosinklinallar rivojiana boshlagan. O'sha qadimiy davrlarda yer po'stining katta qismi faol geosinklinal rivojlanishni o'z boshidan kechirgan. Vujudga kelgan geosinklinallar dastlabki kontinental po'stni deyarli butunlay buzgan va qayta tiklagan.

Arxey va erta proterozoyda yer rivojlanishi to'g'risidagi bu fikrlar Skandinaviya va Kola yarimorollari, Sibir, Amerika, Afrika, Osiyo va Avstraliyadagi qadimiy tog' jinslarini o'rganish materiallari bilan dalillanadi. Ularda metamorfik va magmatik jinslarning rivojlanganligi, cho'kindilarning o'nlab kilometrga boradigan katta qaliligi, yotqiziqlarning murakkab burmalanganligi kabi xususiyatlar xarakterlidir. Bularning barchasi haqiqiy geosinklinal rivojlanish sharoitlari to'g'risida dalolat beradi.

Arxey va erta proterozoydagi faol tektonik jarayonlar Yer qa'ridan juda ko'p miqdorda moddalar va energiya chiqishiga olib kelgan. Tub mohiyati bilan katta qalinlikdagi cho'kindi va magmatik jinslarning to'planishi yer yuzasiga Yer qa'ridan moddalar chiqishi natijasi hisoblanadi.

Yer tarixidagi global katastrofalar sodir bo'ladigan vaqtlar *diastrofizm epoxalari* deyiladi.

Diastrofizm epoxalarining sodir bo'lishi davriy xarakterga ega. Arxey va erta proterozoy tarixida bir qancha shunday epoxalar ajratiladi. Ular Yer sharida bir vaqtda kechmagan, ammo ulardan ba'zilar muayyan sinxronlikka ega bo'lib, aniq izlarini qoldirgan.

Diastrofizm epoxalaridan eng birinchisi arxeyning boshlarida ( $3500 \pm 100$  mln. yil oldin) sodir bo'lgan. U qadimiy magmatik jinslar mavjudligi asosida aniqlangan. Bu epoxa *belozer* nomini olgan

bo‘lib, Yer rivojlanishida tektonik rejimning sezilarli o‘zgarishiga olib kelmagan.

Arxey akronining oxirida ***kenoran*** tog‘ burmalanishi ( $2600\pm100$  mln. yil) sodir bo‘ladi. Yer po‘stining almashuvchi gorizontal va vertikal harakatlari oldin to‘plangan yotqiziqlarning kuchli metamorfik o‘zgarishiga olib kelgan, ular juda zichlashgan va burmalangan.

Erta geosinklinal bosqichning muhim diastrofizm epoxalaridan biri erta proterozoyning oxirida ( $1800\pm100$  mln. yil) yakunlangan ***karel epoxasi*** sanaladi. Natijada, qadimi yoki epikarel platformalari (kratonlar) nomini olgan dastlabki «haqiqiy» platformalar shakllangan. Ular protoplatformalarning tarqoq qoldiqlarini bir-biri bilan payvandlab, bo‘lajak kontinentlarning yadrolarini hosil qilgan.

Shunday qilib, Yer tarixidagi global katastrofalar ba’zan lito-sferaning yangi strukturalari, xususan, platformalarning shakllanishida yaratuvchisi rol o‘ynagan.

Qadimi platformalarning paydo bo‘lishi bilan erta geosinklinal bosqich yakunlanadi, kechki proterozoydan hozirgacha davom etayotgan Yer po‘stining geosinklinal-platformali rivojlanish bosqichi boshlanadi. Epikarel platformalarning o‘lchami va ko‘rinishi tekto-genezning keyingi jarayonlari ta’sirida o‘zgargan. Ulardan ba’zilari «oraliq massivlari» deb ataluvchi palaxsalarga parchalangan va qisman qayta ishlangan. Ammo qadimi platformalar, asosan, o‘zgarmasdan saqlanib qolgan va hozirgi kontinentlarning asosini tashkil etadi (12-rasm).

Dastlabki kontinentlar faqat arxeyning oxirida, ***kenoran*** tog‘ burmalanishidan keyin paydo bo‘ladi va proterozoydagina kengayadi.

**Paleogeografiyasi.** Sayyoramizning uzoq tarixi nafaqat o‘zining juda faol tektonik harakatlari, balki geologik qayta o‘zgarishlarining olamshumulligi bilan ham kishini lol qoldiradi. O‘sha davrlarning qaytarilmasligi gidrosfera va atmosferaning shakllanishida ham o‘z ifodasini topgan.

Yer yuzasidagi paleogeografik sharoitlar bundan 3,5–3 mlrd. yil ilgari batamom o‘zgacha bo‘lgan. Keng okean akvatoriyalari orol-

lar arxipelaglari bilan ajralib turgan. Arxey okeanlarining u yoki bu joylarida vulkan tog'lari chiqib turgan. Yirik kontinentlar kechki proterozoyda Lavrosiyo va Gondvanaga birlashgan qadimiy platformalar hosil bo'lganidan so'ng vujudga keladi. Ular yalang'och, tog'li sahrolarni eslatgan. 2,5 mlrd. yil ilgari gidrosfera hozirgining 55 % dan ko'pini tashkil etgan deb taxmin qilinadi.

Arxey okeanlari suvining sho'rligi hozirgidan ancha past bo'lgan va 2,5 % dan oshmagan. Suv tarkibida yer po'stining ichki qis-midan olib chiqiladigan SiO<sub>2</sub>, Fe, Mn, NSO<sub>3</sub>, SO<sub>2</sub> kabi birikmalar ustuvorlikka ega bo'lgan. Okeanlarda kremnezemni o'zlashtiradigan organizmlar (hozirgi diatomli suvo'tlari, radiolyariylar va bulutlar kabi) bo'lmaganligi sababli ularning miqdori okean suvida tobora oshib borgan va kimyoviy yo'l bilan cho'kmaga o'tgan. Shuning uchun ham qadimiy yotqiziqlarda kvarsitga o'xhash jinslar ko'p uchraydi.

Arxeyda va proterozoyning birinchi yarmida atmosfera amalda kislорodsiz bo'lgan. Kislорod sezilarli miqdorda faqat proterozoyning oxirida o'simliklarning fotosintezi tufayli vujudga kelgan, atmosferada karbonat angidrid, vodorod, ammiak ustuvorlik qilgan, shuningdek, muayyan miqdorda azot, vodorodsulfid, kamyob gazlar bo'lgan. Atmosfera tiklovchi xususiyatga ega va zichligi hozirdagiga nisbatan ancha past bo'lgan. Arxey atmosferasining tarkibi kvarsli jinslarning mineral qo'shimchalardagi relikt gazlarni o'rganish orqa-li aniqlangan. Y.P. Kazanskiyning ma'lumotlariga qaraganda arxey yoshidagi kvarsit bo'laklarida karbonat angidridning miqdori 44,2 %, kislорodniki esa 5,5 % ni tashkil etgan. Proterozoyda bu qiymatlar 34,5 va 13,7 %, paleozoy jinslarida – 7,6 va 18,0 %ga teng. Hozirgi vaqtagi dengiz suvlarida karbonat angidridning miqdori 3,2 %, kislорodniki esa, 34,1 %. Bundan ko'rinish turibdiki, arxeydan hozirgi kungacha gidrosfera va atmosferada kislорodning miqdori tobora oshib va karbonat angidridniki esa kamayib borgan.

Arxey va erta proterozoydagi gidrosfera va atmosferaning o'ziga xos xususiyatlari o'zgacha cho'kindilarning to'planishi va



12-rasm. Arxey protoplatformalari va qadimiy platformalar fundamenti tarkibi-dagi erta proterozoy harakatchan qambarlar (V.E. Xain bo'yicha): 1 – strelkalar «kulrang gneysslar» – qadimiy kontinental po'stning o'rnini ko'rsatadi; 2 – arxey protoplatformalari; 3 – erta proterozoy harakatchan qambarlari

foydali qazilmalarning shakllanishini belgilagan. Kremniyli jinslar (kvarsitlar va jespilitlar) keng tarqalgan.

Atmosfera va gidrosferada  $\text{SO}_2$  va  $\text{NSO}_3$  ko'p bo'lganligi sababli erta proterozoy cho'kindi jinslari orasida ohaktoshlar va dolomitlar ustuvorlikka ega bo'lgan.

Qadimiy okeanlarda cho'kindi jinslar keng rivojlanganligiga qaramasdan, ular barcha arxey jinslarining faqat 40% ni tashkil etgan. Proterozoyning o'rtalariga kelib ularning salmog'i 80% ga yetadi. Kechki proterozoyda magmatizm jarayonlari susayib ketganligi sababli magmatik jinslarning ulushi 60 dan 20% gacha qisqaradi.

Erta arxey tarixi Shimoliy Amerika platformasining Kanada qalqonida o'tgan asrning 80-yillarida birinchi bor ajratilgan «kulrang gneysslar» majmuasini o'rganish bilan bog'liq. Bu majmua jinslari

tonalit-trondemit-granodiorit tarkibli turli gneyislardan iborat bo‘lib, ular metavulkanitlar, metacho‘kindi jinslar, amfibolitlar, ba’zan temirli kvarsitlar hamda kristalli slanetslarning qo‘sishimchalariga ega. Demak, «kulrang gneytslar» – bu poligenetik majmua. «Kulrang gneytslar» majmuasining yoshi 3,3–3,5 mlrd. yildan ortiq deb baholnadi. Shuning uchun «kulrang gneytslar» majmuasi deganda platforma qalqonlarida tarqalgan eng qadimiy jinslar tushuniladi.

«Kulrang gneytslar» majmuasi dunyoning turli qambarlarida turlicha tarqalgan. Ular amalda ham shimoliy, ham janubiy qatordagi barcha yirik platformalarda uchraydi.

Shimoliy qatordagi platformalarda eng qadimiy jinslar Shimoliy Amerika, Sharqiy Yevropa, Sibir va Xitoy-Koreya platformalarida rivojlangan bo‘lib, bunda ular fundament yer yuzasiga chiqqan joylar – qalqonlarda ochilib yotadi. «Kulrang gneytslar» prokontinental po’stni tashkil etadi.

Kechki arxey va erta proterozoyda «yashiltosh qambari» vujudga kelgan. Ularning uzunligi 1 ming km va kengligi 200 km gacha boradi, ammo ular keyingi denudatsiya jarayonlari tufayli ko‘p joylarda yuvilib ketgan.

Afrika platformasida «yashiltosh qambari» keng tarqalgan. U Markaziy Afrikada hamda G‘arbiy Afrikaning Leon-Liberiy va Regibat massivlarida rivojlangan. «Yashiltosh qambari» barcha joylarda o‘xshash tuzilishga ega, granitlar bilan yorilgan, granulit va amfibolit fatsiyalarigacha metamorfizmga uchragan. Bunda metamorfizm, odatda, ancha keyin kechgan.

Avstraliya platformasida «yashiltosh qambari»ga Pilbara va Yilgarn palaxsalari yorqin misol bo‘ladi.

«Yashiltosh qambari» va granit-yashiltoshli viloyatlar Hindiston va Arktika platformalarida ham tarqalgan. Ular o‘xshash tuzilishga, murakkab strukturaga, kechki granitoidli magmatizm va metamorfizmga ega.

Platformalarning shimoliy Lavrosiyo qatorida arxey «yashiltosh qambari» Shimoliy Amerika platformasining Kanada qalqonida,

Sharqiy Yevropa platformasining Boltiq va Ukraina qalqonlarida, Sibir platformasining Aldan qalqonida hamda Xitoy-Koreya platformasida keng rivojlangan.

**Iqlimi.** Gidrosfera va atmosfera vujudga kelgan arxey akronidan boshlab sayyoramizning yuzasida issiqlikning tarqalishida Quyosh energiyasi yetakchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar bu fikr to‘g‘ri bo‘lsa, arxey erasidayoq iqlim mintaqalari bo‘lishi lozim edi. Chunki quyosh issiqligining miqdori yorug‘lik nurining Yer sirtiga qanday tushishiga bog‘liq.

Arxeyda iqlim mintaqalarining mavjudligi ba’zi dalillar bilan tasdiqlanadi. Ularga, xususan, metamorfizmga uchragan qadimiy muzlik yotqiziqlari – tillitlar kiradi. Ularning qoldiqlari Shimoliy Amerika, Markaziy va Janubiy Afrika, Janubiy Avstraliya va Sibirda topilgan. Shimoliy Amerikada muzliklar  $42^{\circ}$  sh.k. dan shimolda kenglik yo‘nalishida deyarli 1850 km ga cho‘zilgan. Erta proterozoy tillitlarining qalinligi 160–180 m ga boradi. Bu yotqiziqlar ko‘l yoki daryo sharoitlarida to‘plangan gilli slanetslar bilan almashinib yotadi. Demak, o‘sha davrlarda muzbosish epoxalari muzliklar erib, ularning o‘rnini ko‘llar egallagan muz oralig‘i davrlari bilan almashib turgan.

N.M. Straxovning fikricha, qadimiy muz bosish tog‘larga xos bo‘lgan. Maydoni 13 mln.  $\text{km}^2$  gacha boruvchi hozirgi Antraktidadagi kabi muzliklar arxey va proterozoy akronlarida kuzatilmagan. Chunki bu vaqtarda keng kontinental massivlarning o‘zi bo‘lmagan. Muzliklar tog‘larning cho‘qqilarini qoplab olgan va ularning tillari tog‘ etaklarigacha tushib kelgan bo‘lishi mumkin.

Muzlik yotqiziqlari bilan bir qatorda metamorfizmga uchragan organik qoldiqlar (suvo‘tlari) ham uchraydi. Qadimiy okeanlarda oddiy o‘simliklarning rivojlanganligi to‘g‘risida Yer sharining muayyan zonalarida kuzatilgan iliq iqlim ham bilvosita dalolat beradi. Ehtimol, iliq iqlim mintaqasi Tetis okeanining sohillari bo‘ylab joylashgan.

**Organik dunyoning paydo bo‘lishi.** Yerda hayot taxminan 3500 mln. yil oldin paydo bo‘lgan. Dastlab oqsil moddalarining tomchilaridan tuzilgan *eobiontlar* paydo bo‘lgan. Keyingi yirik qadam hujayrasida yadrosi bo‘lmagan, *prokariot* deb ataluvchi bakteriyalar va ko‘k-yashil suvo‘tlarining vujudga kelishi bo‘lgan. Ushbu suvo‘tlarining paydo bo‘lishi bilan fotosintez jarayoni – quyosh energiyasi ta’sirida suv va karbonat angidrit gazidan organik moddalarining sintezi boshlangan. Fotosintez natijasida atmosferada erkin kislorod to‘plana boshlagan, Yerdagi organik moddalarining umumiyligi miqdori keskin oshib borgan. Bu jarayonlarning rivojlanishi Yerda hayotning evolutsiyasidagi muhim davr hisoblanadi. Asta-sekin hujayrasida haqiqiy yadrosi bo‘lgan organizmlar – *eukariotlar* vujudga kelgan. Ancha keyin oddiy eukariotlarning o‘simgilik va hayvonlarga ajralishi sodir bo‘lgan, keyinchalik, turli vazifalarni bajaruvchi va tuzilishi bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiluvchi ko‘p hujayrali organizmlar vujudga kelgan.

Yuqori bosim va harorat tog‘ jinslaridagi barcha qadimiy hayot izlarini o‘chirib, birlamchi ko‘rinishini kuchli o‘zgartirib yuborgan. Shuning uchun ham qadimgi hayvonot va nabotot olamini o‘rganish katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Ammo keyingi vaqtarda zamonaviy asboblar yordamida Yerdagi ilk organizmlarning xususiyatlari bo‘yicha ba’zi narsalar aniqlandi.

Suvo‘tlari va bakteriyalarning tog‘ jinslaridagi izotop yoshi 2,7–3,1 mlrd. yil bo‘lgan bunday qoldiqlar Shimoliy Amerika, Markaziy Afrika va Avstraliyadagi kremniyli va temirli slanetslarda topilgan. Bu topilmalar arxey akronining boshlarida kimyoviy evolutsiyaning yakunlanganligi va biologik evolutsiyaning boshlanganligidan dalolat beradi. Germaniya, Daniya va Shvetsiya olimlarining Islandiyadagi issiq oltingugurtli buloqlarda ilgari fanga noma'lum bo‘lgan issiqqa bardoshli bakteriyalarni topganligi buning tasdig‘i sanaladi. Bunday organizmlar qaynoq suvda ham bermalol yashashadi, oltingugurtdan kundalik ozuqa sifatida foydalanadi. Yana bir shov-shuvli kashfiyot Tinch okeanining Sharqiy Tinch okeani tizmasida ( $21^{\circ}$  sh.k.) issiq

buloqlarning topilganligi hisoblanadi. Bular «qora geyzerlar» yoki «qora chekuvchilar» nomini olgan. Bunday buлоqlar chiqadigan joyda bosim 25 MPa, harorat esa 350°C dan ortiq. Shunday sharoitlarda ham issiqliq bardoshli bakteriyalar topilgan. Shu tufayli olimlar Yerda 4 mlrd. yil ilgari yashagan relikt bakteriyalar topilganini e'tirof etishadi.

Arxeyda dastlabki paydo bo'lgan organizmlar turli ozuqa shakllariga ko'nikkan. Ba'zi organizmlar fotosintez jarayonlarida suv, karbonat angidrid va anorganik tuzlardan ozuqa moddalarini o'zlashtirishgan (avtotroflar); boshqalari yo avtotroflar hisobiga (getetroflar) yashagan yoki parchalangan organik qoldiqlar bilan oziqlangan (saprofaglar). Organik dunyo hayvonlar va o'simliklar saltanatlari bo'lingan.

Proterozoyda, ehtimol, dastlabki ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lgan. Bular vazifasi aniq ajralmagan to'qimali turlar bo'lgan. Ularga, xususan, bulutlar turkumining vakillari – havza tubida yopishib hayot kechiruvchi suv organizmlari kiradi. Bulutlarning shakli turlicha bo'lgan: silindr, kubok, bokal, sharni eslatgan. Bu hayvonlarning yumshoq tanasida spikulalardan iborat organik yoki mineral skeleti bo'lgan. Bulutlarning vakillari hozirgacha sayyoramizning dengiz va okeanlarida yashaydi, ammo dastlabki oddiy bulutlar azaldan qirilib ketgan va bizgacha toshqotgan holda yetib kelgan.

Bulutlardan birmuncha keyin qorinbo'shliqlilar turkumining vakillari paydo bo'ladi. Ularda to'qimalar va organlar alohida vazifalarni bajargan. Qorinbo'shliqlilarning vakillari, bulutlar singari, dengiz va okeanlarda hozirgacha yashab kelmoqda, hatto chuchuk suvli havzalarda ham keng tarqalgan. Ularning orasida bizga yaxshi tanish bo'lgan marjonlar, meduzalar va gidralarni ko'rsatish mumkin.

Arxey va erta proterozoy o'simliklaridan ko'k yashil suvo'tlari faol rivojlanadi. Bu suvo'tlarining yupqa konsentrik qatlamlı sharsimon, zamburug'simon va ustunsimon shakllardagi ohakli tanalari (stromatolitlar) proterozoy jinslarida ko'p uchraydi. Aynan shu ko'k

yashil suvo‘tlarini Yerdagi organik hayotning dastlabki vakili deb hisoblashadi.

**Foydali qazilmalar.** Temirli kvarsitlardan iborat bo‘lgan jesplit qadimiy jinslarda juda ko‘p miqdorda uchraydi, kechki proterozoy va fanerozoy jinslarida deyarli uchramaydi. Ko‘p hollarda, jesplitlar yuqori sifatli temir ma’danlarini hosil qiladi. Temirning bunday turdagи konlari Kursk magnit anomaliyasida (Rossiya), Krivoy Rogda (Ukraina), Shimoliy Amerikada va Afrikada mavjud. Bu ma’danlarda temirning miqdori 62 % ga boradi. Arxey va erta proterozoyda hosil bo‘lgan temir ma’danlarining zaxirasi 3 000 mlrd. tonna deb baholanadi.

Braziliya va Afrikada temir-marganets guruhidagi metallar ma’dani, Kanadada kobalt, mis va nikel sulfidlari, Finlandiyada miskolchedanli ma’danlar, Janubiy Afrikada titan va xrom, Namibiya va Braziliyadagi Minas-Jerays shtatida vanadiy konlari mavjud.

Ulkan erta proterozoy oltin konlari Afrika janubidagi oltin-uran-piritli konglomeratlarda va kvars tomirlarida uchraydi. Bunday konglomeratlar bosh proterozoy uran ma’danlari to‘plangan obyektlar sanaladi.

Erta proterozoyning asosiy mis ma’danlari Sharqiy Sibirda (Udokan) tarqalgan misli qumtoshlar hisoblanadi. Finlandiyadagi miskolchedanli ma’danlar ham sanoat ahamiyatiga molik.

Gayan va Kanadadagi olmos va oltin sochilmalari ham erta proterozoy yoshiga ega.

### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Geodinamika, tektogenez, orogenez, platforma, qalqon, burmali qambarlar, Belozer epoxasi, eobiontlar, prokariot, eukariotlar, kenoran tog‘ burmalanishi, karel epoxasi, kulrang gneytslar, protopo‘st, yashiltosh qambari, stromatolitlar, avtotroflar, geterotroflar, saprofaglar, jesplit.

## **Nazorat savollari**

1. Prokontinental po'st deganda nimani tushunasiz?
2. Kulrang gneytslar qanaqa jinslar?
3. Kulrang gneytslar qayerlarda tarqalgan?
4. Yashiltosh qambari qanaqa strukturalar hisoblanadi?
5. Yashiltosh qambari qanaqa jinslardan tarkib topgan?
6. Ko'k yashil suvo'tlari qachon paydo bo'lgan?
7. Protogeosinklinallar nima va ular qachon shakllangan?
8. Diastrofizm epoxalari deganda nimani tushunasiz?
9. Kenoran tog' burmalanishi qachon sodir bo'lgan va shu tufayli yer po'stida qanday strukturalar yuzaga kelgan?
10. Dastlabki geosinklinallar va haqiqiy platformalar qachon shakllangan?
11. Dastlabki kontinentlar qachon paydo bo'lgan va kengaygan?
12. Arxey va erta proterozoydagi atmosfera va gidrosfera qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?
13. Arxey va erta proterozoyda qanday jinslar keng tarqalgan?
14. Prokariotlar va eukariotlar qanday organizmlar hisoblanadi?
15. Bulutlar va qorinbo'shliqlilarning dastlabki vakillari qachon paydo bo'lgan?
16. Arxey va erta proterozoy yotqiziqlari qanday foydali qazilmalarga ega?



## 8-bob. O'RTA VA KECHKI PROTEROZOY BOSQICHI

O'rta va kechki proterozoy vaqt bo'yicha sayyoramiz rivojlanishidagi geosinklinal-platformali bosqichni o'z ichiga oladi ( $1800 \pm 100$  mln. dan  $570$  mln. yilgacha, ya'ni deyarli  $1,2$  mlrd. yil). Organik hayotning siyrakligi, toshqotgan qoldiqlarning yomon saqlanganligi Yer sharining turli rayonlarida kechki proterozoy yotqiziqlarini aniq stratigrafik tabaqaqlashga imkon bermaydi. Shunga qaramasdan kechki proterozoy tarkibida yer po'stining rifey ( $1800$ – $680$  mln. yil) va vend ( $680$ – $570$  mln. yil) rivojlanish bosqichlari ajratiladi.

Proterozoy va kembriy orasidagi vaqt «vend» nomi bilan birinchi bor B.S.Sokolov tomonidan (1952) Boltiqbo'yi hududidagi yotqiziqlarni o'rganish asosida fanga kiritilgan. «Vend» atamasi (Sharqiylar Yevropaning g'arbida yashagan qadimiy vendlar qabilasi nomidan olingan) xalqaro miqyosda tan olingan. Vend davri bundan  $650$ – $540$  mln. yil oldingi vaqt oralig'ini qamrab oladi.

Vend davri kriptozoyni yakunlovchi bosqich hisoblanadi. Bu davr yotqiziqlarining to'liq kesmasi Sharqiy Yevropa platformasining g'arbiy qismida o'r ganilgan. Rifey va vend orasidagi chegara global regressiyaga olib kelgan materik muzlanishining boshlanishi hisoblanadi.


Vend yotqiziqlari barcha kontinentlarda, ya'ni Sharqiy Yevropa va Sibir platformalarida ko'proq va boshqa platformalarda kamroq tarqalgan. Vend hosilalari Ural, Baykal, Kordilera, Appalachi va Adelaid burmali qambarlarida, G'arbiy Yevropaning gersinid va kaledonidlarida ma'lum.

**Geodinamikasi.** Erta proterozoyning oxirida qadimiy platformalarda *karelidlarni* yirik qattiq massivlarga bo'luvchi tor geosinklinal botiqliklar mavjud bo'lgan. Ularning faol cho'kishi katta qalinlikdagi cho'kindi va vulkanogen materiallar to'planishi bilan to'ldirilgan. Platformalarga qoldiq geosinklinal «yaralari» payvandlanishi uchun 200 mln. yilga yaqin vaqt ketgan. Erta proterozoyning eng oxirida qadimiy platformalar butunlay konsolidatsiyalanadi. Ular mustahkamlikka va barqarorlikka erishadi. Kechki proterozoyda qadimiy platformalar dengiz sathidan baland ko'tarilgan kontinentlar sifatida mavjud bo'lgan.

Kechki proterozoy qadimiy platformalarning rivojlanishida avlakogen bosqichi hisoblanadi. Bu davrda, tarixning 1 mlrd. yildan ortiq bo'lgan katta qismi davomida (rifey) platformalarining markaziy rayonlarida tor cho'zinchoq chuqurlar – avlakogenlar paydo bo'ladi. Lava qatlamlariga ega qizil rangli kontinental qumtoshlar va gillardan iborat bo'lgan qoplama yotqiziqlarning ostki qismi ushbu chuqurlarni to'ldiradi. Bu yotqiziqlarning qalinligi 3–4 km ga boradi.

Kechki proterozoyning boshlanishiga kelib hozirgi kontinental po'st hajmining yarmidan to to'rtadan uch qismigacha shakllanib bo'lgan. Erta proterozoydagi chuqur suvli havzalarning yopilishi tufayli yer po'sti erta rifeyda Pangey-I nomini olgan yagona superkontinentga birlashgan (13-rasm).

Shunday qilib, Pangey-I erta rifeyda yaxlit superkontinent bo'lмаган. Uning sial po'stida ko'p sonli cho'zilish zonalari mavjud



13-rasm. Erta va o'rta rifeyning hozirgi geografik asosdagi paleogeografik elementlari: 1 – platformali va orogen quruqlik; 2 – kontinental cho'kindi to'planish viloyatlari; 3 – epikontinental dengizlar; 4 – orollli quruqlik; 5 – dengizlar; 6 – qadimiy chuqur suvli viloyatlar; 7 – evaporitlar; 8 – turbiditlar; 9 – orollar yoyi vulkanitlari; 10 – kontinent cheti vulkan qambarlari

13-rasm. Erta va o'rta rifeyning hozirgi geografik asosdagi paleogeografik elementlari: 1 – platformali va orogen quruqlik; 2 – kontinental cho'kindi to'planish viloyatlari; 3 – epikontinental dengizlar; 4 – orollli quruqlik; 5 – dengizlar; 6 – qadimiy chuqur suvli viloyatlar; 7 – evaporitlar; 8 – turbiditlar; 9 – orollar yoyi vulkanitlari; 10 – kontinent cheti vulkan qambarlari

bo'lgan. Bunda sial po'stloq yupqalashgan (Hindiston va Markaziy Braziliya bundan mustasno), ammo bu jarayon po'stloqning butunlay uzelishiga va okean tubidagi yangi po'stning hosil bo'lishigacha yetib bormagan. Okean tubidagi po'stloq faqat superkontinentning chekkalaridagina rivojlangan bo'lishi mumkin.

Erta rifeyning oxirida ba'zi joylarda sust burmali deformatsiyalar, takroriy metamorfizm, granitli plutonlarning yorib kirishi kuzatilgan. Bu hodisa Shimoliy Amerikada *elson* (Labrador) yoki *mazatsal* (Arizona), Skandinavyanining janubiy qismida *gota* diastrofizmi nomlari bilan ma'lum; Uralning g'arbiy yonbag'irlarida ularga o'rta rifey yurmat seriyasining erta rifey burzyan seriyasiga nomuvofiq yotishi chegarasiga to'g'ri keladi. O'rta rifeyning boshlanishida

Pangey-I superkontinentida destruksiv jarayonlar ancha kuchaygan. Bu Shimoliy Amerika, Sharqiy Yevropa va Sibirda ko‘p sonli yangi avlakogenlarning paydo bo‘lishida o‘z aksini topgan.

Kechki rifeyda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida, bundan 850 mln. yil oldin, Yer tarixidagi kritik epoxalardan biri, Pangey-I ning parchalanishi va paleozoy okeanlarining ochilishi boshlangan.

Destruktiv jarayonlar Gondvana hududida ham boshlangan. Eng yirik miqyosli parchalanish G‘arbiy (Janubiy Amerika – Afrika) va Sharqiy (Hindiston – Avstraliya – Antarktida) Gondvana orasida kechgan. Bu mikrokontinentlar yoki vulkanik yoylar bilan ajratilgan bir qancha chuqur suvli havzalardan tarkib topgan Arabiston-Mozambik harakatchan qambarining vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan.

G‘arbiy Gondvanada destruksiyaning boshqa zonalari va okean po‘stining yangi hosilalari ham paydo bo‘lgan. Ulardan biri – Transsahroyi kabir – Markaziy Amerika va G‘arbiy Afrika kratonlari orasidagi Antiatlasdan Gvineya ko‘rfazigacha cho‘zilgan. Bu harakatchan qambar shimolga qarab kengayib borgan va Prototetisga qo‘shilib ketgan. Janubga qarab torayib borib, Shimoliy-Sharqiy Braziliyaga tutashgan. Arabiston-Mozambik qambarga o‘xshab rifeyning oxirida Transsahroyi kabir tizimlari rivojlanishining yakunlovchi fazasiga kirgan.


G‘arbda, G‘arbiy Afrika kontinentining boshqa tomonida kechki rifeyda Mavritan-Senegal tizimi faol rivojlangan; uning janubiy davomi, hozirgi Janubiy Amerika hududida Markaziy Braziliya tizimini tashkil etgan. Bu yerda grenvil konsolidatsiyasidan keyin destruksiyasi takroran amalga oshgan va rifeyning oxiri – vendning boshlarida orogen bosqich boshlangan.

Proterozoyning oxirida (vend) platformalarning cho‘kishi kuchayadi. Bu jarayonlar dastlab avlakogenlarni qamrab oladi va keyinchalik qo‘shni hududlarga yoyiladi. Shu tufayli vend yotqiziqlari avlakogenlardan chiqib, yirik izometrik botiqliklar – sineklizalarda ham to‘planadi.

Geosinklinallarda butun kechki proterozoy davomida bir necha bor burmalanish epoxalari: *gota*, *grenvil*, *katang* va b. kuzatilgan. Ammo ular geosinklinallar rivojlanishida tub burilishga olib kelmagan. Taxminan 650 mln. yil ilgari vendning boshida Yer sharida *ertabaykal* tog‘ burmalanish epoxasi sodir bo‘ladi. Ko‘pchilik geosinklinallarda to‘plangan cho‘kindi yotqiziqlarning kuchli siqilishi va ularning metamorfizmi Yer po‘sstining bir qator viloyatlarida geosinklinal rejimning yakunlanishiga olib kelgan. Bungacha mavjud bo‘lgan platformalarning chetlariga yangi barqaror epibaykal platformali viloyatlar – *baykalidlar* qo‘silib, ularning hududini kengaytirgan (14-rasm).

Tarkibiga epikarel va epibaykal platformalari kirgan platformali massivlar, odatda, yaxlit tokembriy platformalari sifatida qaraladi.

Baykalidlarning hududlari paleozoyning boshlarida hozirgiga qaraganda kengroq bo‘lgan. Chunki fanerozoyning faol geologik jarayonlari epibaykal platformalarning katta qismini buzib, qayta ishlagan. Masalan, V.E.Xainning fikricha, ko‘pchilik yosh geosink-



14-rasm. Kechki rifeyning hozirgi geografik asosdagi paleogeografik elementlari. Shartli belgilar 13-rasmida berilgan

linallar, shu jumladan, O'rta yer dengizi va G'arbiy Tinch okeani singari ulkan geosinklinallar asosida baykalidlar yotadi.

Kechki proterozoyning oxirida oldingi geosinklinallarning plat-formalarga aylanib ketishi bilan bir vaqtida Shimoliy Amerikaning shimoli, Sharqiy Grenlandiya, Britaniya orollari va Skandinaviyaning shimolida yangi geosinklinallar shakllanadi. Bu yangi hosil bo'lgan geosinklinallar amalda ertabaykal tog' burmalanish epoxasida bur-malanishga uchramagan. Baykalidlarning vujudga kelishi kontinent-larning hududini yanada kengaytirgan. Shimoliy platforma – Lav-rosiyo va janubiy platforma – Gondvana, Tetis va Tinch okeanlari mavjud bo'lgan.

O'rta rifeyda boshlangan va kechki rifeyda juda faollashgan Pangey-I ning parchalanish jarayonlariga qaramasdan uning palax-salari hali o'zaro bir-biriga yaqin joylashgan. Bunda har ikkala Ame-rika ham Shimoliy yarimsharning past kengliklarida joylashgan, boshqa kontinentlar esa, Janubiy yarimsharning past va o'rta keng-liklaridan o'rin olgan.

Bo'lajak Gondvana hududida kechki rifeyda paydo bo'lgan okean po'stiga ega tor va ancha chuqur havzalar vendda yopilgan, burmalil-ustsurilmali deformatsiyaga va sust metamorfizmga uchragan, gra-nitlar yorib kirgan. Shu tarzda hosil bo'lgan burmali qambarlar etak-larida kontinental bo'lakli jinslar – molassalar to'plangan.

Bu tektonogenetik epoxasi keng rivojlangani tufayli Afrikada *panafrika*, Janubiy Amerikada *braziliya* orogenezi nomini olgan. Janubiy Amerika va Afrikadan tashqari bu epoxaning tektonotermal qayta ishlanishi Madagaskar, Shri-Lanka, Hindistonning shimoliy-g'arbi va Antarktidada kuzatiladi. Bu Arabiston-Nubiy qalqoni fun-damentining paydo bo'lishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Tektonogenetik Yevropaning ancha qismini, Turkiya, Eron, qisman Afg'onistonni ham qamrab olgan. U bu hududlarda quruqlik yuzasi-da nordon vulkanizm faoliyati bilan yakunlangan. Keyinchalik, ular Janubiy Amerika, Hindiston, Avstraliya va Antarktida bilan birga Gondvana superkontinenti tarkibiga kirgan.

Bo'lajak Gondvananining faollashuvi yetib bormagan panaafrika-braziliya hududida vend davrida Janubiy Amerikadagi San-Fransisko, Afrikadagi Taudeni va Kongo, Hindistondagi Vindiy singari yassi botiqiziklar rivojlangan va ular kontinental yoki sayoz dengiz terrigen yotqiziqlari bilan to'ldirilgan.

Janubiy Amerikaning g'arbiy va janubiy-g'arbiy chekkalarida Arekip, Serra-Pimpa va Shimoliy Patagon massivlari hamda Peru va Boliviadagi Sharqiy Kordilera ko'tarilgan. Kordilerada bu jaryonlar burmalanish va metamorfizmning yashiltoshli darjasini bilan birga kechgan. Nordon vulkanizm va granit hosil bo'lishi keng rivojlangan. Antarktida va Tasmaniyaning g'arbi ham orogen rivojlanishi bilan xarakterlangan, bunda Sharqiy Avstraliya chekkasi esa passiv rejimda rivojlangan.

Bo'lajak Lavrosiyoda hodisalar ancha o'zgacha kechgan. Bir tomonidan, kechki rifeyda mavjud bo'lgan Timan-Ural, Shimoliy Taymir, Yenisey-Baykal geosinklinal tizimlar yopilgan, ularning o'rnida burmali tog'lar vujudga kelib, Sharqiy Yevropa va Sibir kontinental palaxsalari kengaygan. Bu burmalanish N.S.Shatskiy tomonidan ***baykal burmalanishi*** deb nomlangan. Ikkinchisi tomonidan, Paleosiyo okeanining markaziy qismi ochilib, unda okean tipidagi po'stloq rivojlangan. U, keyinchalik, burmalanish davrida Markaziy Qozog'iston, Oltoy-Sayan viloyati va Shimoliy Mo'g'ulistonidagi ofiolitlar shaklida saqlanib qolgan.

Okean havzasining boshqa tomonida, Shimoliy Angliya va Uelsda kontinental chetning orollaryoyi zonasini joylashgan. Bo'lakli materiallar janubdan tashib keltirilgan. Kontinent yonbag'ri va etaklarida qalinligi 4–5 km bo'lgan qumtoshlar va gillar to'plangan. Vend yotqiziqlari kesmasini andezit va riolitlarning tuflari va lavalari yakunlaydi.

G'arbiy Yevropada chuqur suvli sharoitlar hukm surgan. Kontinent yonbag'ri va etaklarida kremniy-gilli va kremniyli cho'kindilar shakllangan. Shunday cho'kindilar Aljirda ham to'plangan. Ispaniya,

Markaziy Fransiya va Bolqon yarimorolining sharqiy hududlarida dengiz shelfi joylashgan bo'lib, unda qum-gilli material to'plangan.

Sharqiy Yevropa va Sibir kontinentlarida erta vendda rifevida paydo bo'lган rift-avlakogenlar o'zining rivojlanishini davom ettirgan va kechki vendda yassi botiqliklarga aylangan.

Erta vendda Sharqiy Yevropa va Sibir kontinentlarida muzlanish paydo bo'lган (lapland) va kechki vendda platformalarda sineklizalar yuzaga kelgan.

Proterozoyning oxiriga kelib Sibir platformasining janubiy hududlari hisobiga quruqlik maydoni sezilarli oshgan. Burmali viloyatlar sharqda ham vujudga kelgan. Sibir platformasini va yangidan shakllangan tog'li hududlarni o'z ichiga oluvchi *Angarida* paydo bo'lган. Tektonik faoliyat intruziyalarning yorib kirishi va ma'danlashuvi bilan birga kechgan. Bu orogen bosqich natijasida kontinental sharoitlar va keskin parchalangan relyef keng rivojlanadi. Platformalar va yangidan hosil bo'lган tog'lar ko'tariladi va u faol vulkanizm bilan birga kechadi. Tog' tizmalari etaklarida botiqliklar vujudga kelib, ularda katta qalinlikdagi yotqiziqlar to'plangan. Bu yotqiziqlarda neft, boksit va temir ma'danlarining konlari vujudga kelgan.

**Paleogeografiyasi.** Kechki proterozoyda platformalar bilan bir qatorda geosinklinallar ham faol rivojlangan. Ularning hududlari, odatda, juda ko'p vulkan orollariga ega bo'lган sayoz dengizlar bilan qoplangan. Ushbu dengizlarga kontinent va orollardan juda ko'p miqdorda bo'laklı material keltirib yotqizilgan. Shuning uchun ham kechki proterozoy geosinklinal viloyatlari uchun metamorfizm jaryonlari tufayli turli slanetslar, kvarsitlar, metamorflashgan konglomeratlar va brekchiyalarga aylanib ketgan ko'p kilometrli bo'laklı yotqiziqlar to'planganligi xarakterli. Hosil bo'lishida ko'k yashil suvo'tlari, muhim ahamiyatga ega bo'lган ohaktoshlar va marmarlar (metamorfizmga uchragan ohaktoshlar) ham keng rivojlangan. Magmatik jinslarning ulushi 18–20 % gacha qisqargan.

Erta vendda Yevropaning ancha qismi muzliklar bilan qoplangan. Norvegiya, Shvetsiya, Shpitsbergen, ayniqsa, Sharqiy Yevropa platformasining quruqliklarida tillitlar keng tarqalgan.

Sharqiy Yevropa platformasi hududida lapland muzlanishidan so'ng transgressiya boshlangan va dengizlar markaziy va shimoliy rayonlarni qamrab olgan.

Shimoliy Uralda orollaryoyi zonasini joylashgan va unda andezitli vulkanizm faoliyat ko'rsatgan. Qutbiy Uralda, Yangi Yerning janubida kechki rifey vaqtidan chuqur suvli sharoitlar saqlanib qolgan va bunda terrigen cho'kindilar qatorida bazalt yotqiziqlari ham hosil bo'lgan.

Uralning sayoz dengiz yotqiziqlari orasida tillitlar uchraydi. Transgressiya vendda Sibir platformasi hududini ham qamrab olgan. Quruqlik maydoni kamaygan va sayoz dengiz sharoitlarida karbonatli cho'kindilar to'plangan. Terrigen yotqiziqlar faqat Sibir platformasining janubidagi tor sohilbo'yini zonasidagina to'plangan.

Ulkan Sibir dengizining markaziy qismida sho'rlik yuqori bo'lgan va bunda qumlar, gillar, karbonatlar, gips va angidrid to'plangan.

Markaziy Osiyoda yuvilish viloyatlari va keng shelflar mavjud bo'lgan. Dengiz shelfida karbonatli terrigen cho'kindilar hosil bo'lgan. Chuqur suvli havzalarda spilit-diabaz-kremniyli hosilalardan tarkib topgan ofiolit majmualari keng tarqalgan. Bunday yotqiziqlar Qozog'iston-Tyanshan viloyatida, Markaziy Qizilqumda va Oltoy-Sayan viloyatining ba'zi rayonlarida uchraydi. Xitoy-Koreya kontinentida avlakogenlar vendning boshlarida yopilgan va butun vend davomida kontinent ko'tarilgan.


Erta vend muzlanishining izlari Skandinaviya, Sharqiy Yevropa platformasi (Belorussiya), Tyanshan, Xitoy, Afrika va Avstraliyada yaxshi saqlanib qolgan.

Vend davrining ikkinchi yarmida landshaft-iqlimiylar sharoitlar sezilarli darajada o'zgargan. Yer yuzasi haroratining sezilarli ko'tarilishidan dalolat beruvchi karbonat-terrigenli va karbonat-evaporitli hosilalar keng rivojlangan. Yirik muzlik qoplamarining erishi tuyayli Dunyo okeanining sathi ko'tarilgan va keng transgressiya bosh-


langan. Yuqori harorat to‘g‘risida nafaqat evaporitlar va magnezial karbonatlar, balki hozirgi zamon riflariga o‘xshash biogerm qu-rilmalari ham dalolat beradi.

**Iqlimi.** Arxey va erta proterozoyda boshlangan iqlim zonalligi, ehtimol, kechki proterozoyda ham saqlangan. Qutb o‘lkalarini, kechki proterozoy morennalarining topilishiga qaraganda, Janubi-g‘arbiy Afrikani ko‘p vaqtlar egallab turgan. Vaqt-i vaqt bilan sovuq iqlim Sibir, Janubiy Amerika, Avstraliya va Yevropada kuzatilgan. Iliq iqlimli mintaqalar Tetis okeani sohillari bo‘ylab cho‘zilgan. Rifej vaqtining tipik landshafti mayda tepaliklarga ega bo‘lgan sahroli kontinental tekisliklar hisoblangan. Tekisliklarni tog‘lar o‘rab turgan. Nisbatan sayoz okean va dengizlarda orollar arxipelaglari ko‘p bo‘lgan. Organik hayot suvli havzalardagina rivojlangan.

Kechki proterozoydagi muhim xususiyat Yer atmosferasida erkin kislорodning paydo bo‘lishi va karbonat angidrid miqdorining keskin kamayib ketishi hisoblanadi. Atmosferaning taxminan 30 km balandligida to‘plangan ozon ( $O_3$ ) qatlami ham shakllangan. Astasekin qisqa to‘lqinli ultrabinafsha quyosh radiatsiyasini 97 % gacha tutib qoluvchi ozon «ekrani» vujudga kelgan. Okean suvlarining sho‘rligi oshgan va hozirgi qiymatiga yetgan. Bularning barchasi Yerning keyingi geologik tarixidagi bosqichlarda organik hayotning gurkirab rivojlanishini belgilaydi.



15-rasm. Dikinsoniya tamg‘asi.  
<http://wwlife.ru>



16-rasm. Yergiya tamg‘asi. <http://wwlife.ru>

**Organik dunyosi.** Kechki proterozoyning hayvonot dunyosidan ba’zi umurtqasiz hayvonlar: bulutlar, arxeotsiatlar, kavakichlilar (otuvchilar), chuvalchanglar, sodda ignatanllilar ma’lum. Eng yaxshi saqlangan hayvon qoldiqlari Janubiy Avstraliyaning Ediakariy rayonida topilgan. Vend yoshidagi gillarda meduzalar (13 tur), marjonlar (4 tur), chuvalchanglar (5 tur), mollyuskalar va ignatanllilarni eslatuvchi sistematikasi noma’lum organizmlarga mansub bo’lgan 150 nusxdan ortiq aksnushalari va tamg’alari (ediakariyli fauna) topilgan (14, 16 – rasmlar). Yaxshi darajada saqlangan aynan shunga o’xshash fauna Oq dengizning sohillarida kuzatiladi. Chuvalchanglarning naychalari, pogonofora va oddiy hayvonlarning skeletlari ham ma’lum.

Hayvonlar rivojlanishining navbatdagi bosqichi grebnevikkarning paydo bo’lishi hisobaladi (17-rasm). Hayotning keyingi rivojlanishi bundan 630 mln. yil ilgari dengizlar sayozligi tubida rivojlangan va keyinchalik ularning chuqur qismlariga tarqalgan bulutlarning paydo bo’lishi bilan bog’liq (18-rasm).

O’simlik dunyosi bakteriyalar, zamburug’lar va koloniylar tarzida tarqalgan ko’k yashil suvo’tlaridan iborat bo’lgan. Ko’k yashil suvo’tlarining shilliq moddasida qobiq va uyushiqlar hosil qilgan



17-rasm. Grebnevik. <http://wwlife.ru>



18-rasm. Bulutlar. <http://wwlife.ru>

ohakli moddalar ko‘p miqdorda bo‘lgan. Bu hosilalardan ba’zan stromatolitlar va onkolitlar deb ataluvchi rifsimon tanalar shakllangan.

Kechki proterozoy okeanlarida o‘scha vaqtning geologik sharoitlarini tiklash uchun yetarli miqdorda ko‘p sonli hayvonlar va o’simliklar tarqalgan deb o‘ylash mumkin. Baxtga qarshi ular skeletsiz bo‘lganligi tufayli toshqotgan holda juda kam uchraydi. Shuning uchun ham kechki proterozoy Yer tarixining oldingi bosqichlari kabi qabul qilingan umumiy stratigrafik tabaqalarga ega emas.

Vend davrida skeletsiz ko‘p hujayrali organizmlar gurkirab rivojlangan. Vend biotasi oldingi organik dunyo vakillaridan ham, kembriy davri vakillaridan ham keskin farq qiladi. Kembriy biotasi ko‘p sonli va taksonomik tomondan xilma-xil bo‘lgan mineral skeletsiz ko‘p hujayrali hayvonlarning qo‘qqisidan paydo bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Faqat vendning oxiridagina tubulyar xitinoidli yoki mineral skeletli mayda shakllargina paydo bo‘lgan.

Skeletsiz hayvonlarning juda yaxshi saqlanganligi va ko‘pligi hali ozuqa zanjirining oddiy va qisqa bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunki vend dengizlarining tubida to‘plangan cho‘kindilar sust biologik qayta ishlangan.

Vend faunasining o‘ziga xos xususiyati gigantizm hisoblanadi. Diametri 0,5 m dan ortiq bo‘lgan meduzoidlar, o‘lchami 1 m ga boruvchi dikinsoniylarning tamg‘alari ko‘plab uchraydi. Vend hayvonlarining gigantizmi ularning evolutsiyasidagi filogenetik tupik haqidagi dalolat beradi deb taxmin qilinadi. Aynan shuning uchun, ko‘p hollarda, kembriy organizmlari orasida vend hayvonlarining bevosita avlodlarini ko‘rsatib bo‘lmaydi. Vendda gigant hayvonlar qatorida mayda skeletsiz shakllar ham yashagan. Ehtimol, ularning avlodlari kembriyning boshlarida skeletsiz umurtqasizlarning gurkirab rivojlanishiga olib kelgan (19, 20-rasmlar).

Vend faunasi uchun rifeydagiga nisbatan ancha turli-tumanlik xos. Ammo turlari ko‘p guruqli bo‘lmagan. Vend faunasining qo‘qqisidan paydo bo‘lishi, ehtimol, tashqi muhitning o‘zgarishi – lapland global muzlanishi va undan keyingi iqlimning ilib ketishi hamda yaqqol



19-rasm. Ediakar biotikasi.  
<http://wwlife.ru>



20-rasm. Ediakar hayvonlari. <http://wwlife.ru>

ifodalangan transgressiya va atmosfera gaz tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Vend o‘simlik dunyosi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Ular ko‘p qatlamli qoplamlalar hosil qilgan. Mikroplankton organizmlar sferoidal va cho‘zinchoq shakllarga ega bo‘lgan va yirik to‘plamlarni hosil qilgan. Mikrofitoplanktonlar orasida zanjirli va agregatli koloniyalar paydo bo‘lgan.

**Foydali qazilmalari.** Erta rifey foydali qazilmalarga boy. Bu qatlam siderit-gematitli temir, qatlamli fosforitlar, mis va polimetall ma’dani konlaridir.

Temir ma’dani Uralda rivojlangan. Janubiy Uralda dolomitlarda magnezit koni mavjud. Ular Shimoliy Koreyada ham tarqalgan. Fosforitlarning tipik qatlamli yotqiziqlari Yenisey kryajida rivojlangan. Shunday ma’danlar Mo‘g‘uliston va Hindistonda ham ma’lum.

Erta rifeyning eng mashhur metalli plutonlaridan biri Kanadadagi Sedberi norithi lopoliti sanaladi. Uning tashqi zonasida sulfidli mis-nikelli ma’dan konlari joylashgan.

Kanadada uranning magmatogen konlari mavjud. Bu Katta Ayiq ko‘li rayonidagi qum toshlar va gneyslardagi tomirli uran smolkasi

konlaridir. Avstraliyada Radium-Xill magmatogen va Meri-Ketlin kontakt-metasomatik uran konlari ma'lum.

Tektonik cho'zilish viloyatlarida trapp tipidagi bazalt vulkanizmi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab mis (sulfidli va sof mis) konlari mavjud. Ular Shimoliy Amerikada ham ma'lum.

Kanadada Katta Ayiq ko'li rayonida mis ma'dani konlari ma'lum. Qatlamsimon sof mis yotqiziqlari O'rta Kivino, Syupirior va Neyn provinsiyalarida uchraydi.

Vanadiy, qo'rg'oshin, rux va sulfidli misga ega polimetal konlar Afrikaning Damar qambarida ma'lum. Zairning janubida misning yirik konlari Misli qambarni tashkil etadi. Uning kengligi 50–65 km, uzunligi esa 300 km dan ortiq.

Zambiyada kobaltdan tashqari rux, kadmiy, uran, vanadiy, germaniyl, oltin konlari mavjud. Zairdag'i Shabi (Katangi) misli qambarga dunyodagi eng yirik Shinkolobve uran koni kiradi.

Kechki rifey bilan Antiatlasdagi Bu Azzer va El-Graara kobalt konlari, Katangadagi qalayli pegmatitlar, Xoggar qalqonidagi mis ma'danlari, Afrikadagi mis-qo'rg'oshin va rux ma'dani, Arabiston yarimorolining shimoliy-sharqidagi oltin ma'danli tomirlari, Afrika va Avstraliyadagi barit, Hindistondagi olmosli konglomerat, Hindiston va Qozog'iston fosforit konlari bog'liq.


### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Destruksiya, konsolidatsiya, Pantalassa, tillit, protoavlakogen, avlokogen, sinekliza, tektonomagmatik epoxa, karel, baykal, stratotip, mikrofossiliy, riftogen, evaporit, molassalar, Paleosiyo, Protovapetus, Prototetis, Lapland muzlanishi, biota, gigantizm, filogenetik tupik, otuvchilar (kavakichlilar), kolonial poliplar, halqali chuvalchanglar, zanjirli va agregatli koloniylar.

### **Nazorat savollari**

1. Yer po'stining geosinklinal-platformali rivojlanish bosqichi qachon boshlangan?
2. Kechki proterozoy jinslari qaysi mintaqalarda tarqalgan?

3. Erta proterozoyning bosh xususiyati nimadan iborat?
4. Vitvatersrand seriyasi nimasi bilan mashhur?
5. Pangey-1 supermateriki qachon shakllangan?
6. Erta proterozoyda qanaqa konlar eng keng tarqalgan?
7. Karel tektonomagmatik epoxasi qachon namoyon bo‘lgan?
8. Pangey-I supermateriki qachon parchalangan?
9. Sodda ko‘p hujayrali organizmlar qachon paydo bo‘lgan?
10. Kechki proterozoyning muhim foydali qazilmalarini sanab bering.
11. Vend davri qachon boshlangan va qanday tabaqalanadi?
12. Rifej va vend chegarasida qanday olamshumul geologik hodisa sodir bo‘lgan?
13. Vend hosilalari qaysi mintaqalarda keng tarqalgan?
14. Panafrika orogenezi qachon sodir bo‘lgan?
15. Baykal burmalanishi qachon sodir bo‘lgan?



## 9-bob. ERTA PALEOZOY BOSQICHI

Yerdagi hayotning 1,8 mlrd. yillik davri turli geologik hodisalariga boy. Bu, asosan, Yerda hayot gurkirab rivojlangan fanerozoy eoniga taalluqli.

Nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida (500–600 mln. yil) sayyoramizning ko‘rinishini tubdan o‘zgartirib yuborgan bir necha olamshumul burmalanish bosqichlari sodir bo‘lgan. Paleozoy erasi kaledon va gersin tektogenez epoxalari bilan yakunlangan erta va kechki paleozoy bosqichlariga bo‘linadi.

Yer rivojlanishining erta plaeozoy (kaledon) bosqichi paleozoy erasining birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. U umumiyligi  $170 \pm 10$  mln. yil bo‘lgan kembriy, ordovik va silur davrlarini o‘z ichiga oladi. Geologik tarixning bu qismini batafsil tabaqalash uchun ko‘pchiligi ohakli yoki kremniyli chig‘anoq va suyaklarga ega bo‘lgan hayvonot va o‘simlik dunyosi keng rivojlangan.

**Geodinamikasi.** Ertal paleozoyda yer po‘stining rivojlanishi platforma va geosinklinallarda turlicha kechgan. Kechki proterozoyda boshlangan tektonik rejimning differensiatsiyasi yanada kuchaygan.

Materiklar, asosan, ekvator yaqinida to‘plangan, iqlimi iliq bo‘lgan, eksploziv vulkanizm kuchaygan. Kembriy oxirida bir qator qambarlarda orogenezning *salair* bosqichi bilan bog‘liq siqish deformatsiyasi, ko‘tarilish, metamorfizm va granit hosil bo‘lish jarayonlari kechgan.

Kembriyda G‘arbiy va Sharqiy Gondvana baykal orogenezi tufayli tutashgan. Buning natijasida yirik Gondvana kontinental massivi vujudga kelgan va u karbonning o‘rtalarigacha (320 mln. yil oldin) mavjud bo‘lgan, keyinchalik Yangi Pangey tarkibiga kirgan.

Ordovik davrining oxirlarida tektonik harakatlar natijasida materiklar ko‘tarilgan va dengiz regressiyasi amalga oshgan. Ba’zi joylarda tub kembriy va ordovik jinslar burmalanishga uchragan va tog‘lar vujudga kelgan. Orogenezning bu qadimiy bosqichi ***kaledon burmalanishi*** deb ataladi.

Silur davrida G‘arbiy Yevropada kaledonidlar qambari hosil bo‘lgan. Bu tog‘ zanjiri Norvegiya, Shotlandiya va Irlandiya hududlaridan o‘tgan. Shimoliy Sibirda ham orogenet rivojlangan bo‘lib, natijada, uning hududi yuqori ko‘tarilib, shundan keyin hech qachon dengiz bilan qoplanmagan.

Faol geosinklinallarda geologik jarayonlar ziddiyatli xarakterga ega bo‘lgan. G‘arbiy va Sharqiy Sibir, Skandinaviya yarimorolining shimoli, O‘rta yer dengizi, Kordilera va And, Sharqiy Avstraliyada juda ko‘plab orollarga ega bo‘lgan geosinklinal rejim hukm surgan. Kembriy va ordovikda geosinklinallarda bir necha kilometrli amplitudaga ega bo‘lgan differensiatsiyalangan vertikal harakatlar kuza tilgan. Tor cho‘ziq ko‘tarilgan qambarlar huddi shunday botiqliklar bilan qo‘shti bo‘lgan, ularda bo‘lakli va karbonatli yotqiziqlar to‘plangan. Vulkan harakatlari faol kechganligi tufayli effuziv jinslar ham keng tarqalgan.

Erta paleozoyning oxirida vujudga kelgan yer po‘stining barqaror hududlari epikaledon platformalari nomini olgan (21-rasm). Bunday strukturalar, odatda, tokembriy platformalarining chetlarida joylashgan bo‘lib, ularning umumiyl maydonini kengaytirgan. Ammo hali



*21-rasm.* Kaledonidlarning hozirgi strukturada tutgan o'rni. I – epikaledon platformalari: 1 – Shimoliy Grenlandiya, 2 – Grampian, 3 – Innuit, 4 – Markaziy Qozog'iston, 6 – Nanshan, 7 – Katosiyo; II – ilgari konsolidatsiyalangan viloyatlar; III – qadmiy Xitoy platformasining parchalangan palaxsaları

ko'p joylarda geosinklinal rejim saqlanib qolgan. O'rta yer dengizi, G'arbiy va Sharqiy Sibir, Kordilera va And, Sharqiy Avstraliya kechki paleozoyda ham o'zining geosinklinal rivojlanishini davom ettirgan.

**Paleogeografiyasi.** Shimoliy Amerikada har ikkala geosinklinal suv bilan qoplangan, kembriyning ikkinchi yarmida esa materikning markaziy qismi juda past bo'lib, har ikkala botiqlik sayoz dengiz orqali tutashgan va unda qumtoshlar, gilli slanetslar va ohaktoshlar to'plangan. Yevropa va Osiyoda yirik dengiz transgressiyasi sodir bo'lgan. Yer yuzasining bu qismi suv ostida qolib ketgan. Bundan quruqlikning uchta yirik massivi (Boltiq qalqoni, Arabiston yarim-oroli va Janubiy Hindiston), Janubiy Yevropa va Janubiy Osiyodagi bir qator uncha katta bo'lмаган quruqliklar istisnodir. Avstraliya va Janubiy Amerikaning markaziy qismida uncha keng bo'lмаган dengiz transgressiyasi rivojlangan. Kembriy davrining oxirida quruqlikning katta qismi ko'tarila boshlagan va qisqa muddatli dengiz regressiyasi sodir bo'lgan.

Ordovik davrda materiklar yana cho'ka boshlagan, natijada yer yuzasining pastqam hududlari sayoz dengizlar bilan qoplangan. Ordovikning oxirida Shimoliy Amerika hududining 70% dan ortig'i dengiz bilan qoplangan va ularda katta qalinlikdagi ohaktoshlar va gilli slanetslar to'plangan. Yevropa va Osiyoning keng maydonlari, qisman – Avstraliya va Janubiy Amerikaning markaziy rayoni ham dengizlar bilan qoplangan.

Ordovik davrini yakunlovchi tektonik ko'tarilishdan so'ng denudatsion bosqich boshlangan, silurning boshlarida materiklar yana cho'ka boshlagan, dengizlar esa pasttekisliklarni qoplab olgan. Shimoliy Amerikada erta silurda dengizlar akvatoriyasi sezilarli darajada qisqargan, ammo silurning o'rtalarida ular deyarli 60% hududlarni qoplab olgan. Katta qalinlikdagi dengiz ohaktoshlari hosil bo'lgan. Kechki silurda dengizlar akvatoriyasi ancha ko'p qisqargan.

Ordovik davri davomida iqlim sezilarli o'zgargan. Erta ordovikda u iliq arid bo'lgan, o'rta ordovikda gumidlashish kuchaygan, kechki ordovikda esa sovib, qutbiy viloyatlarda qoplama muzliklar hosil bo'lgan.

Erta paleozoyda platformalarda dengizlarning bir necha bor transgressiv-regressiv harakatlari kuzatilgan. Dengiz transgressiyasining maksimumi o'rta kembriy, o'rta ordovik va erta silur epoxalariga to'g'ri kelgan. Bu transgressiyalar oralig'ida quruqlik hududlari kengaygan.

Platformalarning davom etayotgan cho'kishi natijasida ularning bir necha million kvadrat kilometrlarga ega maydonlarini dengizlar qoplab olgan. Shu tufayli cho'kindi qoplamasni 3–4 km ga boruvchi plitalar paydo bo'lgan. Sharqiy Yevropa platformasida Rus plitasi, Shimoliy Amerika platformasida Buyuk tekisliklar va Midkontinent plitaları, Sibir platformasida esa, Angara-Lena plitasi va b. hosil bo'lgan.

Platformalarning qalqonlari cho'kmasdan yirik orollar sifatida quruqligicha qolgan. Bunga misol qilib Sharqiy Yevropa platformasining Boltiq va Ukraina qalqonlarini ko'rsatish mumkin. Qalqonlardan yondosh dengizlarga bo'lakli material keltirib yotqizilgan.


Yevropa va Osiyoda silur dengizlari keng tarqalgan va deyarli kembriy dengizlari qoplagan hududlarni egallagan. Yevropada katta qalinlikdagi ohaktoshlar Boltiq qalqonining janubiy qismi chegarasida to'plangan. Uncha yirik bo'limgan dengizlar Sharqiy Avstraliya, Shimoliy Afrika va Janubiy Amerikaning markaziy rayonlarida tarqalgan.

Silurning oxirida geosinklinal dengizlarning akvatoriyasi kaledon tektogenezi tufayli keskin qisqargan. Natijada, ko'pchilik geosinklinallar platformalar shaklida passiv hududlarga aylangan. Ularda keyinchalik faol tektonik harakatlar va vulkanizm sodir bo'limgan.

**Organik dunyosi.** Erta paleozoyning organik dunyosi rang-barang bo'lsa-da, ular amalda suv havzalaridagina hayot kechirishgan. Erta kembriy dengizlaridagi hayot organik dunyoning turfaligi bilan farq qilgan. Dengiz tubining illi gruntida yashagan bo'g'imoyoqlilarning alohida sinfiga mansub bo'lgan trilobitlar shular qatoridadir (22-rasm).

Trilobitlar ko'pchiligining uzunligi 2,5 sm dan oshmagan, ammolarning orasida ancha kattalari ham bo'lgan. Bu hayvonlar qatorida meduzalar, bulutlar va ohakli g'ovak skeletga ega arxeotsiatlar hayot kechirishgan.

Kembriy trilobitlari yaxshi rivojlangan bosh qalqonga va sust rivojlangan dum qismiga ega bo'lgan. Ular kembriy faunasining 60% ga yaqinini tashkil etishgan. Trilobitlar kembriy va ordovik



22-rasm. Kembriy dengizingning trilobitlari. <http://wwlife.ru>



23-rasm. Boshoyoqli mollyuska. <http://wwlife.ru>

davrularida gurkirab rivojlangan. Silurning oxiriga kelib ularning soni keskin kamayib ketgan.

Trilobitlarning keskin kamayib ketishiga boshoyoqli mollyuskalar (nautiloideylar) sababchi bo'lgan (23-rasm). Paleozoy erasining oxiriga kelib trilobitlar batamom qirilib ketgan, nautiloideylar esa hozirgacha yashab kelmoqda.

Yirtqichlar qadimiy tokembriy stromatolitli riflarini faol yemirishgan, ammo endi yangi ohak to'plovchi organizmlar keng rivojlangan. Bular oddiy bulutsimon organizmlar – arxeotsiatlar bo'lgan (24-rasm). Ular butun dunyoga yoyilgan va ko'plab turlarga tez evolutsiyalangan. Arxeotsiatlar, o'z navbatida, qo'qqisidan inqirozga uchragan va kembriyning o'ttalariga kelib, batamom qirilib ketgan. Ularning o'rnini dastlabki marjonlar egallagan.

Ilk bor paydo bo'lgan tishli hayvonlardan biri konodontlar sana-ladi. Ular kembriy davrining oxirlarida yoki ordovikning boshlarida paydo bo'lgan. Konodontlarning og'iz apparati 15 yoki 19 elementdan tuzilgan bo'lib, hozirgi hayvon jag'laridan batamom farq qilgan (25-rasm). Elementlarining shakli tishsimon, o'rakchli, yaproqsimon ko'rinishiga ega.

Barcha kembriy umurtqasizlari ordovikda ham rivojlanishini davom ettirgan. Bulardan tashqari, marjonlar, peletsipodalar (ikki ta-



24-rasm. Arxeotsiatlar.

<http://wwlife.ru>



25-rasm. Konodontlar.

<http://wwlife.ru>

vaqali mollyuskalar), mshankalar va dastlabki umurtqalilar paydo bo‘lgan.

Silur jinslarida, umuman olganda, ordovik davridagi organik dunyoning vakillari kuzatiladi. Silurda quruqlik o’simliklari hali paydo bo‘lmagan. Umurtqasizlar orasida marjonlar juda keng tarqalgan bo‘lib, ularning hayot-faoliyati tufayli ko‘pchilik rayonlarda yaxlit marjon riflari shakllangan. Silur oxirida ko‘pchilik yirik suv bo‘g‘imoyoqlilari paydo bo‘ladi.

O‘sha vaqtлari stromatoporoideyalar va marjonlarga rif qurish uchun yordam bergen kolonial hayvonlarning yana bir g‘aroyib guruhi – mshankalar paydo bo‘lgan. Ba’zi mshankalar yupqa to‘rli to‘g‘ri katakli butalarni hosil qilgan (26-rasm).

Silurda yirik qisqichbaqasimonlar – evripteridlar otryadi rivojlanan boshlagan (27-rasm). Bu hayvonlar cho‘zinchoq ninaga ega bo‘lib, ularning uzunligi 1 m va hatto 3 m gacha borgan. Ularning ko‘pchiligi yirtqichlar bo‘lgan. Kushandasasi bo‘lmaganligi tufayli bu hayvonlar nafaqat sho‘r, balki chuchuk suvlarda ham keng tarqalgan.

Quyosh nurlari ta’sirida isigan silur dengizlarining litoralida turli xil mavjudotlar yashagan. Dengiz tubida tabulyatalar va yirik stromatoporalarning koloniyalari hayot kechirishgan. Stromatoporalar



26-rasm. Mshankalar.

<http://wwlife.ru>



27-rasm. Qisqichbaqasimonlar.


<http://wwlife.ru>

ba'zan qopsimon shaklga ega bo'lgan. Sharsimon kolonial suvo'tlari va to'rt nurli marjonlar ham gurkirab rivojlangan. Marjonlar va stromatoporalar orasida qorinoyoqli mollyuskalar yashagan. Shuningdek, o'simliksimon shakldagi dengiz nilufarları va uzun konussimon chig'anoqli nautiloideyalar keng tarqalgan (28-rasm).


Silur davrida umurtqasizlar gurkirab rivojlanishi davom etgan. Ular, asosan, ohakli chig'anoqlar va skeletga ega bo'lgan.

Erta paleozoyda organik dunyoning rivojlanishida muhim voqeа dastlabki umurtqali hayvonlarning paydo bo'lishi hisoblanadi. Ularning orasida yarimxordalilar – graptolitlar katta ahamiyatga ega bo'lgan (29-rasm). Ammo ular silurning oxiriga kelib qirilib ketgan. Graptolitlarning yupqa uzun tanasi xitinli pleyonka bilan o'ralsan. Bu hayvonlar suv oqimlari bilan ko'chirilib, passiv hayot kechirishgan.

**Foydali qazilmalar. Fosforitlar.** Erta kembriy – Yer tarixida fosforitlar va tuzlar to'plangan yirik epoxalardan biri hisoblanadi. Bu vaqtida, Qoratovda (Qozog'iston), Xitoyning janubi-sharqida



28-rasm. Silur dengizida hayot kechirgan hayvonlar hamjamiyati.  
<http://wwlife.ru>



29-rasm. Graptolitlar.  
<http://wwlife.ru>

(Yunnan viloyati) va Shimoliy Vyetnamda keng fosforitli havzalar vujudga kelgan. Erta va o'rta ordovikda Sharqiy Yevropa va Sibir platformalarida, Angliya va Shvetsiyada donali-chig'anoqli fosforit konlari hosil bo'lgan.

**Tuz.** Kembriy davrida hosil bo'lgan tuzlar miqyosi bo'yicha devon va permning ulkan tuz hosil bo'lgan epoxalari bilan qiyoslash darajasida bo'lgan. Silur cho'kindi jinslarida osh tuzi konlari ko'p uchraydi, ularning yirik zaxiralari Shimoliy Amerika platformasida to'plangan.

**Neft va gaz.** AQSH midkontinenti neftining uchdan birini beruvchi ko'pchilik mahsuldor gorizontlari ordovik yoshiga ega. AQSH-dagi ba'zi neft konlari silur yotqiziqlari bilan bog'liq. Shu davrda Klintondagi (AQSH) oolitli temir ma'danlari hosil bo'lgan.

**Ma'danli konlar.** Granitoidlarning kaledon intruziyalarida Shimoliy Qozog'iston, Kuznetsk Olotovi va Tog'li Shoriyadagi oltin konlari uchraydi. Uraldagi o'ta asosli intruziyalar bilan xromit, Nyufaundlend oroli va Kvebek (Kanada) provinsiyasidagi asbestos konlari bog'liq. Pegmatitlarda Appalachi va Sharqiy Sibirdagi nodir metall konlari rivojlangan. Ordovik magmatizmi bilan Norvegiyaning mis va kobalt, Salair kryajining polimetalli va Qozog'istonning oltin konlari bog'liq.

Ordovikda Nyufaundlendda hamda Argentina va bir qator G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi oolitli cho'kindi shamozit-gematitli konlar shakllangan.

### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Kembriy, ordovik, silur, Gondvana, Lavrosiyo, Pangey, megakontinent, Lavrentiya, Salair orogenezi, kaledon burmalanishi, arxeotsiatlar, trilobitlar, braxiopodalar, mshankalar, kaledon, orogenez.

## **Nazorat savollari**

1. Kembriyda keng tarqalgan va gurkirab rivojlangan organizmlar to‘g‘risida gapirib bering.
2. Kembriy yotqiziqlarida qanday foydali qazilmalar keng tarqalgan?
3. Kaledon tog‘ burmalanishi qachon sodir bo‘lgan?
4. Ordovik yotqiziqlari bilan bog‘liq yirik neft konlari qaysi hududlarda keng tarqalgan?
5. Silur davrida qaysi hayvonlar gurkirab rivojlangan?
6. Pangey-P qachon shakllangan?
7. Lavrosiyo qanday kontinentlarning birlashishi tufayli hosil bo‘lgan?



## 10-bob. KECHKI PALEOZOY BOSQICHI

Yerning kechki paleozoy (gersin) rivojlanish bosqichi umumiyligi  $170 \pm 10$  mln. yil bo'lgan devon, karbon va perm davrlarini o'z ichiga oladi.

Geologik tomondan kechki paleozoy tarixidagi hodisalar Yer po'sti rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, platformalar hududining kengayishida o'z aksini topgan.


**Geodinamikasi.** Devon davri Yer tarixida keskin o'zgarishlar davrlaridan biri bo'lgan. U erta paleozoyni yakunlagan va kechki paleozoyni boshlab bergen. Silur va devon chegarasi kaledon orogenezing Lavrentiya va Baltiyani birlashtiruvchi kaledonidlarning Shimoliy Atlantika qambarini va yangi Lavrussiya megakontinentini yaratgan kulminatsiyasiga to'g'ri keladi. Bu Vegenerning Pangeyi yoki Pangey-Pning hosil bo'lishiga qo'yilgan birinchi qadam edi. Kaledon orogenezi o'rta devonda yakunlangan. Gersin bosqichini boshlab bergen kechki devonda Sharqiy Yevropa, Barensev-Pechora, Sibir, Janubiy Amerika, Afrika va Avstraliya platformalari vulka-

nizm bilan birga kechgan riftogenezga uchragan, Sharqiy Yevropa va Sharqiy Sibirda olmosli kimberlit trubkalari hosil bo‘lgan.

Erta karbon davomida Gondvananing shimolga surilishi va Lavrussiyaga yaqinlashishi tezlashib borgan. Iberiy yarimoroli rayonida va G‘arbiy Mag‘ribda ular deyarli tutashadi, g‘arbroqda esa, G‘arbiy Gondvanani Shimoliy Amerikadan ajratib turuvchi okean havzasining kengligi 600–800 km gacha qisqaradi. Bu Lavrussiya-ning ham shimolga siljishiga qaramasdan soat mili yo‘nalishida burilib, Giperbore bilan Sibirga yaqinlashadi (30-rasm).

Gondvana superkontinenti deyarli butunlay ko‘tarilgan hududni tashkil etgan. Faqat Shimoliy Afrika, Shimoli-sharqiy Braziliya va Avstraliyaning ba’zi joylaridagina kontinental yoki sayoz dengiz sharoitlarida cho‘kindilar hosil bo‘lgan. Avstraliyadagi Amadies avlakogeni o‘zining rivojlanishini siqilish deformatsiyasi bilan yakunlagan.

Karbonning ikkinchi yarmi va permda Yevrosiyo uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yangi tektonik bosqich sodir bo‘ladi. Trias davrining boshlarigacha davom etgan faol tektonik harakatlar tufayli



30-rasm. Karbon davrida litosfera plitalarining tutgan o‘rni

Sharqiy Yevropa va Sibir platformalari hamda hozirgi Yevrosiyoning janubiy qismlari orasida tog‘li quruqlik vujudga kelgan. Buning nati-jasida qadimgi qurilmalar yagona massivga payvandlangan. Hozirgi Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning katta qismini hamda janubiy materiklarni o‘z ichiga olgan ulkan materik Pangey vujudga kelgan. Bu tektonik bosqich juda uzoq davom etgan. U makon va zamonda bir-biriga mos kelmaydigan bir necha fazadan iborat bo‘lgan.

Perm davrining boshlariga kelib Lavrussiya Sibir bilan birlashib Lavrosiyo hosil bo‘lgan. Uning Gondvana bilan birlashishi tufayli Pangey-II vujudga kelgan. Pangey-II o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan – u meridian bo‘ylab cho‘zilib, Janubiy Gondvana qutblarigacha cho‘zilgan, Sibir esa, juda yuqori kengliklarga borib qolgan. Bu esa ushbu hududlarni muz bosishiga olib kelgan.

Paleozoy erasining oxirlarida, qisman karbon, qisman perm-da ko‘pchilik rayonlarda orogenez boshlangan. Appalachi geosink-linalining katta qalinlikdagi cho‘kindi jinslari burmalangan va yer yoriqlari bilan murakkablashgan. Tog‘ hosil bo‘lishining bu bosqichi Yevropa va Osiyoda *gersin*, Shimoliy Amerikada esa, *appalachia orogenezi* deyiladi (31-rasm).

Gersin orogenezining boshlang‘ich fazalarida Yevropaning janubida va Markaziy Osiyoda tog‘ tizmalari vujudga kelgan. Bunda Sharqiy Yevropa platformasiga va erta paleozoy yoshidagi strukturalar tarqalgan tekislangan viloyatlarga dengizbosib kirgan. Ko‘tarilayotgan tog‘larning etaklarida paydo bo‘lgan botiqliklarda toshko‘mir konlari hosil bo‘lishiga olib kelgan o‘simlik qoldiqlari to‘planadi. Tog‘ hosil bo‘lishining keyingi rivojlanishi intruziyalarning faol yorib kirishi va ma’danlashuv bilan birga kechgan. Perm davridagi tog‘ hosil bo‘lish jarayonlari platformalarning umumiy ko‘tarilishi bilan birga kechgan va permning oxirida Pangeyning Yevrosiyo qismi quruqlikka aylanib, unda oldin hosil bo‘lgan tog‘larning nurashi va ilgari nam va keyinchalik quruq iqlim sharoitlarida terrigen yotqiziqlar to‘plangan.

Gondvana superkontinenti deyarli butunlay ko‘tarilgan hududni tashkil etgan. Faqat Shimoliy Afrika, Shimoli-Sharqiy Braziliya va



*31-rasm.* Gersinidlarning hozirgi strukturada tutgan o‘rni. I – epigersin platformalari: 1 – Appalacha, 2 – Janubiy Amerika, 3 – G‘arbiy Yevropa, 4 – Ural-Tyanshan, 5 – Mo‘g‘ul-Oxota, 6 – Shimoliy Afrika, 7 – Janubiy Afrika, 8 – Sharqiy Avstraliya; II – oldingi konsolidatsiya viloyatlari; III – old botiqliklar: A – Appalachioldi, B – Uraloldi

Avstraliyaning ba’zi joylaridagina kontinental yoki sayoz dengiz sharoitlarida cho‘kindilar hosil bo‘lgan.

**Paleogeografiyasi.** Devon davrining boshlarida (400 mln. yil ilgari) tokembriy platformalari va kaledon viloyatlari kechki silur-dayoq boshlangan dengiz regressiyasini o‘z boshidan kechirgan. Keyinchalik, o‘rta va kechki devon hamda karbonda dengiz bir necha bor platformalarga bosib kelgan va chekingan. Dengizlarda qumlar, gillar va karbonatli yotqiziqlar to‘plangan. Karbonatli jinslar deyarli butunlay kechki paleozoy dengiz va okeanlarida tarqalgan umurtqasiz hayvonlarning qoldiqlaridan tarkib topgan. Platformalarning sohil-bo‘yi hududlarida ko‘mirli yotqiziqlar shakllangan.

Devon davrida kaledon viloyatlari, tokembriy platformalaridan farqli o‘larоq, aniq ifodalangan tog‘li relyefga ega bo‘lgan. Tog‘oralig‘i botiqliklarida vulkanogen jinslar qatlamchalariga ega bo‘lgan katta

qalinlikdagi qizil rangli konglomeratlar to‘plangan. Asta-sekin relyef tekislanib borgan va karbonga kelib, normal dengiz yotqiziqlari hosil bo‘lgan.

Devonning boshlarida geosinklinal qambarlarda dag‘al bo‘lakli jinslar (konglomeratlar) hosil bo‘lgan va keyinchalik ular qum-gilli va karbonatli jinslar bilan almashgan. Karbon davrida esa, qum-gilli va karbonatli jinslarning almashinib cho‘kmaga o‘tishi davom etgan. Geosinklinallarning ko‘p joylarida toshko‘mir qatlamchalari uchraydi. Devon va karbonda kuchli vulkanizm kuzatilgan. Gosinklinallarda to‘plangan yotqiziqlarning qalinligi 15–20 km ga boradi.

Karbon davrida muayyan tanaffusdan so‘ng materiklar yana cho‘ka boshlagan va ularning pasttekislik qismlari sayoz dengizlarga aylangan.

Yevropa va Janubiy Osiyoning ba‘zi rayonlari butun karbon davri davomida dengizlar bilan qoplangan bo‘lib, ularda gilli slanetslar va qumtoshlar to‘plangan. Afrika, Avstraliya va Janubiy Amerikada quyi karbon yotqiziqlarining juda kam uchrashi bu hududlarda kontinental sharoitlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Kechki karbonda (Shimoliy Amerika – Pensilvaniyada) materiklardagi sharoitlar o‘zgara boshlagan. Kontinental yotqiziqlarning keng tarqaganligi dengizlar egallagan maydonlarning keskin qisqarganidan dalolat beradi. Bu vaqtida Shimoli-g‘arbiy Yevropaning katta qismi subaeral sharoitlarda bo‘lgan. Keng epikontinental Ural dengizi Shimoliy va Markaziy Rossiyaga tarqagan, yirik geosinklinal esa, Janubiy Yevropa va Janubiy Osiyo (hozirgi Alp, Kavkaz Himolay tog‘lari uning o‘qi bo‘ylab joylashgan) orqali o‘tgan. Tetis deb nomlanuvchi bu dengiz keyingi bir qator geologik davrlarda mavjud bo‘lgan.

Kechki karbondan boshlangan tabiiy sharoitlarning o‘zgarishi paleozoy erasini yakunlovchi perm davrida yanada rivojlangan. Bu davrning boshlarida hozirgi Ural tog‘lari o‘rnida shu nomli geosinklinal joylashgan. Sayoz dengizlar Yevropaning shimolini davriy ravishda qoplab turgan va ularda qatlamlı dengiz va quruqlik yotqiziqlari – qumtoshlar, ohaktoshlar, gilli slanetslar va osh tuzi

to‘plangan. Shimoliy Hindiston va Himolay tog‘larining o‘rnida katta qalinlikdagi ohaktoshlar to‘plangan. Perm yotqiziqlari Sharqiy va Markaziy Avstraliyada, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo orollarida keng tarqalgan. Ular Braziliya, Boliviya va Argentinada hamda Janubiy Afrikada uchraydi.

Shimoliy Hindiston, Avstraliya, Afrika va Janubiy Amerikadagi ko‘pchilik perm formatsiyalari quruqlik sharoitlarida to‘plangan. Ular zichlashgan muzlik yotqiziqlaridan iborat.

Shimoliy Amerikada perm dengizlari paleozoyning ilgarigi davrlidagiga nisbatan kamroq maydonlarni egallagan. Dengizlar egal-lagan maydonlar ancha qisqargan, permning oxirida katta qalinlikdagi tuzli yotqiziqlar to‘plangan.

**Iqlimi.** Butun devon davri davomida iqlim iliq yoki, hatto, issiq, arid yoki nam bo‘lgan. Kechki karbonda Janubiy yarimshar materiklarida qoplama muzliklar rivojlangan. Erta permda ekvatorial, tropik, sub-tropik va mo‘tadil iqlim qambarlari ajralgan. Yuqori haroratning mavjud bo‘lishi monomiktli, oligomiktli, ekstrakarbonatli, karbonat-sulfatli va evaporitli formatsiyalarning rivojlanishiga, rif qurilmalari va issiqlikni sevuvchi dengiz faunasining keng tarqalishiga olib kelgan.

**Organik dunyosi.** Devon davrida organik dunyo evolutsiyasida ba’zi muhim voqealar sodir bo‘lgan. Yer sharining ko‘pchilik rayonlarida dastlabki quruqlik o‘simliklarning qoldiqlari topilgan. Dengizlarda ko‘p sonli qisqichbaqasimonlar, baliqlar, quruqlikda esa zich o‘simliklar, shu jumladan paporotniklar vujudga kelgan (32-rasm).

Umurtqasizlar orasida bulutlar, marjonlar, mshankalar, braxiopodalar va mollyuskalar keng tarqalgan. Silur davriga nisbatan soni va tur xilma-xilligi ancha qisqargan bo‘lsa-da, trilobitlarning bir qancha turkumlari saqlanib qolgan. Devonni, odatda, baliqlar o‘zining gurkiragan davriga kirganligi uchun uni «baliqlar asri» deb atashadi. Akulasimon baliqlarning uzunligi 6 m ga yetgan. Bu vaqtida ikki xilda nafas oluvchi baliqlar paydo bo‘lgan. Kechki devonda quruqlik hayvonlari – yirik salamandrsimonli amfibiyalarning dastlabki izlari




32-rasm. Devon davrining hayvonot va o'simlik dunyosi: 1 – tulpeton, 2 – akantostega, 3 – botriolepis, 4 – eustenodon, 5 – psammolepis, 6 – plourdosteus, 7 – akantondlar, 8 – paporotnik, 9 – tarakan, 10 – ko'poyoq, 11 – chayon, 12 – xorneofiton, 13 – asteroksilon, 14 – raniy, 15 – agleofiton, 16 – kuksoniya, 17 – teniokarda, 18 – eosterofillum, 19 – yuzoyoq

topilgan. 385 million yil ilgari ba'zi belgilari bo'yicha amfibiyaga o'xshash g'alati baliqlar – panderixlar vujudga kelgan (33-rasm). Uzunligi 1 m ga boradigan bu baliqlar qisqa dumga ega bo'lgan. Ular dengiz sayozliklari va lagunalarda tarqalgan, qadimgi baliqlar singari havodan nafas olgan va baquvvat muskulli suzgichlari yordamida quruqlikda ham harakatlangan. Suv qaytishi vaqtida sohilda qolib ketgan hayvonlar bilan oziqlangan. O'lchami bir metrga boruvchi ko'poyoqlar esa, kamayib keta boshlagan (34-rasm).

Devon davrining oxirlariga kelib quruqlikni daraxtsimon o'simliklar egallay boshlagan (35-rasm).

Karbon davrida quruqlik o'simliklari rivojlanishi uchun juda qulay sharoitlar vujudga kelgan. Iliq nam iqlim yer sharining yirik hududlarida hukmronlik qilgan. Atmosferada kislород miqdori keskin



33-rasm. Devon davrining yirtqich balig'i (panderix). <http://wwlife.ru>



34-rasm. Devon davrining ulkan hasharoti (ko'poyoq). <http://wwlife.ru>

oshgan. Yog'in-sochinlarning mo'l bo'lishi keng maydonlarning botqoqlanishiga olib kelgan va ular plaunli, qirqbo'g'inli o'simliklar va paporotniklar (lepidodendronlar, sigillyariyalar, kalamitlar) – gigant daraxtsimonlarning zich o'rmonlari bilan qoplangan. Daraxtlarning tanasi bo'yicha 30–40 m va 2 m ga borgan. Karbonda birinchi ochiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan. O'zining o'tib bo'lmasligi bilan karbon o'rmonlari hozirgi sohilbo'yi botqoqli mangr changalzorlariga o'xshash bo'lgan.



35-rasm. Devon davridagi dastlabki quruqlik o'simliklari. <http://wwlife.ru>

Kontinentlarda o'simlik biomassasining keskin oshishi atmosferadan karbonat angidridning jadal o'zlashtirilishiga olib keldi. U, qisman, organik moddalarda to'plangan uglerodga va atmosferaga chiqib ketayotgan kislorodga aylangan. Atmosferada kislorod miqdorining ko'payishi kimyoviy nurash, xususan, turlicha minerallarning oksidlanishiga olib kelgan.

Iliqlik va namlikni yaxshi ko'ruvchi flora erta karbon epoxasiga xos bo'lган.

Umuman olganda, erta karbon epoxasining (yoki missisipi) organik dunyosi devon davridagidek bo'lган. Ammo, daraxtsimon paporotniklarning xilma-xil tarkumlaridan tashqari, florasi daraxtsimon plaunlar va kalamitlar bilan boyigan. Umurtqasizlar, asosan, devon davrida paydo bo'lган turlardan tarkib topgan. Erta karbonda dengiz nilufarlari – shakli bo'yicha gulga o'xshagan dengiz tubi jonivorlari keng rivojlangan. Toshqotgan umurtqalilar orasida akulatsimon baliqlar va stegotsefallar ko'pchilikni tashkil etgan. Karbon dengizlarida hayot rang-barang bo'lган. Foraminiferalar, xususan, fuzulinidalar juda keng tarqalgan.


O'rta karbonda shvagerinalar paydo bo'ladi. Ularning shar shaklidagi chig'anog'ining o'chhami no'xatdek bo'lган. Ulardan organogen ohaktoshlar hosil bo'lган.

Marjonlar orasida oldin tabulyatalar, keyinchalik esa, xetetidlar ustuvorlikka ega bo'lган. Kolonial marjonlar, ko'p hollarda, rif qurilmalarini hosil qilgan.

Shu vaqtida ignatanllilar jadal rivojlangan. Xususan, dengiz nilufarlari va tipratikanlari gurkirab rivojlangan. Mshankalarning ko'pchilik koloniyalari qalin ohaktosh qatlamlarini hosil qilgan. Yelkaoyoqli mollyuskalar ham xilma-xil bo'lган.

Karbon davri akulalarining muhim xususiyati tish spirali – pastki jag'idagi qator tishli va, odatda, spiralga o'ralgan pastki jag'idagi uzun yumshoq o'simta sanaladi (36-rasm).

Karbon davrida gersin tog' hosil qiluvchi jarayonlari tog'oralig'i botiqliklarida va sohilbo'yi viloyatlarida quruqlikning keng may-



36-rasm. Karbon davri akulasi  
(evgeneodont). <http://wwlife.ru>



37-rasm. Ammonit. <http://wwlife.ru>

donlari cho'kishi bilan kechgan. Bu maydonlarda o'tib bo'lmas changalzorlar bilan qoplangan ko'plab botqoqlashgan havzalar hosil bo'lgan. Aynan shu joylarda hozir Yevropa va Shimoliy Amerikaning muhim ko'mir konlari joylashgan. Karbon o'rmonlari, asosan, ulkan daraxtsimon plaunlar, kalamitlar guruhidagi qirqbo'g'imlar, kordaitlar va daraxtsimon paporotniklardan tarkib topgan.

Dengiz chekinganda daraxtsimon paporotniklar, plaunlar va kalamitlardan tarkib topgan o'rmonli botqoqlangan landshaft shakllangan (38-rasm). Dengiz transgressiyasida cho'kindi jinslar o'rmonlarni qoplab qolgan, ko'milgan daraxt qoldiqlari zichlashib, oldin torfga, keyinchalik esa, ko'mirga aylangan.

Karbon davrida lagunalar sohillarida va sanoqsiz botqoqliklarda o'simliklarning juda gurkirab rivojlanganligi e'tiborga loyiq. Ulkan plaunlar – lepidodendronlar (*Lepidodendron*); uchida uzun tor barglar to'plamiga ega sigillyariyalar (*Sigillaria*) paydo bo'ladi. Shu vaqtida kordaitlar guruhidagi ochiqurug'li o'simliklar ham keng rivojlanadi (39-rasm).

Yerda iqlimning sezilarli o'zgarishi perm davrida sodir bo'lgan. O'rta karbonda boshlangan faol tektonik harakatlar kechki karbonga kelib Yer sharining ko'pchilik rayonlarida rivojlanishining geo-sinklinal rejimi yakunlanishiga olib kelgan. Geosinklinallar o'rnida tog' tizmalarini vujudga keladi. Ural, G'arbiy Sibir, O'rta Osiyo, G'arbiy



38-rasm. Karbon davrining o'simliklari

Yevropa, Shimoliy Amerikaning sharqi, Avstraliya sharqi – bularning barchasi karbon davrida vujudga kelgan yosh tog‘lar bo‘lgan. Oldin shu hududlarni qoplagan dengizlar chekinib, keng maydonlar ochilib qoladi yoki yirik sayozlashib yirik lagunalarga aylanadi. Perm davrining xarakterli tomoni qizil rangli kontitental bo‘lakli jinslarning va xemogen laguna yotqiziqlarining to‘plangani hisoblanadi (osh tuzi, gips, angidrid, dolomit).

Dengiz havzalarining qisqarishi va tog‘li quruqliklarning keskin oshishi iqlimning kontinental xarakterga ega bo‘lishiga olib kelgan. Karbonning zich o‘rmonlari namlikning yetishmasligi sababli astasekin o‘zgarib boradi va o‘z o‘rnini issiq sahro o’simliklariga bo‘shatib beradi. Shu sababli kechki perm florasi keskin o‘zgaradi: namgarchilik o’simliklari qirqbog‘inlar, paporotniklar, plaunlar o‘rnini surg‘oqchil iqlimga moslashgan ochiq urug‘li o’simliklar – ignabarglilar, sikadalilar va gingkolar egallaydi.

Hayvonot dunyosida ham keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Quruqlikda amfibiyalar reptiliyalarga o‘rnini bo‘shatib beradi. Amfi-



39-rasm. Karbon davrining botqoqli landshafti. <http://wwlife.ru>

biyalar faqat tropiklarda yashashni davom ettirgan (Shimoliy Amerikaning ba'zi rayonlari, Yevropaning janubi, Janubi-sharqiy Osiyo). Ko'payishda suvgaga muhtoj bo'lмаган reptiliyalar, birinchi navbatda, sahro, yarimsahro va cho'llarni egallab oladi.

Permning umurtqasiz hayvonlari oldingi davrlardan meros bo'lib qolgan. Umurtqalilar evolutsiyasida esa, ulkan o'zgarishlar sodir bo'lgan. Barcha materiklarda perm yoshidagi kontinental yotqiziqlarning uzunligi 3 m gacha boradigan sudralib yuruvchi hayvonlarning qoldiqlariga ega. Ularning hammasi mezozoy dinozavrлarining aj-dodlari bo'lib, o'zining oddiy tuzilishi va tashqi ko'rinishi bo'yicha kaltakesaklarga yoki alligatorlarga o'xshash bo'lgan. Stegotsefallar hali ham ko'p sonli bo'lgan.

Dengizlarda ilgarigidek turli yelkaoyoqlilar yashagan. Tikonli braxiopodalar yer yuzasida, qolganlari qattiq dengiz tubiga yoki boshqa hayvonlarning chig'anog'iga yopishib yashagan. Ikki tavaqali molluskalar ham keng tarqalgan.

Perm davri dengizlarining hayvonot dunyosi karbondagidek xilma-xil bo'lmagan. Foraminiferalar siyrak uchragan, bulutlar, marjonalar va ignatanlilarning soni keskin qisqarib ketgan.

Permning boshlarida suvda ham, quruqlikda ham yashovchilar hukmronlik qilishgan. Ular barcha umurtqalilarning 70% ni tashkil etishgan.

Iqlimning quruqlashib borishi tufayli nam g'ovakli teriga ega bo'lgan suvda ham, quruqlikda ham yashovchi hayvonlar keskin kamaygan. Ularning ko'pchilik batamom qirilib ketgan. Ularning o'rnnini reptiliyalar egallab olgan.

Perm davrining oxirlarida materiklarning ko'pchilik rayonlarida umumiy ko'tarilish fonida kechgan orogenez atrof-muhitni keskin o'zgartirgan. Bu paleozoy faunasining ko'pchilik xarakterli vakillari qirilib ketishiga olib kelgan. Perm davri ko'pchilik umurtqasizlar, ayniqsa, trilobitalar hayotining yakuniy bosqichi bo'lgan.

Perm davrining o'simlik dunyosi kechki karbonnikidek bo'lgan. Ammo o'simliklari past bo'yli va tur tarkibi uncha xilma-xil bo'lmagan. Bu perm davri iqlimining sovuqroq va quruqroq bo'lganidan dalolat beradi.

Erta permda quruq davrlar namgarchilik davrlari bilan almashinib turgan. Namgarchilik vaqtlarida ko'l va daryo sohillarida zinch o'rmonlar vujudga kelgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi karbon florasidan tarkib topgan. Ularning orasida sigillariyalar, kalamitlar, kordaitlar, daraxtsimon va urug'li paprotniklar keng tarqalgan.

Kechki permning boshlanishi bilan o'simliklar saltanati evolutsiyasida yangi davr – mezofit boshlangan. Oddiy tuzilgan sporali o'simliklar yo'qolib ketadi va ularning o'rnnini floraning yetakchi elementi bo'lib qolgan ochiq urug'lilar egallaydi. Ularning orasida sika-dalilar va bennetitlar keng tarqalgan. Sikadalilarning poyasi qisqa va to'g'ri ustunsimon, ba'zan shoxlangan bo'lgan. Ularning uchida palma barglarini eslatuvchi yirik patli yaproqlardan iborat tojga ega bo'lgan (40-rasm). Bennetitlar orasida butalar ham, daraxtlar ham bo'lgan. Mezofitda ginkgoli va ignabarglilar – archa, kiparislar va



40-rasm. Erta permning o'simliklari: sigillariyalar, kalamitlar, kordaitlar, daraxtsimon va urug'li paporotniklar. <http://haiate.narod.ru>

qayinlar ham keng tarqalgan. Ulkan sekvoyyalar paydo bo'lган. Nam joylarda paporotniklar, botqoqlashgan joylarda esa qirqbo'g'imlar o'sgan (41-rasm).

Perm davrining dengiz va okeanlarida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Agar butun perm davri davomida fuzulinidlar, bulutlar, boshoyoqli mollyuskalar, marjonlar rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa, permning oxirida ularning ko'pchiligi (fuzulinidlar, ba'zi marjonlar, boshoyoqlilar, ammonitlar, ba'zi ignatanlilar) qirilib ketadi. Shunday qilib, kechki paleozoyning oxirida flora va faunaning keskin yangilanishi kuzatiladi. Bu kechki paleozoyning oxirida geologik va geografik vaziyatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

**Foydali qazilmalar. Ko'mir.** Karbon davrining xarakterli xususiyati toshko'mir qatlamlarining hosil bo'lishi hisoblanadi. Paleo-geografik va paleotektonik sharoitlarning o'ziga xosligi ekzogen foydali qazilmalarning shakllanishiga olib kelgan. Nam iqlimli o'lkalarda Yer tarixidagi eng qadimiyo ko'mir qatlamlari shakllangan.

Bu yoshdagi ko‘mir konlari Timan va Kuznetsk botiqligida rivojlangan.

Faol ko‘mir to‘planishi platformalarda, chekka va tog‘oralig‘i botiqliklarida, kontinenti havzalarida ham davom etgan. Karbon yoshidagi ko‘mirlar butun dunyo zaxirasining deyarli 30 % ni tashkil etadi. Yirik ko‘mir konlari Shimoliy yarimsharda joylashgan. Bu Donetsk, Qarag‘anda, Qizil, Moskva bo‘yi, Ekibastuz havzalaridir. Kuznetsk, Minusia va Tungus havzalaridagi ko‘mir yotqiziqlarining bir qismi karbon yoshiga ega. G‘arbiy Yevropa Polsha, Chexiya, Germaniya, Belgiya, Fransiyada ham shu yoshdagи ko‘mir konlari mavjud.

Erta perm uchun ham ko‘mir konlari xarakterlidir. Dunyodagi ko‘mir zaxiralarining to‘rtdan biridan ko‘prog‘i Pechora va Taymir, Sharqiyl Xitoy, Hindiston, Avstraliya, JAR ko‘mir havzalarida to‘plangan. Bundan tashqari, Minusiy, Kuznetsk va Tunguska havzalaridagi ko‘mirli gorizontlarning ustki qismi ham perm yoshiga ega.

**Neft va gaz.** Volga-Ural va Timan-Pechora viloyatlaridagi, Pripyat botiqligidagi, Kanada, AQSH, Amazonka botiqligi va Sahroyi Kublichdagi muhim neft-gazli gorizontlar devon yoshiga ega.



41-rasm. Kechki permning mezofit o‘simliklari. <http://wwlife.ru>

Volga-Ural viloyatining ba'zi neftli gorizontlari va AQSHdagi bir qancha konlar perm yotqiziqlari bilan bog'liq. Neft zaxirasining yarmidan ko'pi karbon yotqiziqlarida to'plangan.

Ba'zi gaz konlarining mahsuldor gorizontlari ham perm davriga mansub. Shebelinsk (Ukraina) va Vuktil (Komi), Groningen (Nederlandiya) va Yerondagi bir qancha gaz konlari juda ulkan hisoblanadi.

**Tuz.** Arid iqlimli mintaqalarda kaliy tuzlarining qalin qatlamlari to'plangan. Ularning eng yirik konlari Kanada va Belorusiyada topilgan.

Kaliy tuzlari dunyoviy zaxirasining ancha qismi perm davrida hosil bo'lgan. Bularga Uralbo'yidagi Verxnekamsk, Kaspiybo'yi, Germaniya, Texasdagi Delaver havzasidagi tuz konlari kiradi. Permda kaliyli tuzlar bilan bir qatorda, osh tuzi konlari ham shakllangan. Donbassning shimolidagi Artemovsk koni eng yiriklaridan biri hisoblanadi.

**Boksit.** Tixvin va Shimoliy Onega hamda AQSHdagi bir qator boksit konlari erta karbonda hosil bo'lgan. Xitoydag'i boksit konlari o'rta va qisman kechki karbonga mansub. Devon boksit konlari Shimoliy va Janubiy Uralning sharqiy yonbag'irlarida va Timanda shakllangan.

**Temir.** Cho'kindi temir ma'dani konlari Tatariston, Ural, Appalachi, Ispaniya, Turkiyada mavjud.

**Ma'dan konlari.** Qoratov tizmasi va O'rta Osiyoning ba'zi rayonlaridagi hamda Missisipi daryosi havzasidagi qo'rg'oshin-rux konlari karbonda hosil bo'lgan. Erta karbonda Ural (Magnitnaya va Blagodat tog'lari), To'rg'ay, Sokolov-Sarbay, Tog'li Shoriyadagi kontakt-metasomatik magnetit konlari vujudga kelgan. Keyinchalik, granitli intruziyalarning yorib kirishi tufayli rangli va nodir metallarning ko'p sonli pnevmatolitli va gidrotermal konlari vujudga kelgan. Shunday konlar Ural, Tyanshan, Ma'danli va Tog'li Oltoy, G'arbiy Yevropa va Sharqiy Avstraliyada mavjud.

Permda ma'danli foydali qazilmalar keng rivojlangan. Ularning orasida Germaniyadagi Mansfeld mis, Qozog'istondagi Jezqozg'on


misli qumtoshlari, Balxash ko‘li sohilidagi Kounrad mis-molibden, Angliyadagi Kornuoll qalay, Germaniya, Fransiyaning markaziy massivi va JAR Karru botiqligidagi uran konlarini ko‘rsatish mumkin. Ukrainianing janubidagi Nikitovsk simob koni ham perm yoshiga ega.

### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Lavrosiyo, Pangey, Gondvana, kaledon, paporotniklar, kalamitlar, lepidodendron, sigillyariya, kordait, ammonit, dengiz nilufarlari, kalamit, fuzilina, shvagerina, gersin orogenezi.

### **Nazorat savollari**

1. Pangey megokontinenti qachon vujudga kelgan?
2. Paporotniklar qachon paydo bo‘lgan?
3. Karbon davrida qanday olamshumul voqealar sodir bo‘lgan?
4. Eng yirik ko‘mir havzalari to‘g‘risida gapirib bering.
5. Lavrosiyo qanday kontinentlarning birlashishi tufayli hosil bo‘lgan?
6. Paporotniklar qachon paydo bo‘lgan?
7. Appalachi orogenezi qayerda sodir bo‘lgan?
8. Perm davri oxirida organik dunyoda qanaqa o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?
9. Perm davrining eng muhim foydali qazilmalari to‘g‘risida so‘zlab bering.



## 11-bob. MEZOZOY ERASI

Yerning mezozoydagi rivojlanish tarixi muhim geologik hodisa-larga boy bo‘lgan. Lavrosiyo va Gondvana superkontinentlari parchalanadi, hozirgi materiklarga mos keluvchi alohida litosfera palaxsali bir-biridan uzoqlashib, yangi okean botiqliklari shakllanadi.

Hayvonot olamida ham tub o‘zgarishlar yuzaga keladi. Dastlabki sutezemizuvchilar va qushlar paydo bo‘ladi. Mezozoyning oxiriga kelib dinozavrlar batamom qirilib ketadi. Bu o‘zgarishlarning barchasi trias, yura va bo‘r davrlarida ( $170 \pm 10$  mln. yil) sodir bo‘ladi.

**Geodinamikasi.** Triasda Pangeyning parchalanishi, hozirgi den-giz va okeanlarning shakllanishi boshlangan. Birinchi bosqichda sharqda Pangeyning shimoliy qismini janubiy qismidan ajratgan Tetis okeani ochilgan (oldindan mavjud bo‘lgan Tinch okeani ko‘rfazi o‘rnida).

Afrika, Hindiston, Avstraliya va Antraktida oraliqlari dengizlar bilan qoplanadi va ular keyinchalik Hind okeaniga aylanadi. Shunday qilib, Hind okeanining shakllanish vaqtini taxminan 160 mln. yil deb baholash mumkin. Afrikaning Janubiy Amerika bilan aloqasi triasda mustahkam bo‘lgan.

Trias davri – Gondvananining parchalanishi bilan xarakterlanadi. Uning turli rayonlarida chuqur yer yoriqlari vujudga keladi. Bu yer yoriqlarining dastlabki tutgan holati janubiy yarimshardagi bo‘lajak materiklarning shaklini belgilagan. Ushbu yer yoriqlari bo‘ylab yer yuzasiga bazalt lavalari quyiladi. Qalinligi 2,5 km gacha boruvchi bazalt oqimlari 500000 km<sup>2</sup> dan ortiq maydonlarni qoplab, trapplarni hosil qilgan.

Trias uchun kontinental sharoitlarning ustuvorligi va sust tektonik faoliyat xarakterli bo‘lgan.

Tetis yurada g‘arbga qarab rivojlanib va kengayib, Pangeyni Lavrosiyo va Gondvana ajratib qo‘ygan. Bunda Lavrosiyo o‘zining yaxlitligini saqlab qolgan, ammo Gondvana hududida janubiy pramaterikni ikkiga bo‘lgan Hind okeanining g‘arbiy qismida botiqlikning shakllanishi boshlangan.

Yuraning oxiriga kelib chuqur yer yoriqlari bo‘ylab tektonik harakatlar yanada kuchayadi va ular Livan, Suriya va Mozambikda bazalt lavalaring quylishi bilan birga kechadi. Afrika va Janubiy Amerika orasida ham chuqur yer yorig‘i vujudga kelib, undan ham qalinligi 1 km ga yaqin bazalt lavalari quyiladi. Yura davrida Shimoliy Atlantika botiqligi vujudga keladi.

Bo‘r davrining oxirida, hozirgi o‘lchamiga yetmagan bo‘lsa-da, Hind okeani aniq ifodalanadi. Tor tirsaksimon dengiz bo‘g‘ozni orqali Atlantika okeanining o‘rnini belgilanganadi.

Shunday qilib, mezozoy bosqichi yerning geologik tarixida juda muhim davr hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab hozirgi zamон materiklari va okeanlarining shakllanishi boshlangan. Yer shari tom ma’noda choklari bo‘ylab darz ketgan. Yerning qudratli ichki kuchlari yupqa yer po‘stini yorib, uning parchalarini turli tomonlarga surib yuborgan.

Kechki paleozoyda hozirgi Afrikaning g‘arbiy chegarasida chuqur yer yorig‘i zonasini shakllangan. Triasga kelib bu struktura yanada faollashadi va yer po‘stining tor zonasini cho‘kib, bazalt lavasi quyiladi. Bu zonada graben-riftlar vujudga keladi. Ularga dengiz suvlari bosib

kirib, hozirgi Qizil dengiz, Suvaysh, Kaliforniya ko‘rfazlari va Adan bo‘g‘ozini eslatuvchi tor ichki dengizlar vujudga keladi. Shunday dengizlar taxminan 160–150 mln. yil ilgari Tetis okeanining janubida Hindiston va Afrikaning Samali yarimoroliga kirib boradi.

Bu hodisalardan bir qancha vaqt keyin ichki dengizlar Hindiston va Avstraliya orasida ham vujudga keladi. Keyinroq (120 mln. yil ilgari) dengiz suvlari Janubiy Amerika va Afrika orasida ham tor bo‘g‘oz hosil qiladi. 10 mln. yil o‘tib bu bo‘g‘oz uning markaziy qismigacha kirib boradi. 100 mln. yil ilgari Atlantika okeanining juda tor qambari mavjud bo‘lgan.

Bo‘r davrida Atlantika okeanining hosil bo‘lishi boshlangan (oldin janubiy, keyinchalik markaziy qismi), natijada, Shimoliy Amerika Yevrosiyodan ajrala boshlagan (42-rasm), Tetisning g‘arbiy qismi esa (Karib) sharqiy qismidan (O‘rta yer dengizi) ajralgan. Shimoliy qismida Lavrosiyoning yaxlitligi kaynozoy erasining oxirigacha saqlangan.

Materiklar ko‘rinishidagi sezilarli o‘zgarishlar kechki bo‘nda (100–80 mln. yil ilgari) sodir bo‘lgan. Janubiy Amerika Afrikaga nisbatan soat mili harakati yo‘nalishiga teskari burilib, g‘arbgaga qarab hozirgi tutgan o‘rniga suriladi. Hindiston Afrikadan ajralib, Osiyoga qarab shimolga suriladi. Avstraliya va Antraktida Afrikadan janubiy-sharq va janubga qarab suriladi. Afrika kontinenti birmuncha burilib, shimolga qarab Yevropaga qo‘shilguncha siljiydi. Ularni faqat O‘rta yer dengizi ajratib turgan.

Mezozoy erasidagi tektonik harakatlarning jadalligi shu qadar yuqori bo‘lganki, bunda tog‘ hosil qiluvchi jayronlar ba’zi platformali viloyatlarni ham qamrab olgan. Epiplatformali fa-



42-rasm. Sharqiy va G‘arbiy Gondvanananing ajralishi

ollashuv epiplatformali orogenez deb ataluvchi viloyatlar vujudga keladi. Bunga misol qilib Mo‘g‘ul-Oxota qambarini keltirish mumkin.

Mezozoy burmalanishi va qadimiy platformalarning tutashgan joylarida old botiqliklar shakllanadi. Platformalar yaqqol cho‘kkan va ko‘tarilgan viloyatlarga ajraladi (43-rasm).

**Paleogeografiyasi.** Mezozoy erasining boshlarida dengiz va okeanlar regressiyasi keng rivojlanadi. Tog‘lar hosil bo‘lishi hisobiga perm davridayoq boshlangan quruqlik maydonining kengayishi tri-asda ham davom etgan. Platformalarning bepoyon maydonlarida kontinental (geokratik) rejim ustuvorlikka ega bo‘lgan. Shuning uchun ham ularda, asosan, qizil rangli bo‘lakli jinslar to‘plangan.

Yura davrining oxiridagi faol tektonik harakatlar dengiz chekinishiga, havzalarning sayozlashuviga va ba’zi joylarda sho‘r lagunalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Yangi transgressiya kechki bo‘rda o‘zining maksimumiga yetadi. Dengizlar Lavrosiyo va Gondvana



43-rasm. Mezozoidlarning hozirgi strukturada tutgan o‘rni. I – paraplatformalar: 1 – Kordilera, 2 – Verxoyan-Kalim, 3 – Uzoq Sharq, 4 – Hindixitoy; II – old dingi konsolidatsiya viloyatlari; III – old botiqliklar: A – Kordileraoldi, B – Verxoyanoldi; oraliq massivlar – mezozoylar orasidagi barqaror viloyatlar: a – Kolima, b – Omolon, d – Oxota, e – Sharqiy Chukotka, f – Hindosiniy; 5 – Mo‘g‘ul-Oxota qambari.

hududlarining ancha qismini qamrab oladi. Bo‘rda magmatik faollikning uchinchi bosqichi amalga oshadi va Gondvananing parchalanishi bilan birga kechadi. Qalin lava qoplamlari (2–3 km) Afrikada, Hindistonda (Dekan trapplari) hosil bo‘ladi.

Yura davri dengiz transgressiyasining asta-sekin rivojlanishi bilan xarakterlanadi va uning maksimumi kechki yuraga (kellovey, oksford) to‘g‘ri keladi. Dengizlar Shimoliy Amerikaning g‘arbini, deyarli butun Yevropani, G‘arbiy va Sharqiy Sibirni qoplab oladi. Gondvana hududida dengiz endi shakllanayotgan Hind okeani tomonidan bosib keladi.

**Iqlimi.** Mezozoy erasida iqlim nisbatan iliq bo‘lgan. Gondvanada kechki paleozoyda mavjud bo‘lgan muzliklar erib ketadi. Trias iqlimi qurg‘oqchil bo‘lgan davr hisoblanadi. Sahrolar va yarimsahrolar Yevropa va Shimoliy Amerikani egallab olgan. Sibir va Hindixitoy hududlarida esa, nam tropik va subtropik iqlim ustuvorlik qilgan.

Dengiz transgressiyasi rivojlanishi tufayli iqlim sharoitlari yumshoqlashib boradi. Yurada ancha hududlarda, ehtimol, iliq va nam iqlim sharoitlari ustuvorlik qilgan. Hatto hozirgi Arktikada ham iqlim iliq bo‘lgan. Hozirgi Buyuk Britaniya va Daniya hududlarida suvning harorati erta yurada +21°C ga, kechki yurada esa +28°C gacha yetgan. Harorat to‘g‘risidagi bunday aniq ma’lumotlar mollyuskalar chig‘anoqlaridagi kislород izotoplari nisbati bo‘yicha aniqlangan. Qurg‘oqchil zonalar yura davrida Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika va Afrikada saqlanib turgan.

Bo‘r davri davomida bir necha bor iqlim o‘zgargan, ammo, umuman olganda, nisbatan iliq bo‘lgan. Hozirgi Afrikada yuza suvlarning harorati u vaqtida +14°C, ekvatorda esa (Tetis okeani) hatto hoziridan ham yuqori bo‘lgan. Yura davrida boshlangan iqlimning ushbu tendensiyasi kechki bo‘rda amalda Sahrolar bo‘lmasligiga olib kelgan. Arid (Sahro) zonalari hozirgi tropik savannalarni eslatgan.

Mezozoydagi qulay iqlim sharoitlari quruqlikda ham, dengizlarda ham organik dunyoning gurkirab rivojlanishiga imkon yaratgan. Kontinentlarda ochiq urug‘li o‘simpliklar keng tarqalgan. Ignabargli,


gingko va bennititli o'simliklar rivojlanib, ularning ignabargli vakillari hozirgacha saqlanib qolgan. Bo'r davriga kelib yopiqurug'li o'simliklar ham keng tarqala boshlaydi.

**Organik dunyosi.** Mezozoy dengiz va okeanlarida yotqiziqlarni tabaqlash va taqqoslashda foydalaniladigan umurtqasizlar keng rivojlangan. Bunda ammonitlar, ikki tavaqalilar, to'rt va olti nurli marjonlar va bulutlar ustuvorlik qilgan. Ignatanlilardan dengiz tipratikonlari rivojlangan.

Mezozoyda turfa umurtqasizlar bilan birga umurtqali hayvonlarning vakillari ham kuzatilgan. Dengiz va okeanlarda tog'oyli baliqlarning soni keskin qisqargan va ularning o'rnini suyakli baliqlar egallagan. Trias davridagi quruqliklarda dastlabki suteemizuvchilar – o'lchami kalamushdek keladigan mitti jonivorlar paydo bo'lgan. Tishlari tuzilishining xususiyatlari bo'yicha ular yer qazuvchi hayvonlar bo'lgan. Yura davrida patli qushlar rivojlangan.

Hayvonlar orasida yerda, havoda va suvda yashashga moslashgan reptiliyalar hukmronlik qilgan. Reptiliyalarning qoldig'i Gondwananing barcha metriklarida topilgan. Ilk bor ulkan reptiliyaning (dinozavr) qoldig'i 1822-yili Angliyaning Sasseks grafligida topilgan.

Dinozavr dastlab ingliz zoologi R.Ouen tomonidan tiklangan. Uning modeli natural kattalikda bo'lgan. «Dinozavr» atamasi «dahshatli kaltakesak» ma'nosini anglatadi.



44-rasm. Mezozoy faunasining xarakterli vakillari. Boshoyoqli, ammonoidey otryadi: Turrilites (a), Parkinsoniya (b); dengiz tipratikonining ohakli g'ilofi, plastinkalarda ninalarining tutashgan izlari ko'riniib turibdi (d).

## **11.1. Gobi sahrosi va dinozavrlar**

Paleozoyning oxirida reptiliyalar orasida nisbatan mayda kalta-kesaklar – dinozavrlar ajdodi bo‘lgan tekodontlar keng tarqalgan. Triasda tekodontlar vakillari keyingi ikki orqa oyog‘ida yurishga moslashgan. Reptiliyalarda ko‘rish – sezizning bosh organi bo‘lgani sababli yuqoriga ko‘tarilgan boshi zich o‘tsimon o‘simpliklar orasida mo‘ljal olish uchun juda qulay bo‘lgan. Bu hayvonlar orasida muayyan ustuvorlikka ega bo‘lishga olib kelgan.

Ba’zi olimlarning fikricha, dinozavrlar paydo bo‘lgan makon Gobi sahrosida va Markaziy Osiyoning qo’shni rayonlarida joylashgan. Bu hududlarni keyingi 200–250 mln. yillar davomida dengiz bosmagan bo‘lib, quruqlik faunasining stabil rivojlanishiga qulay sharoitlar yaratgan. Bu yerda hozirgi kunga qadar o‘tmishda yashagan gigantlarning qoldiqlarini topishadi. Gobi sahrosi dinozavrлarning haqiqiy qabristoni. Masalan, Xitoyda uzoq o‘tmishdan boshlab dorivor xomashyo sifatida hayvon suyaklari va tishlari qazib olingan. Hayvon suyaklaridan barcha kasalliklarni tuzatadi deb afsungar kukun tayyorlashgan. Amurda baliqchilar, akademik Y.A. Orlov ma’lumotlari bo‘yicha, dinozavrлarning ichi bo‘sh umurtqa pog‘onalaridan gruzila tayyorlashgan.

Dinozavrlar Markaziy Osiyodan tarqala boshlagan. Dinozavrlar janubga qarab harakatlanib, Hindixitoy va Avstraliya hududlarini egallagan; Sharqiy Sibir orqali ular Alyaskaga, undan esa, Amerikaga kirib borgan; g‘arbda esa, ular Yevropa, O‘rta Osiyo va Arabistoniga, undan Afrikaga kirib borib, uni egallagan.

Dinozavrлarning suyagi nisbatan yengil bo‘lgani sababli bu gigantlarning yashashini yengillashtirgan. Uzunligi 25–30 m va massasi 30–35 t bo‘lgan o‘txo‘r diplodoklar va brontozavrlar ma’lum.


Dinozavrlar sayyoramizda taxminan 230 mln. yil ilgari Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan. Bu hududlarni keyingi 200–250 mln. yil davomida dengiz qoplamagan bo‘lib, quruqlik faunasi rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratgan. Bu yerda hozirga qadar qadimda yashagan ulkan hayvonlarning qoldiqlari topilmoqda.

Yura davrida dinozavrlar turli-tuman bo‘lgan (45-rasm).

Dinozavrarning suyagi yengil bo‘lgani tufayli ularning harakatlanishi oson kechgan. O’txo‘r dinozavrlar eng yirik o‘lchamlarga ega bo‘lgan. Tanasining uzunligi 25–30 m va vazni 30–35 tonnagacha boradigan dinozavrlar ma’lum. Keyingi yillarda AQSHning Kolorado shtatida vazni 130 tonnaga boruvchi gigant dinozavrarning qoldiqlari topilgan.

Brontozavrning (*Brontosaurus*) vazni 30 tonna, uzunligi 20 m dan ortiq bo‘lgan (46-rasm). U Shimoliy Amerakaning yura yotqiziqlarida topilgan. Kaltakesakoyoqli bu dinozavrlar (zauropodlar) hozirgacha ma’lum bo‘lgan eng yirik quruqlik hayvoni bo‘lgan. Ular o’txo‘r bo‘lishgan, sayoz suvlarda yurishni xush ko‘rgan va sohil bo‘ylarida yashashgan. Brontozavrlar tanasiga nisbatan juda kichik miyaga ega bo‘lgan.

Dinozavrlar orasida vazni bo‘yicha Shimoliy Amerika yurasidan topilgan zauropodlarning boshqa vakili – diplodoklar rekordsmen bo‘lgan. *Diplodocus carnegii* turi boshidan dumining uchigacha




45-rasm. 1 – listrozavr; 2 – braxilofozavr; 3 – superzavr; 4 – stegozavr;  
5 – ankilozavr; 6 – seratopsid



46-rasm. Yura davrining yirik o'txo'r brontozavri. [www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)

30 m gacha yetgan (47-rasm). Ammo ularning vazni og'ir, ingichka va egiluvchan bo'yni hamda qamchiga o'xshagan uzun dumi bo'lgani tufayli brontozavrлarnikiga nisbatan yengil bo'lgan. Diplodoklar ko'llarda va ularning sohillarida bundan taxminan 150 mln. yil ilgari hayot kechirishgan; ularning qoldiqlari AQSHning Vayoming, Yuta va Kolorado shtatlarida uchraydi.



47-rasm. Yura davrining yirik o'txo'r diplodoklari. [www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)



48-rasm. Dinozavr tuxumlari



49-rasm. Dinozavr umurtqa pog'onasi

Quruqlikda hayot kechirgan dinozavrlar ikki oyoqli hayvonlar bo'lgan. Ammo ular nam, o'simliklarga boy bo'lgan joylarni xush ko'rishgan. Bu jonivorlar botqoqliklarda yurishga moslashgan pardali uch panjali orqa oyoqlarga ega bo'lgan.

Dinozavrlar tuxum qo'yib ko'payishgan. Ular tuxumlarini, hozirgi toshbaqa va timsohlar kabi, issiq qumga ko'mishgan. Dinozavrlarning ba'zi vakillari to'da-to'da bo'lib yashashgan (48-rasm).

Mezozoy erasi bo'r davrining dahshatli va baquvvat yirtqichlari bo'lib, tarbozavrlar va tirannozavrlar hisoblangan (50, 51-rasmlar). Ular kuchli dumiga tayanib, ikkita orqa oyoqlari yordamida harakat-



50-rasm. Yirtqich dinozavr (*Tyrannosaurus rex*). [www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)




51-rasm. Yirtqich dinozavrlar – tarbozavrлarning ilonga hujumi.

[www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)

langan. Kalta oldingi oyoqlari, ehtimol, o'ljasini ushlash va uzib olishga mo'ljallangan. Bo'yi juda katta (uzunligi 14 va balandligi 6 m gacha) bo'lishiga qaramasdan, tarbozavrлar va tirannozavrлar tez yugura olishgan. Dumidan muvozanatlovchi sifatida foydalanib, o'txo'r hayvonlarni ovlash uchun tez yugurishgan. Uzunligi 15 sm gacha boruvchi o'tkir tishli jag'lari bu hayvonlarni yengilmas qilgan.

Tirannozavr uzoq vaqt davomida Yerda yashagan quruqlik yirtqichlarining eng yirigi deb kelingan. Montananing (Shimoliy Amerika) yuqori bo'ridan topilgan bu dinozavrning uzunligi 12 m va balangdigi 5 m ga yetgan. Ammo keyinchalik Mo'g'ulistonning yuqori bo'ridan undan ham katta yirtqich – ***Tarbosaurus bataar*** topilgan. Tirannozavr o'ljasidan uzunligi 15 sm ga boradigan arrasimon tishlari bilan yirik go'sht bo'lagini yulib olishi mumkin bo'lgan. Topilgan oyoq izlarining kengligi 76 sm va uzunligi 79 sm, qadamining uzunligi 3,76 m bo'lgan.

Reptiliyalar asta-sekin uchishga moslashgan va havoda ham ustuvorlikka erishgan. Yura davrining qanotli kaltakesaklari yoki ***pterozavrлar*** havo muhitini egallagan dastlabki umurtqalilar bo'lgan. Ular yura davrining boshida paydo bo'lgan. Pterozavrлar yuraning oxirida keng rivojlangan va bo'rning oxiriga kelib batamom qirilib



52-rasm. Tirannozavrning o'rdakburun dinozavr Trachodon annectensga hujumi. [www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)

ketgan. Ularning tanasi nisbatan qisqa (50 sm atrofida) bo'lsa-da, qanotlarining uzunligi 1,80 m ga yetgan. Bosh suyagi va bo'yni uzun, uchida «vimpelli» yanada uzun dumi bo'lgan. Pterozavrlar suyagining ichi qushlarniki kabi bo'sh bo'lgan; terisini siyrak jun qoplagan (52-rasm).

Yura davrining o'rtalarida pterodaktillar paydo bo'lgan (53, 54-rasmlar). Ular ancha samarali tuzilgan qanotlarga ega bo'lgan va havoda manevr qilish uchun dumga ehtiyoji bo'lмаган.



53-rasm. Pterozavrlar.  
[www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)



54-rasm. Pterodaktil. <http://wwlife.ru>

O'rta triasda dastlabki oddiy ixtiozavrlar – miksozavrlar paydo bo'lgan, yura davrida gurkirab rivojlangan va mezozoy erasining oxirida qirilib ketgan. Bu dengiz reptiliyalarining uzunligi 2 m gacha borgan.

Reptiliyalar orasida ixtiozavrlar eng mukammal tuzilgan. Tashqi ko'rinishidan ular delfinlarga o'xshash bo'lishgan, ammo tumshug'i uzunroq bo'lgan (55, 56-rasmlar). Ixtiozavrлarning uzunligi 5–6 m ni tashkil etgan. Old va orqa oyoqlari suzgichlarga aylangan bo'lib, oldingilari orqadagilariga nisbatan ancha yaxshi rivojlangan. Ixtiozavrlar boshqa reptiliyalardan tirik bola tug'ishi bilan farq qilgan.

Og'zida, odatda, 200 ga yaqin o'tkir tishlari bo'lgan. Ixtiozavrlar orasida, ehtimol, kalmarlar bilan oziqlangan tishsiz shakllari ham bo'lgan. O'lган urg'ochi ixtiozavrlar ichidan ularning tirik bola tug'ib, ko'payganligidan dalolat beruvchi qoldiqlar topilgan.

Bo'r davrining hayvonot dunyosida dastlabki qushlar va sutemizuvchilar (xaltali) paydo bo'ladi, baliqlar ham rivojlanadi. Qushlar va sutemizuvchilar yirik reptiliyalarning o'rnini egallahsgan.

Fanga ma'lum bo'lgan qushlarning eng qadimiysi arxeopteriiks (*Archaeopteryx lithographica*) hisoblanadi. Bu kaptardek keladigan



55-rasm. Dastlabki oddiy ixtiozavr – miksozavr.  
[www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)

56-rasm. Stenopterygius avlodiga mansub ixtiozavrlar. [www.dinozavr-vernis.com](http://www.dinozavr-vernis.com)

qush bo‘lgan (57-rasm). Bosh suyagi, qanotlari va dumining tuzilishi sudralib yuruvchilar ning yaqin qarindoshligidan dalolat beradi. Jag‘larida mayda konussimon tishlari bo‘lgan; boshi shox moddasidan iborat tangachalar bilan qoplangan. Oldingi oyoqlari qanotlarga aylangan, ammo hali o‘tkir tirnoqlarga ega bo‘lgan uchta erkin barmoqlari saqlanib qolgan. Arxeopteriksning qoldig‘i hozirgacha faqat Zolnxofenning (Germaniya) yuqori yurasidan ma’lum. Barcha qushlarning ajdodi protoavis hisoblanadi (58-rasm).

Bo‘r davri qushlari reptiliyalarning ba’zi o‘ziga xos morfologik xususiyatlarini, masalan, alveolalarda joylashgan konus shaklidagi tishlarini saqlab qolgan. Ulardan biri – gesperornis (sho‘ng‘uvchi qush) – dengizda yashashga moslashgan.

Sutemizuvchilar orasida yirtqichlar paydo bo‘lgan. O‘lchami uncha katta bo‘lmagan bu yirtqichlar o‘rmonlarda va zich to‘qaylarda yashagan, mayda qaltakesaklar va boshqa sutemizuvchilar bilan oziqlangan. Ularning ba’zilari daraxtlarda yashashga moslashgan.

Taxminan 195 mln. yil oldin boshlangan yura davrida iqlim permdagiga nisbatan nam va issiq bo‘lgan. Sanoqsiz botqoqliklar va chuchuk suvli ko‘llarda dastlabki baqalar yashagan. Zich o‘rmon daraxtlari orasida ochiq urug‘lilar alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Ignabarglilar va sikadalilar hukmronlik qilishgan. Ilgarigidek bennetitlar keng tarqalgan, nam joylarda paporotniklar va xvoshchlar o‘sgan.



57-rasm. Eng qadimiy qush – arxeopteriks. <http://wwlife.ru>



58-rasm. Barcha qushlarning ajdodi – protoavis. <http://wwlife.ru>

Bo‘r davridagi hayotning rang-barangligi undan oldin ham, keyin ham bo‘lman.

O‘sha vaqtarda yer yuzasining keng hududlarini sayoz dengizlar egallagan. Bo‘r davrining boshlarida mollyuskalarning juda ko‘p yangi turlari paydo bo‘lgan. Ulkan mollyuskalardan ammonitlar (59-rasm) oldingiga qaraganda kam uchragan. Sohilbo‘yi sayozliklarida yangi yirtqich qisqichbaqasimonlar: krevetkalar, krablar va omarlar, shuningdek, dastlabki nummulitlar paydo bo‘lgan. Marjonlar riflar hosil qilgan.


O‘sha vaqtarda Dunyo okeanida ulkan dengiz toshbaqalari (arxelonlar) yashashgan. Ularning uzunligi deyarli 4 m ga, vazni 4 ton-nagacha borgan (60-rasm).

Yura davrining o‘simlik dunyosi umumiyl holda triasnikiga o‘x-shash bo‘lgan. Ularning orasida sagovnikli va ignabargli daraxtlar ustuvorlikka ega bo‘lgan. Ilk bor ginkgolar – ochiq urug‘li kuzda barg to‘kuvchi keng bargli daraxtsimon o‘simliklar (ehtimol, bu ochiq urug‘li va yopiq urug‘li o‘simliklar orasidagi bog‘lovchi zveno) paydo bo‘lgan. Bu oilaning yagona turi – ikki kurakli ginkgo – hozirgacha saqlanib qolgan.

Bo‘r davrida organik dunyo, ayniqsa, Yevrosiyo florasi tarkibida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Paleozoyda tarqalgan qadimiy ochiq urug‘lilar va paporotniklar bilan bir qatorda hozirgi floraning asosini tashkil etgan yopiq urug‘li o‘simliklar ham rivojlanadi (61-rasm).



59-rasm. Yirik mollyuska ammonit.  
<http://wwlife.ru>



60-rasm. Yirik dengiz toshbaqasi  
arxelon. <http://wwlife.ru>



61-rasm. Yura davrining o'simliklari. <http://wwlife.ru>

Dastlabki gulli o'simliklar paydo bo'lgan. Ularning toshqotgan qoldiqlari barglardan va daraxt tanasidan iborat.

Mezozoy erasini ulkan reptiliyalar hukmronligi payti desa bo'ladi. Ammo bo'r davrining oxirida ular butunlay qirilib ketadi. Ularning bunday «qo'qqisidan» qirilib ketishining sabablari hozirgacha aniq emas.

Dinozavrlarning qirilib ketishining asosiy sababi Yerda iqlim sharoitlarining o'zgarishi hisoblanadi. Mezozoydagи tektonik harakatlar, kontinentlarning surilishi materiklar relyefining o'zgarishiga, botqoqlik va pasttekisliklar maydonining qisqarishiga olib kelgan.

Iqlim keskinlashgan va quruqlashgan. O'simliklar quruq va qattiq xarakterga ega bo'lgan, o'txo'r dinozavrlarning tishlari esa, mayin va suvli o'tlarga moslashgan. O'txo'r reptiliyalar turlarining qisqarishi yirtqichdarning ham kamayib ketishiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari, dinozavrlar mustahkam jun qoplamasiga ega bo'lmaganligi uchun organizmi termoregulatsiyani bajara olmagan, bu ham ularning qirilib ketishiga sabab hisoblanadi. Ammo, iqlimning sovib ketishiga qaramasdan dinozavrlar o'zlarining rivojlanishi uchun qulay bo'lgan sharoitlarni topishi mumkin edi.

Dinozavrлarning qirilib ketishiga turli olimlar har xil sabablarni ko'rsatadi: radiatsiyaning o'zgarishi, miya hajmining massasiga mos kelmasligi, turli virusli epidemiya, yerda og'irlilik kuchining oshishi.

Yana bir, ko'pchilik uchun ma'qul bo'lgan sabab, atrof-muhitda mikroelementlarning o'zgarishidir. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqot natijalari mikroelementlar balansining buzilishi inson va hayvon organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yerda bo'r davri oxirida keng rivojlangan orogenez va materik-larning tektonik ko'tarilishi tabiat va iqlimda shu darajada kuchli o'zgarishlarga olib kelganki, buning natijasida ko'pchilik o'simliklar va hayvonlar qirilib ketgan. Umurtqasizlardan mezozoy dengizlarida hukmronlik qilgan ammonitlar, umurtqalilardan – barcha dinozavrлar, ixtiozavrлar, pleziozavrлar, mozazavrлar va pterozavrлar yo'qolib ketgan.

**Foydali qazilmalar. Ko'mir.** Yura davrida yirik hududlarda iliq va nam iqlimning ustuvorligi ko'mir to'planishiga olib kelgan. Ko'mir hosil bo'lish hajmi bo'yicha yura davri kechki paleozoy va kechki bo'r-paleogen bosqichlaridan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Yura yotqiziqlarida butun dunyo ko'mir zaxirasining 16% ga yaqini jamlangan. MDH mamlakatlari hududida qo'ng'ir ko'mir Kanada, Ubogan va Irkutsk havzalarida, O'rta Osiyoda (Angren, Toshko'mir, Qizilqiya, Sho'rob), Qarag'anda va Kuzbassda ustki gorizontlarda, toshko'mir esa, Kavkazorti (Tkvarchel va Tkibul konlari) va Janubiy Yoqutiston havzalarida rivojlangan. Xitoy va Avstraliyaning ko'mir havzalari ham katta ahamiyatga ega.

Bo'r davrining kontinental yotqiziqlari bilan dunyo ko'mir zaxirasining 20% dan ko'prog'i bog'liq. Ularning orasida eng yiriklari Lena, Ziryan ko'mir havzalari va Shimoliy Amerikaning g'arbidagi ko'mir havzalari sanaladi.

**Neft va gaz.** Tabiiy gazlarning yirik konlari Jazoir Sahroyi Kabirida, Kanadaning Arktika qismida, neft konlari – Timan-Pechora viloyatida, Vilyuy daryosi havzasida, Avstraliya va Alyaskada ma'lum.

Yer sharining ko‘pchilik viloyatlarida yura yotqiziqlarida neft va gaz to‘plangan. Aynan shu yoshdagagi dunyodagi eng yirik neft konlari Saudiya Arabiston (Gxavar va Mezelij) hamda Kavkazoldi, O‘rta Osiyo, Mang‘ishloq, Shimoliy Kaspiybo‘yi, G‘arbiy Sibir va Shimoliy dengiz neft konlari, Barens dengizidagi gaz va gazzkondensat konlari hisoblanadi.

G‘arbiy Sibir, Markaziy Osiyoning g‘arbi, Liviya, Quvayt, Nigerya, Gabon, Braziliya, Kanada va Meksika ko‘rfazidagi bo‘r yotqiziqlarida neft va gaz konlari mavjud.

**Fosforit konlari** Sharqiy Yevropa platformasi hududida ma’lum. Zaxiralari bo‘yicha dunyoda eng yirik fosforitli qambar Afrikaning shimolida Marokashdan Suriyagacha cho‘zilgan.

**Tuz konlari.** Turkmaniston va Shimoliy Amerikadagi laguna yotqiziqlari bilan tuz konlari bog‘liq.

**Ma’dan konlari.** Intruziv jinslar bilan bog‘liq konlar O‘rta yer denizi va Tinch okeani harakatchan qambarlarida rivojlangan. Kechki yura epoxasidagi eng xarakterli ma’danlar qalay, molibden, volfram, oltin, kumush va polimetall konlari hisoblanadi. Bu ma’danlarning hosil bo‘lishi Baykalorti, Verxoyan-Chukotka viloyatlarida, Malakka yarim orolida, Indoneziya va Kordilera tog‘larida nordon intruziyalarning yorib kirishi bilan bog‘liq. Kavkazdagi eng yirik Sadon polimetall koni yura yoshiga ega. Yura vulkanizmi bilan Alp, Bolqon, Kaliforniyadagi marganets va Kavkazortidagi (Kafan) mis koni bog‘liq.

Bo‘r yoshidagi nordon intruziyalar bilan Tinch okeani qambaridagi polimetall va oltin konlari bog‘liq. Qalay, qo‘rg‘oshin va oltin konlari Rossiyaning shimoli-sharqida va Shimoliy Amerikaning g‘arbida mavjud. Qalayli qambar Malayziya, Tailand va Indoneziya hududlaridan o‘tgan. Qalay, volfram, surma va simobning yirik konlari Xitoyning janubi-sharqida va Janubiy Koreyada mavjud. Janubiy Afrika va Hindistondagi bo‘r yoshidagi kimberlit trubkalarida olmos konlari to‘plangan.

Erta trias nurash qobiqlari bilan Ural janubida va O'rta Sibirning shimolidagi mineral bo'yqlarning konlari bog'liq. Shimoliy Qozog'istonda kaolin gil konlari rivojlangan. Kontinental yotqiziqlardagi cho'kindi uran konlari katta ahamiyatga ega. Ularning orasida eng yirigi AQSHdagi Kolorado koni hisoblanadi. Mis, nikel, kobalt, temir ma'danlari va grafit konlari, asosan, O'rta Sibirdagi trapp vulkanizmi bilan bog'liq. Trias yoshidagi oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, mis, qalay konlari Avstraliyaning sharqiy sohillarida kuzatiladi.

Bo'r davrining ikkinchi yarmida Afrika va Avstraliyada laterit qoplamlari shakllangan. Bokslarning ancha yirik konlari bo'r davrida hosil bo'lgan. To'rg'ay botiqligi, Yenisey kryaji, Janubiy Ural, Ukraina qalqoni va O'rta yer dengizi qambarida (Fransiyaning janubi, Gretsya, Ispaniya, Turkiya, Eron) mavjud.


Yozuv bo'rining yirik zaxiralari Shimoliy Amerika va Sharqiy Yevropa platformalari hududlarida to'plangan.

### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Trias, yura, bo'r, ertakimmeriy, ammonitlar, ikki tavaqalilar, dinozavr, ixtiozavr, ginkgo, pleziozavr, kechki kimmeriy, avstriya tektogenezi, laramiy, orogen faza, laterit,

### **Nazorat savollari**

1. Mezozoy erasida qanday davrlar ajratiladi?
2. Ertakimmeriy orogenezi qachon sodir bo'lgan?
3. Dinozavrlar qachon paydo bo'lgan?
4. Trias yotqiziqlari bilan qanday muhim foydali qazilma konlari bog'liq?
5. Gondvana kontinenti qachon paydo bo'lgan va parchalanib ketgan?
6. Yura davrining o'simlik dunyosiga tavsif bering.
7. O'rta Osiyodagi yura davrining ko'mir konlariiga tavsif bering.
8. Kechki kimmeriy, avstriya va lamariy organ fazalari qachon sodir bo'lgan?
9. Bo'r davrida nima uchun ko'pchilik organizmlar qirilib ketgan?
10. Bo'r davrida iqlim qanday bo'lgan?
11. Bo'r davrida foydali qazilma konlari shakllangan?



## 12-bob. KAYNOZOY ERASI

Yerning hozirgi ko‘rinishiga olib kelgan oxirgi rivojlanish bosqichi kaynozoy erasiga to‘g‘ri keladi. Uning davomiyligi oldingilariga nisbatan ancha kam – 70 mln. yilga yaqin bo‘lib, o‘z navbatida, uchta: paleogen (66–25 million yillar oldin), neogen (25–0,7 millionlar yillar oldin) va antropogen (0,7 million yildan hozirgacha) davrlariga bo‘linadi. Kaynozoyning boshlarida alp burmalanish jarayonlari o‘zining kulminatsiyasiga chiqadi, keyingi epoxalarda materiklarning yer yuzasi asta-sekin hozirgi ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Atlantika va Hind okeanlarining o‘lchami ancha oshgan. O‘simglik va hayvonot olamida ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Eng muhimmi aqli odam paydo bo‘lgan va o‘zining olamshumul qudratiga erishgan. Shu vaqtida hasharotxo‘rlardan primatlar, ulardan esa odam kelib chiqqan.

Materiklarning konturi, relyefining hozirgi ko‘rinishi, hozirgiga yaqin iqlim sharoitlarida organik dunyoning shakllanishi kaynozoy erasi davomida shakllangan. Shuning uchun ham uning tarixi batfsilroq ko‘rilishi lozim.

**Geodinamikasi.** Kaynozoyning boshlariga kelib hozirgi Yevrosiyoning shimoliy qismi o‘rnida konsolidatsiyalangan yagona quruqlik mavjud bo‘lgan. U keyingi jarayonlar natijasida kuchli o‘zgar-

gan va tekislangan baykal, kaledon va gersin yoshidagi qurilmalar yordamida o‘zaro tutashgan qadimiy yadrolardan tarkib topgan. Yevrosiyoning sharqi va janubi-sharqida qadimiy strukturalarga mezozoy tog‘lari qo‘shilib ketgan. Yevrosiyo Shimoliy Atlantika botiqligi orqali Shimoliy Amerikadan ajralgan. Uni janubda va janubi-sharqdan birmuncha qisqargan Tetis o‘rab turadi. Tetis Yevrosiyoning parchalanib ketgan Gondvananing janubiy va janubi-g‘arbiy uchastkalari – Afrika-Arabiston, Hindiston va Avstraliya platformalaridan ajratgan, sharqda esa, Tinch okeani bilan bevosita qo‘shilgan.

Kaynozoy erasining boshlarida Hindiston, Avstraliya va Antraktida yagona materikni tashkil etgan. Janubiy Amerika ham Afrika bilan tutashgan joylarga ega bo‘lgan. Yevropa va Shimoliy Amerika o‘rtasida faqat tor suvli qambar – bo‘lg‘usi Shimoliy Atlantikaning ilk o‘rni belgilangan. Kaynozoy erasidagi tektonik harakatlar yer yuzasi ko‘rinishini keskin o‘zgartirib yuborgan.

Paleogenda Hindiston, Avstraliya va Antraktida bir-biridan ajraladi. Hindiston palaxsasi shimolga surilib, neogenning boshlarida Osiyo bilan tutashadi. Avstraliya o‘z o‘qi atrofida soat mili yo‘nali-shiga teskari burilib, shimoli-sharqqa qarab harakatlanadi. Bunda Antarktida va Afrika deyarli harakatsiz qolgan. Afrika va Janubiy Amerika orasida Atlantika okeani aniq ifodalangan (62-rasm).

Paleogen davridagi tektonik harakatlar natijasida Yevrosiyo quruqligi O‘rta yer dengizi va G‘arbiy Tinch okeani qambarlarida ko‘tarilgan tog‘ tizmalari hisobiga ancha kengaygan. Zond arxipelagi materikka qo‘shilib ketgan; Bolqon yarimoroli Kichik Osiyo bilan tutashgan, Yevropa hozirgi Gibraltar bo‘g‘ozni rayonida Afrika bilan qo‘shilgan. Shimoliy-g‘arbda Yevrosiyo yana Shimoliy Amerika bilan qo‘shilgan.

Neogen davomida Yevrosiyoning janubida tog‘ hosil bo‘lishi jarrayoni davom etgan bo‘lib, u Tetis okeanining yopilishiga hamda Yevropa va Osiyoning janubiy rayonlarida tog‘ qambarining shakllanishiga olib kelgan. Ilgari mavjud bo‘lgan sinklinal botiqliklar ham



62-rasm. Litosfera plitalarining paleogen davrida tutgan o'rni

qo'shilib ketgan geoantiklinal tepaliklar kengaygan, oldingi strukturalarga ustama tushgan tog' oralig'i botiqliklari vujudga kelgan. Bu tog' oralig'i botiqliklarining chegaralarida vulkanizm faoliyat ko'rsatgan yer yoriqlari shakllanadi. Alp-Himolay orogen qambarining chetlarida platformalar bilan chegarasida chekka botiqliklar vujudga keladi va ular asta-sekin molassa yotqiziqlari bilan to'ldiriladi.

Neogenning oxiri va to'rtlamchi davrning boshida Alp-Himolay qambaridagi tog' tizmalari va ularni o'rab turgan hududlar yanada ko'tariladi. Osiyoning ichki rayonlaridagi tektonik faollashuv qudratlari kuchga ega bo'lgan. Shu tufayli Himolay, Tibet, Qoraqorum va ularga yondoshgan Markaziy Osiyoning o'ta baland tog'lari – Kunlun, Tyanshan va b. vujudga keladi. Yevropada Alp, Karpat, Kavkaz, Apennin, Andalus tog'lari paydo bo'ladi, lekin ular Osiyo tog'laridan deyarli ikki marta pastdir. Skandinaviya tog'lari ancha ko'tarilgan, Yevropaning markaziy qismidagi kechki paleozoy tog'lari va Boltiq kristalli qalqoni ozroq yangilanadi. Hududlarning ko'tarilishi keng maydonlarning cho'kishi va old botiqliklarning yotqiziqlar bilan to'l-

dirilishi orqali kechgan. Bularning barchasi materiklarning hozirgi ko‘rinishiga olib kelgan (63-rasm).

Atlantikaning shimoliy qismi va Shimoliy muz okeanining qo‘shni hududlarini qamrab olgan cho‘kishi Yevrosiyoning Shimoliy Amerikadan ajralishiga va Shpitsbergen arxipelagining alohida quruqlik bo‘lib qolishiga sababchi bo‘lgan. To‘rtlamchi davrda Britaniya orollari La-Mansh bo‘g‘ози orqali materikdan ajralib qoladi. O‘rta yer dengizining g‘arbiy qismida chuqur kotlovina vujudga keladi. Uning sharqiy qismida Egey dengizi o‘rni ancha cho‘kadi. Bolqon yarimoroli va Kichik Osiyonи birlashtirgan quruqlik ham parchalanib, Egey va Qora dengiz orasidagi bo‘g‘оз hamda Marmar dengizi botiqligi vujudga keladi.




63-rasm. Kaynozoy strukturalarining hozirgi tutgan o‘rni. I – alp burmalanish viloyatlari: 1 – Shimoliy Amerika, 2 – Janubiy Amerika, 3 – O‘rta yer dengizi, 4 – Pontg‘Eron, 5 – Himolay, 6 – Sharqiy Osiyo, 7 – Indoneziya; II – oldingi konsolidatsiya viloyatlari; III – epiplatformali faollashuvning asosiy viloyatlari: I – Qoyali tog‘lar, II – Tyanshan, III – Tibet, IV – Sharqiy Afrika; IV – old botiqliklar: A – Alpoldi, B – Karpatoldi, D – Kavkazoldi, E – Kopetdog‘oldi, F – Pomiroldi, G – Hind, H – Ganga, I – Andoldi, J – Mesopotam

Osiyoning sharqida, Tinch okeani orollar yoyi hududlarida botiqliklar chuqurlashadi, seysmik va vulkanizm faoliyati kuchayadi. Materikning janubi-sharqida Osiyo va Avstraliyani birlashtiruvchi quruqlik parchalanib, Malay arxipelagi paydo bo'ladi. Bunda ba'zi ichki va chekka dengizlarda subokean tipidagi yer po'stiga ega bo'lган chuqur botiqliklar shakllanadi. Bunday botiqliklar O'rtalari yer den-gizi, Qora, Yapon va Xitoy dengizlarida va Tinch okeanining materikka yondoshgan maydonlarida kuzatiladi.

Neogenning oxiri Afrika-Arabiston platformasi hududida kechgan qudratli tektonik faollik bilan xarakterlanadi, Qizil dengiz rifti shakllanadi, natijada, Arabiston Afrikadan ajralib qoladi. Alp-Himolay qambarining ko'tarilishi bilan bir vaqtida Hind-Ganga va Mesopotam old botiqliklari to'ldiriladi, Arabiston va Hindiston Yevrosiyo materigiga qo'shilib ketadi.

Neogen davrida materiklarning tarqalishi davom etgan. Ayniqsa, Atlantika okeani faol shakllangan (64-rasm). Bu okeanning keyingi 50 mln. yildagi asta-sekin kengayishini undagi orollar yoshi ko'r-satadi. Radiogeologik usullar yordamida quruqlikka yaqin bo'lgan orollarning yoshi okean markazidagilariga nisbatan qadimiyoq ekanligi aniqlangan. Masalan, Yashil Burun, Prinsipi, San-Tome, Annobon, Fernandu-di-Noronya (Shimoliy va Janubiy Amerikaning sharqiy sohillari bo'ylab) orollarining yoshi 120–150 mln. yilga teng. Azor, Bibi Yelena, Gof, Naytingeyl va Bermud orollari ulardan ancha yosh – 30–20 mln. yil. Deyarli Antarktika okeanining o'qida joylashgan Tristan-da-Kunya, Buve, Yan-Mayen orollarining yoshi 10 mln. yildan ortiq emas. Orollarning yoshini va ulardan materiklargacha masofani hisobga olib, Afrika va Yevro-



64-rasm. Atlantika okeanining kengaygan holati

paning Shimoliy va Janubiy Amerikadan uzoqlashish tezligini hisoblab topish mumkin. Bu tezlik 2–6 sm/yilni tashkil etadi.

**Tetis okeanining yopilishi.** Materiklarning siljishiga, ulkan tog‘ qambarlarining vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan ko‘lamli tektonik jarayonlar sayyoramizning ko‘rinishini tubdan o‘zgartiradi. Yangi okeanlar (Atlantika, Hind) paydo bo‘ladi, eskilari esa yo‘qolib ketadi. Bu borada mashhur Tetis okeanining qismati e’tiborlidir. Bir necha yuz million yillar davomida ushbu okean sayyoramizdagi eng ulkan okeanlardan biri bo‘lib kelgan.

Yosh tog‘ hosil qiluvchi tektonik harakatlar jadallahsgan neogenda Tetis okeani dastlab o‘lchami bo‘yicha bir-biriga teng bo‘lmagan ikkita: janubiy va shimoliy dengiz havzalariga ajralib ketgan. Alp tog‘laridan Bolqon, Qrim, Kavkaz orqali Markaziy Eron va Afg‘onistongacha cho‘zilgan tor quruqlik qambari bu dengizlarni ajratib turgan. Ancha yirikroq bo‘lgan janubiy dengiz havzasi Dunyo okeaniga tutashib turgan. Shimoliy dengiz esa, Dunyo okeanidan ajralib qolgan, tobora o‘sib borayotgan tog‘lar esa uning akvatoriyasi qisqarib borishiga sababchi bo‘lgan. Yevropaning ichki rayonlaridan Kavkazoldi bo‘ylab minglab kilometrlargacha cho‘zilgan ulkan Sarmat dengizi – Paratetis vujudga kelgan. Sharqiy Yevropa platformasining janubini ham qoplاب olgan bu havzada qum-gilli cho‘kindilar va organogen ohaktoshlar to‘plangan.

Pliotsenga kelib Paratetisning o‘zi davom etayotgan tog‘ hosil qiluvchi jarayonlar va tog‘larning o‘sishi tufayli bir qancha alohida havzalarga parchalanib ketgan. O‘sayotgan Kavkaz va Kopetdog‘ tog‘-lari Paratetis suvining shimolga surilishiga olib kelgan. Keyinchalik, pliotsenning oxirlarida hozirgi Kaspiybo‘yi pasttekisligi dengiz bilan qoplangan. Bunda ochiq okean bilan aloqasi bo‘lgan Tetisning janubiy qismi ham chekingan.

Vaqtlar o‘tishi bilan Alp, Karpat, Qrim, Kavkaz va Kopetdog‘ hozirgi ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Ularning o‘lchami kattalashib, o‘sib borgan. Bu tog‘larni o‘rab turgan hududlar ham ko‘tarilib, Tetis okeanidan qolgan dengizlar akvatoriyasi torayib boradi. Janu-

biy dengiz o‘z orqasida botiqlik va ko‘llarni qoldirib, Hind okeaniga qo‘shilib ketadi.

Paratetisning parchalanishi tufayli O‘rta yer dengizi, Qora va Kaspiy dengizlari bir-biridan ajralib qoladi. Kechki pliotsenda Orol dengizi vujudga kelgan. Bu dengizlar davriy ravishda o‘zaro tutashib va ajralib turgan. Bu vaqtida Gibraltar, Bosfor va Dardanella bo‘g‘ozlari va Egey dengizi bo‘lmagan. Yevropa ba‘zi joylarda Afrika bilan O‘rta yer dengizi orqali bevosita tutashib turgan.

Neogen va antropogenda Qora, Kaspiy va Orol dengizlari o‘z ko‘rinishlarini bir necha bor o‘zgartirgan.

Antropogenda O‘rta yer va Qora dengizlari orasidagi aloqa Bosfor va Dardanella bo‘g‘ozlari orqali tiklangan. Bu aloqa Qora dengizni butunlay qurib qolishdan saqlagan. Aksincha, Qora dengiz bilan Kaspiy dengizi orasidagi aloqa butunlay uzilgan. Hozirgi vaqtida Kaspiy va Orol dengizlari asta-sekin qurib bormoqda. Daryolar kel-tirayotgan suvlar bug‘lanishni muvozanatlashga qodir emas.

Shunday qilib, neogen-antropogenda Tetis okeani parchalanib, yo‘qolib ketgan. Qachonlardir Lavrosiyo va Gondvanani ajratib tur-gan ulkan okeanning mavjudligini ushbu qoldiq dengizlarga eslatib turadi.

***Buyuk Afrika yer yoriqlari.*** Litosfera kontinental palaxsalarining surilishi bilan bir vaqtida, mezozoyda boshlangan yangi chuqur yer yoriqlari vujudga kelgan.

Bunday ko‘lamli parchalanish Arabiston va Afrika hududlarida sodir bo‘ladi. Miotsen epoxasida o‘zaro kesishuvchi diagonal chuqur yer yoriqlari tizimi grabenlar – Qizil dengiz rifti, Suvaysh va Adan ko‘rfazlarini vujudga keltiradi. Shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiyl yo‘nalishdagi tor grabenlar Arabistonni Afrikadan ajratib qo‘ygan. Keyingi 5 mln. yil davomida ushbu graben-riftlar kengayib, dengiz suvi bilan qoplangan (65-rasm).

Qizil dengiz, Suvaysh va Adan ko‘rfazlarida okean tubidagi yer po‘sti shakllangan. Olimlar bunday grabenlarning hosil bo‘lishini yer qa‘rida okean botiqliklarining vujudga kelishidagi dastlabki bosqich deb qarashadi.

Buyuk Afrika yer yorig'i Afrika kontinentining shariqy qismida joylashgan bo'lib, **Buyuk Rift Vodiysi (Great Rift Valley)** nomi bilan ham ataladi.

Bu yer po'stidagi yirik yer yorig'i 6000 km dan ortiq masofaga cho'zilgan bo'lib, Sharqiy Afrikaning bir qancha davlatlaridan o'tgan. Kengligi 30 dan 100 kilometrgacha boradi. Chuqurligi esa, 900 metrgacha.

Rift vodiysi qisman suv bilan to'ldirilgan bo'lib, Tanganika, Kivu, Malavi, Nyasa, Viktoriya kabi bir qancha ko'llarni hosil qilgan.

Afrikaning bir qator yer yoriqlari bo'ylab yer yuzasiga bazalt lavalarining quyilishi faollashadi. Paleogenda Afrikaning markaziy va janubi-g'arbiy qismalarida bunday vulkanizm faoliyati kuchayadi. Bunda bazalt qoplamasining qalinligi 1,5 km ga yetadi.

Miotsenda Sharqiy Afrika ulkan yer yoriqlari – riftlar tizimi yordamida bo'linadi. Zambezi daryosining quyi oqimidan boshlangan yer yorig'i shimolga qarab submeridional yo'nalishda cho'zilgan. Nyasa ko'li yaqinida u uchta tarmoqqa ajralib ketadi.

Uning g'arbiy tarmog'i shimoli-g'arbiy yo'nalishda Tanganika va Eduard ko'llaridan o'tib tugaydi. Sharqiy tarmog'i shimoli-sharqqa qarab burilib, Somali yarimorolining janubiy chetini aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqadi. Markaziy tarmog'i esa, shimolga qarab Qizil dengiz orqali O'lik dengiziga chiqadi va Kichik Osiyoning Tavr tizmasining janubiy etaklarida tugaydi.



65-rasm. Buyuk Afrika rifti

Buyuk Afrika yer yoriqlari tizimi relyefda Rudolf, Nyasa, Tanganika, Eduard, Albert va boshqa ko'llar suvi bilan qoplangan tor va chuqur grabenlar qambaridan iborat. Yer yoriqlari, odatda, Hind okeani tomon pasayib boruvchi pog'onali uzilmalarni tashkil etadi. Afrikadagi harakatdagi vulkanlar ushbu tizimda joylashgan bo'lib, ulardan bazalt lavasining oqib chiqishi antropogen davrida ham davom etmoqda.

Yosh graben-riftlarning hosil bo'lishi yer sharining boshqa faol chuqur yer yoriqlari zonalarida ham kuzatiladi. Masalan, Sibirda cho'kish amplitudasi 1700 m ga boruvchi Baykal ko'li grabeni hosil bo'lgan.

Faol vertikal harakatlarga ega bo'lgan ulkan yer yoriqlari Shimoliy Amerika platformasining Kordilera bilan tutashgan g'arbida paydo bo'ladi. Palaxsali harakatlar tufayli bu yerda tog'li relyef (Qo'yali tog'lar) vujudga keladi va  $500000 \text{ km}^2$  maydonni qoplab olgan qalin bazalt lavalarining quylishi kuzatiladi.

Chuqur yer yorig'i bo'yicha Kaliforniya materikdan uzun va tor ko'rfaz hosil qilib, ajralib qolgan. Kaliforniyani Shimoliy Amerikan dan ajratib turuvchi San-Andreas chuqur yer yorig'i bo'yicha horizontal harakatlar hozirgi kunda ham kuchli zilzilalar bilan yiliga 5–6 sm tezlikda davom etmoqda.

**Paleogeografiyasi.** Bo'rda boshlangan dengiz regressiyasi paleogenning boshida ham davom etgan, ammo bu davrning o'rtalarida u Yevrosiyoning ancha qismi: Sharqiy Yevropa tekisligining janubiy qismi, O'rta Osiyo va G'arbiy Sibir tekisliklari, G'arbiy Yevropa paleozoy tog'larini ajratib turuvchi tekisliklarini qamrab olgan yangi transgessiya bilan almashadi. Shu bilan bir vaqtida, oligotsenning oxirida Tetis va Tinch okeanining g'arbiy qismida neogenda ham davom etgan tektonik harakatlar rivojlanadi.

Paleogen davrining boshlarida shimoliy yarimshardagi epigersin platformalari egallagan yirik dengiz transgressiyasi rivojlanadi va Sharqiy Yevropa platformasining janubini, Arabistonni va Afrikaning shimolini qoplab oladi. Shimoliy Amerika va Sibir platformalari esa quruqligicha qolgan.

Janubiy Amerika boshqa kontinentlardan to‘liq ajralib qoladi va o‘zining dastlabki sutemizuvchilari bilan xarakterlanadi. Afrika, Hindiston va Avstraliya bir-biridan yanada uzoqlashadi. Butun paleotsen davomida Avstraliya Antarktida yaqinida joylashgan. Dengiz sathi pasaygan, Yer sharining ko‘p joylarida yangi quruqliklar vujudga keladi.

**Iqlimi.** O‘rta yer dengizi mintaqasidan janubda iqlim sharoitlari deyarli o‘zgarmagan. Bunda Yevrosiyoning mezozoydan boshlangan paleotropik florasi va hozirgi hind-malay faunasi kelib chiqqan hayvonot olami rivojlangan. Bu hudud uchun paleogenda paydo bo‘lgan xartumllilar va primatlar xarakterlidir. Tetis okeani bu organik dunyo rivojlanishining ikki markazi o‘rtasida turlar almashinishi uchun to‘sinq bo‘lgan. Keyinchalik, bu rolni uning o‘rnida vujudga kelgan tog‘lar o‘taydi.

Paleogenning ikkinchi yarmida shimol va janub iqlimi orasidagi farq yanada kuchayadi. Bu esa organik dunyoda o‘z aksini topadi. Janubiy qismida palmalar, daraxtsimon paporotniklar, lavrlar oilasi, mirt, doimiy yashil dub, tropik qarag‘ay va boshqa oilalar vakillaridan iborat bo‘lgan tropik va subtropik poltava florasi shakllanadi. U issiq, ammo uncha nam bo‘lmagan iqlimga to‘g‘ri keladi. Yevrosiyoning shimolida iliq va mo‘tadil iqlimning barg to‘kuvchi to‘rg‘ay florasi rivojlanadi. Ularning tarkibiga, asosan, barg to‘kuvchi daraxtlar – kashtan, buk, klen, likvidambr, qadimgi sekvoyya, botqoqlik kiparisi va b. kirgan. Iqlimning asta-sekin sovib borishi natijasida poltava florasi chekina boshlagan va yo‘qolib ketgan, ularning o‘rnini janub va g‘arbda tarqalgan to‘rg‘ay florasi egallagan. Iqlimning yanada sovishi tufayli shimolda boreal (igna bargli) flora tarqalgan.

Neotektonik jarayonlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan relyef o‘zgarishi iqlimda ham muayyan o‘zgarishlarga olib kelgan. Paleogenning ikkinchi yarmidayoq materikning butun shimoliy qismida iqlim asta-sekin soviy boshlagan. Bu o‘zgarishlar organik dunyoning differensiatsiyasiga, janub va shimol orasidagi farqning oshishiga olib kelgan. Sovuq iqlim issiq sevuvchi flora va faunaning qirilib

ketishiga va janub tomon siljishiga olib kelgan. Ularning o‘rnini boreal va arktika organizmlari egallagan, materiklarning ichki rayonlari qurg‘oqchil o‘lkalarga aylanib, arid maydonlar kengaygan. Sharqda va ayniqsa, janubda paydo bo‘lgan eng yirik tog‘ tizmalari Yevrosiyoning ichki rayonlarini Tinch va Hind okeanlaridan keldigan nam havo oqimlaridan to‘sib qo‘yadi. Markaziy Osiyoning keng hududlarida qurg‘oqchil va keskin kontinental sharoitlar kuzatiladi. Shu tufayli o‘rmonlar va o‘rmon hayvonlari yo‘qolib ketadi, ularning o‘rnini quruq iqlimga moslashgan hayvonlar va o‘simliklar egallaydi.

Faqat materikning eng janubi va janubi-sharqida iqlim sharoitlari mezozoyning oxiridan boshlab sezilarli o‘zgarishlarga uchramagan. Organik dunyo rivojlanishi jarayoni tropik flora va fauna shakllanishi tomon uzluksiz kechgan.

Pleystotsendagi iqlimning sovishi Yevrosiyoning shimoliy qismida materik muz qoplamasining kengayishiga va deyarli materikdagi barcha tog‘liklarni muz bosishiga olib kelgan. Materik muzliklari qoplamasi Yevropa va G‘arbiy Sibirni egallagan. Ularning past kengliklarga siljishi o‘simlik qoplamasi va hayvonlarning yo‘qolib ketishiga olib kelgan. Muzliklarning chetlari bo‘ylab tundra va sovuq cho‘llar tarqalgan. Bu rayonlarda lyoslar va lyossimon jinslar shakllangan, hozirgi vaqtida, qirilib ketgan (mamontlar) yoki hozir tundralarda yashovchi (shimol bug‘ulari, ovsebiklar, lemminglar) turlardan iborat bo‘lgan o‘ziga xos fauna hamda hozirgi vaqtga kelib qisman yo‘qolib ketgan cho‘l va o‘rmon-cho‘l hayvonlari (otlar, saygaklar, bizonlar, bug‘ular) rivojlangan.

Materiklarning muz bosmagan janubiy va ichki rayonlarida muz bosish epoxalari bilan daryo va ko‘llarning zich tarmoqlari vujudga kelishi va organik dunyosi ancha boyigan namgarchilik davrlariga bog‘liq bo‘lgan. To‘rg‘ay florasining qoldiqlari iqlim sharoitlari kam o‘zgargan joylarda saqlanib qolgan. Issiq seuvuchi poltava florasi deyarli to‘liq qirilib ketgan, faqat uning elementlari Yevrosiyoning subtropik florasi tarkibida hozirgacha saqlanib qolgan.

Materikning muz bosishi ko‘p karrali bo‘lgan. Ularning izlari relyefda va to‘rtlamchi davr yotqiziqlarida o‘z aksini topgan. Maksimal muz bosish epoxalarida (250–75 ming yil ilgari) muzliklar ikkita markazdan – Skandinaviya yarimoroli va Britaniya orollaridan tarqalgan. Muzliklar Yevropaning butun shimolidan Karpat tog‘larining etaklarigacha va O‘rta Yevropa tog‘larigacha tarqalgan. Muzliklar Shimoliy dengizni va Atlantika okeanining yondosh hududlarini qamrab olgan.

Maksimal muz bosish chegarasi xarsanglar va morena yotqiziqlari bo‘yicha aniqlanadi. Keyingi muz bosish (70–11 ming yil ilgari) ancha kam hududlarni qoplagan. Uning chegarasi relyefda yaxshi ifodalandigan va Boltiq qatori nomini olgan oxirgi hosilalarning qambari bilan belgilanadi.


Muz bosish epoxalari vaqtida Dunyo okeanining sathi pasaygan, quruqlik maydonlari esa kengaygan. Shu tufayli Britaniya orollari bir necha bor materik bilan tutashgan, Yevrosiyoning shimolidagi materik sayozligi ochilib qolgan, Bering bo‘g‘ozi o‘rnida Yevrosiyo va Shimoliy Amerika orasida ko‘priq vujudga kelgan. Shu ko‘priq orqali ikki materik orasida hayvonlar almashgan, u orqali Osiyodan Shimoliy Amerikaga odam kelgan. Hozirgi odamlarning ajdodlari janubiy, ichki tropik rayonlardan tarqalib, asta-sekin O‘rta yer dengizi va Yevropaning o‘rta qismini egallagan. Muz oralig‘i epoxalarida va oxirgi muz bosish chekingandan so‘ng, ular Yevropaning shimoliga, undan esa Shimoliy Amerikaga o‘tgan. So‘nggi muz bosish epoxasining oxirigacha (8–10 ming yil ilgari) quruqlik Janubi-sharqiy Osiyoda hozirgiga qaraganda kengroq bo‘lgan. Bu ko‘priq orqali Avstarliyaniki bilan hayvonlar almashgan va Avstraliyaga ham odam o‘tgan.

Muz bosish epoxasidan so‘ng Dunyo okeanining sathi ko‘tarilgan va shu tufayli Yevrosiyoning o‘lchami va ko‘rinishi birmuncha o‘zgargan: transgressiya materikning shimolida va g‘arbida Atlantika va Shimoliy muz okeanlarining epikontinental dengizlari paydo bo‘lishiga olib kelgan, shimoli-g‘arbda Shimoliy Amerika va janubi-


g‘arbda Avstraliya bilan quruqlik orqali aloqa batamom to‘xtagan. Ichki dengizlar – Boltiq, Qora dengizlarining o‘lchami va sathi bir necha bor o‘zgargan. Kaspiy dengizi ajralib qolgan.

Muzlarning erib ketishi va iqlimning asta-sekin ilib borishi ark-tika flora va faunasining shimolga chekinishiga va ularning qisman tog‘li rayonlarga ko‘chishiga olib kelgan. Materiklarning ichki rayon-larida arid iqlim sharoitlarida kserofit o‘simliklar keng tarqaladi. Golotsen davomida Yevrosiyoda iqlim sharoitlarining o‘zgarishi bir necha bor takrorlangan, ammo endi muz bosish epoxalaridagidek keskin bo‘lmagan.

**Organik dunyosi.** Kaynozoyda Yevrosiyoning O‘rta yer dengizi mintaqasidan shimolda iqlim va organik dunyo mezozoy erasining oxiridagiga qaraganda o‘zgacha bo‘lgan (66-rasm). Janubda iqlim issiq va nisbatan nam, shimoliy rayonlarda esa mo‘tadil iliq va nam bo‘lgan. Bunday sharoitlarda ko‘pchilik avlodlari va oilalari ho-zirgi vaqtida ham mavjud bo‘lgan boy, asosan, daraxtsimon yopiq urug‘li flora rivojlangan. Shimolda bular ignabarglilar aralashgan barg tashlovchi dub, buk, yong‘oq, kashtandan iborat o‘rmonlarni tashkil etgan. Janubda palmalar, tropik ignabarglilar, paporotniklar hukmronlik qilgan. Maysali o‘tlar hali keng tarqalmagan. Asosan, sutemizuvchilardan iborat bo‘lgan fauna shakllangan bo‘lib, ularning orasida yirtqichlar (keyinchalik qirilib ketgan) va tuyoqlilar ustuvorlik



66-rasm. Paleogen landshafti



67-rasm. Dinotserat. <http://wwlife.ru>

qilishgan. Haqiqiy qushlar ham paydo bo‘lgan. Bu hududning flora va faunasi keyinchalik hozirgi organik dunyoni hosil qilgan.


Paleogenning hayvonot dunyosi bo‘r davridagi olamshumul qirilishdan keyin sezilarli darajada yangilangan. Quruqlikdagi va dengizdagi ulkan reptiliyalar yo‘qolib ketgan. Ularning o‘rnini tez rivojlanayotgan sutemizuvchilar egallaydi.

Paleogen sutemizuvchilar xilma-xil bo‘lgan. Oligotsenda eng yirik sutemizuvchilar nosoroglarning qadimiy vakillari bo‘lgan. Ular savannalarda yashagan. Oligotsenda sodda tuzilgan cho‘chqalar, tuyalar va bug‘ular yashagan. Paleogenning boshlaridanoq yarimmaymunlar deb ataluvchi primatlarning sodda guruhlari – lemuralar paydo bo‘lgan. Faqat eotsenning oxiridagina haqiqiy maymunlar – antropodalar paydo bo‘lgan.

Eotsenda Karkidonlarning ajdodlari – yirik shoxsiz hayvonlar paydo bo‘lgan. Eotsenning oxirida ulardan dinotseratlar kelib chiqqan (67-rasm). Ularda bir juft shoxlar, xanjarsimon o‘tkir kliklari va juda kichik miya bo‘lgan.

Eotsen jufttuyoqlilari orasida antrakoteriylar oilasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan (68-rasm).

Eotsenda dastlabki ko‘rshapaloqlar paydo bo‘ladi. Ular hozirgi ko‘rshapaloqlarga juda o‘xshash, uzun ingichka barmoqlariga tarang tortilgan teridan iborat qanotlarga ega bo‘lgan (69-rasm).



68-rasm. Antrakoteriylar vakili –  
Elometriks (Elomeryx).  
<http://wwlife.ru>

69-rasm. Ko‘rshapalak ikaronikteris.  
<http://wwlife.ru>

Eotsenda hozir yashayotgan xartumlilarning ajdodlari paydo bo'ladi. Ularning tishi kichik, xartumi cho'ziq, ustki labdan iborat bo'lgan. Ulardan pastki jag'i to'g'ri burchak ostida pastga osilgan dinoteriyalar kelib chiqqan (70-rasm). Dinoteriyalar jag'ining uchida tishlari va haqiqiy xartumi bo'lgan. Ular zinch o'simliklar o'suvchi nam o'rmonlarda hayot kechirishgan.

Eotsenning oxiriga kelib dastlabki fillarning ajdodlari – paleomastodontlar paydo bo'ladi (71-rasm). Ularning xartumi uncha katta bo'lмаган, ammo ustki jag'ida tishlari bo'lgan. Paleomastodont eotsen xartumlilari orasida eng yirigi bo'lgan, uning vazni 2 t gacha borgan.

Quruqlik florasi orasida yopiqqurug'lilar rivojlanishni davom ettirgan. Ularning tarkibida palmalar, magnoliyalar, mirtlar, fikuslar, ulkan sekvoyyalar, araukariyalar va kiparislар yetakchilik qilishgan.

Neogenda quruqlikdagi organizmlar tarkibi kuchli o'zgaradi. Ayniqsa, sutmizuvchilarda chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ular zinch o'rmonlarda, o'rmon cho'llarida, cho'llar va yarimcho'llarda



70-rasm. Dinoteriyalar  
(Deinotherium). <http://wwlife.ru>



71-rasm. Paleomastodontlar.  
<http://wwlife.ru>

yashashga moslashgan. Hozirgi zamon yirtqichlari, tuyoqlilari va xartumlilarining oilalari va avlodlari paydo bo‘lgan va keng tarqalgan.

Eng yirik xartumlilar turining vakili *Mammuthus imperator* o‘rta pleystotsenda birinchi muz bosish oralig‘ida Shimoliy Amerikaning janubidagi tekisliklarda tarqalgan. O‘zining deyarli to‘rt metrli bo‘yi bilan u hozirgi Afrika filidan farq qilgan. Tishi 4,2 m gacha borgan (72-rasm). Bu mamontning yaxshi saqlangan skeleti Texas, Kolorado, Nebraska, Kanzas va Oklaxomada topilgan.

Qushlarning orasida g‘ozturna – diatrima keng tarqalgan (73-rasm). Tez yuguruvchi, balandligi 2 m ga boruvchi bu qush Shimoliy Amerikada tarqalgan. Unda to‘tiqushnikiga o‘xshash katta tumshuq, baquvvat o‘tkir tirnoqlari bo‘lgan. Bu yirtqich qush yirik hayvonlarning ham dushmani bo‘lgan.

Timsohsimonlar eotsenda ancha kamayib ketgan. Ularning orasida alligatorlar keng tarqalgan, ikkinchi o‘rinni gaviallar (74-rasm), uchinchi o‘rinni esa haqiqiy timsohlar egallagan. Eotsen timsohsimonlarining uzunligi 70 sm dan 6 m gacha yetgan.

***Odam evolutsiyasi.*** Yerda odamning tarixi 2 mln. yilga yaqin. Ammo bu vaqt odamning Yerda yakka hokimlik qilishi va yer yaqinidagi fazo bo‘shlig‘ini o‘zlashtirishi uchun kifoya qilgan.



72-rasm. Mamontlar. <http://wwlife.ru>



73-rasm. Diatrimalar.  
<http://wwlife.ru>



74-rasm. Gaviala. <http://wwlife.ru>

Odamning paydo bo'lishi tashqi ko'rinishi bo'yicha hozirgi zamon odamsimon maymuni va odamning umumiy ajdodi bo'lgan primatlarning uzoq evolutsiyasi jarayoni bilan bog'liq. Garvard universiteti antropologiya professori U. Xauels taxminan 20 mln. yil ilgari Yevropa, Hindiston va Xitoyda yashagan, odamsimon maymunni eslatuvchi driopitekni umumiy bobokalon deb hisoblagan. Driopitek guruhidan taxminan 12 mln. yil oldin ramapitek – odamning dastlabki ajdodi ajralib chiqadi. Tashqi ko'rinishi bo'yicha u ko'proq maymunga o'xshash, ammo odamning ba'zi belgilariiga ega bo'lgan.


1938-yilda Tanzaniyadagi Iogannesburg yaqinida (Janubiy Afrika) yashagan taniqli Janubiy afrikalik paleontolog Robert Brom odamga o'xshash mavjudotning qoldiqlarini topgan va u ***Paranthropus robustus*** deb nom olgan (75-rasm). Parantropus neogenning oxirida – to'rtlamchi davrning boshlarida, ya'ni bundan 3,1 dan 1 mln. yil ilgari yashagan. Bo'yi bir yarim metrdan oshiqroq bo'lgan bu mavjudotning vazni 70 kg ga yaqin bo'lgan. Bu «deyarli odam» ikki oyoqlari bilan harakatlangan, ammo qaddini uncha tik tutmagan. Uning bosh suyagi va pastki jag'i avstralopiteknikiga qaraganda yirikroq bo'lgan. Parantropus o'simliklar bilan oziqlangan. Bu o'txo'r gominid Afrika o'rmonlarida yashagan. Bu tarmoq avlod qoldirmasdan qirilib ketgan.



75-rasm. Odamning qadimiy ajdodi parantropus

Kimberlidan 130 km shimoldagi Taung (Botsvana) shahri yaqinida paleontolog Raymond Dart tomonidan 1924-yilda *Australopithecus africanus* («janubiy maymun») qoldig'i topilgan. Bu parantropusning zamondoshi bo'lib, bo'yи shimpanzeniki yoki yosh gorillanikidek bo'lib, qaddini tik tutib yurgan. O'zining hayot tarzi bo'yicha parantropusdan batamom farq qilgan: ochiq cho'llarda tarqalgan bo'lib, turli jonivorlarni ov qilgan. U hozirgi odamlarning ajdodiga boshqa gominidlar orasida eng yaqini bo'lgan. Avstralopitek Afrikada parantrop bilan bir vaqtda yashagan (3,3–1 mln. yil ilgari).

Avstralopitek bundan 6–1,5 mln. yil ilgari yashagan. Avstralopitek o'z evolutsiyasining asosiy bosqichlarini o'tab bo'lgan. Odam kabi avstralopitek ochiq joyda tik turib tez yugura olgan. Uning bo'yи 90–120 sm bo'lgan. Avstralopitek suyak, tosh yoki yog'ochdan yasalgan oddiy qurollardan foydalanib, ov qilgan. Keniyadagi Rudolf ko'li yaqinidagi yotqiziqlarda avstralopitek qoldiqlari bilan birgalikda oddiy tosh qurollar – 5–8 tomoni o'tkirlashtirilgan daryo g'o'lak-toshlari topilgan. Bu qurollarning yoshi 2,6 mln. yil. Bundan 1,5



76-rasm. Tik yuruvchi odam

mln. yil ilgari to‘plangan yosh-roq qatlamlarda Barincho ko‘li (Keniya) yaqinida qadimgi gul-xan izlari, kuydirilgan gil bo‘lak-lari, kremniyli o‘tirg‘ich va avstralopiteklarning suyaklari topil-gan. Bularning barchasi «janubiy maymun», miyasining hajmi 400 sm<sup>3</sup> gina, ya’ni hozirgi odamlar-nikidan to‘rt marta kam bo‘lsada, nisbatan yuksak rivojlangan-ligidan dalolat beradi.

Odamning rivojlanishidagi navbatdagi muhim qadam «tik qomatli odam» – «Homo erec-tus»ning 1 mln. yil ilgari paydo bo‘lishi sanaladi (76-rasm). Shu

paytdan boshlab primatlar – «Homo»da yangi farqlovchi sifatlarini ko‘rsatuvchi va odamning paydo bo‘lishini belgilovchi yangi avlod vujudga keladi. Bir qator antropologlar (masalan, R.Liki) ba’zi avstralopiteklar – «uddaburon odam» – «Homo habilis»ni dastlabki odam deb hisoblaydi. «Tik qomatli odam» olovdan foydalangan va dastlabki qo‘l rubilasini yarat-gan (abbevil madaniyati). Eramizdan 250 ming yil ilgari Yevropada dastlabki «aqli odam» «homo sapiens» tarqalgan.


Bu hozirgi ko‘rinishdagi odamning eng qadimiy vakili bo‘lgan. «Aqli odam»ning qirquvchi qurollari bir xil, yaxshi ishlangan, ularga oddiy geometrik shakllar berilgan (ashel madaniyati).

Bundan oldingi 150000–35000 yillar orasida Yevropa, Afrika, Osiyoda paleoantroplar (neandertallar) – «Homo» avlodining ancha yuksak shakllangan vakillari tarqalgan. Neandertallar turli-tuman retush qo‘llangan kremniyli qurollar yaratgan bo‘lib, bu ma’lum ma’noda progress hisoblangan (muster madaniyati).

Odam evolutsiyasining keyingi tarixi uncha aniq emas. **Kromanonalr** nomini olgan odamlar Yevropa, Afrika, Xitoyda tarqalgan. Ularning bosh suyagi hozirgi odamlarnikiga juda o'xshash bo'lgan va neandertallarnikidan ancha farq qilgan. Ular faqat massiv ko'zusti valiklari va yirik kurak tishlari bilan neandertallarga o'xshash bo'lgan. Kromanonlar tosh qurollar (nayza, bolg'a, pichoq) dan foydalangan va yashash uchun yaxshi moslashgan. Ular hozirgi odamlarning bevosita ajdodlari bo'lgan deb hisoblanadi.

Turli irqlarning paydo bo'lish masalasi ham munozarali hisoblanadi: yo ular umumiy ajdodga (monotsentrik gipoteza), yoki hozirgi irqlar turli yo'llar bilan (politsentrik gipoteza) kelib chiqqan. Bunda bir narsa aniq: kromanonlarning paydo bo'lishi bilan odam to'lato'kis shakllangan bo'lib, keyingi 35–40 ming yil davomida amalda fiziologik evolutsiyaga uchramagan.

Odamning evolutsiyasini ajdodlarining toshqotgan qoldiqlari bo'yicha tiklash muayyan uzilishlarga ega va oxirigacha aniq emas. Ba'zi olimlar Afrikaning shimoliy va sharqiylarida bundan 4–1 mln. yil ilgari yashagan Australopithecenes (qarang: avstralopitek) turidan kelib chiqqan degan fikrni bildirishadi. Oimlarning boshqa guruhi esa biz hali topilmagan ajdoddardan kelib chiqqanimizni taxmin qilishadi. Odamniki deb talqin qilish mumkin bo'lgan eng qadimiy toshqotgan qoldiqlar – bu «Homo habilis» (uddaburon odam), bundan 2 mln. yil ilgari yashagan. Navbatdagi evolutsion bosqich bundan taxminan 1,5 mln. yil ilgari paydo bo'lgan «Homo erectus» (tik yuruvchi odam) sanaladi. Homo sapiens (aqli odam) turining eng qadimgi qoldiqlari taxminan 250 000 yil deb sanaladi. Rivojlanishning, ehtimol, qo'shni tarmog'i bo'lgan *neandertallar* (*Homo sapiens eanderthalensis*) bundan taxminan 130 000–30 000 yil ilgari Yevropada va G'arbiy Osiyoda yashagan. Hozirgi zamon odamlari «Homo sapiens» yoki *kromanonlar* dastlab 100 000 yil oldin paydo bo'lgan. Odamning barcha turlari, «Homo sapiens»dan tashqari, hozirgi vaqtgacha qirilib ketgan.



77-rasm. Odamning ajdodlari: Australopithecus afarensis (A),  
A. Africanus (B), Homo habilis (C), N Erectus (D), N Erectus (E)  
va N Sapiens sapiens (F).

Toshqotgan qoldiqlar odam evolutsiyasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot bermasa-da, biz odamlarning odamsimon maymunlardan kelib chiqqanini bilamiz (77-rasm). Odamning eng qadimiy ajdodi avstralopitek *Australopithecus afarensis* (A) taxminan 5 mln. yil ilgari Afrikaning shimoli-shraqida yashagan. Keyingi 3–4 mil. yil davomida u *A. Africanus* (V) ga evolutsiyalangan. Oddiy tosh qurollardan foydalangan uddaburon odam «*Homo habilis*» (S) undan 500 000 yil keyin paydo bo‘lgan. Tik yuruvchi odam *N. Erectus* (D) 750 000 yil ilgari Afrikadan butun dunyoga tarqalgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *N. Erectus*dan ikki tarmoq rivojlangan. 40 ming yil ilgari qirilib ketgan neandertal (E) aqli odamning *N. Sapiens sapiens* (F) eng ilk vakillari tomonidan siqib chiqarilgan.

**Foydali qazilmalari. Boksit.** Paleogenda boksitlarning lateritli va laterit-cho‘kindi genezisli ulkan konlari platformalarda ham, harakatchan qambarlarda ham shakllangan. Oligotsen epoxasida marganetsning yirik konlari paydo bo‘lgan. Ularning orasida Qora dengizbo‘yi (Nikopol), Kavkazorti (Chiatura) va G‘arbiy Afrika (Moanda) konlari alohida ahamiyatga ega. Shimoliy Amerika, G‘arbiy Sibir janubi va Shimoliy Qozog‘istondagi ba’zi oolitli temir ma’danlari ham paleogen yoshiga ega.

To‘rtlamchi davrda ham ekvator va nam-tropik viloyatlarda nurash qobiqlarining shakllanishi davom etmoqda. Ularning orasida laterit qoplamlalarining ahamiyati katta. Ekvatorial, tropik va subtropik iqlim qambarlarida metalli nurash qobiqlari shakllanadi. Ularda kobalt, nikel, mis, marganets hamda turli issiqbardosh gillar to‘paladi.

**Neft va gaz.** Ulkan neft konlari Eron, Iroq, Markaziy Osiyo (Farg‘ona, Afg‘on-Tojikiston botiqligi) va Venesueladagi paleogen yotqiziqlari bilan bog‘liq.

Marokash, Aljir va Tunisdagi fosforit konlari ham paleogenda hosil bo‘lgan. Shu yoshdagagi sof oltingugurt konlari Eronda, Meksika ko‘rfazining sohillarida, Boliviya, Argentina, Chili va Karpatortida keng tarqalgan.

Neogen yotqiziqlari bilan bog‘liq bo‘lgan foydali qazilmalar orasida neft va gaz konlari muhim ahamiyatga ega. Dunyoda razvedka qilingan neft va gaz zaxiralarining uchdan biri neogen yotqiziqlari bilan bog‘liq. Ulkan va juda katta neft va gaz konlari orogenlarning tog‘oldi va tog‘oralig‘i botiqliklarida joylashgan. Shunday konlarga Fors-Mesopotam va Kordilera-And neftgazli hududlar misol bo‘ladi. Bular Eron, Iroq, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Venesuela, Meksika ko‘rfazi neftegazli havzalaridir. Shimoliy Yevrosiyoda neft va gaz konlari Shimoliy Kavkaz va Kavkazortida, Kaspiy dengizi akvatoriyasida, G‘arbiy Turkmaniston, Karpatoldi, Karpatorti va Saxalinda mavjud.

**Ko‘mir.** Neogenning ahamiyati bo‘yicha ikkinchi foydali qazilma ko‘mir hisoblanadi. Ular amalda barcha kontinentlarda tarqalgan.

**Temir.** Neogen yotqiziqlari orasida oolitli va qatlamlı temir ma’danlari ham mavjud (Kerch yarimoroli). Janubiy va Markaziy Amerika, Karib havzasasi orollarida (Kuba va b.), Afrika, Hindiston va Avstraliyadagi nurash qobiqlarida boksit, temir, marganets, nikel va kobalt konlari mavjud.

Yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari neogen yotqiziqlarida kaliy tuzlari, osh tuzi, fosforit, trepel va boshqalar uchraydi.

To‘rtlamchi davr yotqiziqlari bilan bog‘liq bo‘lgan foydali qazilmalarini bir necha genetik guruhlarga bo‘lish mumkin. Bu turli sochilmalar, cho‘kindi yo‘l bilan hosil bo‘lgan ma’danlar, noma’dan va yonuvchi foydali qazilmalar va yerosti suvlaridir. Sochilma konlari orasida oltin, platina, cassiterit, olmos, ilmenit, sirkon, rutil muhim ahamiyatga ega.

Ko‘llarda va ko‘l-botqoqliklarda hosil bo‘lgan temir ma’danlari, dengiz sohillaridagi fosforit konkretsiyalarini va Dunyo okeanining chuqur qismlarida keng tarqalgan temir-margenetsli va mis-vanadiyli konkretsiyalar alohida ahamiyatga ega.

### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Paratetis, paleolit, mezolit, neolit, avstrolipitek, tik yuruvchi odam, uddaburon odam, aqlli odam, neandertal, kromanon.

### **Nazorat savollari**

1. Paleogen davrida qanday hayvonlar qirilib ketgan?
2. Yopiq urug‘li o‘simliklar qachondan boshlab rivojlangan?
3. Paleogen davri bilan qanday foydali qazilma konlari bog‘liq?
4. Neogenda qanday orogenez bosqichi rivojlangan?
5. Neogenda qanday foydali qazilmalar muhim ahamiyatga ega?
6. Hozirgi odamlarning ajdodlari kimlar bo‘lgan?
7. Pleystotsenning oxirida qanday hayvonlar qirilib ketgan?
8. Yevrosiyo Shimoliy Amerikadan qachon ajralgan?
9. Hindiston, Avstraliya va Antraktida bir-biridan qachon ajralgan?
10. Alp-Himolay qambari qachon shakllangan?
11. Atlantika va Hind okeanlari qachon paydo bo‘lgan?
12. Paratetis qaysi hududlarni o‘z ichiga olgan?
13. Tetis okeani qachon yopilgan?
14. Qizil dengiz rifti qachon shakllangan?
15. Afrika, Hindiston va Avstraliya bir-biridan qachon ajralgan?
16. Keynozoya iqlimning o‘zgarishi to‘g‘risida gapirib bering.
17. Keynozoydagagi birinchi muz bosishi qachon kuzatilgan?
18. Nima uchun Dunyo okeanining sathi vaqt davomida o‘zgarib turgan?
19. Xartumli hayvonlar qachon paydo bo‘lgan?
20. Neogen yotqiziqlarida qanday foydali qazilmalar keng tarqalgan?

## IKKINCHI QISM

# MINTAQAVIY GEOLOGIYA

---

---

### **13-bob. O'ZBEKISTON HUDUDLARINI TEKTONIK RAYONLASHTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston murakkab geologik tuzilgan tog'-tekislikli o'lka sanaladi. Geologik kesmalarining to'liqligi, kuchli qoplama-burmali va palaxsali-yer yoriqli tektonikasi, barcha fatsiyalarda namoyon bo'lgan tokembriydan boshlab mezo-kaynozoyni ham qamrab olgan kuchli va turli-tuman magmatizmi, turli endogen nishonalar keng rivojlangani bu hududning harakatchan viloyatlarning genotipiga mansubligini belgilaydi. Bu mintaqani o'rganish natijasida litosfera plitalari tektonikasining asosiy holatlari, metallogeniyasi, geologiyasi va petrologiyasining tarixi muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan.

XIX asrning o'rtalarida A.Gumboldt tomonidan o'tkazilgan dastlabki geomorfologik tadqiqotlarda O'rta Osiyoning shu vaqtgacha to'plangan orografik tuzilishi haqidagi barcha fragmentar ma'lumotlarni yagona sxemaga birlashtirgan. Unda o'zaro perpendikular joylashgan, subkenglik va submeridional yo'nalishdagi tog' tizmalarining murakkab tizimi borligi ko'rsatilgan. Tom ma'noda, bu orografik tamoyilga asoslangan O'rta Osiyoni rayonlashtirishning birinchi sxemasi bo'lgan. Keyinchalik, I.V.Mushketov ham geomorfologik belgilari bo'yicha yoysimon joylashgan tog' tizmalarining uchta – Shimoliy yoki Tarbagatay, O'rta yoki Tyanshan, Janubiy yoki Pomir-Oloy guruuhlarini ajratgan. Faqatgina 1926-yilda akademik D.V.Nalivkin o'zining «Turkiston geologiyasi ocherklari» nomli asarida I.V.Mushketovning orografik sxemsini geologik ma'no bilan to'ldir-

gan. Umuman olganda, bu O'rta Osiyoning dastlabki tektonik bo'linishi sxemasi edi. Bundan shu ma'lum bo'ldiki, ajratilgan tektonik tabaqalar moddiy komplekslari tarkibi, cho'kindi va magmatik jins-larning yoshi bo'yicha ham, geologik rivojlanish tarixi bilan ham bir-biridan keskin farq qilar ekan. Bunda quyidagi zonalar – Issiqko'lni o'rab turuvchi tog'larni o'z ichiga oluvchi, janubiy chegarasi Sirdaryo bo'ylab o'tkazilgan Shimoliy (paleozoy); Mugodjar, G'arbiy O'zbekiston, Turkiston-Oloy tog'lari, Ko'kshol, Kuenlunni o'z ichiga oluvchi Markaziy (gersin) va Pomir, Badxiz va Kopetdog' tog' qurilmalaridan iborat Janubiy (alp) zonalari ajratiladi.

V.A.Nikolayev rayonlashtirish sxemasiga aniqlik kiritib, Shimoliy va O'rta Tyanshan orasidagi chegarani Talas tizmasi bo'ylab cho'zilgan yer yorig'i bo'ylab o'tkazgan. Keyinchalik, bu yer yorig'i «Tyanshanning muhim struktura chizig'i» deb qabul qilingan yoki muallif sharafiga «Nikolayev chizig'i» deb nomlangan.

Markaziy zonani Nikolayev uchta kenja zonalarga – Chotqol-Norin, Qurama va Farg'ona-Ko'kshaalga ajratgan. D.V.Nalivkin, V.A.Nikolayev va boshqalar tomonidan tuzilgan tektonik sxema O'rta Osiyo geologiyasining muhim xususiyatlaridan biri – shimoldan janubga qarab kaledonidlarning gersinidlar va gersinidlarning esa alpidlar bilan almashinishini aks ettirgan.

Keyingi yillarda V.I.Popov (1938) Tyanshanning geologik formatsiyalarini o'rganish paytida Shimoliy va Janubiy Tyanshan orasida O'rta Tyanshanni ajratish lozimligi to'g'risida xulosaga kelgan. Rayonlashtirishning bu sxemasi, ma'lum ma'noda, o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi vaqtida ham foydalilaniladi.

Shunday qilib, O'rta Osiyonini o'rganishning bu bosqichida uning tektonik tuzilishidagi asosiy xususiyatlar aniqlandi. Xusan, shimoldan janubga qarab kaledon burmali qurilmalar ketma-ket gersin va alp strukturalari bilan almashinadi.

O'tgan asrning 70-yillarida litosfera plitalari tektonikasi erasi boshlandi. Bu gipotezaga muvofiq okeanlar va kontinentlarda yer po'sti tuzilishi keskin farq qiladi. Shu narsa ma'lum bo'ldiki,

kontinentlar ofiolit komplekslari okean tubi tuzilishining qoldig'i hisoblanadi, bu haqda akademik A.V.Peyvening (1969) «Geotektonika» jurnalida maqolasi chop etilgan. Maqolada okeanlar tubining kesmalari kontinentlardagi ofiolit komplekslari kesmalariga o'xshashligi ko'rsatilgan. Bu giperbazitlar va gabbroning strukturaviy tutgan o'rnnini aniqlash va asoslash imkonini berdi. Agar ilgari ofiolit maj-muasining bir qismini o'z ichiga olgan Janubiy Tyanshanning alpinotip giperbazitlari intruziv hosilalar deb qaralgan va ularning yoshi shunga muvofiq quyi-o'rta karbongacha deb sanalgan yoki ularning quyi karbon yotqiziqlarini «yorib chiqishi» yoki o'rta-yuqori karbon qatlamlari ostida yotishi bo'yicha aniqlangan bo'lsa, hozir, litosfera plitalari tektonikasi gipotezasiga muvofiq okean po'stining ikkinchi qatlami hosilari ostidagi melanokrat fundament ko'rinishidagi strukturaviy o'rni aniqlandi. Shu munosabat bilan O'rta Osiyoning geologik va geodinamik rivojlanish tarixi kontinental po'stning par-chalanishi va yangi hosil bo'lgan okean po'stining konstruksiysi tarixi sifatida qarala boshlandi.

Strukturalarning geodinamik rivojlanish tarixi va ularni rayon-lashtirish hozirgi vaqtda litosfera plitalari tektonikasi mobilistik pozitsiyasidan turib qaraladi, paleozoy burmali tizimlarining vujudga kelishi esa, turli yoshdagи okean havzalarining evolutsiyasi va burmali viloyatlarga aylanishi bilan tushuntiriladi. Umuman olganda, O'rta Osiyo hududida ikkita tokembriy massivi – Ustyurt va Qoraqum-Tojik, ikkita burmali qambar Ural-Mo'g'ul va Alp-O'rta yer dengiziga ajratiladi. Ural-Mo'g'ul qambari tarkibida Tyanshan burmali viloyati va Shimoliy Turon epipaleozoy plitasi, Alp-O'rta yer dengizi burmali qambari tarkibida Pomir va Kopetdog' burmali viloyati hamda Janubiy-Turon epipaleozoy plitasi ko'rib chiqiladi.

## **Tayanch tushuncha va iboralar**

Kaledonidlar, gersenidlar, alpidlar, massiv, burmali qambar, burmali viloyat, burmali tizim, epipaleozoy plitasi, postplatforma orogeni.

### **Nazorat savollari**

1. Kopetdog‘ qaysi yoshdagи burmali viloyatga kiradi?
2. O‘rta Tyanshan qaysi yoshdagи burmali tizimga mansub?

## **14-bob. TOKEMBRIY STRUKTURALARI**

### **14.1. Ustyurt massivi**

Ustyurt massivi V.E.Xain (1977), E.E.Milanovskiy (1987) va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarning chop etilgan asarlarida yoritilgan geologik materiallarga muvofiq. U Sharqiy Yevropa platformasi parchasi sifatida, asosiy materikdan Janubiy Emba avlakogeni orqali ajralgan mintaqasi sifatida qaraladi.

Sharqda massiv Orol dengizining g‘arbiy qismida Uralning eng sharqiy zonalari janubiy davomi bo‘lgan submeridional Kulandi yer yorig‘i zonasini orqali ajralgan. Ustyurt massivini janubi-g‘arbdan erta mezzozoy Mang‘ishloq burmali zonasini o‘rab turadi. U trias oxirida shakllangan, Janubiy Donetsk yer yorig‘i zonasining sharqiy davomida vujudga kelgan, yuqori paleozoy va triasning qalin yotqiziqlari bilan to‘ldirilgan tor botiqlik o‘rnida rivojlangan. Massivning g‘arbiy va shimoliy uchlari kesilgan, asta-sekin sharqqa qarab kengayib boruvchi uchburchak shakliga ega. Ustyurt massivi fundamentdan (ehtimol, tobaykal) va katta qalinlikdagi (5–10 km) past burchakda yotuvchi fanerozoy platforma qoplamasidan iborat. Fundamentning kam sonli burg‘i quduqlari yordamida ochilgan moddiy tarkibi va yoshi yetarlicha aniqlanmagan. U tokechki proterozoy bo‘lishi mumkin deb taxmin qilinadi, uning foydasiga eng qadimiy jinslarning mutlaq yoshi 1100 mln. yil, yoki rifey bo‘lgan Mugodjarning tokembriy asosi davomi deb qaraluvchi fikr ham to‘g‘ri keladi. Plita fundamentining jinslari janubi-sharqda Ko‘skali rayonidagi burg‘i qudug‘i yordamida ochilgan va bevosita o‘rta yura yotqiziqlari bilan qoplangan grafit-xlorit-muskovitli slanetslardan tarkib topgan. Sariqamish do‘ngligi rayonida fundamentburg‘i qudug‘i yordamida ochilgan va u amfibolli

slanetslar va granitlardan iborat. Amfibolli slanetslarning kaliy-argon usuli yordamida aniqlangan yoshi  $585 \pm 25$  mln. yil.

Qorabo‘g‘oz mintaqasi fundamentida tokembriy yoshidagi plagiogneyslar va granit-gneyslar topilgan, chunki ular paleozoy granitoidlari (300–440 mln. yil) bilan yorilgan va shamilgan. Massiv fundamenti subkenglik va submeridional yo‘nalishlardagi yer yoriqlari bilan bir qator mayda bloklarga bo‘lingan bo‘lib, unda fundament yuzasi 2,5–3 dan 7–12 km gacha chuqurlikda yotadi. Ustyurning platforma qoplamasи burg‘ilash ma’lumotlari va geofizik tadqiqotlar bo‘yicha uchta asosiy kompleksga: paleozoy, mezozoy va kaynozoyga bo‘linadi. Mezozoy-kaynozoy kompleksi eng keng tarqalgan va sust burmalangan. Ustyurt massivi maydonining katta qismida platforma qoplamasи ostida yuqori perm-quyi trias yoshidagi oraliq kompleks hisoblanuvchi nordon tuflar hamda ba’zan o‘rta va asosli tarkibdagi qatlamchalarga ega qizil rangli qum-argillitli yotqiziqlar va kontinental molassa rivojlangan. Ularning qalinligi 2,5–3,5 km gacha.

Do‘ngliklarda perm-trias hosilalarining qalinligi qisqaradi yoki tugaydi va kesma yura yotqiziqlaridan boshlanadi. Mezo-kaynozoy qoplamasи Ustyurda Orol dengizidan to Kaspiy dengizigacha tarqalgan kesmaga ega. Ustyurt turkumidagi kesma, Turon plitasining boshqa kesmalaridan farqli o‘laroq, o‘z xususiyatlariiga ega.

## 14.2. Qoraqum-tojik massivi

Qoraqum-Tojik massivi nisbatan stabil blok bo‘lib, konsolidatsiyalangan po‘sti (tokembriy) Janubiy Tyanshanning janubiy o‘ramini tashkil etadi, g‘arbda Sharqiye Yevropa platformasi va sharqda Xitoy-Koreya platformasi orasidagi tutashtiruvchi zveno sanaladi. Fundamentning tokembriy hosilalari va paleozoy yotqiziqlari massivning katta qismida Qoraqum, Qizilqum, Qashqadaryo, Janubiy Tojik va Afg‘on depressiyalarida yosh yotqiziqlar ostida ko‘milib ketgan. Fundament faqat nisbatan siyrak tarqoq bloklar shaklida Hisor tiz-

masining janubi-g'arbiy etaklarida (Boysun blogi) alp gorst-antiklinallarining yadrosida ochilib yotadi.

Hisor tizmasining Janubi-g'arbiy etaklarida kristalli fundament Suzistov (Chak-Char), Boysuntov va Surxontovda bir-biridan ajralgan uncha katta bo'limgan uchta do'nglik shaklida ochilib yotadi. Fundamentni tashkil etuvchi metamorfik hosilalar ancha ilgari tad-qiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etgan (Popov, 1938; Pokrovskiy, 1974; Mirxo'jayev, Xoxlov va b., 1977) va hozirgi kunda, ba'zi masalalar munozarali bo'lsa-da, yetarlicha yaxshi o'r ganilgan.

Quyi tokembriy kesmasining Hisor-Qorategin turkumi nisbatan sialik tarkibi bilan xarakterlanadi. Uni Qorateginning qorategin seriyasi, Janubi-g'arbiy Hisorning boysuntov va surxontov seriyalari tashkil etadi.

**Yuqori arxey-quyi proterozoy.** Boysuntov seriyasi yotqiziqlari Boysuntov, Surxontov va Suzistovda bir qancha yirik gorstantiklinallarning yadrosini tashkil etadi. U qoratosh, xo'jabuzbarak, aylangar va shotut svitalariga bo'linadi.

*Qoratosh svitasi*, asosan, biotitli gneytslar, kordierit-sillimanit-biotitli, biotit – sillimanitli, ba'zan granatli kvarsit qatlamchalari, amfibolitlar, marmarlar, kristalli slanetslardan tarkib topgan. Qalinligi 2000 m ga yaqin.

*Xo'jabuzbarak svitasi* biotitli gneytslardan, kvarsit tanalariga ega sillimanit-biotitli, uglerodli kvarsitlar, amfibolitlardan iborat. Qalinligi 1500 m.

*Aylangar svitasi* sillimanit-biotitli, biotitli gneytslar, amfibolitli granit-gneytslar, kvars-dala shpati-biotitli slanetslar, kvarsitlar, marmarlardan tarkib topgan. Qalinligi 900 m.

*Shotut svitasi* gneytslar, biotitli plagiogneyslar, kvarsitlar, marmar tanalaridan iborat. Qalinligi 800 m.

Boysuntov seriyasi kesmasining bosh xususiyati stratigrafik va strukturaviy nomuvofiqlikning yo'qligi va svitadan svitagacha uzluksiz ketma-ketlik sanaladi.

**Quyi proterozoy.** Surxontov seriyasi hosilalari Surxontov tizmasida ikkita ajralib qolgan ochilmalar sifatida kuzatiladi. U mal-yangur, malyan va xondiza svitalariga tabaqalanadi. Ulardan birinchisi kordierit-biotitli gneytslar, biotit-sillimanitli slanetslar, kristalli biotitli slanetslar, kvarsitlardan tarkib topgan. Qalinligi 1500 m. Malyan svitasi biotitli gneytslar, kristalli, uglerodli slanetslar, kvarsitlardan tarkib topgan bo'lib, ularning orasida amfibolli gneytslar qatlamchalari uchraydi. Qalinligi 1500 m. Xondiza svitasi gneytslar, plagiogneyslar, kristalli, slyudlali, uglerodli, kvarsitsimon, fillitli slanetslardan tarkib topgan. Qalinligi 1300 m.

Umuman olganda, surxontov seriyasi uchun svitalar orasida normal stratigrafik munosabat xarakterli bo'lib, metamorfik jinslar cho'kindi tabiatga ega. Janubi-g'arbiy Hisor metamorfik hosilalari ning tokembriy yoshi haqida erta paleozoy konglomeratlari g'o'laklaridagi organik qoldiqlar topilmalari, metamorfik kompleks jinslari ning mutlaq yoshini ko'p sonli kaliy-argon va alfa-qo'rg'oshin usullari bo'yicha 300–400 mln. yildan 1600–1700 mln. yillik aniqlash natijalari dalolat beradi.

**Yuqori paleozoy.** Mintqa uchun kechki turney va erta vizey vaqtida kontinental yotqiziqlar va kechki vizey-erta boshqird vaqtida dengiz vulkanogen-cho'kindi yotqizilarining rivojlanganligi xarakterli. O'rta va yuqori karbonda shakllangan dengiz, asosan, terrogen, qalin flishoid va quyi molassa (shlir) yotqiziqlari shakllangan.

Kontinental genezisdagi yuqori turne-quyi vize yotqiziqlari Hisor tizmasining janubiy yonbag'irlarida (Obizarang, Shirkent, Kundajauz daryolari havzası) va Surxontov, Boysuntov, Suzistovda rivojlangan. Zoy svitasi qadimiy tokechki turne relyefi botiqliklarini to'ldirib, tokembriy metamorfik jinslariga burchakli nomuvofiqlik bilan yotadi. Svita kesmasi bazal konglomeratlaridan boshlanadi, kesmaning ustki qismini gravelitlar, gilli va ko'mirli slanetslar tashkil etadi, ba'zan vulkanogen jinslar (andezitli va kvarsli porfirlar) va ularning tuflari uchraydi. Vaxshivor daryosi bo'yicha (Surxontov) svitasi yotqiziqlarida uning quyi karbonning yuqori turne-quyi vize kenja

yaruslariga mansubligini ko'rsatuvchi ko'p sonli o'simlik qoldiqlari topilgan. Svita qalinligi 50 dan 300 m gacha, ba'zan 700 m gacha boradi (Diymalek).

Kechki vize vaqtida yotqiziqlarning turli turkumlarga differensiyalarini kuzatiladi, bu cho'kindi to'planish muhitida turli sharoitlar vujudga kelganidan dalolat beradi. Yuqori vize va serpux yotqiziqlari vaxshivor, xojirbuloq va qoratog' svitalaridan iborat (Bensh, 1965, 1969). Vaxshivor svitasi Hisor tizmasining janubig'arbiy etaklarida keng tarqalgan. Svita zoy svitasiga transgressiv yoki tokembriy jinslariga nomuvofiq yotadi. Pastki svita tarkibi konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlardan iborat bo'lib, kesmada yuqoriga qarab liparit va datsit tarkibli tuflar va tuffitlar, ohaktoshlarning alohida qatlamlari va pachkalariga ega tufoqumtoshlar, tufoalevrolitlar bilan almashinadi. Ohaktoshlarda svita yoshini kechki viz-serpux ekanligini tasdiqlovchi foraminifera, braxopoda, marjonlar qoldiqlari uchraydi. Svita qalinligi 500 dan 1500 m gacha o'zgaradi. Hisorning janubiy yonbag'rida (To'polang, Obizarang, Qoratog' va boshqa daryolar) vaxshivor svitasining yoshi bo'yicha muqobili bo'lib, qalinligi 2000 m li qoratog' seriyasi (svitasi) sanaladi. Bu svita lavalar, tuflar, kvarsli porfirlar qatlamchalari ko'p uchraydigan diabazli porfiritlar, spilitlar lavalardan, ohaktoshlar qatlamchalari va linzalariga ega kremniyli jinslardan tarkib topgan. Svitaning ustki qismida qalinligit 10 dan 60 m gacha boruvchi pushti-kulrang goniatitli ohaktoshlar gorizonti ajratiladi. Svitaning pastda yotuvchi yotqiziqlar bilan kontakti ishonchli aniqlanmagan. Moddiy tarkibi bo'yicha qoratog' svitasiga Surxontovning janubida rivojlangan xojirbuloq svitasi yaqin. Xojirbuloq svitasi qalinligi 300 m gacha boruvchi bodomtoshli spilitlar (bazaltoidlar)dan iborat bo'lib, kesma bo'yicha yuqorida goniatitli ohaktoshlar (40 m gacha) pachkasiga, yo'nalishi bo'yicha esa, yostiqsimon lavalar bilan qoplanuvchi shu jinslar bilan o'rin almashadi. Ohaktoshlarda serpuxov yarusining ustki qismi uchun xarakterli bo'lgan konodontlar va gonaratitlar topilgan. Svitaning eng ustki qismida o'rta karbon boshqird yarusi pastki qismi

uchun xarakterli bo'lgan konodontlar majmuasi uchraydi. Shunday qilib, xojirbuloq svitasining yoshi o'rta karbonning boshlanishidan boshqird yarusining o'rtalarigacha o'zgaruvchi serpuxov-boshqird yaroslari sifatida belgilanadi. Ostidagi yotqiziqlar bilan kontakti noma'lum.

**O'rta karbon. *Boshqird, moskva yaruslari.*** O'rta karbonning boshqird yarusiga suffi svitasi, sagdor va zarkuin svitalarinin pastki qismi, moskva yarusiga sagdor svitasining ustki qismi va olachapon svitasining pastki qismi kiradi.

Surxontov tizmasida suffi svitasi yotqiziqlari xojirbuloq svitasi jinslarini muvofiq qoplab yotadi, ammo ba'zi joylarda suffi svitasi terrigen jinslarining xodjirbuloq svitasi kesmasining ustki qismidagi spilitlar lava oqmalari bilan o'rin almashishi kuzatiladi. Hisor tizmasi janubiy yonbag'rida suffi svitasi yotqiziqlari, asosan, argillitlar, alevrolitlar (odatda, kremniylashgan) va qumtoshlar hamda tuqli qumtoshlar, tufoalevrolitlar, tuffitlardan va ba'zi joylarda, terrigen jinslardan ustuvor bo'lgan nordon va andezit tarkibli tuflardan tarkib topgan. Svitaning barcha kesmalari bo'ylab siyrak toshqotgan organik qoldiqlarga ega ohaktoshlar va ohakli qumtoshlarning qatlamchalari uchraydi. Svitaning qalinligi Surxontovda bir necha o'nlab metr dan Shirkent daryosi kesmasida 750 metrgacha o'zgaradi, bunda uning ustki qismi kechki boshqird tanaffusidan oldingi vaqtida yuvilib ketgan.

Sagdor svitasi yotqiziqlari Hisor tizmasining janubiy yonbag'rida ochilib yotadi. Svita yupqa qatlamlı, odatda, almashinib yotuvchi qumtoshlar, alevrolitlar va argillitlardan tarkib topgan bo'lib, ularda konglomeratlar va ohaktoshlarning siyrak qatlamchalari va linzalari uchraydi. Sagdor svitasi yotqiziqlarining qalinligi Hisor tizmasining janubiy yonbag'rida 700–1000 m gacha boradi, ammo u barcha joylarda pastidan ham, ustidan ham yer yoriqlari bilan qirqilgan.

Qayroq daryosining boshlanishida va Olachapon daryosi bo'ylab olachapon svitasining kulrang qatlamlı va massiv ohaktoshlar ochilib yotadi, ularning ustida gilli ohaktoshlar va qumtoshlarning

linzalariga ega yupqa qatlamlı argillitlar va alevrolitlar rivojlangan. Ohaktoshlardan topilgan fuzulinidlar moskva yarusining yuqori qismi – shunkmozor gorizontini xarakterlaydi. Bu yerda yuqori moskva yotqiziqlarining qalinligi 190 m, ammo u to'liq emas, chunki svitaning pastki qismi yer yorig'i bilan qirqilgan.

**Yuqori karbon. *Qosimov, gjel yaruslari.*** Yuqori karbonning qosimov yarusi fuzulinidlar majmuasiga ega bo'lgan, katta qismi olachapon svitasini tashkil etadi. Olachapon daryosining o'ng betida ochilib yotuvchi pastki qismi gilli va organogen ohaktoshlar qatlamchalari va linzalariga ega konglomeratlar va qumtoshlar, ozroq miqdorda alevrolitlardan tarkib topgan (250 m). Ularning ustida qumtoshlar va alevrolitlarning siyrak qatlamchalariga ega (30 m) qatlamli ohaktoshlar, keyinchalik, gravelitlar va konglomeratlar qatlamchalari bilan almashinib yotuvchi qumtoshlar va alevrolitlar (32 m) yotadi. Svita quyisi qismining qumtoshlar va alevrolitlardan iborat to'liq qalinligi Qayroq-Oalachapon suvayirgichida kuzatiladi, bunda u 600–700 m ga boradi. Svita kesmasining ustki qismi, asosan, ritmik almashib yotuvchi qumtoshlar va alevrolitlar pachkalaridan iborat bo'lib, kesmaning ustiga qarab gravelitlar va konglomeratlarning qalin linzalari hamda bo'lakli va organogen ohaktoshlarning yupqa qatlamchalari soni oshib boradi. Quyi qismida yotqiziqlarning qalinligi 260 m ga yaqin, ammo to'liq emas, yuqori qisminiki 1000 m ga yaqin.

### Tayanch tushuncha va iboralar

Kaledonidlar, gersenidlar, alpidlar, massiv, burmali qambar, burmali viloyat, burmali tizim, epipaleozoy plitasi, postplatforma orogeni.

### Nazorat savollari

1. Kopetdog' qaysi yoshdagi burmali viloyatga kiradi?
2. O'rta Tyanshan qaysi yoshdagи burmali tizimga mansub?

## **15-bob. TYANSHAN BURMALI VILOYATI**

O'rta Osiyo hududlarida tokembriy, paleozoy, mezozoy va kaynozoy yotqiziqlar keng tarqalgan. Ularni o'rganishning 100 yildan ortiq tarixi I.V. Mushketov, G.D.Romanovskiy, V.N. Veber, D.V. Nalivkin, V.I. Popov, T.A. Sikstel va boshqa ko'plab buyuk tad-qiqotchilar nomi bilan bog'liq. O'zbekiston hududiga O'rta va Janubiy Tyanshan kiradi.

### **15.1. O'rta Tyanshan**

#### **15.1.1. Tokembriy**

Tokembriy hosilalari O'rta Tyanshanda metamorfizm darajasi bilan bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki kompleksga – quyi tokembriy va yuqori tokembriya bo'linadi.

Hozirgi vaqtda yer yuzasidagi ochilmalarda tarqalgan quyi va yuqori tokembriy komplekslarining asosiy maydonlari Shimoliy Tyanshanning Qirg'iz, Talas va Qoratov tizmalari hududlariga to'g'ri keladi. O'zbekiston hududlarida ular O'rta Tyanshanning Chotqol-Qurama mintaqasida ma'lum. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, Shimoliy Tyanshanga nisbatan O'rta Tyanshanda quyi tokembriy hosilalari juda kam tarqalgan.

**Quyi tokembriy kompleksi.** Bu kompleks O'rta Tyanshanning Chotqol-Norin mintaqasida Pskom-Sandalash tog'larida ochilib yotadi. Kompleks kesmasining quyi qismida, asosan, almashib yotuvchi biotit-rogovoobmankali plagiogneyslar, amfibolitlar; o'rta qismida – amfibolitlar, biotit – piroksenli gneyslar; yuqori qismida – amfibolitlar va kristalli slanetslarning yupqa qatlamchalariga ega gneyslar ustuvorlik qiladi. Yotqiziqlarining qalinligi 5000 m ga

yaqin. Uning sirkon bo'yicha uran – qo'rg'oshin usuli yordamida aniqlangan yoshi  $2616 \pm 50$  mln. yilga teng.

Pskom tizmasida quyi kompleks hosilalari Beshtor daryosining boshlanishida Beshtor granit massivi rayonida uncha katta bo'limgan blokda ma'lum. Ular kvars-dala shpatili, kvars-slyudali slanetslar, amfibolitlar, gneyslar, marmarlardan tarkib topgan bo'lib, qalinligi 20 m ga yaqin. Ularning bo'laklari kechki tokembriyning (venda) bazal qatlamlarida uchraydi.

Chotqol tizmasida quyi kompleks Kasansoy havzasida ochilib yotadi va kasan metamorfik kompleksidan iborat. Ushbu kompleks hosilalari gneyslar va migmatitlarning linzasi mon tanalariga ega *shaldir* svitasining kristalli slanetslari, granatli amfibolitlaridan; umumiyligi 500 m bo'lgan grafitli kvarsitlar gorizontlariga ega *tereksoy* svitasining yirik kristalli marmarlaridan; gabbro, apogabbro, ba'zan gornblenditlar, piroksenitlar va peridotitlar reliktlariga ega *semizsoy* svitasining amfibolitlari va ularning ustida yotuvchi biotit-aktinolitli, muskovitli va apotufogen slanetslar, kvarsitlar va marmarlashgan ohaktoshlar qatlamchalariga ega *ishtambardi* svitasining kvarslangan va slyudali qumtoshlar, kvarsit-slanetslari pachkalarining almashinib yotishidan tarkib topgan. Kasan kompleksining umumiyligi qalinligi 5000 m ga yaqin.

**Yuqori tokembriy kompleksi.** *Uzunbuloq svitasi* Chotqol tizmasining shimoliy yonbag'rida tarqalgan. Kesmaning pastki qismi yo'nalishi bo'yicha o'zgaruvchan dag'al bo'lakli jinslar – konglomeratlar, gravelitlar, turli donali qumtoshlar ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Svita kesmasining ustki qismi qumtoshlar, alevrolitlar va gilli slanetslarning ritmik almashib yotishidan tuzilgan. Svita qalinligi 500–600 m.

*Sho'rashuy svitasi* o'zining quyi qismida qum-alevrit-gilli materialdan tuzilgan saralanmagan tillitsimon konglomeratlardan iborat bo'lib, ularda turli granitoidlar, karbonatli jinslar, kristalli va metamorfik slanetslar, vulkanogen, kremniyli va yashmasimon slanetslarning g'o'laklari va xarsanglari «suzib yuradi». Ustki kenja

svitasi kesmasida ritmik almashib yotuvchi polimiktli va oligomikt-kvarsli qumtoshlar, alevrolitlar, alevrolit-gilli slanetslar rivojlangan. Svitaning jamlama qalinligi 900 m gacha boradi.

### 15.1.2. Paleozoy

**Kembriy sistemasi.** Kembriy hosilalari O'zbekistonda kam tarqalgan. Bir qator joylarda kembriy yotqiziqlarini ajratish uchun imkon beruvchi arxeotsiatlar, trilobitlar va braxipodalar qoldiqlari topilgan.

O'rta Tyanshanda kembriy yotqiziqlari, asosan, uning shimoli-sharqi qismida, Chotqol-Norin zonasida tarqalgan, bunda kesma kam qalinlikdagi, to'liq va ordovik yotqiziqlari bilan birgalikda uzlusiz kesmani tashkil etadi. Kembriy kesmasining bu turkumi Pskom-Sandalash tizmalarida tarqalgan.

Chotqol-Norin zonasasi kembriy va ordovikning namunaviy kesmasi bo'lib, Pskom va Sandalash tizmalarining kesmasi sanaladi. Bu rayonda kembriy yotqiziqlari quyi ordovik bilan birga yaxlit sandalash svitasini tashkil etadi va ikki qismga ajratiladi: uglerod-kremniy-slanetsli va ustidagi karbonat-kremniyli. Pskom tizmasida (Beshtor, Qoraqorum, Ko'ksuv daryolari havzalari) kesma qisqargan.

**Quyi kembriy.** Sandalash svitasining pastki uglerod-kremniy-slanetsli qismi keskin kontakt bo'ylab vend yotqiziqlarini qoplab yotadi. U, asosan, to'q-kulrang, qora gil-kremniyli, uglerod-gil-kremniyli, uglerod-gilli slanetslardan iborat bo'lib, o'zaro ritmik almashinib yotuvchi alohida pachkalarni tashkil etadi. Yupqa plitali yashilsimon-kulrang, gil-kremniyli slanetslar qatlamchalar, kremniyli gravelitlar linzalari kuzatiladi. Pskom tizmasida qatlamlar qalinligi 15–35 m gacha boradi.

**Ordovik sistemasi. Quyi ordovik.** Pskom tizmasida quyi ordovik (tremadok) yotqiziqlari sandalash svitasi kesmasining ustki qismini tashkil etadi. Kesma slanetslar va ohaktoshlarning almashib yotishidan iborat. Qalinligi 10–15 m ga yaqin.

Chotqol tizmasidagi Chanach, Qoraterak daryolari havzalarida quyi ordovikka *shimoliy chotqol* svitasi kiradi. Svita tarkibida yashmasimon ko‘rinishdagi yupqa yo‘l-yo‘lli kremniyli jinslarga ega qizil, yashil, qora rangli kremniy-gilli va gilli slanetslar ustuvorlikka ega. Ularning ustiga o‘rta ordovik yotqiziqlari muvofiq yotadi.

Kremniyli slanetslarda arenig yarusi uchun xarakterli konodont-larning qoldiqlari uchraydi. Qalinligi 280 m ga yaqin.

**O‘rta ordovik.** Chotqol tizmasida Qoraterak va Chanach daryolarining boshlanishida quyi ordovik (*shimoliy chotqol* svitasi) yotqiziqlariga chotqol svitasi hosilalari muvofiq yotadi. Svita kesmasida bazalt lavalari va andezit-bazalt porfirtlari kremniyli slanetslar, yashma linzalari, gilli jinslar va qumtoshlar pachkalari bilan almashib yotadi. Qalinligi 300 m ga yaqin. Svita yotqiziqlarida organik qoldiqlar topilmagan. O‘rta ordovik yoshi shartli ravishda kesmada tutgan o‘rni bo‘yicha aniqlangan.

**Yuqori ordovik.** Ayutor svitasining cho‘kindilari Pskom va Chotqol tizmalarida ordovik kesmasini yakunlaydi. Ular Pskom tizmasida yuvilish yuzasiga, Chotqol tizmalarida keskin stratigrafik nomuvofiqlik bilan o‘rta ordovik yotqiziqlariga yotadi. Yuldisoy boshlarida yuqori ordovik yotqiziqlarining asosida qalinligi 25–30 m li turli g‘o‘lakli yomon saralangan konglomeratlar rivojlangan.

Ayutor svitasi litologik tarkibi bo‘yicha ikki qismga bo‘linadi. Pastkisi qalinligi 500 m ga yaqin, alevrolitlar va gilli slanetslar qatlamchalariga ega bir jinsli, yashilsimon-kulrang, qo‘ng‘irsimon, turli donali, ba‘zan polimiktli qumtoshlar pachkalarini o‘z ichiga oladi.

Kesmaning ustki qismi flishoid ko‘rinishga ega va ritmik almashinuvchi polimiktli qumtoshlar, alevrolitlar va gilli slanetslardan tarkib topgan. Qalinligi – 500 m.

Ayutor svitasining jamlama qalinligi 1000 m ga boradi. Svitaning kechki ordovik (ashgil) yoshi shartli ravishda kesmada tutgan o‘rni va Chotqol-Norin zonasining boshqa rayonlaridagi yuqori ordovik kesmalari bilan taqqoslash bo‘yicha belgilangan.

**Silur sistemasi.** Silur yotqiziqlar mintaqada Sumsor, Kosonsoy daryolari havzalarida, Chanach dovoni maydonida, Chotqol tizmasidagi Qoraqiya va Sardob soylari havzalarida, Qurama tizmasidagi Mogoltovda nisbatan uncha katta bo'Imagan ochilmalarga ega. Silur kesmasida llandoveriy va venlok yaruslarining yotqiziqlari qatnashadi.

**Quyi silur. Llandoveriy yarusi.** Qurama tizmasida llandoveriy yarusi asosi o'rinpuloq svitasining alevrolitlari, argillitlari va qumtoshlaridan iborat, umumiyligi qalinligi 600–700 m li flish yotqiziqlari dan tarkib topgan.

Chotqol tizmasida llandoveriy yoshidagi yotqiziqlar Sumsor, Ko'ksarek, Olabuqa va boshqa daryolar havzalarida rivojlangan bo'lib, ular, asosan, terrigen hosilalar (konglomeratlar, qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar, gilli va ohak-gilli slanetslar), nordon tarkibli effuzivlar va ularning tuflaridan iborat.

Shimolda, Chotqol tizmasi suvayirgichida, Chanach dovonida va uning shimoliy yonbag'rida llandoveriy yotqiziqlari rifogen ohak-toshlar linzalariga ega ola rangli polimiktli qumtoshlar, konglomeratlar, gravelitlar, aralash donali qumtoshlar, kamroq slanetslar va alevrolitlardan tarkib topgan bo'lib, umumiyligi qalinligi 500 dan 1300 m gacha boradi. Alevrolitlarning qatlamchalari quyi silur braxopodalarining chig'anoqlariga ega.

**Devon sistemasi.** Tyanshan devon sistemasini stratigrafiyasining asosi o'tgan yuz yillikning boshlarida F.N.Chernishev, V.N.Veber, D.I.Mushketov va D.V.Nalivkin asarlarida yoritilgan. Bu tadqiqotlar materiallari D.V.Nalivkin (1926) tomonidan «Turkiston geologiyasi ocherklari» asarida umumlashtirilgan.

O'rta Tyanshanda kamroq tarqalgan. Bu, asosan, dengiz cho'kindi va kamroq darajadagi cho'kindi-vulkanogen, vulkanogen va kontinental hosilalardir. Ular O'rta Tyanshanning burmali qurilmalaring tuzilishida qatnashadi va karbonatli, karbonatli-terrigen, karbonatli-terrigen-kremniyli, terrigen, karbonatli-terrigen-vulkanogen, kremniyli-vulkanogen va vulkanogen hosilalardan iborat.

Kesmalarining litologik tarkibi va ulardagi paleontologik qoldiqqlarining guruhli tarkibi bo'yicha devon yotqiziqlarida sohilbo'yi sayozligidan boshlab pelagial tomon fatsial zonalarning lateral qatori aniq ko'zga tashlanadi.

**Quyi – o'rta devonning pastki qismi.** *Chimqo'rg'on svitasi.* Chimqo'rg'on qishlog'i yaqinidagi Old tizimining sharqiy chetida rivojlangan asosli vulkanitlardan iborat. Svita ohaktoshlar, argillitlar qatlamchalari va kremniyli slanetslar pachkalariga ega bodomtoshli spilitlar, diabazlar, diabazli porfiritlar, ularning tuflari va tufobrekchiyalaridan tashkil topgan. Svitaning quyi qismi gil-karbonatli jinslar, argillitlar qatlamchalariga ega spilit-diabazlardan, ustki qismi esa, qumtoshlar va ko'p sonli tentakulitlarga ega gilli ohaktoshlardan tarkib topgan argillit-alevrolitli. Svita yoshi uning cho'kindi qatlamchalarida uchraydigan ems-erta eyfel yoshiga mos keluvchi konodontlar, tentakulitlar bo'yicha aniqlangan. Svitaning pastki chegarasi noma'lum, ustki chegarasi quyi uchquloch svitasi bilan transgressiv. Qalinligi 800 m ga yaqin.

**Band svitasi.** Bu yotqiziqlar, asosan, nordon vulkanitlar-kvarsli porfirlar, ularning tuflari va liparitli, liparit-traxiliparitli tarkibdagi tufobrekchiyalardan iborat. Vulkanitlar orasida alevrolitlar va argillitlarning qatlamchalari uchraydi. Svitaning yer yuzasidagi ochilmasi yo'q, u faqat Xonbanditovda burg'i quduqlarining kernlari bo'yicha o'rganilgan.

Band svitasi yotqiziqlarida paleontologik qoldiqlar uchratilmagan. Uning yoshi shartli ravishda bevosita o'rta devon quyi uchqu-loch svitasi ostida yotganligi bo'yicha belgilangan.

Svitaning pastki chegarasi aniqlanmagan. Svitaning taxminiy qalinligi burg'i quduqlari bo'yicha 900 m.

**O'rta devon. Eyfel-quyi jivet yaruslari.** *Quyi uchquloch svitasi.* Bu chimqo'rg'on va band svitalari vulkanitlariga transgressiv yotuvchi sayoz suvli terrigen va karbonatli hosilalardir. Ularning asosini Xonbanditov va Pistalitovdagi devon yotqiziqlarining cho'kindi seriyalari tashkil etadi. Svitaning yer yuzasidagi ochilmalari uncha

katta emas. Ulardan eng yirigi Xonbanditovning shimoliy yonbag‘-rida kuzatiladi, bunda svita jinslari Xonbanditov antiklinalining yadrosida band vulkanitlariga yotadi.

Kesmaning quyi qismida ritmik almashib yotuvchi alevrolitlar, dolomitlar va qum-gilli ohaktoshlar rivojlangan bo‘lib, ularning orasida ba’zan vulkanomiktli jinslar yoki ularga o‘xshash yorqin yashil rangli tuflar kuzatiladi.

Ustki qismi tarkibi va rangi bo‘yicha turli-tuman alevrolitlar, qumtoshlar, ohaktoshlar va konglomeratlardan iborat. Svita yotqiziqlarining bu qismida ko‘p sonli organik qoldiqlar mavjud bo‘lib, ularning orasida stromatoporatlar, tabulyatalar, rugozalar, braxipodalar, konodontlar hamda o‘simlik qoldiqlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Shunday qilib, quyi uchquloch svitasi yoshi eyfelning yuqori va jivetning pastki qismlarini o‘z ichiga oladi. Svitaning umumiyligini Xonbanditovda 50–300 m, Pistalitovda – 180 m ni tashkil etadi.

*Jivet yarusi. Yuqori uchquloch svitasi.* Xonbanditovning barcha joylarida svitaning umumiyligini – 250–300 m bo‘lgan sedimentatsion dolomitlar va dolomitlashgan ohaktoshlardan iborat.

*Xonbanditov svitasi.* Bu yotqiziqlar och tusli, massiv tuzilgan uyushiq-afanitli va krinoidalohaktoshlar, stringotsefalid bankalari, amfiporali qatlamchalari, kamroq to‘qroq tusdagini stromatoporali turlari va massiv dolomitlardan iborat. Svitaning umumiyligini 500 m ga boradi.

Krinoida-braxopodali va organogen ohaktoshlar ko‘p miqdordagi turli-tuman fauna qoldiqlariga ega.

*Pistalitov svitasi.* Svita yupqa qatlamli to‘q-kulrang biomikritli ohaktoshlar, argillitlar va kremniylardan iborat bo‘lib, braxopodalar bankalari va stromatopora-suvo‘tlili biogermlarga ega.

Svita organik qoldiqlari tarkibida stromatoporatlar, tabulyatalar, braxopodalar, suvo‘tlari va konodontlar mavjud. Pistalitov svitasining qalinligi 150–250 m atrofida.

**O‘rta-yuqori devon. Ment svitasi.** Bu gumbazsimon qatlamlanishga va nurash brekchiyalariga ega massiv tuzilgan och kulrang

rifogen ohaktoshlar Xonbanditovda rivojlangan. Umumiy qalinligi 350 m atrofida.

*Ustquruqsoy svitasi* kremniyli, qora alevrolitlar va argillitlar, kamroq ohakli gravelitlar qatlamchalariga ega plitali, yupqa va o'rta qatlamlili to'q kulrang organogen ohaktoshlardan tarkib topgan. Svita qalinligi 190 m ga yaqin. Svita jinslarida yuqori franga mansubligini ko'rsatuvchi konodontlar uchraydi.

***Yuqori devon.*** *Famen yarusi.* Bu yoshdagi yotqiziqlar faqat Pistalitovda rivojlangan va litologik tomondan quyi karbon (turne) yotqiziqlari bilan yagona qatlamni tashkil etadi.

Semizsalpi svitasi (pastki kenja svitasi). U braxopodalar qoldiq-lariga ega qatlamlili uyushiqqli va afanitli ohaktoshlardan tarkib topgan. Qalinligi chamasi 1200 m.

## **Qurama tog'lari**

Ta'riflanayotgan mintaqada devon o'zining quyi qismi *qalqona-ota* va *kugal* svitalarining vulkanogen va cho'kindi-vulkanogen hosilalaridan iborat bo'lib, yoshi shartli ravishda erta-o'rta devon, yuqori qismi sayoz suvli terrigen, karbonatli-terrigen va karbonatli yotqiziqlardan tarkib topgan. Ularda turli-tuman bentos, kamroq pelagik fauna (stromatoporatlar, marjonlar, braxipodalar, konodontlar) qoldiqlari uchraydi. Devonning karbonatli-terrigen va karbonatli hosilalari lateral yo'nalishda sezilarli fatsial o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi.

***Quyi-o'rta devon.*** Qurama tizmasida devon kesmasi asosida umumiy qalinligi 600–1400 m ni tashkil etuvchi andezit-bazaltlar, traxiandezitlar, andezit-datsitlar, andezitlar, bazaltlar, datsitlar, gravelitlar, qumtoshlar, slanetslar va alevrolitlardan iborat vulkanogen katrang svitasi, qalinligi 600–900 m li riodatsitlar, riolitlar, felzitlar, datsitlar, albitofirlar, konglomeratlar, qumtoshlar, alevrolitlar, slanetslardan tarkib topgan qolqonota svitasi ajratiladi. Qolqonota svitasi paleontologik qoldiqlarga ega emas. Yoshi erta-o'rta devon qabilida

geologik tutgan o‘rni bo‘yicha belgilangan. Ordovik-quyi silurning terrigen yotqiziqlariga nomuvofiq yotadi.

Chotqol tizmasida bu stratigrafik sath kugali svitasidan iborat bo‘lib, u o‘rta va nordon effuzivlardan, lavobrekchiya va tufokonglomeratlardan tarkib topgan. So‘qoq-Zarkent rayonida svita kesmasi datsitli porfirlar, andezitli porfiritlar, andezit-bazaltli porfiritlar, tuflar, vulkanomiktli qumtoshlar va gravelitlardan iborat. Svitaning ostida yotuvchi quyi paleozoy va ustida yotuvchi jivet yotqiziqlari bilan munosabatlari nomuvofiq. Svitada organik qoldiqlar topilmagan va uning yoshi shartli ravishda erta-o‘rta devon qabilida belgilanadi. Svita qalinligi 400 m dan 600 m gacha.

**O‘rta devon.** Qurama tizmasi o‘rta devon cho‘kindi hosilalari kesmaning quyi qismida mashrap svitasining konglomeratlari, gravelitlari, qumtoshlari va alevrolitlaridan tarkib topgan. Qalinligi 30–850 m.

*Jivet yarusi. Mogoltov svitasi.* Mogoltov va Baraktintovda keng rivojlangan, qalinligi 200–240 m li to‘q-kulrang va qora yupqa qatlamli va tasmali mergellar va ohakli dolomitlardan tarkib topgan.

Mogoltov svitasi faunistik tomondan jivet yarusi uchun tipik bo‘lgan faqat sayoz suvli bentos hamjamiyati: stromatoporatlar, tabulyatalar, braxopodalar va boshqa shakllar bilan xarakterlanadi.

*Qoramozor svitasi* kesmasi to‘q-kulrang dolomitlar, to‘q-kulrang yupqa qatlamli ohaktoshlardan, qizil va malina rangi, kulrang yupqa qatlamli gilli ohaktoshlardan va stromatoporatlar, tabulyatalar va braxopodalarning ko‘p sonli qoldiqlariga ega ko‘k-kulrang yashirin kristalli ohaktoshlardan tarkib topgan. Ular mogoltov svitasi yotqiziqlariga muvofiq yotadi va jarbuloq svitasi bilan muvofiq qoplanadi. Qalinligi 600 m gacha. Fauna hamjamiyati tarkibida stromatoporatlar, tabulyatalar, braxipodalar va boshqalar xarakterli bo‘lib, ular shu jinslarning jivet yoshiga mansubligini ko‘rsatadi.

**Yuqori devon.** Yuqori devon yotqiziqlari sayoz suvli dengiz, laguna va kontinental genezisdagi terrigen, terrigen-karbonatli hosilalardan iborat.

*Fran yarusi. Jarbuloq svitasi* mergellar qatlamchalariga ega dolomitlar va ohaktoshlardan tarkib topgan. Fauna kompleksi tarkibida fran yoshidagi tabulyatalar, braxipodalar, stromatoporatlar uch-raydi. Qalinligi 125 m.

*Umbetti svitasi.* Bu umumiy qalinligi 350–437 m bo‘lgan massiv, kamroq yupqa qatlamlari va plitali, ba’zan alevritli dolomitlar, gilli va alevritli ohaktoshlar va mergellar qatlamchalariga ega bo‘lgan yot-qiziqlardir.

Turli tadqiqotchilar ma’lumotlar bo‘yicha svitaning tarkibida toshqotgan stromatoporatlar mavjud.

*Famen yarusi. Barakti svitasi.* Dolomitlar, ohaktoshlar va almashib yotuvchi qumtoshlar, dolomitlar va alevrolitlardan iborat. Qalinligi Baraktitovda 217 m dan Qolqonotada 330 m gacha o‘zgaradi. Fauna kompleksi tarkibida famen yoshidagi bir kamerali foraminiferalar, braxipodalar mavjud.

Qoratog‘ota svitasi to‘q kulrang va qora qatlamlari dolomitlardan iborat. Barakti svitasiga muvofiq yotadi. Qoraqiyasoy, qalqonota, baraktitovda rivojlangan. Qalinligi 150 m.

*Qulota svitasi* yupqa qatlamlari yo‘l-yo‘lli dolomitlar hamda alevrolitlar, gilli va suvo‘tli dolomitlar va ohaktoshlarning yupqa qatlamchalaridan iborat. Kechki famen yoshi fauna qoldiqlari topilmasi bo‘yicha aniqlangan. Qalinligi 450 m gacha.

Chotqol daryosi havzasida yuqori devonning famen yarusiga tepar svitasining turli qatlamlari to‘q-kulrang gilli ohaktoshlari (100–200 m) va chavati svitasining dolomitlari va dolomitlashgan ohaktoshlari (250–500 m) mansub.

*O‘rta va yuqori devon. Tulkibosh svitasi.* Bu qizil rangli kontinental dag‘al bo‘lakli hosilalardan iborat bo‘lib, kesmasining quyi qismida polimiktli konglomeratlar va qumtoshlar, yuqori qismida esa alevrolitlar, argillitlar hamda kamroq miqdorda ohakli argillitlar va qumtoshlardan iborat. Chotqol daryosi havzasida svitaning yuqori qismida ohaktoshlarning alevrolitlar bilan almashib yotishi kuza tiladi. Turli vaqtarda svita tarkibida organik qoldiqlar topilgan bo‘lib,

ularning asosida svitaning jivet-fran yoshi aniqlangan. Shimoli-g'arbiy Qoratovda N.L.Bublichenko tomonidan peletsipodalar topilgan. Burchmulla qishlog'i yaqinida A.A.Denisuk tomonidan fran yarusiga xarakterli bo'lgan Botyrioferesis sp. g'ilofi qoldiqlari (D.V.Obruchev ta'riflagan) topilgan. Svitaning eng ustki qismi erta famen deb taxmin qilinadi. Svita qadimiy yotqiziqlarning yuvilgan yuzasiga nomuvofiq yotadi. Chotqol daryosi havzasida u quyi famenning tepar svitasi karbonatli yotqiziqlari bilan qoplangan.

**Karbon sistemasi.** Tyanshanning karbon yotqiziqlarini o'rganish o'tgan asrning boshlarida O'rta Osiyo tadqiqotchilari G.D.Romanovskiy va I.V.Mushketov nomi bilan bog'liq. Keyinchalik, bu tadqiqotlar V.N.Veber, M.M.Bronnikov, F.Maxachev, D.I.Mushketov, M.E.Yanishevskiy, G.N.Frederiks va boshqalar tomonidan davom ettirilgan. O'rta Osiyo karbonining birinchi stratigrafik tabaqlash sxemasini taklif etgan D.V.Nalivkinning (1926) tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'tgan asrning 20-yillaridan to 50-yillarigacha Tyanshan karboni bo'yicha juda ko'p materiallar to'plangan, stratigrafiyasining tafsiliy sxemasi yaratilgan. Bu ishlarda A.S.Adelung, N.P.Vasilkovskiy, O.I.Sergunkova, F.R.Bensh va boshqa ko'plab olimlar faol qatnashgan.

Karbon yotqiziqlar Tyanshanning barcha hududlarida keng tarqalgan. Ular turli-tuman dengiz va kontinental yotqiziqlardan iborat bo'lib, formatsion mansubligi, qalinligi, stratigrafik o'zaro munosabatlari xarakteri va, nihoyat, yotqiziqlarining maydon bo'yicha tarqalishi yoki boshqacha genezisi cho'kindi to'planish sharoitlari va yer po'sti asosiy struktura elementlarining rivojlanishi xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'rta Tyanshanda erta va o'rta karbon boshlarida (erta boshqir vaqt) katta qalinlikdagi dengiz, asosan, karbonatli yotqiziqlar to'plangan. Kesmaning yuqoriroq qatlamlari bu yerda quruqlik yotqiziqlaridan iborat. O'rta Tyanshanning sharqiy qismidagi (Jamantov-Norintov) janubiy kesmalari bundan istisnodir. Bunda moskva yarusi va yuqori karbon dengiz yotqiziqlari ma'lum. O'rta Tyanshanning

janubi-g'arbiy qismida (Qorjontov – Qurama mintaqasi) erta karbonning serpuxov asridayoq boshlangan ko'tarilish tendensiyasi faol vulkanizm faoliyati bilan birga kechgan. U o'rta va kechki karbonda yanada kuchaygan, chunki yuqori paleozoyning butun kesmasi vulkanogen jinslardan tarkib topgan bo'lib, bundan uning eng pastki qismida kontinental cho'kindi-vulkanogen yotqiziqlar rivojlangan.

### **Qurama mintaqasi (Qorjontov-Qurama)**

**Quyi karbon.** *Turne, vize va serpuxov yaruslari.* Quyi karbon yotqiziqlar bu yerda Qoratov-Chotqol mintaqasiga nisbatan ancha kam maydonni egallaydi va, odatda, uncha ko'p bo'lмаган massivlar va tektonik bloklar orasida yuqori paleozoyga intruziv va effuziv jinslari ochilib yotadi. Chotqol tizmasining janubi-g'arbiy yonbag'rida (Zarkent, Parkent daryolari) quyi karbon yotqiziqlari faqat turne yarusidan iborat. Ular kulosi svitasing kremniy qatlamlili ohaktoshlardan iborat. Kulosi svitasing qalinligi qisqa masofada 0 dan 300 m gacha o'zgaradi. Qurama tizmasida quyi karbon yotqiziqlarining deyarli to'liq hajmi karbonatli va karbonat-kremniyli hosilalarning uzluksiz kesmasidan iborat. Qurama tizmasining quyi karbon kesmasi moddiy tarkibi va organik qoldiqlari kompleksi bo'yicha Qoratov-Chotqol mintaqasi kesmasiga o'xshash.

Quyi vize kenja yarusi sallatosh svitasing kremniyli ohaktoshlari va kremenlaridan iborat (100–200 m) bo'lib, ko'p sonli marjonlarga ega. Yuqori vize, serpuxov va quyi boshqirdning pastki qismi yotqiziqlari xarakterli faunaga ega monoton tuzilgan tashgez yoki qulcho'loq svitasi och tusli qalin qatlamlili ohaktoshlardan iborat bo'lib, qalinligi 500–600 m ga yetadi.

Qorjontov tizmasining markaziy qismida (Uya daryosi) faqat uya svitasing quyi qismidagi serpuxov yotqiziqlarigina ishonchli aniqlangan. Svita asosida ohaktosh qatlamchalariga ega qalinligi 200 m dan ortiq tufokonglomeratlar rivojlangan, balandga qarab ularni serpuxov yarusi faunasiga ega tuqli qumtoshlar, tuqli alevrolitlar va

ohaktoshlar hamda tufokonglomeratlar gorizontlari almashadi. Uya svitasining ostida yotuvchi jinslar bilan kontakti aniq emas, barcha joylarda tektonik. Shimoliy va shimoli-sharqiy yo'nalishda (Jegirgen, Sharkroma daryolari) uya svitasining yoshi muqobili bo'lib serpuxov yarusining yupqa qatlamlı ohaktoshlar, ohak-qumli slanetslar, gilli slanetslardan iborat qalinligi 200 m gacha boradigan jegirgen svitasi sanaladi.

**O'rta-yuqori karbon. Boshqird yarusi.** Qorjontov-Qurama mintaqasida quyi boshqird kenja yarusiga uya, mingbuloq, jegirgen va mishiqli' svitalari kiritiladi.

Uya svitasi o'zining stratotipi kesmasida (Uya daryosi) uchramaydi. Svita kesmasining ustki qismida quyi boshqird kenja yarusi faunasi aniqlanmagan, serpuxov yarusi bilan uzlusiz kesmada joylashgan va karbonatli qumtoshlar, tuqli qumtoshlar, kamroq turli qalinlikdagi linzalar shaklida konglomeratlar, traxibazaltlar va ularning tuflari, traxitlar va siyrak ohaktosh qatlamchalaridan iborat. Qalinligi 300–600 m oralig'ida o'zgaradi, foraminiferalar va braxopodalar komplekslari bilan xarakterlanadi.

Eng to'liq va paleontologik tomondan isbotlangan o'rta karbon terrigen-karbonatli kesmasi Qorjontov tizmasidagi Buguchalek sinklinalida ochilib yotadi. U jegirgen svitasi nomi bilan ajratilgan va yoshi bo'yicha uya svitasiga yaqin. Uning rivojlanish maydoni – Jegirgen daryosining boshlanishi, Sharqroma va Uya daryosi shimoliy irmog'ining boshlanishi. Svitaning xarakterli xususiyatlari yupqa qatlamlı ohaktoshlar, karbonatli qumtoshlar, ohaktosh-qumli slanetslar, ohaktosh-gilli va gilli slanetslar sanaladi, keyingilari stratotipda ustuvorlikka ega. Kesmada tuflar va effuziv jinslarning qatlamchalari doimiy element sanaladi. Qalinligi 200 dan 400 m gacha.

Mazkur svita Qorjontov tizmasidan tashqari Chotqol tizmasining janubi-g'arbiy etaklarida, Parkent hududida (Oltinbel, Parkent soylari) va Qurama tizmasidagi Sovuqbuloq soyi havzasida aniqlangan.

**Moskva yarusi.** Mintaqada yuqori paleozoy vulkanogen hosilalar tarkibida moskva yarusiga ikkita vulkanogen svita: oqcha va qisman

nadak mos keladi. Oqcha svitasi Chotqol tizmasining janubiy yonbag'rida, Oqcha soyi bo'yicha tarqalgan bo'lib, bunda u katta qalinlikdagi monoton porfiritlardan tarkib topgan. Moskva yarusining quyi qismiga oqcha svitasi boshqird yarusi mingbuloq svitasining va qoramozor kompleksi granitoidlarining ustida va o'simlik qoldiqlari bilan xarakterlangan nadak svitasing ostida stratigrafik joylashgan o'rni bo'yicha kiritilgan. Oqcha svitasidegi organik qoldiqlar uning yoshiga aniqlik kiritmaydi. Kaskansoyda (Qurama tizmasi) va Pangaz daryosi havzasida (Sharqiy Qoramozor) topilgan chang kompleksi yuqori boshqird kenja yarusi – moskva yarusiga mos kelishini ko'rsatadi. Adrasmonning chetsuv qatlamaridan topilgan ko'k-yashil suvo'tlari o'rta karbon ko'rinishiga ega. Oqcha svitasi va shu nomdag'i vulkanogen kompleks, asosan, Olmaliq, Shavas-Dukent, Kumushkon, Oltintopgan, Qurisoy-Jangalik vulkan-tektonik grabenlarida, ulardan tashqarida kamroq rivojlangan. Oqcha svitasi Qurama tizmasining shimoliy yonbag'irlarida eng keng va to'liq tarqalgan bo'lib, bunda u g'arbda Qoraqiya soyidan sharqda Gushsoygacha uzlusiz qambar shaklida cho'zilgan. Oqcha svitasi quyi devon vulkanitlari, o'rta devon-quyi karbon ohaktoshlari, o'rta karbon granitoidlarining chuqur yuvilgan yuzasiga yotadi. Svitaning tarkibida – andezitlar va traxiandezitlar ustuvorlikka ega bazatlar, traxiandezit-datsitlar rivojlangan. Qalinligi 300 dan 1500 m gacha.

*Qosimov yarusi.* Nadak svitasi Qurama tizmasi uchun eng xarakterli. Svitaning bazal qatlamlari ohaktoshlarning siyrak linzasimon qatlamchalariga ega vulkanomikt qumtoshlar, alevrolitlardan iborat. Organik qoldiqlari quruqlik o'simliklari, suvo'tlari va ehtimol juda kam foraminiferalardan tarkib topgan. Svita kesmasi bo'ylab ustida tuflar va datsit-andezitlar lavalari va vulkanomikt qumtoshlarning linzasimon qatlamchalari bilan almashib yotishi kuzatiladi. Svita qalinligi 350–1000 m.

**Perm sistemasi.** Perm yotqiziqlar O'rta Tyanshan hududlarida nisbatan kam tarqalgan. Ular Qorjontov, Qoramozor va Chotqol-Qurama mintaqasida rivojlangan.

Tyanshanda perm-karbon faunasi mavjudligi haqidagi dastlabki ma'lumotlar Turkiston o'lkasiga G.D.Romanovskiy va I.V.Mushketovlar kelgan 18 asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. O'zlarining bиринчи qадамларидан boshlab bu talantli tadqiqotchilar hududning geologik tuzilishini o'rganish, geologik xaritalar tuzish, paleontologik qoldiqlar yig'ish va ular asosida stratigrafik vazifalarni yechishga kirishgan.

Tyanshanning perm yotqiziqlarini o'rganish tarixida Ikkinchijihon urushidan keyingi yillarda bajarilgan ishlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bunda rejali geologik va biostratigrafik tadqiqotlar va o'rta miqyosdagi geologik suratga olish ishlari boshlangan. N.P.Vasilkovskiy (1952) tomonidan Qorjontov va Chotqol-Qurama tizmalarining kontinental cho'kindi-vulkanogen qatlamlar uchun taklif etilgan stratigrafik sxemaning ahamiyati katta. Ko'p yillik tadqiqotlar va davlat geologik xaritalash ishlari natijalari bo'yicha N.P.Vasilkovskiy tomonidan ixcham sxema yaratildi va u bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, ba'zi o'zgartishlar va qo'shimchalar bilan hozirgacha foydalanib kelinmoqda.

Tyanshandagi quruqlik yotqiziqlarini tabaqaqlash va taqqoslash muammosi hozirgacha o'z yechimini topmagan. Yotqiziqlarning permga mansubligi kontiental yotqiziqlar faunistik tomondan dalangan perm dengiz yotqiziqlariga yotganda yoki ularning g'o'laklarida fauna qoldiqlari topilgan hollardagina ishonchli aniqlangan. Ammo bu yerda ham kontinental yotqiziqlarning yoshini belgilashda har doim ham yuqori permni quiy permning ustki gorizontlaridan ishonchli aniqlash imkoniyati yo'q, chunki Tyanshanda art va kungur yaruslari hajmidagi yotqiziqlarning muqobillari ham kontinental fatsiyalardan iborat.

Qorjontov va Chotqol-Qurama tizimlari perm Vulkanogen-cho'-kindi yotqiziqlari kesmasi butunlay quruqlik yotqiziqlaridan iborat bo'lib, perm dengiz yotqiziqlari bo'yicha ajratilgan stratonlar bilan qiyoslash uchun ishonchli ma'lumotlar yo'q.

Perm kontinental vulkanogen-cho'kindi hosilalarining stratigrafik sxemasini tuzishda barcha tadqiqotchilar muayyan joylarda ajratilgan svitalarni mintaqaning butun hududi uchun qo'llashga intilishgan. Bu yotqiziqlarda paleontologik materiallarning kamligi yoki umuman uchramasligi, tabiiyki, svitalarning yoshini va hajmini belgilashda qator muammolarni keltirib chiqaradi.

*Assel yarusi.* Shimoliy Farg'onada assel yarusi (kerkidon gorizonti) yotqiziqlari Bosbutovda, Chotqol tizmasining janubiy-sharqiy yonbag'rida Podshoota, Toz, Chanach daryolari bo'ylab va Kassan grabenida rivojlangan.

Bosbutov va Podshoota-Chanach daryolari oralig'ida assel yarusi devon, quyi va o'rta karbonning chuqur yuvilish yuzasiga transgressiv yotuvchi mamay svitasidan iborat. Svita asosida bazal konglomeratlar, qumtoshlar, ba'zan alevrolitlar (30–200 m) rivojlangan, kesma bo'yicha balandga qarab qumli va detritli ohaktoshlar qatlamchalariga ega qumtoshlar va alevrolitlar (150–425 m), keyinchalik qatlamlı detritli va biomorf ohaktoshlar (65–95 m) yotadi. Mamay svitasi kesmasining bu qismi assel yarusi quyi zonasini fuzulinidlari bilan xarakterlangan va chanach qatlamlari qabilida ajratiladi.

Kassan grabenida assel yarusi kesmasi ham shunday tuzilishga ega. Qum-konglomeratli bazal qatlami kattaburabel svitasiga ajratilgan. Uning ustida yotuvchi qayinsuv svitasi konglomeratlar va ohaktoshlarga ega qum-slanetsli qatlamni (105–200 m) va ularning ustida yotuvchi lateral yo'nalishda alevrolitlar va qumtoshlar bilan o'rIN almashuvchi qatlamlı va massiv biogerm ohaktoshlarni (400 m) o'z ichiga oladi. Mazkur kesmani tashkil etuvchi yotqiziqlar g'arbiy yo'nalishda yosharib boradi.

Chotqol-Qurama mintaqasida oyosoy svitasi barcha joylarda, odatda, kesmasi asosida cho'kindi jinslari mavjud bo'lib, oldingi yotqiziqlarning yuvilgan yuzasiga yotadi.

G'ova-Ko'ksarek daryolari orasida oyosoy svitasi yoki liparitli formatsiya ikkita kenja svitadan iborat. Pastki kenja svita qalinligi

200 m dan ortiq «shvagerinali» gorizont hajmida organogen detritli ohaktoshlar linzalari va assel yarusining o'rta va yuqori zonalari fuzulinidalariga ega konglomeratlar, qumtoshlar, alevrolitlardan tarkib topgan. Bu yerda, T.A.Sikstelning fikricha, erta permi uchun xarakterli bo'lgan o'simlik qoldiqlari ham ma'lum. Ustki kenja svita liparitlarning tuflari va ignimbritlaridan tuzilgan. Qalinligi 500 m dan ortiq. Paleontologik tomondan xarakterlanmagan. Quyi kenja svitadan u yer yorig'i bo'yicha ajratilgan.

*Sakmar yarusi.* Sakmar yarusining eng to'liq kesmasi Farg'ona-ning shimolida topilgan. Kassan grabenida sakmar yarusining har ikkala gorizontini o'z ichiga oluvchi manakam svitasi rivojlangan. Qayinsuv daryosining boshlarida (Kassan daryosi havzasi) svitaniнg dangibuloq gorizontiga mos keluvchi pastki qismi (275 m) fuzulinidali biogerm ohaktoshlar qatlamchalari va linzalariga ega qo'ng'ir-qizil konglomeratlar va gravelitlardan tarkib topgan. Svitaniнg ustki qismida traxiandezit va datsit-andezit tarkibli tuflar va aglomeratli lavalar (1500 m gacha) rivojlangan. Kichik Burabel dovonidan sharqroqda va Qayinsuv daryosining chap irmog'i bo'yicha (boshlanishida) vulkanitlar cho'kindi jinslar – oldin bo'lakli ohaktoshlar qatlamchalariga ega konglomeratlar va qumtoshlar bilan tez o'rin almashadi, ustida – tuflar, konglomeratlar va ohaktoshlar linzalariga ega qumtoshlar yotadi.

Sakmar yarusining kontinental yotqiziqlari Chadoq va G'ova daryolari havzalarida, Adrasmon strukturasining shariy qismida, Oqsho'ra kalderasida, Qorabov daryosi vodiysida (Chilte- Sarvodiyl kalderalari), Kassan grabenida, Qorjontovda (Qorjontov muldasi), Bodom grabenida saqlab qolinggaп.

Kontinental sharoitlarda sakmar yarusi hosilalari sho'robsoy traxibazalt-traxiandezitli kompleksda va shu nomdag'i cho'kindi-vulkanogen svitada hamda G'ova rayonidagi ravash svitasida va Qizilnura kalderasi chekkalarida rivojlangan. Svit, asosan, traxibazaltlar, traxiandezitlar, traxitlar, shoshonitlar, ularning tuflari, tufo-

qumtoshlar, tufokonglomeratlardan iborat. Qalinligi 200 dan 900 m gacha.

Kompleks yoshi sho'robsoy svitasining assel yarusi oyosoy svitasiga nomuvofiq yotishi va sho'robsoy cho'kindi hosilalari orasida sakmar mikrofaunasi, quyi perm florasining mavjudligi va 235–288 mln. yillik (kaliy-argon usuli, traxibazaltlar, traxiandezitlar) mutlaq yosh ma'lumotlari bo'yicha yetarli darajada ishonchli aniqlanadi.

Flora qoldiqlariga ega sakmar yarusi yotqiziqlari Chadoq daryosining chap betida rivojlangan, bunda sho'robsoy svitasi kesmasi asosida qalinligi 2,5 m dan 140 m gacha konglomeratlар, qumtoshlar, alevrolitlar, ustida – traxiandezitli, traxiandezit-bazaltli va traxibazaltli tarkibdagi lavalar, klastolavalar va tuflari uchraydi. Kompleks tarkibidagi odontopterid va kallipteridlardan iborat o'simlik qoldiqlarining turli-tumanligi, dastlabki ginkgo vakillarining paydo bo'lishi o'ziga xos xarakterga ega.

Qoramozorda sho'robsoy svitasi Tekeli grabenida va Samgar kalderasida rivojlangan. Bu svitaga tekeli, uchocha, piyozlisoy, do'lanasoy, suchilgan, oynabuloq, chokadambuloq qatlamlari kiradi. Kesmaning pastki qismi terrigenli, arkozli va polimiktli qumtoshlar bilan almashevchi vulkanomiktli konglomeratlар va konglomeratlardan iborat bo'lib, umumiy qalinligi 600 m atrofida. Samgar vulkan strukturasida ochilgan ustki qismi traxiandezit-bazaltlarning lavalari, kamroq traxiandezitlardan iborat bo'lib, qalinligi 200–800 m. Kesma qalinligi 200–500 m traxitlar va ularning tuflari bilan yakunlanadi.

*Tabaqalanmagan art va kungur yaruslari.* Chotqol-Qurama mintaqasida tabaqalanmagan art va kungur yaruslariga Maygashkan, Qizilnura, Qorashob, Bobotog', Kugali, Samgar kalderalari hamda qisman Kassan grabenida, Ko'ksarek-Qumlisоq va Chadoq yorig'i bo'yi botiqliklarida rivojlangan ravash svitasi traxibazalt-liparitli kompleksining pastki qismi mos keladi. Bu yotqiziqlar liparitli va traxiliparitli tarkibdagi tuflar va ignimbritlarning traxibazaltlar lavalari gorizontlari va qumtoshlar, alevrolitlar va ohaktoshlarning siyrak qatlamchalari bilan almashib yotishidan iborat. Traxibazalt-

liparitli kompleksning Chotqol-Qurama mintaqasidagi boshqa magmatik majmualar orasidagi geologik o'rni, ravash cho'kindi-vulkanogen svitasining sho'robsoy svitasi jinslariga yotishi va qizlnura vulkanitlari bilan qoplanishi bo'yicha aniqlanadi.

O'simlik qoldiqlari ravash svitasida kam uchraydi. N.P.Vasilkovskiy tomonidan Kugali kalderasida yig'ilgan o'simlik qoldiqlari mavjud.

***Yuqori perm.*** Chotqol-Qurama mintaqasida shartli ravishda perm sistemasining yuqori bo'limiga ravash svitasining ustki qismi va qizlnura svitasining ancha qismi hamda alohida ochilib yotuvchi chuqursoy svitasi kiritiladi.

Ravash svitasi yuqori bo'limda faqat vulkanogen jinslardan, ozroq miqdordagi vulkanomikli qumtoshlardan iborat. Svitada paleontologik qoldiqlar uchramaydi.

Qizlnura svitasi (qizlnura liparit-traxiliparitli kompleksi) kechki perm oxiri va erta triasda shakllangan. Hozircha qizlnura svitasi tarkibida o'simlik qoldiqlari to'plami Chotqol tizmasidagi Bash-qizilsoy daryosi havzasida mavjud. Bu yerda svita ikki qismga bo'linadi: pastkisi – konglomeratlar, qumtoshlar, alevrolitlar, kesmada ulardan balandroqda liparitlar va ularning tuflari, sferolitlar va flyuidal kvarssiz liparitlardan iborat bo'lib, umumiyligi qalinligi 250 m. Ustki qismi qora rangli vulkan shishasi (obsidian) linzalariga ega ignimbritlardan iborat bo'lib, qalinligi 350 m. Bazal tufo-konglomeratlardagi tuf qatlamchalarida o'simlik qoldiqlari saqlanib qolgan. Ular bo'yicha T.A.Sikstel qizlnura svitasi yoshini perm-trias qabilida aniqlangan.

## **16-bob. JANUBIY TYANSHAN**

### **16.1. Tokembriy**

Tokembriy hosilalari, asosan, G‘arbiy O‘zbekiston hududlarida tarqalgan va kesmaning Qizilqum turkumiga ajratilgan, Hisor-Qorategin kesmasidan jinslar tarkibida femik komponentlar miqdorining yuqoriligi bilan farq qiladi.

G‘arbiy O‘zbekistonning eng qadimiy hosilalari, shartli ravishda, Janubiy Tomditovda ochilib yotuvchi tasqora, jurgantov yotqiziqlar sanaladi.

**Yuqori tokembriy kompleksi. Quyi rifei.** *Tasqora svitasi* karbonat – slyuda-kvarsli slanetslarning siyrak linzasimon qatlanchalariga ega granatli amfibolitlar, granatli, kvars-slyudali, kvars-biotitli slanetslardan iborat. Svita jinslari uchun birlamchi strukturalarning umuman bo‘lmasligi, yangitdan vujudga kelgan ikkilamchi metamorfik teksturalar, slanetslanish va yo‘l-yo‘llikning rivojlanganligi xarakterlidir. Qalinligi 300–340 m. Svitani stratigrafik chegaralari ma’lum emas, organik qoldiqlar topilmagan. Yoshi, shartli ravishda, svitani metamorfizm bosqichlari bo‘yicha birinchi marta ajratgan V.A.Xoxlovning radiologik ma’lumotlari bo‘yicha 540 mln. yil deb belgilangan (biotit bo‘yicha, K-Ar va 1070 mln.yil (Pb-Sr)).

*Jurgantov svitasi* Tasqazg‘on pastqamligida ajratilgan. Kesma yashil slanetsli fatsiyagacha diaftorlashgan epidot-amfibolli fatsiya hosilalardan iborat. Svita kulrang-yashil, och-to‘q-yashil amfibolitlar va amfibolli, granat-biotitli, granat-kordierit-ortoklazli, kordierit-ortoklazli, kordierit-sillimanit-biotitli, biotit-kvarsli, epidot-albitli, albit-xlorit-aktinolitli kristalli slanetslar, biotitli kvarsitlardan iborat. Bu jinslar uchun birlamchi qatlamlanishning batamom yo‘qligi

va ikkilamchi teksturalarning keng rivojlanganligi o‘ziga xosdir. Qalinligi 300–600 m.

Stratigrafik chegaralari aniqlanmagan. Yoshi polimetamorfizmni o‘z boshidan kechirgan granito-gneyslardan olingan namunalar asosida radiologik ma’lumotlar: sirkon bo‘yicha –  $1750 \pm 80$  mln.yil (V.A.Xoxlov); 1079 mln.yil – K-Ar (F.A.Askarov, 1966); granito-gneyslarda Rv- $\lambda$  (V.A.Xoxlov) 1980 mln.yil.

**O‘rta-yuqori rifey.** O‘rta-yuqori rifey yotqiziqlar G‘arbiy O‘zbekistonda katta maydonlarni egallaydi. Ular Bukantov janubida ko‘kpatas svitasi vulkanogen-kremniyli-karbonatli hosilalari, Tomditov janubida tasqazg‘on, Tomditov shimalida oyoqquduq, Shimoliy Nurotada suvliqsoy, suyaltosh va bog‘ambir svitalaridan iborat. Svitalar yotqiziqlari barcha joylarda o‘rta-yuqori rifey organik qoldiqlarining boy kompleksiga ega.

Ko‘kpatas svitasi Oltintov, Qasqirtov, Ko‘kpatas tog‘larida tarkalgan. Bukantov janubida burmali va vertikal uzilmali strukturlardan tashqari qoplama strukturalar ham keng rivojlangan. Tektonik harakatlar tufayli tokembriy va paleozoy yotqiziqlarining birlamchi qatlamlanishi amalda barcha joylarda buzilgan va qatlamlar olistostromli tuzilishga ega. Tokembriy yotqiziqlari o‘rta-yuqori paleozoy jinslari bilan tutashib ketgan. Shuning uchun ham bu mintaqada tokembriy kesmasi alohida tektonik bloklarga va cheshuyalarga ajralib ketgan, bunda kesmada nafaqat ba’zi stratigrafik oraliqlarning uchramasligi, balki pachkalarning tez-tez takrorlanishi kuzatiladi, natijada, yotqiziqlar qalinligi to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur hosil bo‘ladi. Eng qadimiy jinslar Oltintov intruzivi rayonida Trinamay havzasida topilgan. Stratigrafik kontaktlari aniqlanmagan. Kesmaning pastki qismi (qalinligi 100 m gacha) dolomitlar va ohak-toshlar linzalari va qatlamchalariga ega to‘q-kulrang kvarsitlar, mikrokvarsitlar va grafit-slyudali, kvars-grafitli slanetslardan tarkib topgan. Jinslarning karbonatli turlari ko‘p miqdorda o‘rta rifeyning organik qoldiqlari: nevlandiidlar, saralinskiidlar, fitoderivatlar, mikrofitolitlarga ega.

Ko'kpatas svitasi kesmasining ustki qismi kremniylar bilan almashib yotuvchi kulrang va to'q-kulrang qatlamlı va massiv dolomitlar va dolomitlashgan ohaktoshlardan iborat. Keyingilari kamroq miqdorda uchraydi. Qalinligi 100–150 m. Kesmaning bu qismidagi yotqiziqlar kechki rifeyning boy va turli-tuman organika kompleksiga ega bo'lib, ularning orasida mikrofitolitlar, nevlandiidlar, kamosiyodlar, saralinskiidlar, akritarxlar uchraydi.

*Tasqazg'on svitasi* Tasqora pastqamligida va Tasqazg'on (Tomditovning janubi), Ovminza-Beltovda, Jetimtovda keng tarqalgan, uning alohida fragmentlari tektonik cheshuyalarda va yirik tanalar shaklida vend va paleozoy metaterrigen hosilalar qambarida uchraydi.

Kesmaning pastki qismi yo'l-yo'l grafitli kvarsitlar, mikrokvarsitlar, dolomitlar va ohaktoshlar bilan almashib yotuvchi kumushsimon kulrang-yashil, to'q-kulrang, qora uglerod-kvarsli, kvars-kremniy-uglerodli, kordieritli, albit-kordieritli, xlorit-amfibol-albitli slanetslardan tarkib topgan. Qalinligi 300 m.

Kesmaning ustki qismi kvarsitlar va qora kremniy qatlachalariga ega qalin qatlamlı, massiv dolomitlardan iborat. Qalinligi 100–200 m. Svitaning stratigrafik chegaralari noma'lum. Svitaning kechki rifey yoshi akritarx, ignasimon-naychali mikrofossiliylar, kamaziidlarning ko'p sonli topilmalari bo'yicha dalillangan. Qo'rg'oshin-izoxron usulida olingen radiologik ma'lumotlar tasqazg'on svitasi dolomitlarining yoshi 800–1300 mln. yil ekanligini ko'rsatgan.

**Yuqori rifey-vend.** Yuqori rifey-vend yotqiziqlariga, shartli ravishda, Shimoliy Nurotada mojirum (ittinusoy), Bukantovda qumbulog va Shimoliy Tomditovda uchquduqtov svitalari kiritiladi. Ummum olganda, ular O'rta va Janubiy Tyanshan orasidagi chegarada joylashgan, uzoq masofalarga cho'zilgan yagona ofiolit-glaukofanyashilslanetsli qambarining alohida fragmentlari hisoblanadi.

*Uchquduqtov svitasi* Tomditovning shimoliy va sharqiy qismlarida rivojlangan. U ikkita kenja svitaga bo'linadi. Pastki kenja svita no-tekis almashib yotuvchi amfibolitlar, leykoratli granat-plagioklaz-muskovitovli, albit-aktinolitli slanetslardan iborat. Ko'rinarli qalinligi

1000 m gacha. Ustki kenja svita, asosan, apoterrigen jinslarni bir-lashtiradi. Uning kesmasi seritsit-xlorit-kvarsli, muskovit-xlorit-plagioklazli, epidot-kvars-albitli, uglerod-muskovit-albit-kvarsli slanetslar va kremniy qatlamchalaridan tarkib topgan. Qalinligi 1000 m. Stratigrafik chegaralar noma'lum. Organik qoldiqlar topilmagan.

Shimoliy Nurota tizmasida mojirum svitasi yotqiziqlari yondosh jinslar bilan tektonik kontaktga ega. Svita yashilsimon-kulrang, kam-roq ko'kish-kulrang turli-tuman kristallahgan slanetslardan iborat. Bu kvars-albit-rogovoobmankali, kvars-albit-epidotli, kvarsevo-xloritli, kvarsevo-seritsitli, kvars-epidot-aktinolitli slanetslar, amfibolitlardir. Ko'pchilik jinslar uchun slanetslanish, yo'l-yo'lli tekstura xarakterlidir. Qalinligi 600–900 m.

*Qumbuloq svitasi* Bukantovda rivojlangan. Svita yashil, ko'kish-yashil, glaukofanli, xlorit-epidot-aktinolitli slanetslar va kremniy linzalari va qatlamchalaridan tarkib topgan. Qalinligi 400–500 m.

Mojirum svitasi metamorfizm bosqichlari jinslarining mutlaq yoshini aniqlashda radiologik ma'lumotlar mavjud bo'lib, u kechki rifey-vendga mos keluvchi 718 va 631 mln. yilni tashkil etadi.

## 16.2. Paleozoy

**Kembriy sistemasi** Janubiy Tyanshanda, Nurota tog'larida rivojlangan.

**Quyi kembriy.** Tomditovning shimolida quyi kembriy hosilalari o'rta karbon cho'kindi-vulkanogen yotqiziqlari (elemesashi svitasi) tarqalgan maydonlarda alohida joylashgan och-kulrang marmarlashgan ohaktoshlar palaxsalari shaklida uchraydi. Qalinligi 5–30 dan 100 m gacha boradi. Ohaktoshlarda lena katta yarusining ustki qismi uchun xarakterli bo'lgan trilobitlar, arxeotsiatlar, ohakli suvo'tlarning ko'p sonli qoldiqlari uchraydi.

**O'rta kembriy.** Tomditovning shimolida vulkanogen-cho'kindi qatlamlari orasida quyi kembriy palaxsalari bilan bir qatorda karbonatli jinslarning uncha katta bo'limgan (2 m) bo'laklari tarqalgan,

ularda o'rta kembriy amga yarusi ustki ikkinchi yarmi uchun xarakterli bo'lgan trilobitlar uchraydi.

Sulyukta koni hududida kembriy organikasi qoldiqlariga ega bo'lgan ohaktoshlarning barcha ochilmalari ekzotik ildizsiz palaxsalar sanaladi va ular ordovik-silurning qum-slanetsli yotqiziqlarida joylashgan. Ohaktoshlar massiv, kuchli bituminozli, kulrang, to'qkulrang, o'lchamlari bir necha metr bo'lib, amga yarusining trilobitlariga ega. Boshqa palaxsalarda o'rta kembriyning may yarusi trilobitlari topilgan.

O'rta kembriy yotqiziqlari Molguzar tog'larida (Zominsuvning yuqori oqimida) tektonik blokda silur yotqiziqlarining orasida ochilib yotadi, bunda ular yupqa plitali ohaktoshlardan tarkib topgan bo'lib, alevritli ohaktoshlar, argillitli slanetslar va qumtoshlar qatlamchalariga ega (450 m). Kesmaning pastki qismidagi ohaktosh qatlamchalarida o'rta kembriyning eng quyi qismini xarakterlovchi trilobit qoldiqlari topilgan.

***Yuqori kembriy.*** Jetimtovda yuqori kembriyga vulkanogen-cho'kindi qatlamlari orasida palaxsalar shaklida qalinligi 3 m gacha boradigan ohaktoshlar joylashgan hosilalar kiradi. Ohaktoshlar yuqori kembriy trilobitlarlariga ega. Bukantov janubidagi karbonatli qatorida devon-karbonning tektonik cheshuyalarida yuqori kembriya-quyi ordovik bokteken svitasi kesmasining fragmentlari ochilib yotadi.

Kesma ritmik almashib yotuvchi kulrang, to'q-kulrang, gilli ohaktoshlar, ohakli, slyudali, slyuda-kremniyli slanetslar, argillitlar dan tarkib topgan bo'lib, ularning orasida kamroq miqdorda organogen-bo'lakli ohaktoshlar va qora kvars-kremniyli jinslarning qatlamchalari va linzalari uchraydi. Svita jinslari uchun pachkalarning ritmik tuzilishi, yupqa gorizontal, kamroq qiysiq qat-qatliliklar, cho'kindining oqish izlari xosdir. Qalinligi 100 m dan ortiq emas.

Kesmaning pastki qismida karbonatli jinslarda kechki kembriy yoshidagi trilobitlar topilgan.

Tomditovning shimolida cho'kindi-vulkanogen yotqiziqlar tarqal-gan maydonda yuqori kembriy uchun xarakterli bo'lgan trilobitlarga ega o'lchami 5 m gacha boradigan ohaktoshlar palaxsalari uchraydi.

Shimoliy Nurotaning shimoliy yonbag‘rida va suvayirg‘ich qis-mida tarqalgan jivachisoy svitasi yoshi bo‘yicha yuqori kembriy-quyi ordovikka mos keladi. Eng to‘liq kesmasi Yuqori Uchma, Narvonsov boshlarida, Sanzar daryosi havzasida ochilib yotadi. Litologik-petrografik tarkibi va paleontologik belgilari bo‘yicha svita pastdan yuqoriga qarab uchta pachkaga bo‘linadi.

Jivachisoy svitasining muqobili Shimoliy Nurotaning janubiy yonbag‘rida va Janubiy Nurotada rivojlangan kalsari svitasi hisoblanaladi.

Shunday qilib, Janubiy Tyanshanda kembriy kesmasi, asosan, karbonatli, karbonat-terrigenli va kremniy-karbonatli jinslardan: ohaktoshlar, dolomitlar, ohaktoshli konglomeratlar, oligomikt qumtoshlar va kremniy-alevrogilli slanetslar qatlamchalaridan tarkib topgan. Kembriy cho‘kindilari, umuman olganda, sayoz suvli havzada to‘plangan. Buni kesmaning keng maydonlarda o‘zgarmasligi va bir jinsliligi, gradatsion qat-qatlikning uchramasligi va bentos organik qoldiqlarning ko‘pligidan bilsa bo‘ladi.

**Ordovik sistemasi. *Quyi ordovik*.** Quyi ordovik yotqiziqlari Tur-kiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida va Chumqurtovda cho‘ziq qambar shaklida ochilib yotadi. Ular oqchop svitasi nomi bilan ajratilgan bo‘lib, ostidagi yuqori kembriyning ohaktosh-slanetsli hosilalarga stratigrafik muvofiq yotadi.

Kesma keng maydonlarda o‘zgarmas va litologik tomondan bir xil jinslar – to‘q-kulrangdan yashilsimon ranggacha o‘zgaruvchi turli qatlamli alevrolitlar va siyrak ohaktoshlar qatlamchalariga ega argillitlar va argillithli slanetslardan iborat.

Bukantovda quyi ordovikka (tremadok) ohaktoshlarning siyrak linzalari uchraydigan, asosan, slanetslardan tashkil topgan bokteken svitaning ustki qismi kiradi. Slanetslarda erta ordovik konodontlari uchraydi.

Shimoliy Nurotada (shimoliy yonbag‘irlari va suvayirgichi) quyi ordovikni jivachisoy svitasining ustki qismi tashkil etadi va slyuda-kremniyli, ohak-uglerod-gilli slanetslardan iborat. Qalinligi 10–15 m. Slanetslarda taxminan tremadok asriga mansub konodontlar topilgan.

Shimoliy Nurotaning markaziy va suvayirgich qismlarida uncha keng bo‘lmagan qambarsimon tarqalgan hosilalar – dolomitlashgan alevrolitlar va kulrang gil-alevritli, ba’zan ko‘mirli ohaktoshlarning siyrak qatlamchalariga ega bo‘lgan, asosan, qora slyuda-kvarsli, uglerod-gilli, alevro-argillitli slanetslardan iborat jo‘lo‘tar svitasini tashkil etadi.

Zominsuv havzasida va Molguzar tog‘larida arenig yotqiziqlari oqchopqan svitasidan iborat. Litologik tarkibi bo‘yicha ikki kenja svitaga bo‘linadi: dolomit-ohaktosh-slanetsli va ohaktosh-slanetsli. Slanetslarda graptolitlarning qoldiqlari topilgan. Qalinligi 930 m. Ohaktosh-slanetsli kenja svitasi alevritli va ohaktoshli slanetslardan va ohaktoshlarning siyrak qatlamchalari va linzalaridan iborat. Slanetslarda arenig yarusi uchun xarakterli bo‘lgan trilobitlarning qoldiqlari topilgan. Kenja svita qalinligi 320 m. Svitaning umumiy qalinligi 1250 m. Quyi ordovik yotqiziqlarining uncha katta bo‘lmagan blogi Turkiston tizmasida (Shoqush soyi) mavjud bo‘lib, bunda kesma uglerod-kremniyli va uglerod-gilli slanetslardan tarkib topgan, arenig yarusi uchun xarakterli bo‘lgan graptolitlarga ega. Qalinligi – 25–30 m.

**Quyi-o‘rta ordovik.** Bukantov janubida, devon-karbon karbonatli qatoridan janubroqda bokteken svitasiga muvofiq yotuvchi teliboy svitasi ochilib yotadi. Svita kesmasi yashil, yashilsimon-kulrang, ko‘kish-yashil plitali kremniylar va kremniyli-gilli, gil-slyudali, slyudali, argillitli slanetslardan iborat bo‘lib, sariqsimon-jigarrang dolomitlar va kulrang-yashil polimiktli alevrolitlar, juda oz kremniy qatlamchalarga ega. Alevrolitlar, odatda, kesmaning ustki qismida joylashgan, slanetslar bilan almashinib yotadi. Plitali kremniylarda ko‘p sonli skolitlar kuzatiladi. Slanetslarda qalinligi 10–15 sm linza-simon qatlamchalar uchraydi. Ulardagi organogen-bo‘lakli, alevritli ohaktoshlar tarkibida mayda braxopodalar, krinoideyalar hamda oval shaklidagi sianobakterial hosilalaridan tuzilgan biogermlar mavjud.

Kesmaning pastidagi slanetslarda arenig uchun xarakterli bo‘lgan konodontlar uchraydi. Qalinligi 65 m.

Shimoliy Nurotada (janubiy yonbag'ri), asosan, Jo'lo'tar soyi bo'y lab va Sanzar daryosi havzasida jo'lo'tar svitasi tarqalgan.

**O'rta-yuqori ordovik.** Sulyukta koni rayonida o'rta-yuqori ordovik yotqiziqlari yer yoriqlari bilan chegaralangan bloklarda ochilib yotadi. Kesma, asosan, yashilsimon-kulrang, massiv, zikh polimiktli qumtoshlar, o'zaro almashib yotuvchi alevrolitlar va argillitlardan iborat bo'lib, karadokskogo yarusi uchun xarakterli bo'lган graptolitlar kompleksiga ega. Qalinligi 180–200 m ga yaqin.

Bukantov janubida rivojlangan hosilalar o'rta-yuqori ordovikning teleboy svitasiga muvofiq yotuvchi va quyi devon dolomitlari bilan nomuvofiq qoplanuvchi lyupek svitasiga mansub.

Svita slanetsli-alevro-qumtoshli jinslardan iborat bo'lib, odatda, oqim tubi notejisliklari izlariga ega. Yotqiziqlarning yashilsimon-kulrangi ustuvorlikka ega. Kesmaning ostki qismida (qalinligi 120–150 m) polimiktli, tufogen alevrolitlar va alevritli argillitlar ustuvorlikka ega. Qumtoshlarda karadok-ashgill uchun xarakterli bo'lган graptolitlar va konodontlar topilgan.

Kesmaning ostki qismi (qalinligi 35–50 m) aralash donali (alevritlidan graviyligacha) qumtoshlardan iborat. Bu sathda o'rta donali qumtoshlar ustuvorlikka ega bo'lib, ularning orasida, odatda, grave-litlarga o'tuvchi yirik donali qumtoshlarning qatlamchalari (5–10 sm) uchraydi. Bo'lakli materialining tarkibi bo'yicha bu jinslar oldin ta'riflangan qumtoshlarga o'xshash, ulardan faqat nordon tarkibili otqindi jinslarning bo'laklari uchrashi bilan farq qiladi. Lyupek svitasining qalinligi (155–200 m).

Shimoliy Nurotaning shimoliy yonbag'irlaridagi Bog'ambir tog'i rayonida o'rta-yuqori ordovikning ilanchisoy svitasi tarqalgan. Kesmaning pastki qismi (qalinligi 200 m) alevrolitlarning qumtoshlar va argillitlardan ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Alevrolitlarda ko'p sonli graptolitlar va xitinozoylar uchraydi.

Stratigrafik balandda aralash donali polimiktli qumtoshlar va alevrolitlar pachkasida llandeylo va karadokning graptolitlari uchraydi.

Ashgil yarusiga mos keluvchi ustki gorizontlar (qalinligi 150–200 m), asosan, polimiktli, alevritli, odatda, tufogen qumtoshlar va polimiktli qumtoshlar, alevrolitlardan iborat. Qumtoshlar va alevrolitlar karadok va ashgilning graptolitlari va xitinozoylariga ega.

Shimoliy Nurotaning shimoliy yonbag‘rida o‘rta-yuqori ordovikka, asosan, tizmaning sharqiy qismida Qizilqiyasoy va Narvonsoy havzalarida tarqalgan kaltadovon svitasi kiradi, bunda ular, odatda, jivachisoy svitasi bilan tektonik plastinalarning almashinib yotishi shaklida kuzatiladi. Bu hosilalarda qumtoshlar va alevrolitlarning gravelitlar qatlamchalariga ega slanetslar bilan almashib yotishi kuzatiladi. Qalinligi – 400–500 m.

Zarafshon tizmasidagi Shaxriomon pastqamligi va Qashqadaryo havzasida o‘rta ordovik kesmasida ajratiluvchi obikalon va obikandi qatlamlari hajmida, shaxriomon svitasining butun quyi va konglomeratli qismini o‘z ichiga oladi. Obikalon yotqiziqlarining umumiyligi qalinligi 200 m bo‘lib, kvarsli va kvars-slyudali qumtoshlar qatlamchalariga ega, asosan, kvarsli yashil alevrolitlardan tarkib topgan. Alevrolitlar va qumtoshlarda braxopodalar, sistoideyalar, kri-noideyalar, trilobitlar va peletsipodalarning ko‘p sonli va turli-tuman toshqotgan qoldiqlari topilgan. Bu jinslarning yoshi o‘rta ordovik llandeylo yarusining ustki qismi va karadok yarusiga to‘g‘ri keladi.

Obikandi yotqiziqlari alevrolitlar, tufoqumtoshlar va kvarsli porfirlarning tuflari qatlamchalariga ega kvarsli qumtoshlar, gravelitlar, konglomeratlar va konglomerat-brekchiyalardan tarkib topgan. Ostidagi obikalon yotqiziqlarining notekis yuvilgan yuzasiga yotadi. Qalinligi 60–94 m. Obikandi qatlamlarining kechki ordovik yoshi shartli ravishda, kesmadagi stratigrafik o‘rni bo‘yicha belgilangan. O‘rta ordovik yotqiziqlarining umumiyligi qalinligi 250–300 m ga yaqin.

Zirabuloq-Ziyovutdin tog‘larida o‘rta-yuqori ordovik yotqiziqlari oltiovul svitasi nomi bilan ma’lum. Pastki chegarasi aniqlanmagan, ustkisi silur yotqiziqlari bilan me’yorda. Svitaning quyi qismi kvars-slyudali qumtoshlar qatlamchalariga ega botqoqsimon-yashil varaqsimon argillitli slanetslardan va alevrolitlardan, yuqori qismi esa,

kremsimon gillar va suvo‘tli ohaktoshlarning linzasimon qatlamchalariga ega qumtoshlar, konglomeratlar, konglomerat-brekchiylar, kvarsli porfirlarning tuflari, tufolavalari, tufogravelitlar va tufo-alevrolitlardan iborat. Umumiy qalinligi 420 m.

Kesmaning pastki qismida o‘rta ordovik uchun xarakterli braxipodalar va trilobitlarning siyrak qoldiqlari uchraydi. Svitaning yuqori qismida esa, karbonatlar qatlamchalarida ularning yuqori ordovikka mansubligini ko‘rsatuvchi ko‘p sonli tabulyatalar va braxipodalar qoldiqlari topilgan.

Quljuqtovda o‘rta-yuqori ordovik kesmasini Qozoqsuv svitasi tashkil etadi. U konglomeratlar, gravelitlar, ohaktoshlar, kvarsli porfiritlar, ishqorli datsit tuflari qatlamchalariga ega turli qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlardan iborat. Qalinligi 250–300 m. O‘rta va yuqori ordovik yoshi braxipodalar, trilobitlar kompleksi topilmalari bo‘yicha aniqlangan.

***Yuqori ordovik.*** Janubiy Nurota shimoliy tarmog‘ining g‘arbiy chetida ordovik yotqiziplari ikkita kenja svitaga ajratilgan qair svitasi tarkibiga kiradi. Qair svitasi kesmasi polimiktli, odatda, tuf aralashgan qumtoshlar, alevrolitlar, slyuda-kremniyli slanetslardan tarkib topgan. Jinslarda to‘q yashil rang ustuvorlikka ega. Qalinligi – 700–800 m. Svita jinslarida kechki ordovikning ko‘p sonli graptolitlari topilgan.

Shimoliy Nurota tizmasining suvayirgichida, Mingbulloq soyining yuqori qismida kichkina chorvak svitasi rivojlangan. Svitaning stratigrafik chegaralari aniqlanmagan. Bu svita kair svitasing muqobili sanaladi. Kesma almashib yotuvchi aralash donali qumtoshlar, alevrolitlar, kamroq slanetslardan iborat bo‘lib, ashgil yarusining graptolitlariga ega. Qalinligi 500 m dan ortiq emas.

Bukantovda (Qulquduq qishlog‘i yaqinida) yuqori ordovik yotqiziplari subkenglik bo‘yicha 2 km gacha cho‘zilgan kengligi 200–300 m gacha bo‘lgan tektonik blokda rivojlangan. Kesma ohaktoshlar, tufoqumtoshlar, tufoalevrolitlar linzalariga va qatlamchalariga ega yashilsimon-kulrang kremniyli, gilli slanetslar, alevrolitlar, pirok-

senli diabazlardan iborat. Ko‘rinarli qalinligi 100–120 m ga yaqin. Ohaktoshlarda trilobitlar aniqlangan.

Qashqadaryo havzasida yuqori ordovik tarkibida chashmakalon va archalik qatlamlari, yuqori qismida shaxriomon svitasi ajratiladi.

Chashmakalon qatlamlarining quyi qismi oxrali polimiktli va kvars-dala shpatili qumtoshlarning, qora va to‘q-yashil varaqli alevrolitlar bilan ritmik almashib yotishidan tarkib topgan. Kesmaning yuqori qismini ohakli qumtoshlar va ohaktoshlarning qatlamlari va linzalari tashkil etadi. Chashmakalon qatlamlari braxopodalar, trilobitlarning boy kompleksiga ega va ular bo‘yicha bu jinslarning yoshi ashgil deb belgilanadi.

Archalik qatlamlari detritusli, marjon-braxopodali va suvo‘tli qum-gilli ohaktoshlardan tarkib topgan bo‘lib, ohakli qumtoshlar qatlamchalariga ega. Ustki yarimi plitali pelitomorf ohaktoshlar, yupqa qatlamli qora dolomitlardan iborat. Umumiyligi qalinligi 40 m.

Jinslari tarkibi bo‘yicha turli-tuman organik qoldiqlar boy kompleksiga ega bo‘lib, ularning ko‘p qismi ohaktoshlarda uchraydi va yuqori ashgil uchun xarakterli.

Quljuqtovda yuqori ordovikka qozoqsuv svitasiga yotuvchi oydinbuluoq svitasi kiritiladi. U detritusli, qum-gilli va gilli ohaktoshlardan iborat bo‘lib, quyi qismida tabulyatalar va geliolitidlar qoldiqlari uchraydigan alevrolitlar va qumtoshlar qatlamchalariga ega. Qalinligi 100 m.

Oydinbuluoq svitasi kesmasining boshqa turkumi o‘zining quyi qismida ohaktoshlar va kremniyli jinslar linzalariga ega karbonatli qumtoshlardan iborat, yuqori qismida – konglomeratlar, gravelitlar va vulkanogen jinslar linzalari qatlamchalariga ega qumtoshlar, gilli slanetslar rivojlangan. Qalinligi 200 m ga yaqin.

Shunday qilib, Janubiy Tyanshan hududida kesmalar tarkumlari, fauna hamjamiyatining sistematik tarkibi bo‘yicha Qizilqum-Nurota mintaqasini o‘z ichiga oluvchi Quljuqtov, Zirabuloq-Ziyovutdin tog‘lari, Qorato‘ba, Hisor tizmasidan iborat janubiy zonalar ajratiladi. Janubiy zona ordoviki kesmasi, asosan, vulkanogen hosilalar va

kamroq darajadagi karbonatli va gil-karbonatli jinslar gorizontlariga ega sayoz suvli terrigen yotqiziqlardan iborat bo'lib, tarkibida o'rta va kechki ordovikni xarakterlovchi, asosan, bentos faunalar topilgan.

**Silur sisteması.** O'rta Osiyoda silurning mavjudligi XIX yuz yillikning oxirida G.D.Romanovskiy va I.V.Mushketov tadqiqotlari bilan bog'liq.

Janubiy Tyanshanda silur yotqiziqlari, ayniqsa, qum-slanetsli hosilalar Nurota tog'lari va Markaziy Qizilqumda rivojlangan bo'lib, murakkab burmalangan, kesmalar, ko'pincha, izoklinal strukturalarni, sudrash burmalarini hosil qiladi, subkenglik va submeridional yo'nalishlardagi ko'p sonli yer yoriqlari bilan buzilgan.

Litologik-fatsial tomondan silur Janubiy Tyanshanda xilmal-xil tarkibga ega, faqat dengiz cho'kindi va vulkanogen-cho'kindi hosilalardan iborat. Fatsiyalari turli-tuman bo'lishiga qaramasdan Janubiy Tyanshanning ba'zi mintaqalarida silur kesmalar tuzilishida muayyan aniq qonuniyat kuzatiladi. Qizilqum-Nurota mintaqasida kesmaning quyi qismida nasbatan chuqursuvli sedimentatsiya viloyatlarining terrigen, kremniyli-terrigen, karbonatli-terrigen va vulkanogen-kremniyli-terrigen pelagik yotqiziqlar, yuqori qismida esa, sedimentatsiyaning shelf va sayozlik zonalari karbonatli va terrigen-karbonatli yotqiziqlaridan tarkib topgan.

Qizilqum-Nurota mintaqasidan farqli o'laroq Zarafshon-Hisor tog'li viloyatida, Zirabuloq tog'larida va Quljuqtovda silur faqat sayoz suvli, asosan, karbonatli hosilalar va kamroq darajadagi terrigen-karbonatli va terrigen jinslardan tarkib topgan.

Paleontologik ma'lumotlar bo'yicha Janubiy Tyanshanda, asosan, uning janubiy chekkasida Zarafshon-Hisor tog'li viloyatida, Zirabuloq tog'lari va Quljuqtovda silur to'liq hajmda uchraydi, bunda yuqori ordovik va quyi devon bilan normal stratigrafik kontaktga ega.

Shunday qilib, Janubiy Tyanshanning janubiy qismi Zarafshon-Hisor tog'li viloyati, Zirabuloq tog'larida va Quljuqtov hududlari silur davri sayoz suvli, asosan, karbonatli cho'kindi to'planish viloyati, shimoliy qismi esa, Nurota tog'lari, Markaziy Qizilqum maydonlarida

erta silurda, asosan, pelagik cho'kindilar to'planishi, kechki venlok-kechki silur epoxasida differensiallangan terrigen-karbonatli va karbonatli cho'kindi to'planish viloyati hisoblangan.

Shimoliy va Janubiy Nurota hududlarida silur yotqiziqlari kesmalarning turli fatsial turkumlari: terrigen, terrigen-karbonatli va karbonatli hosilalardan iborat. Kesmaning terrigen turkumi Janubiy Nurota va Shimoliy Nurotaning janubiy yonbag'rida keng tarqalgan. Terrigen-karbonatli va karbonatli turkumdag'i kesmalar Shimoliy Nurotada Sho'xtov, Mirishkor, Mixin-Dariston sinformali strukturalarda alohida ochilmalarni hosil qiladi. Silurning bu terrigen-karbonatli va karbonatli hosilalarining ostida yotuvchi yotqiziqlar bilan munosabati tektonik.

*Quyi silur. Llandovery yarusi. Qoratosh svitasi* Shimoliy Nurotaning shimoliy yonbag'rida va suvayirgich qismida tarqalgan. Uning uncha keng bo'lмаган qambarlari janubiy yonbag'irda Mirishkor strukturasi rayonida, Jo'lo'tar-Narvon soylari havzalarida uchraydi. Pastki chegarasi aniqlanmagan, ustkisi –quyi devon karbonatli hosilalari bilan stratigrafik nomuvofiq munosabatda.

Kesma ritmik aralashib yotuvchi yashil rangli, kvarsli, ozroq dala shpatili qumtoshlar, alevrolitlar, kvars-slyudali slanetslar va argillitlardan tuzilgan. Bu jinslarda ko'p sonli graptolitlar uchraydi. Graptolitlar kompleksi quyi-o'rta llandovery kesmasining ustki qismi uchun xarakterli. Qalinligi 130–150 m.

*Nakurt svitasi* Janubiy Nurotaning markaziy va sharqiy qismlarida va, asosan, Shimoliy Nurotaning janubiy yonbag'rida ochilib yotadi. Quyi-o'rta ordovikning bodomchali svitsi bilan quyi kontakti tektonik, yuqoridagi yozbuloq svitasi bilan muvofiq. Svitaning pastki qismi qora uglerod-kremniy-slyudali, uglerod-kvars-slyudali, yupqa plitali slanetslar va to'q kremniyli-fosfatli jinslarning linzalaridan (qalinligi 0,5–1 sm) iborat. Slanetslarda ko'p miqdorda graptolitlar kuzatiladi.

Sanzar daryosi vodiysi kesmasida svita quyi qismi yotqiziqlarining qalinligi 15–22 m ni tashkil etadi.

Svitaning ustki qismi o‘rta llandoverning ustki – yuqori llandoverning o‘rta qismini o‘z ichiga oladi. Kesmaning bu qismida uglerod-kremniy-slyudali slanetslar bilan bir qatorda argillitlar, asosan, kvarsli yashilsimon-kulrang va juda mayda donali alevro-qumtoshlar qatlamchalari uchraydi. Qalinligi 60–70 m atrofida. Nakrut svitasining Sanzar daryosi havzasidagi umumiy qalinligi 80–100 m.

*Yozbuloq svitasi* Janubiy Nurotada Oqtepa-To‘sin soyлари havzalaridan boshlab to sharqda Qorachatovning sharqiy chetlarigacha tarqalgan. Shimoliy Nurotada, asosan, janubiy yonbag‘rida rivojlangan.

Yozbuloq svitasi nakrut svitasiga muvofiq yotadi va navkatsoy svitasi bilan muvofiq qoplanadi. Pastki chegarasi kesmada ancha miqdorda dag‘al donali, odatda, polimiktli qumtoshlar va alevrolitlar, ko‘plab effuziv jinslar (diabazlar) paydo bo‘lishi bilan qayd qilinadi. Yuqori kontakti kechki llandoveriy graptolitlari bor dag‘al donali vulkanogen-terrigen yotqiziqlarining erta venlok graptolitlari kompleksiga ega mayda donali, asosan, alevropelitli navkatsoy svitasi hosilalari bilan almashishi bo‘yicha o‘tkaziladi. Svita kesmasi yashilsimon-kulrang kvarsli alevrolitlarning qora, sariqsimon-kulrang argillitlar, kvars-slyudali slanetslar, kamroq polimiktli aralash donali (graviyligacha) qumtoshlar bilan almashib yotishidan iborat.

Argillitlarda va alevritlarda ko‘p sonli graptolitlar uchraydi. Yozbuloq svitasining qalinligi 100–110 m.

*Venlok yarusi. Navkatsoy svitasi* Shimoliy Nurota tizmasining janubiy yonbag‘rida va Qorachatovda keng maydonlarni egallab yotadi. Yozbuloq svitasi bilan pastki chegarasi muvofiq va yirik donali qumtosh qatlamchalarining tugashi bo‘yicha o‘tkaziladi, ustkisi ham qorachol svitasi bilan muvofiq.

Navkatsoy svitasi quyi va yuqori venlokning juda mayda donali, asosan, alevroslanetsli hosilalarini o‘z ichiga oladi. Kesmada ola rangli (malina, qo‘ng‘ir, bo‘z, yashil rangli) argillitli slanetslar, gorizontal va qiyshiq to‘lqinli qat-qatli va gieroglfli qalin qatlamlı

dala shpati-kvarsli alevrolitlar va alevroqumtoshlar almashib yotadi. Kesmaning bu qismida graptolitlar uchrashi xarakterli.

Navkatsoy svitasining ustki qismi (100–105 m) ritmik almashib yotuvchi kvarsli qumtoshlar, alevrolitlar, kvars-slyudali slanetslardan tarkib topgan. Qumtoshlar va alevrolitlar yuzasida ko‘p sonli gie-rogliflar kuzatiladi. Jinslarning rangi yashilsimon-kulrang. Navkatsoy svitasining qalinligi 150–160 m.

*Qiziqo‘lsoy svitasi* Mixin-Dariston strukturasida rivojlangan bo‘lib, bunda kesma yupqa gorizontal qatlamlari, to‘q-kulrang (qora) argillitlar, argillitli slanetslar, kamroq organogen, yupqa qatlamlari, gilli ohaktoshlar va ohakli alevroqumtoshlar qatlamchalaridan (qalinligi 3–5 sm, ba’zan 10–15 sm) iborat. Qalinligi 15–20 m.

*Sarikoriz svitasi.* Uning pastki qismi Sho‘xtov strukturasida ochilib yotadi va yuqori venlok uchun xarakterli bo‘lgan ko‘p sonli graptolit gilli, gil-ohakli slanetslardan tarkib topgan. Qalinligi – 10–20 m.

*Ko‘rbuloq svitasi* Mirishkor strukturasi maydonida tarqalgan bo‘lib, qum-alevrolitli hosilalardan iborat.

Svita stromatoporatlar va braxopodalardan iborat faqat bentos hamjamiyati faunasi bilan xarakterlanadi. Svitaning pastki chegarasi tektonik, ustkisi yuqori silur bilan normal stratigrafik. Qalinligi – 670 m.

*O‘rtako‘l svitasi* Mixin-Dariston strukturasida ochilib yotadi, to‘q-kulrang va qora alevrolitlar va bo‘lakli ohaktoshlar pachkalarining almashib yotishidan iborat. Qalinligi – 80 m.

***Yuqori silur.*** Yuqori silurning yotqiziqlari yetarli darajada fatsial rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Ular choltosh, oqqoya, sharqiy-dariston, qorachol svitalarining ham sayoz suvli karbonatli, terrigen-karbonatli, ham karbonatli-terrigen pelagik hosilalar hamda Nurak tepaliklari va Shimoliy Nurotaning g‘arbiy chetidagi ularning fatsial va yosh muqobillaridan iborat.

Shimoliy Nurotaning shimoliy yonbag‘rida, Mirishkor tog‘ida shu yoshga mansub alevrolitli, argillitli yotqiziqlar, abartkon qatlam-

larining yuqori qismida qumtoshlar va ohaktoshlarning siyrak qatlamchalari ludlovni xarakterlovchi graptolitlar va tabulyatalarga ega. Qalinligi – 40 m.

Mirishkor tog‘ida yuqori silur kesmaning quyi a’zosi xotinbuloq svitasi hosilalariga muvofiy yotuvchi choltosh svitasi sanaladi. U pastida yashil qumtoshlar va gravelitlar, pushti turbiditli krinoid-braxopodali ohaktoshlardan iborat bo‘lib, qalinligi 129–160 m. Svita jinslarida tabulyatalar, braxipodalar, trilobitlar uchraydi va ular asosida choltosh svitasining pastki qismi ludlov sifatida qaraladi.

Choltosh svitasining ustki qismi aralash donali suvo‘tli-organogen kulrang ohaktoshlardan iborat bo‘lib, qalinligi 75 m ni tashkil etadi.

Shimoliy Nurotaning shimoliy yonbag‘rida Kelvasoy va Daristonsoy havzalarida yuqori silur ludlov yarusini xarakterlovchi braxopodalar qoldiqlariga ega massiv stromatolitli och kulrang rifogen ohaktoshlardan iborat o‘rtako‘l svitasi kesmasining yuqori qismi tarkibida uchraydi.

Ularning ustiga umumiy qalinligi 400 m bo‘lgan oqqoya svitasi karbonatli yotqiziqlar muvofiq yotadi. Uning quyi qismi to‘q kulrang, turli qatlamlili, aralash donali dolomitlashgan ohaktoshlardan va jigarrang kremniyli jinslarning siyrak qatlamchalaridan iborat. Svitasing ustki qismi esa ritmik almashib yotuvchi konglomerat-brekchiyalar, krinoidalohaktoshlar va juda mayda donali, plitali, to‘qkulrang ohaktoshlardan iborat. Svita jinslarida stromatoporatlar, tabulyatalar, trilobitlar, braxipodalar, konodontlar qoldiqlari uchraydi. Shunday qilib, oqqoya svitasining yoshi ludlovning yuqori qismidan to prjidoliyning oxirigacha oraliqni egallaydi.

*Mozor svitasi* ludlov va prjidolining quyi qismi hajmida ajratilgan. Quyi kontakti tektonik, ustki kontakti ustida yotuvchi ovzikeng svitasi bilan muvofiq. Svita kulrang, och va to‘q kulrang, turli qatlamlili va massiv ohaktoshlardan iborat bo‘lib, tarkibida ludlov yarusining braxopodalari, tabulyatalari uchraydi. Qalinligi 100–385 m.

*Ovzikeng svitasi* prjidoliy-quyi devon hajmida ajratilgan. Svita kesmasi yuqori silurga kiruvchi o‘zining pastki qismida kremniy

uyushiqlari va karbonatli brekchiyalar qatlamchalariga ega gilli, qatlamlı ohaktoshlardan tarkib topgan. Ohaktoshlarda braxipodalar, tabulyatalar qoldiqlari uchraydi. Svitaning qalinligi – 155 m.

Yuqori silurga ludlov hajmida Sho'xtovda, Sarikoriz qudug'idan 2 km janubi-g'arbda ochilib yotuvchi sarikoriz svitasining o'rta va ustki qismi mansub. Pastki chegarasi venlok yotqiziqlari bilan muvofiq, ustki chegarasi noma'lum.

Kesma ohakli, uglerod-gilli, alevritli slanetslardan va gilli ohaktoshlarning qatlamchalaridan iborat. Slanetslarda ludlov yarusi quyi qismining graptolitlari uchraydi. Qalinligi 180–200 m.

*Sharqiy dariston svitasi* Mixin Dariston strukturasida tarqalgan. Ustki chegarasi aniqlanmagan, pastkisi qizilqo'lsyo svitasi bilan muvofiq. Litologik-paleontologik belgilari bo'yicha u quyi va yuqori kenja svitalarga bo'linadi, ular orasidagi chegara ludlov-prjidol yarusrari orasidagi chegaraga mos keladi. U dariston svitasi kesmasining yuqori qismida sezilarli ustuvorlikka ega bo'lgan ko'p miqdorda to'q kulrang gilli, plitali ohaktoshlarning uchrashi bilan qayd etiladi. Pastki kenja svita juda mayda donali alevroqumtoshlar va organogen ohaktoshlar qatlamchalariga (qalinligi 1–5 sm) ega bo'lgan to'q-kulrang argillitli slanetslar va yashilsimon-kulrang alevrolitlardan tarkib topgan. Keyingilari yupqa devorli braxopodalar chig'anoq bo'laklari, krinoideya va turli detrit bilan boyigan va o'zining qizg'ish-sariq rangi bilan qora slanetslar orasida keskin ajraladi. Kesmaning eng pastki qismi (qalinligi 20–30 m) graptolitlarning keng stratigrafik tarqalgan shakllari kompleksi bilan xarakterlangan.

Quyi kenja svitaning gilli ohaktoshlar qatlamchalariga ega bo'lgan argillitli, slanetsli ustki qatlamlarida (qalinligi 50 m) ludlov yarusida uchrovchi graptolitlar topilgan. Qalinligi 70–80 m.

Ustki kenja svitasi (qalinligi 40–50 m) yupqa qatlamlı argillitli slanetslar qatlamchalari bilan almashib yotuvchi to'q kulrangdan qoragacha plitali ohaktoshlardan tarkib opgan.

Janubiy Tyanshanning shimoliy mintaqalaridan farqli o'laroq, Zarafshon-Hisor tog'li viloyati, Zirabuloq tog'lari va Quljuqtovning

silur yotqiziqlar kesmasini tashkil etuvchi jinslarining tarkibi bo'yicha ham, faunistik hamjamiyati tarkibi bo'yicha ham juda o'ziga xosdir. Bu, asosan, karbonatli yotqiziqlar sayozsuqli bentos faunasining hamjamiyati bilan xarakterlangan. Ko'rib chiqilayotgan mintaqalar silur yotqiziqlarining xarakterli xususiyati bo'lib, ba'zi hollarda gilli, qum-gilli va qumtoshli jinslar bilan almashib yotuvchi, asosan, ularning dolomitli tarkibi sanaladi. Zarafshon-Hisor tog'li viloyatida bu llandoveriy va venlokning shing svitasi ohaktosh-gilli-dolomitli, janubiy sumsor svitasi ohaktosh-dolomitli va zinax svitasi qum-ohaktosh-dolomitli hosilalarida keng tarqagan. Yuqori silurda bu dolomitli hosila arg seriyasining kuturak va ko'prik svitalari hamda oraliq ohaktosh-dolomitli kesmalari hajmida ajratiladi.

Shu bilan bir qatorda Zarafshon-Hisorning Dukdon daryosi vodiysida llandoveriy graptolitlariga ega uglerod-gilli slanetslari va ohaktosh qatlamchalaridan iborat silurning pelagik yotqiziqlaridan tarkib topgan. Quyi silur Zarafshon-Hisor tog'li viloyatidan farqli o'laroq Zirabuloq tog'larida terrigen tarkibi bilan xarakterlansa, Quljuqtovda u kesmalarning ikki turi – karbonatli va sayozsuqli bentos faunali vulkanogen-terrigenli yotqiziqlardan iborat.

Silurning yuqori ordovik bilan pastki chegarasi muvofiq.

**Quyi silur. Llandoveriy va venlok yaruslari.** Zarafshon-Hisor tog'li viloyatida bu sathga sayozsuqli, ohaktosh-dolomitli va qum-dolomitli fatsiyalar lateral qatoridan iborat mintaqada keng rivojlangan quyi silurning janubiy sumsor, shing va zinax svitalari mos keladi.

**Janubiy sumsor svitasi.** Minko'char qatlamlari asosida qora dolomitli ohaktoshlar va dolomitlar yoki gil-detritli ohaktoshlardan iborat. Svita Qashqadaryo havzasida keng rivojlangan, sharqda Agba-Shirda Fandaryo havzasida ham ma'lum. Yuqori ordovik yotqiziqlariga muvofiq yotadi va, o'z navbatida, kuturak svitasi jinslari bilan muvofiq qoplanadi. Svita qalinligi 400 m ga yaqin. Fauna kompleksi tarkibida selenteratlar (stromatoporatlar va marjonlar) va braxipodalar ustuvor sanaladi.

Quyi silurning boshqa fatsial turkumi shing svitasining ko'p sonli va turli-tuman bentos faunasiga ega gil-dolomitli, qatlamlili

va varaqsimon qora ohaktoshlaridan iborat. Svitaning namunaviy kesmasi Daurich tog‘ida joylashgan. Uning muqobili Qashqadaryo havzasida keng rivojlangan. Svita yuqori ordovikka muvofiq yotadi va arg seriyasining dolomitlari bilan muvofiq qoplangan. Qalinligi 200–230 m atrofida o‘zgaradi.

Quyi silurning sayozsvul fatsiyasi sanaluvchi zinax svitasi yotqiziqlari Ganza-Chimtargin rayonida rivojlangan (Pasrud va Yagnob daryolari havzasi). U varaqsimon kvars-karbonatli va kvars-slyudali slanetslar, gilli ohaktoshlar va dolomitlar qatlamchalariga ega ochkulrang, binafsha va yashilsimon-kulrang kvarsitlar va kvarsitli qumtoshlardan iborat. Svita llandoveri-venlokning tabulyatalari, rugozalari, stromatoporlari va braxipodalari qoldiqlariga ega. Qalinligi 500–700 m.

*Venlok yarusining yuqori kenja – ludlov yarusi. Kuturak svitasi.* Bu o‘rta va yuqori qismlarida och tusli dolomitli ohaktoshlar va pastida kvarsli qumtoshlar gorizontlariga ega bo‘lgan to‘q-kulrang va qora mayda va yupqa yo‘l-yo‘lli dolomitlar, dolomitli brekchiyalardan iborat. Shing yoki janubiy sumsor svitasiga muvofiq yotadi. Qalinligi 300–600 m.

*Yuqori silur. Prjidol yarusi. Ko‘prik svitasi.* Ilgari u folidofilidli qatlamlar nomi bilan atalgan. Bu yondosh yotqiziqlarni prjidol sifatida qarashga imkon beruvchi Janubiy Farg‘ona prjidoliya fauna kompleksi bilan taqqoslanuvchi ko‘p sonli triplazmatidlar, tabulyatalar va braxipodalar oilasidagi marjonlarga ega bo‘lgan turli qatlamlar qoramtil dolomitlar va dog‘li dolomitlar, ba’zan gilli ohaktoshlardan tarkib topgan. Qalinligi 300–500 m. Quyi devon bilan ustki chegarasi muvofiq.

Quljuqtovda kesmalarning ikki turkumi – karbonatli qatlamchalariga ega vulkanogen-terrigen va karbonatli kesmalariga ajratiladi. Bu Quljuqtovning janubiy qismida (Uchquduq qudug‘i) rivojlangan darvoza svitasi va Quljuqtovning shimoliy yonbag‘rida keng rivojlangan yangiqozg‘on svitasi ohaktoshlaridir.

Zirabuloq tog‘larida darvoza va yangiqozg‘on svitalarining yoshi bo‘yicha muqobillari terrigen daraitutli svitasi sanaladi.

*Darvoza svitasi* qumtoshlar, gravelitlar, andezit-datsit tarkibli tuflar, ohaktoshlar, konglomeratlar, alevrolitlar va argillitlarning linzasimon qatlamchalaridan iborat. Ohaktosh qatlamchalari llandoveriy yoshini xarakterlovchi ko‘p sonli stromatoporatlar, tabulyatalar, braxipodalar qoldiqlariga ega. Qalinligi 600 m.

*Yangiqozg‘on svitasi* llandoveryi kesmalarining karbonatli turkumini tashkil etadi va och kulrang, kamroq to‘q kulrang yupqa qatlamli va plitali krinoidalni yirik donali ohaktoshlardan iborat bo‘lib, qalinligi 500 m gacha. Ularning llandoveryi yoshi ko‘p sonli organik qoldiqlar bo‘yicha aniqlangan.

Zirabuloq tog‘larida bu svitalarining yosh bo‘yicha muqobillari daraitut svitasining qumtoshlar va ohaktoshlar qatlamchalariga ega slanetslar sanaladi. Svitaning qalinligi 500 m gacha. Svitaning llandoveryi yoshi krinoideyalar qoldiqlari bo‘yicha aniqlangan.

*Venlok yarusi.* Quljuqtovda venlok yarusi tarkibida ikkita svita – ohaktoshli uchquduq va ohak-dolomitli jengeldiga ajratiladi.

*Uchquduq svitasi.* Bu o‘ziga xos uyushiqli yashilsimon-kulrang, to‘q-kulrang gilli ohaktoshlar bo‘lib, kremniyli jinslar qo‘shimchalariga ega. Ohaktoshlar mayda donali, dolomitlashgan, qisman temirlashgan, kremniylashgan, bituminozli. Svita Quljuqtovning markaziy va g‘arbiy qismlarida keng rivojlangan, llandoverning darboza svitasiga muvofiq yotadi. Qalinligi 50–170 m.

Toshqotgan qoldiqlari tarkibida yoshini taxminan venlokka mos keluvchi hajmida aniqlovchi tabulyatalar, braxipodalar, krinoideyalar uchraydi.

Zirabuloq tog‘larining janubiy qismida Oltiovul, Jilg‘asoy, Sipkisoym rayonlarida rivojlangan. U yupqa qatlamli, qora gilli, uyushiqli ohaktoshlar, kulrang dolomitlashgan ohaktoshlar va yuqori qismida graptolitli pushti-kulrang alevrolitlar qatlamchalariga ega to‘q kulrang ohaktoshlardan tarkib topgan. Svita jinslari venlok yarusi uchun xarakterli turli-tuman faunaga ega. Svita llandoveryi yotqiziqlariga normal yotadi. Qalinligi 70–200 m.

*Jengeldi svitasi.* U alevrolitlar, gilli dolomitlar va kremniyli-kvarsli jinslar qatlamchalariga ega dolomitlar va dolomitlashgan

ohaktoshlardan iborat. Svita uchquduq svitasi jinslariga muvofiq yotadi. Qalinligi 900 m gacha.

Zirabuloq tog‘larida jengeldi svitasining yosh bo‘yicha muqobili terikbobo svitasining dolomitli yotqiziqlari sanaladi. Qalinligi 320 m gacha. U kattajar svitasiga normal yotadi.

***Yuqori silur.*** Quljuqtovda yuqori silur yotqiziqlar boshg‘o‘jimdi svitasining kulrang va to‘q-kulrang turli qatlamlı va massiv ohaktoshlari va dolomitlaridan iborat bo‘lib, mutaxassislarining xulosalari bo‘yicha umuman yuqori silurni xarakterlovchi ko‘p sonli va turlituman fauna qoldiqlariga ega. Qalinligi 600–700 m. Svita venlok yotqiziqlariga muvofiq yotadi va quyi devon yotqiziqlari bilan muvofiq qoplanadi.

Zirabuloq tog‘larida bu stratigrafik sathga piyozi svitasining to‘q-kulrang va qora qatlamlı dolomitlashgan ohaktoshlari va dolomitlari mos keladi. Qalinligi 600–700 m.

**Devon sistemasi.** Devon hosilalari juda keng tarqalgan va, asosan, dengizning turli sedimentatsion zonalidagi karbonatli, kremniy-karbonatli, terrigen-karbonat-kremniyli va terrigen yotqiziqlaridan iborat.

Janubiy Tyanshanda devonning aksariyat cho‘kindi hosilalari paleontologik tomondan faunaning bentonos guruhi bilan ham, pelagik guruhi bilan ham yaxshi dalillangan. Bu esa seriyalar, svitalar va qalamlarning amalda barcha fatsial turkumlari yoshini ishonchli aniqlashga va barcha hududlarda tarqalgan devon yotqiziqlarini taqqoslashga imkon beradi.

Devon yotqiziqlari Zarafshon va Hisor tizmalarida juda keng rivojlangan. Ular bu yerda butun devon sistemasini o‘z ichiga oluvchi karbonatli, kremniy-karbonatli va karbonat-terrigen-kremniyli yotqiziqlardan iborat.

***Quyi devon. Loxkov va praga yaruslari. Madmon svitasi.*** Bu rifogen jinslar qalin qatlamlı va massiv detritus-uyushiqli, suvo‘tli – uyushiqli, biomorf stromataftoforidli ohaktoshlar, dolomitlashgan ohaktoshlar va yonbag‘ir brekchiyalaridan tarkib topgan kompleksdir.

Qalinligi 70 dan 1000 m gacha. Pastki chegarasi yuqori silurning ko'prik svitasi bilan normal, ammo fatsial o'zgarish xususiyatiga ega. Ustki chegarasi xo'jaqo'rg'on svitasi bilan normal stratigrafik munosabatda.

*Xo'jaqo'rg'on svitasi.* Xo'jaqo'rg'on soyidagi stratotipida svita aniq uch xil tuzilishga ega. Pastki qismi qalin qatlamlı turlarining qatlamlı organogen-bo'lakli ohaktoshlar va ohaktoshli brekchiyalar bilan almashib yotishidan iborat. Ular toshqotgan organik qoldiqlarining keng kompleksiga ega bo'lib, fauna orasida eng xarakterli erta em asrini belgilovchi stromatoporatlar, tabulyatomorfli marjonlar, rugozalar, braxipodalar, tentakulitlar, graptolitlar, konodontlar salaladi.

O'rta qismi jovus qatlamlari (133 m) hajmida turbidit hosilasi hisoblanuvchi plitali va varaqsimon pelitomorf goniotit-tentakulitli ohaktoshlar va qalin qatlamlı organogen-bo'lakli ohaktoshlar gorizontlaridan iborat. Fauna kompleksi tarkibida tentakulitlar, goniotitlar, konodontlar ustuvorlikka ega. Faunaning bentos guruhi, asosan, turbiditli ohaktoshlar gorizontlarida joylashgan. Svitaning ustki qismi obisafit qatlamlari (250–300 m) hajmida ritmik almashib yotuvchi krinoid-detritli to'q kulrang va kulrang, o'rta va qalin qatlamlı ohaktoshlardan iborat. Qora yostiqsimon kremluy va karbonatli yonbag'ir brekchiyaları gorizontlarining sezilarli darajada rivojlanganligi bilan xarakterlidir. Umumiy qalinligi 700 m. Pastki va ustki chegaralar bir-biriga muvofiq, ammo fatsial o'zgaruvchi.

*O'rta va yuqori devon.* *Yatavluq svitasi* quyi qismida uyushiq-afanitli, detritus-uyushiqqli, qalin qatlamlı ohaktoshlardan iborat. Yuqori qismida u ritmik almashib yotuvchi uyushiq-afanitli va detritus-uyushiqqli, qalin qatlamlı va massiv ohaktoshlar, ohakli brekchiyalarining qalin plitali qora va to'q kulrang biomikritli ohaktoshlar va pushti gilli jinslari va kremluy linzasimon qatlamchalaridan iborat. Svita Qashqadaryo havzasida keng rivojlangan. Uning qalinligi 490–620 m oraliqda o'zgaradi. Svitaning birinchi yarmi toshqotgan qoldiqlari kompleksi selenteratlar, braxipodalar, konodontlardan tar-kib topgan bo'lib, eyfel va jivet oralig'idagi yoshta to'g'ri keladi.

Svitaning ustki yarmi o‘zining tarkibida fran va famen yoshini xarakterlovchi stromatoporatlar, tabulyatalar, braxipodalar, tentakulitlar va konodontlar qoldiqlariga ega. Umuman olganda, svita eyfel, jivet, fran va famen yaruslari hajmida umumiyligining shkalaning o‘rtasi va yuqori devon stratigrafik oralig‘ini o‘z ichiga oladi.

Tomditov, Aristontov, Shimoliy Nurotada devon deyarli to‘liq hajmda uchraydi va, asosan, karbonatli yotqiziqlar va kamroq daramada terrigen hosilalardan iborat. Bular, asosan, dolomitlar, dolomitli ohaktoshlar va ohaktoshlar, ko‘pincha, rifogen jinslardan iborat bo‘lib, faunaning keng bentos va pelagik guruhlari bilan xarakterlangan.

*Quyi devon. Loxkov va praga yaruslari. Jongeldi svitasi* Tomditov va Aristontovda devonning asosini tashkil etadi. U qora va to‘q kulrang qatlamlari va massiv tuzilgan dolomitlar va gilli dolomitlardan iborat bo‘lib, qalinligi 600–800 m. Svita kesmasining asosida dolomitlar qatlamchalariga ega konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar va slanetslar yotadi. Svita jinslari yoshini erta devon loxkov va praga yaruslari hajmida aniqlovchi stromatoporat, marjonlar va braxopodalarning ko‘p sonli qoldiqlariga ega.

*Em yarusi. Madaniyat svitasi.* Kesmaning quyi qismida qora plitali gilli dolomitlar, yuqori qismida esa ohaktoshlarning yonbag‘ir brekchiyalari va organogen dolomitlardan iborat. Bu jinslar em yarusini xarakterlovchi marjonlar, braxipodalar, tentakulitlar va konodontlar qoldiqlariga ega. Svita qalinligi Aristontovda 260 m, Tomditovda – 188–255 m.

*Quyi-o‘rta devon. Izas svitasi.* Bu yotqiziqlar qatlamlari to‘q kulrang ohaktoshlar, qizil-qo‘ng‘ir alevrolitlarning kremniy linzalari va uyushiqlariga ega dolomitlar pachkalari, turli qatlamlari ohaktoshlar va ohakli alevrolitlarning almashib yotishidan iborat. Qalinligi 267–762 m. Svita Aristontovning janubi-g‘arbiy qismida rivojlangan.

*O‘rta devon. Oyoqquduq svitasi* Aristontovning markaziy qismida tarqalgan. Ohaktoshlar va dolomitlar, almashib yotuvchi suvo‘tli ohaktoshlar va dolomitlashgan brekchiyalarning siyrak qatlamchalaridan iborat. Kesmaning o‘rta va yuqori qismlarida massiv

rifogen organogen qurilmalar rivojlangan bo‘lib, marjonlar va suv-o‘tlari qoldiqlariga ega. Qalinligi 230–369 m.

***Yuqori devon.*** *Markaziy aristontov svitasi.* Umumiy qalinligi 360 m bo‘lgan siyrak kulrang dolomitlashgan gilli turi va och kulrang, kulrang dolomit qatlamchalariga ega qora va to‘q-kulrang organogen ohaktoshlardan tarkib topgan. Svita jinslari fran yarusining stromatoporatlari, braxopodalariga ega.

***Jonaxmet svitasi*** dolomitlar qatlamchalariga ega ohaktoshlaridan iborat bo‘lib, Aristontovda kamroq tarqalgan. Svita jinslari famen yoshini xarakterlovchi foraminiferalar va braxipodalarga ega. Qalinligi 217–401 m.

***Aznek svitasi.*** U mintaqada devon kesmaning eng yuqori a‘zosi sanaladi. Svita to‘q kulrang dolomitlar, dolomitlashgan ohaktoshlar va ohaktoshlardan iborat. Qalinligi 54–213 m. Fauna kompleksi tarkibida yotqiziqlarining famen yoshini xarakterlovchi foraminiferalar va stromatoporatlar uchraydi.

***Quyi, o‘rta, yuqori devon.*** *Rabijon svitasi* tor qambar shaklida g‘arbdan sharqqa qarab Janubiy Nurotaning janubiy tog‘oldidan Zirabuloq tog‘lari orqali, Samarqanddagi Cho‘ponota va keyinchalik sharqda, Chumqurtovning janubiy yonbag‘rigacha cho‘zilgan.

Svita, asosan, kremniyli jinslar, kamroq miqdorda argillitlar qatlamchalari, ahyon-ahyonda ohaktoshlar va bazaltlarning linzalaridan iborat. Svitaning barcha jinslari uchun radiolariy va kondontlarning ko‘p sonli qoldiqlari xarakterli bo‘lib, ularning yoshini quyi, o‘rta va yuqori devon qabilida belgilashga imkon beradi. Qalinligi – 200 m.

***Oqbasoy svitasi*** qalinligi 200 m ga yaqin. Zarafshon daryosi vodiysida tarqalgan bo‘lib, uning quyi qismida kremniy-gilli slanetslar, tentakulitlar, krinoid-detritli, bo‘lakli ohaktoshlar va ohaktoshli brekchiyalar qatlamchalariga ega plitali va yupqa qatlamli yashmasimon kremniylar rivojlangan. Kesmaning yuqori qismida chiporrang (qizil, malina, yashil, kulrang, binafsha), gilli, gil-kremniyli alevrolitli slanetslar va gilli ohaktoshlar, gravelitlar, tuflar,

qumtoshlarning kam uchrovchi qatlamchalaridan tarkib topgan. Svitaning umumiyligi 180–200 m. Svitaning ostidagi yotqiziqlar bilan chegarasi normal va vaqt bo‘yicha loxkovdan boshlab kechki devongacha o‘zgaradi. Svitada organik qoldiqlardan tentakulitlar, konodontlar, marjonlar, stromatoporatlar, braxipodalar, krinoideyalar, foraminiferalar va faunaning boshqa guruhlari topilgan bo‘lib, ular svita yoshini butun sistemasi hajmida belgilaydi.

**Karbon sisteması.** Qizilqum sahrosining markaziy qismini qamrab olgan paleozoy yotqiziqlari ochilib yotuvchi bir-biridan ajralgan tog‘ tepaliklari: Bukantov, Jetimtov, To‘xtatov, Tomditov, Ovminzatov, Sangrunтов hamda Shimoliy Nurota tizmasi va Molguzar tog‘larini o‘z ichiga oladi.

Karbon yotqiziqlari bu mintaqada keng tarqalgan va ularning tarkibida faunistik dalillangan faqat sistemaning quyi va o‘rta bo‘limlari hosilalariga ajratiladi. Karbon kesmasi, odatda, murakkab burmalangan, aniqlash imkonii bo‘lgan organik qoldiqlari juda siyrak alohida fragmentlardan iborat. Bu hol kesmalarni tabaqalash va taqqoslashni qiyinlashtiradi. Umuman olganda, karbon kesmasi mintaqada ikki qismga: quyi karbon turne yarusidan o‘rta karbon moskva yarusi o‘rtasigacha oraliqni o‘z ichiga oluvchi quyi va yuqori – terrigen qismga (o‘rta karbonning ustki qismi va yuqori karbon) ajratiladi.

**Quyi – o‘rta karbon, boshqird yarusi.** Quyi karbon yotqiziqlar va o‘rta karbon boshqird yarusining quyi qismi o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ular turli-tuman turkumdagisi – karbonatli, karbonatli-terrigen, karbonat-kremniyli, vulkanogen-terrigen kesmalardan iborat.

Markaziy Qizilqum tog‘ tepaliklarida (Janubiy Bukantov, Tomditov, Aristontov, Muruntov, Sangrunтов) quyi karbon tarkibida barcha yaruslar yagona karbonatli qatlamdan iborat.

Karbonning pastki chegarasi ko‘charboy svitasi asosida braxopodalarning paydo bo‘lishidan o‘tkaziladi. Ko‘charboy svitasi ikki pachkaga aniq ajraladi: quyi pachka (50 m) – dolomitlar va ohak-

toshlarning kontrast almashib yetishidan iborat bo'lib, uning ustki qismida paleoxoristitlar gorizonti mavjud va ustki pachka (150 m) – ohaktoshlar va dolomitlashgan ohaktoshlarning almashib yetishidan iborat. Svita yotqiziqlari uchun ko'p sonli braxopodalarning mavjudligi xarakterlidir. Bu yotqiziqlarning erta karbon yoshi ko'p sonli turli-tuman organik qoldiqlar bilan asoslangan.

Shimoliy Bukantovda (Serkesh qudug'i yaqinida) serpuxov yarusi yotqiziqlari ma'lum, ular quyi boshqird yotqiziqlari bilan uzlucksiz yagona karbonatli kesmani tashkil etadi va serpuxov svitasiga ajratiladi. Ular massiv konglomeratsimon ohaktoshlar va oolit-uyushiqli turlarining qatlamchalaridan iborat. Yoshi serpuxov asri va boshqird asrining boshlanishiga mos keluvchi ammonoideyalar kompleksi bilan dalillangan.

Markaziy Qizilqum va Shimoliy Nurota hududlarida karbon kesmasida bir qancha vulkanogen-terrigen tarkibli svitalar ajratiladi. Bu to'babergan, shavaz, sangrunov, andreyev svitalari hamda olistostromli genezisiga ega qatlam va xisar svitasidir. Bu svitalarning yotqiziqlari ajralgan holda mahalliy tarqalgan bo'lib, chuqur yer yoriqlari zonalarida joylashgan yoki tektonik qoplamlar tulzilishida qatnashadi va yondosh yotqiziqlar bilan yaqqol stratigrafik munosabatlarga ega emas. Ushbu svitalarning yoshi va kesmalarning muayyan turkumlariga mansubligi hozirgacha ko'plab munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

**O'rta karbon. Boshqird yarusi.** Markaziy Qizilqumda paleontologik dalillangan o'rta karbon yotqiziqlari yuqori boshqird kenja yarusidan boshlanadi va kesmalarning ikki turkumiga mansub. Shimoliy turkumi Shimoliy Bukantov, Jetimov va Taxtatovda rivojlangan bo'lib, yuqori boshqird kenja yarusi va moskva yarusining har ikkala kenja yaruslarini o'z ichiga oluvchi katta qalinlikdagi terrigen yotqiziqlaridan iborat. Kesmalarning janubiy turkumi Tomditovning Oqtov va Muruntov tog'lari pastida yuqori boshqird quyi moskva kenja yaruslari karbonatli yotqiziqlari, ustida esa quyi moskva terrigen yotqiziqlari rivojlangan.

Oqtov va Muruntovda yuqori boshqird kenja yarusiga ohak-toshlardan iborat belquduq svitasi kiradi. Barcha joylarda yuqori boshqird ohaktoshlari yuqori vize ohaktoshlariga nomuvofiq yotadi. Svita kesmasining pastki qismida boksitlarning va boksitsimon jinslarning uyachalari, ba'zan esa, ancha katta tanalari kuzatiladi. Ularning hosil bo'lishi kechki boshqirdoldi tanaffusi bilan bog'liq. Oqtov va Muruntovda ohaktoshlar dog'li, kremiyning linzasimon qatlamchalari va uyushiqlariga ega, odatda, qayta kristallangan va marmarlashgan. Svitada toshqotgan qoldiqlar ancha turli-tuman (braxipodalar, marjonlar, xetetidlar, gastropodalar, foraminiferalar, suvo'tlari). Eng to'liq qalinligi 90 m.

*Moskva yarusi.* Tomditovda moskva yarusi yotqiziqlari litologik tarkibi bo'yicha ikki qismga bo'linadi. Pastki qismi karbonatli jinslardan (ko'kcha va bozdon svitalari), ustkisi – terrigen yotqiziqlardan (ajri va murinquduq svitalari) iborat. Ko'kcha svitasi yotqiziqlari ostidagi belquduq svitasi ohaktoshlari va ustidagi bozdon svitasi ohaktoshlari bilan asta-sekin o'tish bilan bog'langan. Svitaning eng to'liq kesmasi Bozdon pastkamligining (Muruntov) sharqiy chekkasida joylashgan va qalinligi 80 m ga boradi. Ohaktoshlar pastida to'q kulrang, yupqa qatlamlili, mikrodonali (8–10 m), ustida – och kulrang, yupqa qatlamlili, organogen (foraminiferali, suvo'tli, braxopodali), organogen-uyushiqli va mikrodonali, siyrak kremniy uyushiqlariga ega. Qalinligi 150 m.

Terrigen ajriqtı svitasi asosida yomon saqlangan organik qoldiq-larga ega qora slanetslashgan argillitlar rivojlangan. Stratigrafik balandda ritmik almashib yotuvchi to'q kulrang qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar va kamroq gravelitlar va mayda g'o'lakli konglomeratlarning linzasimon qatlamchalari yotadi. Svitaning yuqori qismida turli yoshdagi: devon va quyi karbon faunasi va kembriyning suvo'tlari uchraydigan ohaktosh xarsanglari mavjud. Svita qalinligi 520 m.

O'rta karbonning qalin terrigen yotqiziqlari Shimoliy Bukantov, Jetimtov va Taxtatovda rivojlangan, arxar va taxtatov svitalari nomi bilan ma'lum. Arxar svitasi yuqori boshqird va quyi moskva kenja

yaruslariga, taxtatov svitasi esa yuqori moskva kenja yarusiga mansub.

*Arxar svitasi* (pastdan yuqoriga qarab): 1 – yirik donali dag‘al qatlamlili yashilsimon grauvakkali qumtoshlar pachkasi (250 m); 2 – alevrolit-qumtoshli pachkasi almashib yotuvchi alevrolitlar va qumtoshlardan hamda gravelitlar va argillitlarning siyrak qatlamchalaridan (600 m gacha); 3 – gravelit-qumtoshli pachkalar bilan ritmik almashib yotuvchi konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar va alevrolitlardan (800 m) iborat.

Navbatdagi *taxtatov svitasi* arxar svitasiga transgressiv yotishi va konglomeratlar g‘o‘lagida quyi moskva kenja yarusi mikrofaunasi topilishi bo‘yicha o‘rta karbon yuqori moskva kenja yarusiga kiritilgan. Bukantovda paleozoy kesmasi gravelitlar va qumtoshlar linzalariga ega yomon saralangan vulkanogen konglomeratlar bilan yakunlanadi. Ular taxtatov svitasiga va barcha boshqa qadimiy jinslarga nomuvofiq yotadi. U shartli ravishda yuqori karbonga kiritilgan.

Litologik belgilari o‘yicha taxtatov svitasi Taxtatovda to‘rtta qatlamlarga ajratiladi, ularning har biriga svita maqomi berilgan (pastdan-balandga): ajriqtqi, orguz, jeltumsuq va bassay.

*Ajriqtqi svitasi* Tomditovdagi shu nomli svitaga litologik o‘xshashligi bo‘yicha quyi moskva kenja yarusiga kiritilgan. Qalinligi 400 m ga yaqin. Svita yupqa almashib yotuvchi slanetslashgan alevrolitlar, grauvakkali qumtoshlar va kamroq gravelitlar hamda mayda g‘o‘lakli konglomeratlar qatlamchalaridan iborat. Quyidagi ikki svita yuqori moskva kenja yarusi uchun xarakterli foraminiferalar kompleksiga ega. Oguz svitasi ajriqtqi svitasiga nomuvofiq yotadi. U ikki pachkadan tuzilgan. Quyi pachka, asosan, konglomeratli (400–500 m) va ustkisi, asosan, qumtoshli (400 m) bo‘lib, ular bir-biriga asta-sekin o‘tadi. Toshqotgan qoldiqlari dengiz hayvonlaridan iborat (braxipodalar, ikki tavaqalilar, gastropodalar, foraminiferalar) bo‘lib, ohakli qumtoshlar va qumli ohaktoshlar qatlamchalarida uchraydi, konglomeratli pachkaning ustki qismidan boshlab kuzatiladi. Ohaktoshlarda ba’zan braxopodalar, ikki tavaqalilar, gastropodalar, mshankalar, xetetidlar, foraminiferalarning ko‘plab qoldiqlari topilgan.

*Bassay svitasi* ham ikki qismdan iborat: pastkisi – qum-konglomeratli va ustkisi esa konglomeratli. Birinchi pachka (320 m) alevrolitlar, qumtoshlar, gravelitlar va konglomeratlarning ritmik almashib yotishidan, ikkinchisi (100–380 m) – qizil-qo‘ng‘ir dag‘al qatlamlili konglomeratlardan iborat bo‘lib, gravelitlar va yomon saralangan qumtoshlarning ko‘p sonli linzasimon qatlamchalariga ega.

Shunday qilib, Janubiy Tyanshanda karbon kesmalari tuzilishi turli-tuman. Uning quyi qismida dengiz sayoz va chuqur suvli hosilalar – karbonatli, kremniyli, terrigen-kremniyli va vulkanogen-karbonatli-kremniyli jinslar ustuvorlikka ega.

O‘rta karbonda ikkita yirik: kechki boshqirdoldi va kechki moskvaoldi, mintaqaviy nomuvofiqlik kuzatiladi va ular tektonik faollikning kuchayishi, karbonatli tarkibdagi cho‘kindi to‘planishning terrigen cho‘kindi to‘planishi bilan almashishi, o‘rta karbonning oxiriga kelib dengiz sedimentatsiyasi akvatoriyasi maydonining sezilarli qisqarishi va ularning sharqiy rayonlarga tomon siljishiga olib kelgan.

Yuqori karbon yotqiziqlari dengiz yoki qisman dengiz sharoitlarida to‘plangan bo‘lib, sharqiy mintaqalarda joylashgan, bunda ular Qora-chotir, Janubiy Oloy, Janubiy Hisor botiqliklarini to‘ldirgan. Yuqori moskva yotqiziqlari singari ular ham terrigen yotqiziqlardan iborat, kamroq karbonatli jinslar va quyi molassa (shlir) formatsiyalar rivojlangan. Ular uchun qalinlikning katta miqyosda o‘zgarishi va kesmalarning to‘liqligi xos. Cho‘kindi to‘planishidagi tanaffuslar o‘rta karbon epoxasidan farqli o‘laroq, ko‘pchilik hollarda mahalliy ahamiyatga ega.

### 16.3. Magmatik komplekslari

#### 16.3.1. Zarafshon-Hisor mintaqasi

**Hisor adamellit-granitli kompleks ( $C_3$ , q)** – bu hududda ta’riflanayotgan kompleks Hisor tizmasining shimoliy yonbag‘irlarida rivojlangan bo‘lib, shu nomli intruziyani tashkil etadi. Unda ikkita

faza ajratiladi: 1. Biotitli, porfirsimon granodiorit-adamellitlar. 2. Sust gneysli, o'rta donali ikki slyudali, muskovitli granitlar.

Tomirli hosilalardan aplitlar, aplitsimon granitlar, pegmatitlar va pegmatoidli granitlar uchraydi.

Kompleks jinslari nodir yer elementlari, qalay, uran va torining, ba'zi massivlarda qo'rg'oshin va misning yuqori miqdori bilan farq qiladi.

Yoshining yuqori chegarasi Hisor granitoidlarini qoplab yotuvchi erta perm subvulkanik riolitlari bilan o'zaro munosabati yoki ular-dagi ksenolitlar bo'yicha aniqlangan. Mutlaq yoshi 273–316 mln. yil (kaliy-orgon usuli).

***Yaxton kvarsdiorit-granodioritli kompleksi (C<sub>3</sub>, ja)*** – bu kompleks birinchi bor Chaqil-Kalon tog'larida ajratilgan bo'lib, uncha katta bo'limgan – Urgut, Yaxton, Chashtepa, Kamangaran, Xo'jadiq cho-zinchoq va izometrik shtoklarni tashkil etadi. Yondosh jinslar shao'-rimon, arg, madmon, malguzor svitalarining yotqiziqlari sanaladi.

Tomirli hosilalari granitlar, aplit-granitlar, aplitlar, pegmatitlar, dioritli porfiritlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlardan iborat. Mutlaq yoshi 268–309 mln. yil.

***Avgajuma granit-adamellitli kompleksi (C<sub>3</sub>, av)*** – bu kompleks jinslari Chaqil-Kalon tog'laridagi Suqar va Avgayjumon intruziv massivlarini tashkil etadi. Kompleks jinslari kaliynatriyli turkumning natriy-kaliyli kenja turkumiga mansub. Normativ ilmenitning magnetidan ustuvorligi qayd etiladi. Mutlaq yoshi 268–301 mln. yil.

***Qorato'ba-Zirabuloq adamellit-granitli kompleks (C<sub>3</sub>, kz)*** mustaqil toifa sifatida Zirabuloq va Qorato'ba tog'larida ajratilgan. Ak-mazar, Qo'shquduq, Mayzoq, Gunjak intruzivlarini tashkil etadi. Bu kompleksda quyidagi fazalar ajratiladi. 1. Yirik donali porfirsimon amfibol-biotitli granodioritlar. 2. O'rta donali porfirsimon amfibol-biotitli adamellitlar va granitlar. 3. Mayda donali porfirsimon biotitli ikki slyudali granitlar va granit-adamellitlar. Tomirli jinslardan aplitlar, pegmatitlar, leykogranitlar rivojlangan. Litiy, seziy, rubidiy,



78-rasm. Qorato‘ba batolitning tabiiy ochilmasi

qalay, volfram, berilliy, molibden, vismutning yuqori miqdoriga xos. Mutlaq yoshi (kaliy-argon usuli) 272–295 mln.yil.

***Qoratov diorit-granitoid-porfirli kompleksi (S<sub>3</sub>,kk)*** – bu kompleks Ziyovutdin tog‘larining shimoliy qismida o‘rganilgan. Uning tarkibida dioritli porfiritlar, granodiorit-porfirlar, kvarsli dioritlar, lamprofirlar, tonalit va tonirat-porfirlar daykalari uchraydi. Yondosh jinslar bo‘lib bulamush va katarmay svitasining yotqiziqlari sanaladi.

***Ketmonch granitli kompleksi (S<sub>3</sub>–R<sub>1</sub>k)*** – bu kompleks Ketmonchi massivining janubiy qismida kuzatiladi. Kompleks tarkibida ikki slyudali porfirsimon granitlar, biotitli porfirsimon leykogranitlar mavjud. Ikki slyudali granitlarda, odatda, granat va turmalin kristallari uchraydi. Mutlaq yoshi 295 mln. yil.

***Lolabuloq sienitli kompleksi (R<sub>1</sub>ll)*** – bu kompleks Qorato‘ba tog‘ining janubiy yonbag‘rida joylashgan shu nomli intruzivi bo‘yicha ajratilgan. Uning tarkibida turli donali sienit-dioritlar, sienitlar va kvarsli sienitlar mavjud. Plagioklaz, mikroklin, ortoklaz, kvars, amfibol, biotit va ozroq miqdorda diopsid-avgitdan tarkib topgan. Yoshi kaliy-argon usuli bo‘yicha 272–295 mln. yil.

**Gurmak adamellit-granitli kompleks ( $P_{gr}$ )** – bu kompleks jinslari Qorato‘ba tog‘ining janubiy yonbag‘rida Taxtaqoracha plutonini tashkil etadi. Uning tarkibida yirik va o‘rta donali biotitli, muskovit-biotitli adamellitlar, granit-adamellitlar va granitlar rivojlangan. Tomirli hosilalari aplitlar, granitlar va pegmatitlar daykalari holida uchraydi. Mutlaq yoshi 260–270 mln. yil.

### 16.3.2. Nurota mintaqasi

**Nurota kechki proterozoy: kembriy – ordovik giperbazit-gabbro-plagiogranitli kompleks ( $\Sigma PR_2$ ;  $E_2-O_1$ , n)** – bu kompleks Shimoliy Nurota tizmasining shimoliy yonbag‘rida rivojlangan bo‘lib, Uxum-Sintob va Yotoq-Arvati sinformalarida Mojirum tektonik qoplamasining asosidagi serpentinitli melanjdan iborat. Kompleks serpentinitlar, gabbro, piroksenitlar, plagiogranitlar va ular bilan bog‘liq metasomatik hosilalar: rodingit va albititlardan tarkib topgan. Serpentinitlar bilan listvenitlar va listvenitsimon jinslar hamda talkitlar uchraydi. Serpentinitli melanjda ikki turdag'i gabbroning o‘lchamlari bir necha o‘n santimetrdan 300 m gacha boradigan tanalari va plastinalari uchraydi.

**Qo‘shrabot gabbro-sienit-granosienitli kompleks ( $C_2$ , k.b)** shu nomdag'i intruziv massiv Shimoliy Nurota tizmasining janubiy yonbag‘rida joylashgan bo‘lib, 190 km. maydonni egallaydi. Massiv subkenglik bo‘ylab cho‘zilgan. Yondosh jinslar quyi silkning jozbuluoq, qoratosh va navkat svitalari hamda kalsari, jivachisoy va badamchali, nakrut svitalari hosilalari sanaladi.

Birinchi faza gabbro-sienitli subkompleksida gabbro-sienitlar, esseksitlar, monsonitlar, sienit-monsonitlar, ikkinchi fazaning porfir-simon sienitlari, plagiotsienitlari, kvarsli sienitlariga ajratiladi. Subkompleksning hosilalari biotit-amfibolli va kvarsli sien-dioritlarning daykalari shakllanishi bilan yakunlanadi.

**Granosienitli subkompleks** tarkibida birinchi fazaning biotit-amfibolli granosienitlarning yirik qo‘shimchalari va ikkinchi fazaning



79-rasm. Qo'shrabot intruziyasining geologik xaritasi

mayda qo'shimchali biotit amfibolli granosienitlari qayd etiladi va uni pegmatoidli amfibol biotitli granitlar, melanokratli sienit-porfirlar, esseksit-porfirlar daykalari yakunlaydi.

*Granitoidli subkompleksda* birinchi fazaning porfirli amfibol-biotitli granitlari, ikkinchi fazaning porfirsimon amfibol-biotitli granitlari qayd etiladi. Tomirli hosilalar aplitlar, granitlar, pegmatitlar, kvarsli sienodioritlarning daykalaridan iborat.

Petrokimyoviy xususiyati yuqori kaliyli ishqorliligi, yuqori temirliligi, past magnezialligi hisoblanaladi. Ularda litiy, rubidiy, bariy, stonsiy, ftor, qo'rg'oshin konsentratsiyasi yuqori, xrom va nikelniki juda past. Massivning mutlaq yoshi  $306 \pm 4$  mln. yil (rubidiy-stonsiy usuli).

***Osmonsoy o'rta karbon subvulkanik kompleksi ( $\omega\beta$  C<sub>2</sub>as).*** Bu kompleks hosilalari faqat shavaz svitasi tarkibida Yomchisoy, Osmonsoy va Chag'oloq soylarida rivojlangan. Ular pikritlardan, plagioklazli va avgitli diabazlardan iborat.

Pikritlar diametri 20–30 m shtoksimon, quvursimon tanalarni va qalinligi 5–6 m, uzunligi 150–250 m daykalarni hosil qiladi. 9 ta pikrit tanalari mavjud bo'lib, ulardan eng yiriga Yomchisoy havzasida kuzatiladi.

Pikritlarning mutlaq yoshi  $299 \pm 10$  mln.yil.

***Kattaich o'rta-kechki karbon gabbro-granodioritli kompleks (C<sub>2-3</sub> kt)*** – shu nom bilan Shimoliy Nurota tizmasida ko'p fazali

intruziya: Temirqobiq massivi, Madavat intruzivi, Uxum shtogi va Uxum, daykali poyasi Mojirum va Sintob soylaridan daykali qambar ajratiladi.

Kompleks tarkibida 4 faza va daykali jinslar mavjud.

1-faza. Gabbro, gabbro-sienitlar, monsonito-dioritlar ( $v_1$   $S_{2-3}$  kt).

2-faza. Kvarsli sienit-dioritlar, sienit-dioritlar ( $\xi\delta_2$   $C_{2-3}$  kt). 3-faza. Sienit-granodioritlar ( $\xi\delta_3$   $C_{2-3}$  kt). 4-faza. Granitlar ( $\gamma_4$   $C_{2-3}$  kt).

Daykalar: I. Ikki slyudali granitlar, aplit-granitlar, adamellitlar ( $\gamma^1$   $C_{2-3}$  kt). 2. Dioritli porfiritlar, lamprofirlar, kvarsli monsonit-porfirlardan ( $\gamma\pi^2$   $C_{2-3}$  kt) iborat.

**Shuroq kechki karbon-erta perm granitoidlar kompleksi ( $S_3$ - $P_1$  š)** – bu kompleks granitoidlari Shimoliy va Janubiy Nurota tog‘larida keng tarqalgan. Unga Temirqobiq intruzivining katta qismi (170kv. km), Ustuk (120 kv. km.), Sintob (25 kv. km), Oqchob (23 kv. km), Qo‘ytosh (47 kv. km), Oqtov (190 kv. km), Yangaqliq (20 kv. km), Xolbosh va Sartoqchi intruziv massivlari kiradi.

Shuroq kompleksi uchta subkompleksdan tarkib topgan: darasoy, xususiy shuroq va gatcha.

**Darasoy kechki karbon gney-granitoidli subkompleks ( $gq\delta$   $C_3dr$ )** – subkompleks jinslari Oqtov intruzivida keng tarqalgan bo‘lib, granitoidli gneyslardan iborat chekka zonalarida joylashgan. Ularda metamorfizm va migmatizatsiya jarayonlari bosh ahamiyatga ega.

Oqtov massivida mayda donali kristalli slanetslar va granitoid tarkibli gneyslar keng tarqalgan, massivning chekka zonalarida kengligi 150 m gacha, uzunligi 1,0 km gacha boradigan tasmasimon tanalarni hosil qiladi. Subkompleks bilan bog‘liq tomirli hosilalar aplitlardan, granit-aplitlardan tarkib topgan. Temirqobiq va Ustuk intruzivlarida darasoy subkompleksiga kvarsli dioritlar va biotitlt granodioritlar kiritilgan.

**Shuroqsoy kechki karbon-erta perm adamellit-granodioritli subkompleks ( $\gamma\delta$ - $\gamma$   $C_3$ - $P_1$  š)** – subkompleks granitoidlari majmuasi quyidagi ketma-ketlikda hosil bo‘lgan:

1. Yirik va dag‘al donali biotitlar va amfibol-biotitli granitlar, adamellitlar, granodioritlar. Bu ta’riflanayotgan jinslar kattaich kompleksi granitlarining to‘rtinchi fazasini yorib chiqqan.

2. O‘rta va yirik donali. Ko‘pincha, porfirsimon granitlar, adamellitlar, granodioritlar, kamroq tonalitli biotitli va amfibol-biotitli turlaridan iborat. Ular Nurota tog‘larida eng keng tarqalgan magmatik jinslar hisoblanadi.

3. Mayda donali granitlar-adamellitlar, adamellitlar, amfibol-biotitli granodioritlar.

Subkompleksning tomirli hosilalari quyidagilardan tarkib topgan: 1) aplitlar, granit-aplitlar, granitlar, pegmatitlar va pegmatit-aplitlar; 2) albitlashgan mikrogranitlar; 3) melanokratli dioritli porfiritlar; 4) dioritli porfiritlar, kvarsli dioritli porfiritlar; 5) kvarsli monsonit-porfirlar; 6) granodiorit-porfirlar; 7) adamellit-porfirlar; 8) spessartitlar.

*Gatcha ikki slyudali va leykokratli granitlarning erta perm subkompleksi ( $\gamma P_1$  g).* Subkompleks jinslari Temirqobiq intruzivining g‘arbiy qismida eng keng tarqalgan, shu bilan bir qatorda Ustuk va Oqtov massivlarida ham rivojlangan bo‘lib, shuroq subkompleksi bilan makoniy aloqaga ega. Ular o‘rta va mayda donali, ba’zan porfirsimon biotitli granitlar va ikki slyudali granitlardan tarkib topgan.

Dayka hosilalari aplit-pegmatitlardan, aplitalardan ( $\alpha P_1$  g) va pegmatitlardan iborat ( $\rho P_1$  g).

Mutlaq yoshi 250–280 mln. yil.

***Qoratov leykogranitli kompleks ( $P_1k$ )*** Nurota hududida ajratilgan. Bu kompleks Janubiy Nurota tizmasidagi shu nomdagi Qoratov intruzivini tashkil etadi.

Massivga bevosita yondoshgan qalinlig 200 m ga boruvchi rogoviklar andaluzit-muskovit-biotitli va kordierit-muskovit-biotit-kvarsli tarkibga ega bo‘lib, kontaktdan uzoqlashgan sari tugunli kvars-slyudali slanetslarga o‘tadi. Yoshi radiologik ma’lumotlar bo‘yicha 272 mln. yil.

**Shimoliy Nurota daykalar kompleksi (R sn).** Kompleks Shimoliy Nurota tizmasida ajratilgan va o'rganilgan. Uning tarkibida shimali-sharqiy yo'nalishdagi daykalar shaklida dioritli porfiritlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlar, lamprofirlar uchraydi. Kompleks yoshi oldingi kompleks daykalari orasidagi o'zaro munosabatlar va geologik tutgan o'rni bo'yicha belgilangan.

**Janubiy Tyanshan trias ishqorli-bazalt oid kompleksi ( $\tau\beta$  T jut).** Bu kompleksga Nurota tog'laridagi eng yosh dayka hosilalari va portlash trubkalari kiritilgan. Ular, odatda, Shimoliy Nurota tizmasining shimoliy yonbag'irlarida rivojlangan. Keyingi yillarda Janubiy Nurotada ham shu kompleksning dayka hosilalari va portlash trubkalari topilgan. Ularga daykalarning ikki guruhi mansub.

### Tayanch tushuncha va iboralar

Sinforma, gersenidlar, alpidlar, massiv, burmali qambar, burmali viloyat, burmali tizim, svita, magmatik kompleks, subvulkanik kompleks, intruziya, shtok, dayka, portlash trubkalari, vulkanizm, plutonizm, metamorfizm.

### Nazorat savollari

1. Turkiston-Oloy burmali tizimi qachon shakllangan?
2. Zarafshon-Hisor burmali tizimi qaysi burmali viloyatga mansub?
3. O'zbekistonning qaysi mintaqalarida intruziv magmatizm keng rivojlangan?
4. Shuroq kechki karbon-erta perm granitoidlar kompleksi qanday subkomplekslardan iborat?
5. Kattaich kompleksi qanday jinslardan tarkib topgan?
6. Markaziy Qizilqumda karbon yotqiziqlari qaysi tog'larda rivojlangan?
7. Shimoliy Nurotada silur yotqiziqlari qanday svitalarga bo'lingan?
8. Zarafshon-Hisor burmali tizimida qanday intruziv massivlar mavjud?
9. Sintob intruziyasining yer yuzida ochilgan maydoni qancha joyni egallaydi?

## **17-bob. O'ZBEKISTONNING MEZOZOY VA KAYNOZOYDAGI GEOLOGIK RIVOJLANISH TARIXI**

Mezozoyning boshlariga kelib yakuniy magmatizm va gersin strukturlari umumiyligi kolliziysi jarayonida konsolidatsiyalangan kontinental po'stning shakllanishi yakunlanadi. Uning tarkibida turli yoshdagi Turkiston, Zarafshon, Hisor okean havzalarining murakkab rivojlanish jarayonlari o'z aksini topgan. Ularning yopilishini ko'pchilik tadtiqotchilar O'zbekiston konsolidatsiyalangan po'stining geterogenligi va turli yoshdaligi bilan bog'laydi.

O'zbekistonni tektonik rayonlashtirishda mezozoy va kaynozoyda strukturalarning ikkita asosiy toifasi – Turon platformasi va Tyanshan postplatformali orogeniga ajratiladi. Ularning tuzilishida tektonik rivojlanishning bosh epoxalariga mos keluvchi ikkita bosh struktura qavati ajratiladi:

**Mezozoy-paleogen struktura qavati** yura va erta bo'rda orogen kontinental strukturalarning kechki bo'r va paleogenda mustaqil tektonik epoxalarini tashkil etuvchi tekislik hosil qiluvchi (platformali) pog'onali ritmik almashinishi bilan xarakterlanadi.

**Kechki kaynozoy struktura qavati** mezozoy-paleogenda rivojlangan orogenezning yangi epoxasi boshlangan. Strukturalarning lateral qatori sharqda Tyanshan epiplatformali orogeni va g'arbda Turon neoplatformasidan iborat.

Turon platformasi mezozoyda va paleogenda o'zining rivojlanishi davomida Tyanshanning deyterorogen strukturalarini yutgan va paleogenning oxiriga kelib butun O'zbekiston hududini qamrab olgan. Kechki kaynozoyda orogen strukturalar Turon platformasining chegara uchastkalarini o'zlashtirib, o'z maydonini kengaytirib borgan. Shuning uchun ham platforma va orogen orasidagi chegaralar o'z-

garuvchan bo'lgan. Mezozoy-paleogenda u sharqqa, kechki kayno-zoyda g'arbga qarab siljigan.

## Trias-yura epoxasi

Boshlang'ich bosqichlarda strukturalar rivojlanish qonuniyatları Tyanshanda ham, Turon plitasida ham cho'zinchoq grabensimon botiqliklar tizimi vujudga kelishi bilan ifodalangan. O'rta yuradan boshlab Turon plitasining strukturalari – Afg'on-Tojik, Amudaryo va Ustyurt sineklizalari shakllana boshlaydi. Kechki yuradagi yakun-lovchi bosqichlarda eng to'liq kesmalar Amudaryo va Afg'on-Tojik havzalarida rivojlanadi.

Tyanshanning kechki trias-yuradagi rivojlanish bosqichi denu-datsiya jarayonlari bilan xarakterlangan. Trias-erta yurada Angren rayonlaridagi botiqlar vujudga kelgan.

O'rta yuraning ikkinchi yarmida strukturalarning kontrastligi pasayishi tufayli ko'l formatsiyalari to'planishi kuchayib borgan. Janubiy Tyanshan gumbazi hududida qambarning chekkasida alo-hida botiqliklar vujudga kelgan (Farg'onanining adir zonası).

Kelovey yotqiziqlari Farg'ona kotlovinasi va Sharqiy Orolbo'yi botiqligi muldasimon pastqamliklarida to'planadi. Ularning orasida yashil-chipor rangli ko'l formatsiyalari ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan.

Tyanshan gumbazli tepaligidan janubi-g'arbda Turon tekisligining keng cho'kish viloyati – Ustyurt platosi va Amudaryo botiqliklari joylashgan. U mezozoy va paleogenda Hisor tizmasi Janubi-g'arbiy etaklari va Afg'on-Tojik botiqligini o'z ichiga olgan.

Ko'tarilgan strukturalar Oqtumsuq tepaligi va Markaziy Ustyurt cho'ziq gumbazi sanaladi. Yura kesmalarining tuzilishi o'zgaruvchan. Ularning asosini boksitli tanaffus formatsiya va ular bilan birga qalinligi katta bo'limgan ko'mirli, qum-gilli yotqiziqlar tashkil etadi. Hisor tizmasining janubi-g'arbiy etaklarida ham shunday tuzilish kuzatiladi.

Kechki bayosda Markaziy Ustyurt cho'zinchoq gumbazidan janubidagi va Janubiy Tyanshanning keng hududlarni qamrab olgan yirik dengiz transgressiyasi amalga oshadi. Yotqiziqlar kesmasi ohaktoshlar va ko'mir qatlamchalar va linzalariga ega almashib yotuvchi karbonatli va nokarbonatli qumtoshlar, alevrolitlar, gillar (argillitlar) pachkalaridan iborat.

Bat-erta kellovey trias-yura tektonik rivojlanish tarixida muhim bosqich sanaladi. O'rta kellovey-oksfordda g'arbiy blok ancha sust differensiallangan botishni o'z boshidan kechirgan va uning markaziy qismidagi merosiylar boqliklarda uzoqlashgan pelit formatsiyasi to'plangan. Cho'kish miqyosi 250–300 m dan oshmagan. Sharqiy blok, aksincha, kuchliroq bota boshlagan. Umumiyligi zonallik sohilbo'yini formatsiyalar kompleksi – shlir, oolit-chig'anoqli karbonatli, rifogen, laguna sulfat-dolomitli yotqiziqlarning yaxlit chekka halqasini hosil qilishida o'z ifodasini topgan. Kesmalarning umumiyligi qalinligi 500–700 m ga boradi.

Kimerij-erta titon yotqiziqlar iqlimning keskin aridlashish sharoitlarida shakllangan. Bu vaqtida O'zbekistonning g'arbidagi ak-kumulyativ hududlarning katta qismi sedimentatsiya arenasidan chiqarilgan. Aksincha, janubiy mintaqalarida tuzli evaporit formatsiyalarining murakkab kompleksidan iborat cho'kindilar to'plangan juda faol cho'kish davom etgan (1200 m gacha).

Bir hadli bo'limgan ichki tuzilishli Ustyurt rivojlanishida ko'plab xususiyatlarga ega bo'lgan makrostrukturani tashkil etgan. Birinchi navbatda, bu akkulatsiyaning vaqt davomida susaygan tezligi, baland joylarning yanada ko'tarilishga jalb etilishi, formatsiyalar tarkibi, yura va bo'r orasida mintaqaviy tanaffusning mavjudligi, Ustyurt va Amudaryo bloklaridagi erta va o'rta yura orasidagi farq juda kam bo'lganligini, kechki yurada ular formatsiyalar tarkibi bo'yicha, ayniqsa, kontrastlashib ketganligi – g'arbiya, asosan, terrogen-gilli va janubda, Amudaryo blogida karbonat-galogenli ekanligini e'tirof etish juda muhim. Ular orasidagi chegara shimolda

Sultansanjar va Taxtadan boshlab janubda to Markaziy Qoraqum gumbazigacha cho‘zilgan qambar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Kechki yurada yer po‘stining cho‘kishi O‘zbekiston janubidagi keng hududlarni qamrab olgan. Bunda cho‘kayotgan yirik mintaqasi ajratiladi. Birinchisi – Zeagli-Darboza tepaligidan sharqqa qarab Qoraqumning janubiy-sharqidagi keng maydonlarni egallaydi. Uning shimoliy chegarasi Buxoro tektonik pog‘onasigacha cho‘zilgan va bevosita Quljuqtov va Zirabuloq-Ziyovutdin tog‘larigacha boradi. Hisor tizmasining Janubi-g‘arbiy etaklari tizimi uni ikkinchisidan ajratib turgan. Ikkinci botiqlik shimolda Hisorning janubiy yonbag‘ri strukturalari bilan chegaralangan.

Kechki yura oksford-titon vaqtiga turg‘un tektonik rejimga ega bo‘lgan. Tetis dengizi bilan aloqaning uzilishi kesmada formatsiya oralig‘i tanaffuslari va yuvilishlari rivojlanishi oraliqlarining yaqinlashuvi, yuqori oksford-quyi kimerij yotqiziqlari yuzasida dinovazvrlar izlarining uchrashi bilan dalillanadi. O‘rta kimerij-titonda karbonatli sedimentatsiya evaporitli turi bilan almashgan. Kechki yura havzasi, birinchi navbatda, uning chuqur suvli bo‘lgan markaziy qismi ko‘tarilgan, ya‘ni yuraning oxiriga kelib uning yuzasi quruqlik yuzasi bilan qo‘silib, taqirli tekisliklar – quruq rapa ko‘liga aylanib ketgan.

## **Bo‘r epoxasi**

Bo‘r epoxasi tarixiy-geologik va tektonik ma’noda butunlay mustaqil bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududlarining barcha joylarda yura va bo‘r orasidagi chegara cho‘kindi to‘planishda tanaffus bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Farg‘ona, Turkiston-Oloy, Qizilqum, Mang‘ishloq va boshqa rayonlarda u stratigrafik va hatto burchakli nomuvofiqlik bilan ifodalangan. Bu maydonlarda nurash po‘sti rivojlanadi. Bo‘roldi tanaffusining keng maydonlarda kuzatilishi va u bilan sinxron bo‘lgan dag‘al bo‘lakli yotqiziqlarning yo‘qligi faqat relyefning maksimal tekislanganligidan dalolat beradi.

Erta bo‘r tog‘ hosil bo‘lish vaqtি sanaladi. Uni erta-o‘rta yurada kechgan tog‘ hosil bo‘lish bosqichi bilan O‘rta Osiyoning janubida va g‘arbida botish qambarining tutgan o‘rnи yaqinlashtiradi.

Kechki bo‘r, ayniqsa, uning oxirgi qismi tekislik hosil qiluvchi sanaladi va umumiyliz zonallik xususiyatlari kechki yuradagiga o‘xshash bo‘lgan. Keyingisi Ustyurt bloki cho‘kishida sezilarli orqada qolishida hamda Amudaryo va Afg‘on-Tojik botiqliklarining tezlashgan botishida o‘z ifodasini topgan. Tyanshan hududlarida sedimentatsiya gumbazlarning chekka qismlari hisobiga yirik maydonlarni egallagan.

Tyanshan tepaliklari strukturaviy planining erta bo‘rdagi qayta qurilishi uning sharqiy qismida, ayniqsa, yaqqol ifodalangan. Janubiy Tyanshanning Sharqiy sektori cho‘ziq palaxsali tepalik bo‘lib, Farg‘ona, Afg‘on-Tojik va Ortoloy botiqliklariga qarab keskin uzilgan. Aynan shu joylarda relyefning balandligi maksimal bo‘lib, u tog‘ etaklari molassalarining shimoliy va janubiy qambarlari shakllanishida o‘z ifodasini topgan.

Shunday qilib, Tyanshanning bo‘r davridagi rivojlanishining bosh xususiyati gumbazli tepaliklar maydonlarining qisqarish jarayonida Sirdaryo, Farg‘ona va Ortoloy botiqlarida akkumulatsiya maydonlarining kengayishi hisoblanadi. Bo‘rning oxiriga kelib ularning o‘lchamlari keskin qisqarib ketgan va ular orol tepaliklarini tashkil etgan. Markaziy Qizilqum deyarli to‘liq qoplangan.

O‘rta Osiyoning janubida va g‘arbida Turon platformasining yaxlit cho‘kindi qoplamasini hosil qilgan keng cho‘kish viloyati boshqacha tuzilishga ega bo‘lgan.

Maydon cho‘kishining dastlabki belgilari barriyas-valanjinda sezilgan bo‘lib, bunda Ustyurt tekisliklari, Afg‘on-Tojik botiqliklari va Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy etaklari sharqda Qoraqum va g‘arbda Ustyurtgacha keng maydonlarni egallagan. Keyinchalik, ular Janubiy Emba va Kaspiybo‘yining shunday yotqiziqlari maydonlari bilan qo‘silib ketgan.

Ustyurda hududlarining katta qismida yotqiziqlar karbonatlar va kulrang gillar hamda qumtoshlar va alevrolitlar qatlamchalaridan iborat. Eng chekka shimoli-g'arbda mergellar va ohaktoshlar qatlamchalari ham uchraydi. Formatsion tomondan ularni dengiz sayozsuqli karbonatli va pelitli formatsiyalariga (botiqlikning markaziy qismida) va merosiy tepaliklar gumbazida hamda sharqiylar chegaralar bo'ylab sohilbo'yi-laguna va shlir formatsiyalariga kiritish lozim.

Bo'r rivojlanish bosqichini senon formatsion qatori yakunlaydi. Ustyurt-Qoraqum blogida u uzoqlik karbonat-mergedelli formatsiyadan iborat bo'lib, g'arbda yozuv bo'ri formatsiyasi bilan birga uchraydi. Sohilbo'yi oolit-karbonatli formatsiyalar janubiy viloyatda – Mar-kaziy Qizilqumda tarqalgan. Murg'ob-Tojik botiqligining uzoqlik formatsiyalar bilan to'ldirilishi davom etgan. Ular chekkalarida sohilbo'yi kompleksi bilan almashgan (sophilbo'yi karbonatli, laguna gips-dolomitli va ular bilan tutashgan formatsiyalar).

Quyi bo'r bosqichida Shimoliy Ustyurt botiqligi Borsa kelmas botiqligidan Oqtumshuq do'ngligi orqali ajralgan Sam va Ko'kbuloq botiqliklarini egallagan. Yotqiziqlar qalinligi 900 dan 1300 m gacha o'zgaradi. Kechki bo'rda strukturaning konfiguratsiyasi saqlanib qoladi, ammo uning kontrastlik darajasi pasayadi. Maksimal qalinligi 600–700 m gacha.

Neokom uchun iqlimning yo'nalgan evolutsiyasi xarakterli bo'l-gan. Iqlimiylar zonallik ikki xil landshaftning qo'shilishi bilan ifodalangan. Ulardan birinchisi qizil rangli molassalar to'planishini xarakterlaydi, ikkinchisi esa, havza (ko'l, laguna, sayoz suvli-dengiz) yotqiziqlaridan iborat.

Kechki bosqichdan boshlab barcha yirik hududlar dengiz sedimentatsiyasi sferasiga jalb etila boshlangan. Iqlimning asta-sekin namlanib borishi botiqliklarning, asosan, terrigen materiallar bilan to'ldirilishini ta'minlagan daryo tarmoqlarini vujudga keltirgan. Bu davrda kaolinli nurash po'stlari va karst boksitlarning rivojlanishi bejiz emas.

Kesmada chuqur suvli havzalarda katta qalinlikdagi gilli yot-qiziqlarning kechki apta-erta alb va o'rta senomana – o'rta turonda (charshangi, gozdagan va boshqa svitalar) ikki marta takrorlanishi evstatik transgressiyalarga mos keladi.

Kechki turondan boshlab kontinentdan keltirilayotgan terrigen materiallarning umumiy hajmi qisqarib boradi. Natijada, terrigen sedimentatsiya oreallari qisqaradi va u karbonat to'planish jarayonlari bilan almashadi. Kechki turonda karbonat to'planish mintaqaning g'arbiy qismini (Ustyurt, Qoraqum) egallagan, bunda kesma nisbatan chuqur suvli mergel-ohaktosh fatsiyalaridan iborat. Sharqroqda ularni gillar bilan almashib yotuvchi sayoz suvli detritusli ohaktoshlar almashadiradi. Senondagi pulsatsiyalanuvchi transgressiya konyakda, erta santonda, erta kompanda va kechki maastrixtda karbonat to'planish zonalarining kontinent ichiga qarab siljishiga olib kelgan. Iqlim sharoitlari ham turg'un bo'lмаган. Namgarchilik bosqichlari erta santon va kampanga, aridlanish – kechki santonga to'g'ri keldi. Natijada, normal sho'rlikdagi havzaning chekka qismlarida ru-distli ohaktoshlarning chipor rangli gilli pachkalar bilan murakkab almashinishi kuzatiladi.

Kechki turon, konyak va santonda Orol dengizi va Qizilqum-dan boshlab to Chotqol-Qurama tog'larigacha keng hududlar yassi akkumulativ tekisliklardan iborat bo'lgan va unda allyuvial-tekislik, delta va sohilbo'yи urinma to'lqinlar landshaftlari rivojlangan.

Kechki bo'rdan boshlab, Qizilqumning ichki tepaliklari ko'milishi mobaynida asosiy tashiluvchi material manbalari Markaziy Qozoq'iston va Shimoliy Tyanshan viloyatlarigacha siljigan. Bunda hozirgi vaqtda qoplama formatsiyalarga yuvib kirgan Sirdaryo va Toshkentbo'yи botiqqliklari dengiz havzalariga qarab oqqan yerozion daryo vodiylarining ko'p sonli fragmentlari topilgan.

Bo'r va paleogen chegarasida O'zbekistonning katta qismida tanaffus qayd etiladi. Eotsendagi keyingi transgressiya O'zbekiston hududlarini, shu vaqtgacha saqlanib qolgan tepaliklar reliktlarini

ham to‘liq qoplagan. Shu bilan mezozoy relyefi shakllanishining uzoq davom etgan bosqichi nihoyasiga yetgan.

## Paleogen epoxasi

Paleogen epoxasi tekisliklar hosil qiluvchi hisoblangan va Turon platformasi cho‘kindi qoplaması shakllanishini yakunlagan. Paleogen strukturaviy yarusining bosh xususiyati stratifikatsiyalangan gorizontalarning o‘zgarmasligi, kesmalar qalinligining katta emasligi, ularning tarkibida gilli va karbonatli yotqiziqlarning ustuvorligi, dag‘al bo‘lakli jinslarning batamom uchramasligi, cho‘kindi to‘planihida dengiz va laguna sharoitlarining hukmronligi sanaladi.

Sharqda, Toshkentbo‘yi rayonida, Nurota va Zirabuloq-Ziyovutdin tepaliklari chekkalarida, Farg‘ona botiqligida turli sayoz suvli, sohilbo‘yi va laguna yotqiziqlari rivojlangan. Ular kvarts qumlari, dolomitlar va sulfatlardan iborat bo‘lgan. Aksincha, eng g‘arbiya paleotsen-eotsen kesmasida chuqurroq suvli mergel-karbonatli formatsiyalar ustuvorlikka ega.

Farg‘ona va Afg‘on-Tojik botiqligini o‘z ichiga olgan sharqiy mintaqasi yuqori tektonik faollikka ega bo‘lgan. Bu formatsiyalar tarkibida, ichki tanaffuslar va yuvilishlarda, sayoz suvli va laguna sharoitlarining ustuvorligida o‘z aksini topgan. Ular g‘arbiy rayonlardan Chotqol-Qurama do‘ngligi chekkasi, Zarafshon va Turkiston cho‘ziq gumbazlarining periklinal qismlari va Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy etaklaridan strukturalarning submeridional zonasasi bilan ajralgan. Bu submeridional chuqur kirib boruvchi zona mintaqasi strukturaviy plani qayta qurilishi xususiyatlarini aks ettirgan holda turli sedimentatsiya havzalarini bir-biridan ajratib turgan. Bular bo‘yicha formatsiyaining tanaffuslari rivojlanadi, kesmalar qalinligi qisqaradi.

Eotsenning oxirida shakllangan asosiy strukturalarga Oloy-Turkiston-Zarafshon cho‘zinchoq gumbazli tepaligi bilan ajratilgan Afg‘on-Tojik, Oloy va Farg‘ona botiqliklari kiradi. Chotqol-Qurama

gumbazida yuvilish hududi bo‘lib faqat uning shimoli-sharqiy qismi sanalgan.

Sirdaryo botiqligining janubi-g‘arbida Qoraqota, Ergashquduq va boshqa mayda botiqliklar orqali Markaziy Qizilqum tepaliklari tizimi bilan tutashgan. G‘arbda ularni Tojikqazg‘on, Sharqi Orol botiqliklari almashtirgan.

Ustyurt mintaqasi Janubiy-Mang‘ishloq-Assakeudan botiqliklar tizimi va Mang‘ishloqni o‘z ichiga oluvchi Markaziy Ustyurt tepaligidan iborat. Shimoliy Ustyurtning botiqliklar tizimi Borsa kelmas va Sam botiqliklari va Oqtumsuq tepaligini o‘z ichiga oladi.

Havzalarning erta paleotsen rivojlanish bosqichi landshaftlarning ikkita – sayoz suvli, mergel-karbonatli va luguna dolomit-sulfatli turkumidan iborat. G‘arbiy hududlari (Ustyurt) suvi normal sho‘rlikdagi sayoz suvli dengiz landshafti rivojlanishi bilan xarakterlangan. Yotqiziqlarining tarkibida mayda detritusli ohaktoshlar, mergellar ustuvorlikka ega. Mahalliy tepaliklar (Mang‘ishloq va b.) maydonida ularni urinma to‘lqinli kvars qumlari almashtiradi.

Dengiz havzasi sharqroqda Orol do‘ngligi va Qizilqum tepaliklari tizimi hamda Sultonuvaysdan Kushkagacha cho‘zilgan orollar ning submeridional zanjiri bilan chegaralangan. Ular bilan bog‘liq sohilbo‘yi qum-gilli yotqiziqlari dengiz havzasi suvlarining chekka lagunalarga kirib kelishidan saqlagan. Ular tarqalgan viloyat Toshkentbo‘yi rayoni, Amudaryo va Farg‘ona botiqligini o‘z ichiga olgan.

Kontinentdan olib kelinayotgan minimal qattiq moddalar arid iqlim sharoitlarida sedimentatsion jarayonlarning mexanizmini belgilagan – g‘arbda biogen va sharqda xemogen cho‘kindilar to‘plangan.

Kechki paleotsenda, transgressiyaning keyingi rivojlanishi va dengiz akvatoriyasi sathining ko‘tarilishi tufayli havza rejimi normal sho‘rlikka o‘tadi, laguna fatsiyalari undan ancha uzoq zonalarga (Farg‘ona) siljiydi.

Sedimentatsiya xususiyatlari kontinentdan tashib keltirilayotgan qattiq materiallar miqdorining chegaralangan, havza tubining chuqurlashuvidan va havza tubining tektonik cho‘kishi cho‘kindi

mahsulotlar bilan yetarli darajada to‘lmanidan iborat. Bu landschaftlarning zonalligini belgilagan. Ularning zonalligi Shimoliy Tyanshanda qizil va chipor rangli allyuvial yotqiziqlardan iborat. Ularni sayoz suvli-dengiz va sohilbo‘yi sharoitlarda to‘plangan qumalevrit-gilli yotqiziqlar almashtirgan. Havza gidrodinamikasiga va akvatoriya bilan aloqasiga bog‘liq holda sulfat-gilli yoki kvars-qumli fatsiyalar ajralgan.

Yirik botiqliklar (Sirdaryo, Amudaryo, Afg‘on-Tojik) hududlari ning katta qismida cho‘kindi to‘planishi nisbatan chuqur suvli, odatda, stagnatsiyalanuvchi havza sharoitlarida amalga oshgan. Bu yerda cho‘kmaga o‘tgan gillar sapropel organikasi bilan boyigan; yonuvchi slanetslar aniqlangan. Fauna tarkibida planktonlar ustuvorlikka ega.

Neogen-to‘rtlamchi vaqt O‘zbekistonning geologik tarixida alohida o‘rinni egallaydi, uning paleogen platformasi o‘rnida rivojlanish davomida sharqda tog‘li o‘lka – Tyanshanning postplatforma orogeni shakllangan. Vertikal harakatlarning jamlama amplitudasi Farg‘ona, Afg‘on-Tojik va boshqa botiqliklarda va ularni ajratib turuvchi Turkiston, Oloy va Zarafshon tizmalari misolida 10–12 km dan kam emas. Shu bilan bir vaqtida, Turon tekisliklarida (plitasida) ularga miqyosi kam bo‘lgan vertikal harakatlar to‘g‘ri keladi. Ular bilan platforma qavati strukturalarining to‘la-to‘kis shakllanishi bog‘liq.

Platformali strukturalarning orogen strukturalariga o‘tishi bir necha bor takrorlangan, vaqt bo‘yicha uzoq cho‘zilgan va kechki kaynozoyda hududning rivojlanishida orogen tendensiyaning oshib borishi bilan belgilangan.

Postplatforma orogenezi epoxasi stratigrafik tanaffus yuzalari bilan ajratilgan, ko‘pincha, burmalanish bilan kechadigan rivojlanish bosqichlarining bir-birini qonuniy almashtirishidan iborat bo‘ladi. Turon platformasi va Tyanshanning postplatforma orogeni zamonaviy strukturalarining shakllanishi relyef hosil bo‘lishining ikkita bosh bosqichilaridan iborat.

## Neogen epoxasi

Neogen yotqiziqlari O'zbekistonda keng tarqalgan, bunda ular oligotsen bilan birga mustaqil strukturaviy qavatni tishkil etadi. Sharqda, Farg'ona, Toshkentbo'yi, Qashqadaryo va Surxondaryo botiqliklarida ular faqat kontinental, ko'pincha, katta qalinlikdagi dag'al bo'lakli yotqiziqlardan iborat. G'arbda, Buxoro-Qarshi viloyatida, Markaziy Qizilqumda va Janubiy Orolbo'yida ular dengiz, laguna va kontinental fatsiyalarning qum-gilli jinslaridan iborat materik qoplamasini tashkil etadi. Eng g'arbiy chetda (Ustyurt, Qoraqum) ularni dengiz va laguna hosilalari orasida karbonatlar va sulfatlar keng rivojlangan yotqiziqlarga almashadi. Oligotsen-quyi miotsen yotqiziqlari O'zbekistonda neotektonik rivojlanish bosqichining birinchi davrini xarakterlaydi, bunda ular transgressiv-regressiv seriyadan iborat. Ustyurt hududida uning tuzilishi erta oligotsenda nisbatan chuqur suvli va kechki oligotsen-erta miotsenda sayoz suvli dengiz havzasi sharoitlarini aks ettiradi. Sharqroqda, Toshkentbo'yi rayoni va Qashqadaryo botiqligigacha ularni ichki orollarga ega sayoz dengiz landshaftlari almashtirgan. Chotqol-Qurama, Turkiston va Zarafshon-Hisor tepaliklari tog'oldi yoyilmalari fatsial qambari bilan o'rالgan. Tyanshanning ichki botiqliklarida sedimentatsiya chegaralangan. Botiqliklarning markaziy qismi chiqaruv konuslari o'rab olgan ko'llarni tashkil etgan.

Oligotsen-erta miotsen Tyanshan postplatformali orogeni rivojlanishining birinchi bosqichi sanalgan. Ustyurt hududida u burmalanish va platforma strukturalari cho'kindi qoplamasi gum-bazining chuqur eroziyasi bilan yakunlangan. Orolbo'yining janubi-sharqida, Qizilqumda va Buxoro-Xiva viloyatida eng yangi bosqich strukturalari – kichik botiqliklar bilan ajratilgan Bukantov, Tomditov, Quljuqtov, Yangiqazg'on va boshqa orollar, cho'zinchoq tepaliklar shakllana boshlagan. Tyanshanning sharqida ichki botiqliklar ajralgan. Chotqol-Qurama, Turkiston, Oloy va Zarafshon tizmalarining ichki botiqliklarida maylisoy va shurisoy svitalari qizil rangli muqobillarining gilli tarkibi oligotsen-erta miotsendagi tepe-

liklar hali orogen strukturalarda o‘zining geomorfologik ifodasini topmaganini ko‘rsatadi.

O‘rta-kechki miotsenga relyefning ikkinchi rivojlanish bosqichi mos keladi. Ustyurda o‘rta sarmatning dengiz karbonat-gilli, ko‘pincha, sulfatli yotqiziqlarining transgressiv seriyasi shakllanadi. Sharqroqda ularni qizil rangli chuchuk suvli havzalar va sohilbo‘yi tekisliklari kontinental landshaftlari almashtiradi. Tyanshanning sharqida ichki botiqliklarda ularga tuzli va gipsli ko‘l fatsiyalari to‘g‘ri keladi.

O‘rta-kechki miotsenda kam qalinlikdagi karbonatli va gil-karbonatli dengiz fatsiyalar qoplamasasi bilan to‘ldirilgan Ustyurt, Buxoro-Xiva viloyati, Qizilqum va Sirdaryo botiqliklarida tipik platforma strukturalari rivojlanadi. Ularni sharqqa qarab kontinentini havzalarining qizil rangli, ko‘pincha, gilli formatsiyalari bilan to‘ldirilgan yassi botiqliklari almashtiradi. Tyanshan yaqinida ular Toshkentbo‘yi hududi va Qashqadaryo botiqligi bilan tutashgan. Sharqroqda ularni ichki Chotqol, Angren va boshqa botiqliklar almashtirgan. Farg‘ona va Afg‘on-Tojik botiqligi avtonom rivojlangan.

Pliotsen – O‘zbekistonning neotektonik rivojlanishida muhim chegara hisoblanadi. Bu davrda Ustyurt ko‘tarilgan. Shu bilan bir vaqtda, sharqdagi Tyanshanda nafaqat ichki botiqliklarga, balki, eng muhim, Qizilqum va Orolbo‘yi tekisliklaridga ham ulkan hajmdagi terrigen materiallarni yetkazib beruvchi baland tog‘lar tizimi vujudga kelgan.

Orogenezning bu diastrofizm fazasi Farg‘ona va Afg‘on-Tojik botiqliklarining chekka do‘ngliklarini hamda Chotqol-Qurama mintaqasida, Zarafshon tizmasidagi bir qator ichki botiqliklarni ham ketma-ket sedimentatsiya qoplamasidan chiqarilishiga olib kelgan. Aynan shu baktriy vaqtida hozirgi Tyanshanning postplatformali orogen strukturalari o‘zining aniq geomorfologik qiyofasiga ega bo‘lgan.

Bu davrda Tyanshan tog‘ qurilmalari relyefining asosiy xususiyatlari shakllangan. Shu davrda platforma qavatining burmali struk-

turalari shakllanishi nihoyasiga yetgan va bunda Buxoro tektonik pog'onasida Yangiqazg'on, Gazli, Kogon va Muborak do'ngliklari, Tuzkoy, Romitan va Yombosh botiqliklari aniq ajralgan.

Turon tekisliklarining ko'rib chiqilayotgan yotqiziqlari yagona akkumulativ yuzani qoplaydi va Ustyurt platosidan keyingi ikkinchi relyef yarusini tashkil etadi. Yotqiziqlar qalinligining o'zgarishi, Qizilqum va Buxoro-Xiva viloyatidagi ichki do'ngliklar yaqinida prolyuvial fatsiyalarning paydo bo'lishi relyefning past differensiatsiyasidan dalolat beradi.

Tyanshanda bu turkumlar muayyan strukturaviy o'rinni egallaydi. Baland ko'tarilgan tog' tizmalari o'rab turgan botiqliklarda ular qizil rangli hosilalarga nomuvofiq yotadi va keyingi yerozion-akkumulyativ yuzalarни hosil qiladii. Faqat Farg'ona, Toshkentbo'yi va Qashqadaryo botiqliklari markaziy qismlaridagina jinslarning muvofiq yotganligi kuzatiladi.

Erta va kechki pliotsenning chegarasida O'zbekiston tekisliklarda hozirgi relyefning asosiy elementlari shakllana boshlaydi. Ularning paydo bo'lishi hududlarning umumiy ko'tarilish va dengizko'l svitasi va uning muqobillaridan iborat materik qoplamlari akkumulyativ yuzalarining keyingi erozion parchalanishi bilan belgilangan.

Dengizko'l (zaunguz) yuzasining parchalanishi davomida yuzada yerozion va erozion-tektonik botishning murakkab tizimi – turli cho'zinchoq darasimon kotlovinalar va o'zanlar hosil bo'lgan. Ularning cho'kindi qoplamasи zair, sadivar va toshoxur svitalari va ularning stratigrafik muqobillaridan tashkil topgan. Kesmalar tuzilishi erozion-tektonik pastqamliklarning janubi-g'arb bo'ylab kirib borgan Kaspiyning oqchagi va apsheron transgressiyalari rivojlanishi haqida dalolat beradi. Orolbo'yi va Qizilqumda ko'l havzalarining quruqlik deltalari va tekisliklar allyuviyi bilan almashishi amalgao shadi. Ulardan sharqroqda chiqaruv konuslari tizimiga o'tadi. Prolyuvial shleyflar Qizilqum va Tyanshan etaklaridagi orollar tepaliklarini o'rab olgan. Shunday qilib, eopleystotsenning oxiriga kelib nisbatan kam qalinlikdagi, sust deformatsiyalangan Turon tekisliklari qoplamasи shakllanishi yakunlanadi.

## **Antropogen epoxasi**

O‘zbekiston to‘rtlamchi davrdan boshlab rivojlanishining yakunlovchi bosqichiga kirgan. Uning bosh xususiyati nafaqat Tyanshanning, balki tekisliklar huididining ham ko‘tarilishiga jalb etilishi sanaladi. Aynan shu davrdan, tom ma’noda, yangi geomorfologik relyef shakllanishi boshlanadi. Bu davrning muhim belgisi to‘rtlamchi yotqiziqlarning yotish xususiyatlari sanaladi. Har bir yoshroq seriya, odatda, erozion pastqamlıklarni to‘ldiradi va o‘zidan qari jinslarga nisbatan gipsometrik pastda yotadi. Normal stratigafik ketma-ketlik faqat cho‘kayotgan botiqliklarning markaziq qismida kuzatiladi. Turli yoshdagi supalar komplektlari mutlaq balandliklarining o‘zgarish chegaralari Tyanshanda (Sox 700–900 mdan 1500–2000 m gacha, Toshkent – 500–700 m dan ortiq emas va Mirzacho‘l – 400 m dan past) vertikal harakatlarning oraliq qiymatlari va tog‘ o‘sish tezligini ko‘rsatadi.



*80-rasm. O‘zbekistonning tog‘li hududlari*

Qizilqum, Orolbo‘yi va Buxoro-Qarshi viloyati tekisliklari relyefi tuzilishi o‘sha qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu yerda ajratiluvchi su-palar yuzalarining orasidagi farq birinchi yuz metrlardan oshmaydi. Ularning vujudga kelishi doimiy va davriy prolyuvial oqimlar faoliyati hamda deflyatsion kotlovinalarning shakllanishi bosqichi bilan bog‘liq.

To‘rtlamchi davr yotqiziqlari Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengizi bilan birga ulkan havzalar tuzilishi xususiyatlarini aks etti-radi. Ularni tashkil etuvchi landshaftlar Tyanshanning tog‘oralig‘i va tog‘oldi botiqliklari, Qizilqumning mayda solonchaklari va tekisliklari, Amudaryo va Sirdaryo vodiylari va Orol dengizi namunaviy kesmalari lateral qatoridan iborat.

O‘zbekistonning Eopleystotsen kechki oqchagil-apsheron landshaftlar rivojlanish bosqichini yakunlaydi. Barcha joylarda ularga ispisar svitasining prolyuvial va allyuvial yotqiziqlar va ularning



81-rasm. O‘zbekistonning tekislik hududlari

muqobilari hamda qadimiy toshqotgan lesslar va past suvayirgich-lardagi karbonatli nurash po'sti mos keladi. Qizilqumda va Orol-bo'yida apsheron ko'l havzalari, allyuvial-yoyılma va prolyuvial fatsiyalar transgressiv-regressiv siklidan iborat.

Quyi pleystotsen ostidagi yotqiziqlardan cho'kindi hosil bo'lishi-dagi tanaffus orqali ajralgan. Cho'kindi to'planishining bosh xusu-siyati iqlimning mintaqaviy namgarchiligi, landshaftlarning yuqori darajada suvgaga to'yinganligi va Tyanshanda kontrast relyefni shakllantirgan tektonik harakatlarning keskin faollashuvi hisoblanadi. Yotqiziqlar chiqaruv konuslari prolyuviyi hamda allyuvial va allyu-vial-ko'l tekisliklar, deltalar allyuviyi va cho'kindi havzasining material tashilishi oxiri to'plamlaridan iborat. Ular ikkita yirik – Amudaryo va Sirdaryo havzalari yotqiziqlari tarkibiga kiradi. Ularni bir-biridan ajratuvchi Qizilqumda mahalliy suv tarmoqlari mavjud bo'lgan.

O'rta pleystotsen, umuman olganda, erta pleystotsen landshaftlar zonalligi xususiyatlarini meros qilib olgan. Bu davrda asosiy tranzit Amudaryo va Sirdaryoning tutgan o'rni saqlanib qolgan; Zarafshon daryosi Quljuqtovning g'arbiy chekkalarigacha yetib borgan. Qizil-qumda *prolyuvial sheleyf* va ko'l kotlovinalari shakllanishi davom etgan. Ko'milgan daryo vodiylari fragmentlari aniqlangan. Orol-bo'yida ko'l yotqiziqlarining to'planishi yakunlangan.

O'rta pleystotsenning oxirida iqlim ancha quruqlashadi, bu bilan yotqiziqlar yuza qismining yuqori darajadagi karbonatlanishi bog'liq. Yuqori pleystotsenda gidrografik tarmoqlarning tubdan qayta qurilishi amalga oshadi, bunda Amudaryo Orol dengizi tomon burilgan. Bu tepaliklarning keskin faollashuvi bilan birga kechgan. Natijada, akkumulyatsiya maydoni qisqaradi, daryolar vodiylari bo'ylab bir vaqtida chiqaruv konuslari botiqliklar ichiga qarab siljiydi. Vodiy allyuviyllari tarkibida botqoqliklar (torfyaniqlar) va ko'l fat-siyalari, kashtan tuproqlari keng rivojlangan.

Iqlimning namgarchilik bo'lishi va Amudaryoning burilishi Orol-bo'yining janubi-g'arbida delta kompleksining shakllanishiga hamda

Orol va Sariqamish havzalarining umumiy sathining 75 m gacha ko‘tarilishiga olib kelgan.

Pleystotsenning oxiri, oldingi sikllardagidek, iqlimning aridlashishi kuzatiladi, bu Orol dengizining yirik regressiyasi, tuproq qoplamalarining karbonatlanishi bilan birga kechgan. Ularda paligorskit topilgan. Bu sathda eol qumlari gorizontlari ham joylashgan.

Golotsen, ko‘pchilik tadqiqotchilarining fikricha, iqlimning aridlanishiga, Qoraqum va Qizilqum tekisliklarining sahrolarga aylanishiga olib kelgan. Orol dengizining taqdiri shu bilan bog‘liqligi e’tiborga loyiq. Bu davrda uning sathi butunlay qurib qolish darajasiga qadar bir necha bor o‘zgargan. Dengiz sathining hozirgi vaqtdagi katastrofik pasayishi nafaqt inson faoliyati, balki tabiiy hodisa ham hisoblanadi.

### **Tayanch tushuncha va iboralar**

Struktura qavati, struktura yarusi, akkumulyatsiya maydoni, pasttekislik, botqoqlik va ko‘l fatsiyalari, landshaft, akkumulyativ yuza, prolyuvial sheleyf, chiqaruv konusi, tanaffus formatsiyasi, paleogeografiya, fatsiya, deyterorogen, epiplatforma, mintaqaviy geotektonika, sinekliza.

### **Nazorat savollari**

1. Pleystotsenning oxirida iqlim qaysi yo‘nalishda o‘zgargan?
2. Qanday iqlim arid iqlim deyiladi?
3. Eol qumlari deb qanday yotqiziqlarga aytildi?
4. O‘zbekistonda teskari stratigrafik ketma-ketlik qaysi davr yotqiziqlariga xos?
5. Kesmadagi teskari stratigrafik ketma-ketlikning sababi nimadan iborat?
6. O‘zbekistonda qaysi davrda gumid iqlim hukm surgan?
7. O‘zbekistonda plietsenda qanday hodisalar yuz bergen?
8. O‘zbekistonda magmatik jarayonlar qachon tugagan?
9. Tanaffus formatsiyasi qanday jinslardan iborat?
10. Yura davrida qanday foydali qazilmalar shakllangan?
11. Bo‘r davrida qanday foydali qazilmalar shakllangan?

## XULOSA

Mintaqaning geologik rivojlanishini qayta tiklashda asosiy huj-jat tog‘ jinslari va ulardagi organik qoldiqlar hisoblanadi. Bu materiallarda geologik o‘tmishda kechgan voqeа va hodisalar haqidagi ma’lumotlar to‘plangan. Laboratoriyalarda tog‘ jinslari namunalarini har tomonlama o‘rganish, hayvon va o‘simliklarning ko‘rinishini, ularning hayot tarzini va atrof-muhit bilan aloqalarini tiklash sodir bo‘lib, o‘tgan geologik hodisalar ketma-ketligini talqin qilish o‘tmishda yer yuzasida mavjud bo‘lgan tabiiy-geografik sharoitlarni qayta tiklash imkoniyatini beradi.

Tarixiy-geologik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni yechuvchi turli usullarga asoslanadi.

***Tog‘ jinslarining yoshini aniqlash.*** Yer po‘sti va geosferalarning rivojlanish tarixini faqat undagi qatlamlarning hosil bo‘lishidagi ketma-ketlikni va yoshini aniqlagandan keyin o‘rganish mumkin. Tog‘ jinslarining nisbiy yoshini aniqlashda paleontologiya – qirilib ketgan organizmlar haqidagi fan juda asqotadi. Magmatik va metamorfik jinslarning yoshi organik qoldiqlarga ega bo‘lgan cho‘kindi jinslar bilan o‘zaro aloqasidan foydalanib, magmatik, metamorfik va ba’zi cho‘kindi jinslarning mutlaq yoshi radiologik usullar yordamida aniqlanadi.

Tadqiqotlar jarayonida geologlar cho‘kindi jinslar qatlamlarini alohida qatlamlar, pachkalar, gorizontlarga ajratadi, ajratilgan stratonlarning nisbiy va mutlaq yoshini aniqlaydi, bir-biridan uzoqda joylashgan qatlamlar kesmalari taqqoslanadi. Bunday tadqiqotlar tog‘ jinslari orasidagi o‘zaro munosabatlar va ketma-ketligini o‘rganuvchi fan – *stratigrafiya* doirasida olib boriladi.

***Geologik o‘tmishda yer yuzasidagi tabiiy-geografik sharoitlarni tiklash.*** Tabiiy-geografik sharoitlar quruqlik va dengizlarning taq-

simlanishi, quruqlik yuzasi, okean va dengizlar tubi relyefining o‘ziga xos xususiyatlarini, dengiz havzalarining chuqurligi, sho‘rligi, harorati, zichligi, dinamikasi, iqlimi, biologik va geokimyoviy sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Bu vazifa tarixiy geologiyada eng qiyini hisoblanadi. O‘tmishdagi tabiiy-geografik sharoitlarni qayta tiklash XX asrda tarixiy geologiyadan mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan *paleogeografiyaning* o‘rganish obyekti hisoblanadi. Paleogeografik tadqiqotlarni cho‘kindi jinslarning moddiy tarkibi, strukturasi va teksturasini o‘rganmasdan turib o‘tkazib bo‘lmaydi.

**Vulkanizm, plutonizm va metamorfizm tarixini tiklash.** Bu tadqiqotlar asosida vulkanogen-cho‘kindi va metamorf jinslarning nisbiy va mutlaq yoshini, ularning dastlabki tabiatini aniqlash yotadi. Bundan keyin vulkanizm faolligi viloyatlari ajratiladi, vulkanizm va plutonizm kechish sharoitlari aniqlanadi va qayta tiklanadi, magma suyuqligining geokimyoviy xususiyatlari va ularning kelib chiqish ehtimollari belgilanadi.

**Tektonik harakatlar tarixini tiklash.** Tektonik harakatlarning turli yoshdagi va miqyosdagi izlari tog‘ jinslari qatlamlarining va tanalarining birlamchi gorizontal yotishining buzilishi yer yuzasining barcha joylarida kuzatiladi. Tektonik harakatlarning kechgan vaqt, xarakteri, amplitudasi, tezligi va yo‘nalganligi bilan *mintaqaviy geotektonika*, yer po‘stining alohida qismlarida va butun yerdagi turli strukturaviy elementlarning rivojlanish tarixi bilan esa *tarixiy geotektonika* shug‘ullanadi.

**Er po‘sti rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash.** Tarixiy geologiya Yer haqidagi fanlarsiz yechib bo‘lmaydigan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifani uddalashga, birinchi navbatda, mintaqaviy geologiya, mintaqaviy va tarixiy geotektonika, litologiya, petrologiya, geokimyo, kosmik geologiya, geofizika va boshqa fanlar yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Геология и полезные ископаемые Республики Узбекистан //Под ред. Т.Ш.Шаякубова, Т.Н.Далимова. – Т.: «Университет», 1998.
2. Арапов В.А. Вулканализм и тектоника Чаткало-Кураминского региона. – Т.: «Фан», 1983. 256 с.
3. Петрография Узбекистана. Т II. – Т.: «Фан», 1965.
4. Chiniqulov X., Jo'liyev A.X. Umumiy geologiya. Darslik. – Т.: «MRITI», 2011.
5. Историческая геология: учебник для студ. высш. учеб. заведений /Н.В.Короновский, В.Е.Хайн, Н.А.Ясаманов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2006.
6. Dolimov T.N., Troitskiy V.I. Evolutsion geologiya. – Т., 2007.
7. Xain V.E. Geologiya. – М., 1993.
8. Общая и историческая геология. Гаврилов В.П., Мильничук В.С., Никитина Р.Г., Шафранов А.П. – М., 1975.
9. Гаврилов В.П. Общая и историческая геология и геология СССР: Учеб. для вузов. – М.: «Недра», 1989.
10. Геология Средней Азии. Учебник. /Р.Н.Абдуллаев, Х.Д.Ишбаев, И.Н. Ганиев, А.Р.Кушаков, Х.Чиникулов. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2014.

### **Qo'shimcha:**

11. Верхняя юра и граница ее с меловой системой. – Новосибирск. 1979.
12. Вопросы стратиграфии верхней юры. – М., 1974.
13. Границы юры и мела. – М., 1990.
14. Палеогеография и биостратиграфия плиоценена и антропогена. – М., 1991.
15. Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. – М., 1991.
16. Палеогеография четвертичного периода. – М., 1965.

17. Проблемы изучения четвертичного периода. – М., 1972.
18. Стратиграфия и палеобиогеография антропогена. – М., 1982.

**Elektron manbalar:**

http://www.wikipedia.ru  
http://www.materialsworld.ru  
http://www.nordspeleo.ru  
http://www.oilbook-bagrad.hoter.ru  
http://www.satalogmineralov.ru  
http://www.Bugaga.ru  
http://www.saga.ua  
http://www.sandiegofotki.com  
http://www.babaev.net  
http://www.copypast.ru  
http://www.ekosistema.ru  
http://www.liveinfo.ucoz.com  
http://www.elf.ru  
http://www.pfotokmchatka.ru  
http://www.dreenpeace.ru  
http://www.copypast.ru  
http://www.fotogor.org  
http://www.svali.ru  
http://www.magikbaikal.ru  
http://www/turism.irnd.ru  
http://www.artphotoclub.com  
http://www.liveinternet.ru  
http://www.fototerra.ru  
http://www.inpath.ru  
http://www.fotoart.org.ua

# MUNDARIJA

KIRISH .....	3
--------------	---

## BIRINCHI QISM TARIXIY GEOLOGIYA

<b>1-bob. Tarixiy va mintaqaviy geologiya fanlarini o‘rganish tarixi .....</b>	6
<b>2-bob. Yer solnomasining o‘n jildi .....</b>	13
2.1. Immanuil Kant nimalar haqida yozgan edi? .....	15
2.2. Osmondan tushgan toshlar .....	17
<b>3-bob. Osmon jismlari .....</b>	19
3.1. Koinot va Galaktika .....	19
3.2. Quyosh tizimi va uning sayyoralar haqida umumiy ma’lumotlar.....	21
<b>4-bob. Yer va uning qobiqlari .....</b>	24
4.1. Yerning umumiylaysi .....	24
4.2. Yerning seysmotomografik modeli. Geosferalar .....	28
<b>5-bob. Yer po‘stining taraqqiyotini davriylash. Geoxronologiya .....</b>	37
5.1. Umumiy va mintaqaviy stratigrafik shkalalar .....	37
5.2. Tog‘ jinslarining nisbiy va mutlaq yoshini aniqlash usullari .....	42
<b>6-bob. Yer po‘stining taraqqiyot bosqichlari .....</b>	49
Atmosfera va gidrosfera evolutsiyasi.....	51
Biosfera evolutsiyasi.....	53
<b>7-bob. Arxey va erta proterozoy bosqichi .....</b>	56
<b>8-bob. O‘rta va kechki proterozoy bosqichi .....</b>	67
<b>9-bob. Erta paleozoy bosqichi .....</b>	82
<b>10-bob. Kechki paleozoy bosqichi .....</b>	92
<b>11-bob. Mezozoy erasi .....</b>	109
11.1. Gobi sahrosi va dinozavrular.....	115
<b>12-bob. Kaynozoy erasi .....</b>	128

## IKKINCHI QISM MINTAQAVIY GEOLOGIYA

<b>13-bob. O‘zbekiston hududlarini tektonik rayonlashtirishning asosiy xususiyatlari .....</b>	151
<b>14-bob. Tokembriy strukturalari .....</b>	155
14.1. Ustyurt massivi.....	155
14.2. Qoraqum-tojik massivi .....	156
<b>15-bob. Tyanshan burmali viloyati .....</b>	162
15.1. O‘rta Tyanshan.....	162
15.1.1. Tokembriy .....	162
15.1.2. Paleozoy .....	164
Qurama tog‘lari .....	169
Qurama mintaqasi (Qorjontov-Qurama).....	173
<b>16-bob. Janubiy Tyanshan .....</b>	181
16.1. Tokembriy .....	181
16.2. Paleozoy.....	184
16.3. Magmatik komplekslari.....	209
16.3.1. Zarafshon-Hisor mintaqasi .....	209
16.3.2. Nurota mintaqasi .....	212
<b>17-bob. O‘zbekistonning mezozoy va kaynozoydagi geologik rivojlanish tarixi .....</b>	217
Trias-yura epoxasi.....	218
Bo‘r epoxasi.....	220
Paleogen epoxasi .....	223
Neogen epoxasi .....	226
Antropogen epoxasi .....	229
<b>Xulosa .....</b>	234
<b>Foydalanimgan adabiyotlar .....</b>	236

*O'quv nashri*

**X.CHINIQULOV, B.F.MELIBOYEV**

**TARIXIY GEOLOGIYA  
VA REGIONAL GEOLOGIYA ASOSLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Muharrir *L. Igamova*

Badiiy muharrir *J. Gurova*

Texnik muharrir *D. Salixova*

Kompyuterda sahifalovchi *Y. Belyatskaya*

Original maket «Niso poligraf » nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2017-yil 8-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^1/_{16}$ .

Ofset qog'ozি. «Times New Roman» garniturasi. Kegli 12,5.  
Shartli bosma tabog'i 15,0. Nashr tabog'i 13,95. Adadi 98 nusxa.

Buyurtma №620.

«Niso Poligraf» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,  
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.